



## TAMADDUN NURI

Ilmiy, ijtimoiy-falsafiy,  
madaniy-ma'rifiy,  
adabiy-badiiy jurnal  
Ikki oyda bir marta chiqadi

### MUASSIS:

Qoraqalpog'iston Respublikasi  
Beruniy tumani hokimligi  
Hamkorlarimiz:  
O'ZRFA Qoraqalpog'iston bo'limi  
Xorazm Ma'mun akademiyasi

### JAMOATCHILIK KENGASHI:

Sirojiddin SAYYID  
Muhammad ALI  
Kengesboy KARIMOV  
Iqbol MIRZO  
Guliston MATYOQUBOVA  
Qurbon SHONIYOZOV  
O'rozboy ABDURAHMONOV  
Murotboy JUMANOV

### BOSH MUHARRIR:

Munavvara QURBONBOYEVA

### BO'LIM MUHARRIRI:

Anvar ALLAMBERGENOV

### Tahrir Hay'ati:

Akmal SAIDOV  
Nag'met AIMBETOV  
Qahramon QURONBOYEV  
Shorustam SHOMUSAROV  
Karimboy QURUMBAYEV  
Zarifboy DO'SIMOV  
Olmos ULVIY  
Vahob RAHMONOV  
Baxtiyor KARIMOV  
Alima BERDIMURODOVA  
Marat NIYOZIMBETOV  
Almagul BAYRIYEVA  
Yaxshibeka ABDULLAYEVA  
Masharib ABDULLAYEV  
O'ktam MAVLONOV  
Muhammadsharif XO'JANIYOZOV  
Qozoqboy YO'LDOSHEV  
Safo MATJONOV  
Mels QOBULOVA  
Userboy ALEUV  
Bozorboy ORAZALIYEV  
**Rassom:** Alibek ABDURAHMONOV

### Sahifalovchi-bezovchi:

G'iyosiddin O'NAROV

### Texnik muharrir:

Ulug'bek SAIDOV

**Ushbu son** "Tamaddun nuri" jurnali  
tahririyatining kompyuterida  
sahifalandi.

Jurnal OAK e'tirof etgan  
nashrlarning 07.00.00 "Tarix",  
09.00.00 "Falsafa", 10.00.00  
"Filologiya" ixtisosligi bo'yicha  
ro'yxatiga kiritilgan.

# MUNDARIJA

## JAMIYAT

<i>Rustam KURBANBAYEV.</i> Investitsiyaviy nizolarning sudlar orqali hal etilishi.....	2
<i>Sardor XODJAYEV.</i> Innovatsiyaning ssientiv mohiyati va jamiyatning ijtimoiy hayotiga ta'siri.....	41

## FALSAFA

<i>Gulnoza SULTANOVA.</i> Kognitiv tizim va intellekt dialektikasi.....	5
<i>Tamara XO'JANOVA.</i> Yoshlar bilan yakka tartibda g'oyaviy tarbiya ishlarini olib borish.....	7
<i>Bobomurod ABDULLAEV.</i> Milliy xavfsizlikni mustahkamlashda milliy gvardiyaning o'rni.....	11
<i>Shaxnoza AGZAMXODJAEVA.</i> Alisher Navoiy tasavvufiy ta'limotida komil inson konsepsiyasi.....	14
<i>Zulxumor NURULLAYEVA.</i> Sharqda maqom san'atining rivojlanish evolyutsiyasi.....	17
<i>Gularam MASHARIPOVA.</i> Abu Ali Ibn Sinoning ontologik ta'limotida neoplatonik unsurlar va axloqiy qarashlar.....	21
<i>Dilbar ORTIQOVA.</i> Allomalard merosida sog'lom turmush tarzi va unga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy omillar.....	25
<i>Nigora ZOKIROVA.</i> Globallashtiruv jarayonida "axborotlashgan jamiyat" va uning yoshlar milliy o'zligidan begonalashuvining omillari.....	28
<i>Behzod DEHQONOV.</i> Xojagon-naqshbandiya ta'limotidagi bag'rikenglik tushunchalarining irfoniy-falsafiy talqini.....	32
<i>Iroda ABDULLAYEVA.</i> Innovatsion bilim va malakali kadrlar tayyorlash omillari.....	35

## FILOLOGIYA

<i>Feruza ALLANAZAROVA.</i> Norelistik hikoyada yozuvchi ijodiy konsepsiyasi talqini.....	38
<i>Biybisanim YUSUPOVA.</i> Qoraqalpoq tilidagi somatik frazeologizmlarning fonostilistik xususiyatlari.....	44
<i>Guljahon DOSHANOVA.</i> Farida Afro'z ijodida uchlik lirik shakllar sifatida.....	48
Yosh avlodni xalqimizning mangu barhayot an'analar ruhida tarbiyalash burchimizdir!.....	51

## MANBASHUNOSLIK

<i>Javlonbek JOVLIYEV.</i> Maqsud Shayxzoda ijodida xalq og'zaki ijodining o'rni.....	56
---	----

## TARIX

<i>Shohruxmirzo ISMOILOV.</i> Qur'on oyatlari bilan zarb qilingan ilk xorazmshoh tangasi.....	60
<i>Sayyora ULFATILAYEVA.</i> Islomda ayollar huquqi.....	62
<i>Umida TAJIYEVA.</i> Xiva xonligida urbanizatsiya jarayonlarining ekologik masalalari.....	66
<i>Ravshan TURSUNOV.</i> XX asr boshida turkiston o'lkasida turli zararkunandalar bilan kurash masalalarining manbalarda aks etishi.....	68
<i>Gulmira ACHILOVA.</i> O'troq madaniyatning ko'chmanchilik an'alaridan ustunlikka erishishi: mo'g'ullarning movarounnahda o'troqlashuvi misolida.....	24
<i>Dilnoza JAMOLOVA.</i> Misrdagi taraqqiyparvarlik harakatlarining buxorodagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga ta'siri.....	27

## TILSHUNOSLIK

<i>Guljahon NAMOZOVA.</i> Tarjimada makon va zamon talqini.....	75
<i>Kamola YUSUPOVA.</i> Reklama matnida imperativlik ifodalanishining pragmatik masalalari.....	78
<i>Mehriyo TULASHEVA.</i> O'zbek va qoraqalpoq tillarida affiksatsiya orqali fe'l yasashining farqli xususiyatlari.....	81

## МЕДИЦИНА

<i>Мэлэ КАБУЛОВ. Базарбай ОРАЗАЛИЕВ. Гафур ОРАЗАЛИЕВ. Тимур КАБУЛОВ.</i> Иммунотерапия рака пищевода.....	84
--	----

## PEDAGOG MINBARI

<i>Umida ISMOILOVA.</i> Maktab amaliyotchi psixologi va pedagogik jamoaning o'smir yoshdagi o'quvchilar bilan ishlashi.....	88
---	----

### Manzilimiz: 20

Respublikasi, Beruniy tumani

"Xalqlar do'stligi" ko'chasi, 11-uy. e-mail: qurbonboyeva@inbox.ru

Tel.: (+99899) 504-84-84

Bosishga 25.11.2021-yilda ruxsat berildi.

Qog'oz bichimi 60x84 %. Nashriyot hisob tabog'i 6,5. Indeks – 960

Jurnal 2016-yil 28-sentyabrda O'zbekiston Respublikasi Matbuot va axborot agentligi tomonidan № 0843 raqami bilan qayta ro'yxatdan o'tgan.

Jurnaldan ko'chirib bosilganda "Tamaddun nuri" dan olindi deb izohlanishi shart. Matn hamda reklamalardagi ma'lumotlarning to'g'riligi uchun mualliflar mas'uldir.

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

"SILVER STAR PRINT" MChJ bosmaxonasida chop etildi. Buyurtma № 15.

Adadi 990 dona. Toshkent shahri, Uchtepa tumani, 22-mavze, 17-uy.

ISSN 2181-8258

## INVESTITSIYAVIY NIZOLARNING SUDLAR ORQALI HAL ETILISHI



**Rustam  
KURBANBAYEV,**  
*Beruniy tumanlararo  
iqtisodiy sudi raisi*

**M**uqaddam amalda bo'lgan qonunchilik talabiga ko'ra, investitsiyalar, shu jumladan, xorijiy investitsiyalar bilan bog'liq nizolar tumanlararo, tuman va shahar darajasidagi fuqarolik, iqtisodiy va ma'muriy sudlar tomonidan hal qilinadi.

Iqtisodiyotda investitsiyalarning o'rni muhim ahamiyatga ega. Shunga qaramay, investitsiyaviy nizolarni hal qilishda mamlakatimizda qulay muhit shakllanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan har xil yondashuv va san-salorliklarga yo'l qo'yish holatlari kuzatilgani ham hech kimga sir emas.

Davlatimiz rahbarining 2020-yil 24-iyulda qabul qilingan "Sudlar faoliyatini yanada takomillashtirish va odil sudlov samaradorligini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmonida fuqarolarning odil sudlovga bo'lgan huquqini amalda ta'minlash bilan bog'liq dolzarb muammolarga alohida e'tibor qaratilgani bejiz emas. Bu o'rinda, xususan, sudlarda investorlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini o'z vaqtida va samarali himoya qilish masalasi haqida so'z bormoqda.

Shu maqsadda 2021-yil 12-yanvarda "Sud qarorlarini qayta ko'rish instituti takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining Iqtisodiy protsessual kodeksiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonun qabul qilindi. Qonun bilan Iqtisodiy protsessual kodeksiga iqtisodiyot sohasida investorlar hamda davlat organlari o'rtasidagi investitsiyaviy shartnomalardan kelib chiqadigan nizolar bo'yicha va raqobatga oid ishlarni taalluqliligi va tegishliligiga oid normalar kiritildi. Jumladan, yirik investor va raqobatga oid ishlar bo'yicha taraflarning xohishiga ko'ra, ushbu toifadagi ishlar Oliy sudning investitsiyaviy nizolarni hamda raqobatga oid ishlarni ko'rish bo'yicha sudlov tarkibi tomonidan ko'rilishi, qolgan investitsiyaviy nizolar investorlarning xohishiga ko'ra, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar sudi tomonidan birinchi instansiya sudi sifatida ko'rilishi belgilandi. Shu bilan birga, Iqtisodiy protsessual kodeksiga yangi 30<sup>1</sup>-modda kiritildi. Unga ko'ra, investitsiyaviy nizolar bo'yicha ishlar jumlasiga investitsiya shartnomalarini tuzish, o'zgartirish va bekor qilish bilan bog'liq nizolar, investitsiya shartnomalarini haqiqiy emas, deb topish haqidagi nizolar, investitsiya shartnomasining bajarilishi bilan bog'liq nizolar, investitsiya shartnomasidan kelib chiqadigan soliq, bojxona, ijtimoiy, ekologik va boshqa majburiyatlarning investor tomonidan bajarilishi bilan bog'liq nizolar, investitsiya shartnomasi bo'yicha investorga berilgan mol-mulkni talab qilib olish yoki bunday shartnoma bo'yicha neustoyka undirish va (yoki) zararlar o'rini qoplash to'g'risidagi nizolar kiradi. Bundan tashqari ushbu kodeks yana 30<sup>2</sup>-modda bilan to'ldirildi. Mazkur yangi modda yuridik shaxslar, shu jumladan, chet el yuridik shaxslari, xo'jalik boshqaruvi organlari, yakka tartibdagi tadbirkorlar



hamda monopoliyaga qarshi organlar o'rtasida tovar va moliya bozorlarida raqobat sohasidagi munosabatlardan kelib chiqadigan nizolar raqobatga oid ishlar jumlasiga kirishi haqidagi normalardan iborat.

Prezidentimizning 2020-yil 29-dekabrda Oliy Majlisga yo'llagan Murojaatnomasi tarixiy ahamiyatga ega bo'lib, ayni sohadagi islohotlarni ham yanada chuqurlashtirishga xizmat qiladi. Murojaatnomada ta'kidlanganidek, bu boradagi muhim yangilik – investorlar huquqlarini munosib himoya qilish maqsadida Oliy sudda investitsiyaviy nizolar va raqobatga oid ishlarni ko'rish bo'yicha maxsus sudlov tarkibi tashkil etilganligi bo'ldi. Oliy sudda investitsiyaviy nizolar bo'yicha maxsus sudlov tarkibining tashkil etilishi, ushbu toifadagi ishlar bo'yicha alohida sudlovlilik qoi-

dalarining belgilanishi investorlarning nizolarni hal qilish uchun turli sud instansiyalari o'rtasida sarson bo'lishining oldini oladi. Ularning muammolari bita sudda hal qilinishini ta'minlaydi.

Xulosa qilib aytganda, ayni vaqtda sohada amalga oshirilayotgan shiddatli islohotlarning asl mohiyati investitsiyaviy muhitning jozibadorligini yanada oshirish, iqtisodiyotni rivojlantirish hamda shu orqali xalq farovonligiga erishishdir.

Investorlar, shu jumladan, chet el investorlarining huquq va qonuniy manfaatlarini sud orqali himoya qilish mexanizmining takomillashishi esa, investitsiyaviy nizolar tez va samarali hal qilinishiga, yagona sud amaliyoti ta'minlanishiga ko'maklashadi.

## MA'NOLAR MAHZANI

# “QUTADG‘U BILIG” HIKMATLARI



Bolaga otaning mehnati singgan bo'lsa, uning bolasi fe'l-xulqni jadal o'rganadi.

Ota farzandni tejab tarbiyalasa, uning fe'li-yo'rig'i yaxshi bo'ladi, ota va onasining yuzini yorug` qiladi. Agar nazorat qiluvchisi bo'lmasa, unday farzand yaramas va nobakor bo'ladi. Bunday farzanddan umidingni uzaver.

Ota farzandini bilimli va idrokli qilib tarbiyalamoqchi bo'lsa, uni doimo tergab tarbiyalash kerak, buning tadbiri mana shu.

O'z boshidan kechirib yoshi etishgan farzandli odam nima deydi, eshitgin:

Kimning o'g'li yoki qizi erka-arzanda bo'lsa, bundan u kishi mungli bo'lib yig'laydi. Ota farzandini kichikligidan nobakor qilib qo'ysa, farzandda gunoh yo'q, barcha ayb otaning o'zidadir. O'g'il-qizning fe'l-atvori yaramas bo'lsa, bu yaramaslikning aybdori faqat otaning o'zidir, boshqa kishi emas.

Ota farzandini o'rgatib, tergab tarbiyalasa, ular ulg'aygach, o'g'lim-qizim deb sevinsa arziydi. Ey ota bo'luvchi, o'g'il-qizni tergab tarbiyalagin, toki keyin senga kulguvchilar bo'lmasin.

O'g'il-qizga san'at-hunar va bilim o'rgatish kerak, toki bu fazilatlar tufayli ularning fe'l-atvorlari va yo'riqlari matlub bo'lsin.

**Yusuf Xos Hojib**

## KOGNITIV TIZIM VA INTELLEKT DIALEKTIKASI



**Gulnoza  
SULTANOVA,**  
Samarqand  
davlat universiteti,  
falsafa va miliy g'oya  
kafedrası dotsenti  
(PhD)



**Annotatsiya:** Ushbu maqolada epistemologiyada intellekt va kognitiv jarayon muammosi dialektik yondashuv asosida falsafiy tadqiq qilingan. Kognitiv tizim va intellekt dialektikasi gnoseologiyaning dolzarb muammolaridan biridir. Intellektning ijtimoiy mohiyati, kognitiv jarayonlarning shakllari va namoyon bo'lishi, kelib chiqishi, genezisi va ilmiy ahamiyati falsafiy epistemologik talqin qilingan.

**Kalit so'zlar:** intellekt, kognitiv jarayon, kognitivlik, bilish, adaptasiya, epistemologiya, xotira, diqqat, tafakkur.

**Аннотация:** В данной статье проблема интеллекта и когнитивного процесса в эпистемологии была философски изучена на основе диалектического подхода. Когнитивная система и интеллектуальная диалектика являются одной из актуальных проблем социологии. Интеллектуальная философско-эпистемологическая интерпретация социальной сущности, форм и проявлений познавательных процессов, происхождения, генезиса и научного значения.

**Ключевые слова:** интеллект, когнитивный процесс, познавательность, познание, адаптация, эпистемология, память, внимание, мышление.

**Annotation:** In this paper, the problem of intelligence and cognitive process in epistemology has been philosophically studied on the basis of a dialectical approach. Cognitive system and intellectual dialectics are one of the pressing problems of sociology. Intellectual philosophical epistemological interpretation of the social essence, forms and manifestations of cognitive processes, origin, Genesis and scientific significance.

**Key words:** intellect, cognitive process, cognitiveness, cognition, adoration, epistemology, memory, attention, contemplation.

**R**espublikamiz mustaqillikka erishgach intellektual jihatdan barkamol avlodni tarbiyalash maqsadi kun tartibiga qo'yildi. Shu bois mamlakatimizda yoshlarning intellektual kognitiv qobiliyatini yuksaltirish borasida muhim ahamiyatga ega bo'lgan strategik vazifalar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, yoshlar intellektual salohiyatini yuksaltirishning tashkiliy-huquqiy va ijtimoiy-ma'naviy shart-sharoitlarini yaratish, ularning har jihatdan kamol topishlarini ta'minlashga xizmat qiluvchi – "O'zbekiston yoshlari – 2025" konsepsiyasi [1] ni ishlab chiqishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Falsafa tarixida intellekt muammosi doimo olimlar va faylasuflarning diqqat-e'tiborida bo'lgan. Intellekt nafaqat falsafaning gnoseologik, epistemologik muammosi, balki antropologiya, psixologiya, pedagogika, kibernetika, informatika, fiziologiya kabi fanlarining ham tadqiqot doirasiga kirib bordi. Inson amaliy va aqliy faoliyati intellektga bog'liqdir. Intellekt murakkab ruhiy jrayon bo'lib, o'zida kognitiv (bilish, sezish, anglash) va konstruktiv (yaratish, bunyodkorlik) jarayonlarini mujassamlashtiradi.

Ko'p manbalarda intellekt va tafakkur tushunchalari aynanlashtiriladi. Intellekt – sezish, idrok etish, anglash, tushunish, farosat kabi ruhiyatning sifatlarini namoyon etadi. Intellekt bu atrof-muhitga moslashish, aqliy masalalarni yechish qobiliyatidir.

Intellekt (lotincha: intellectus – tushunish, bilish, aql) – bu insonning aqliy qobiliyatlari va ba'zi yuqori hayvonlarning aqliy qobiliyatlari, subyektning bilim uslubini belgilaydigan aqliy harakatlar, operatsiyalar va qobiliyatlarning nisbatan barqaror tizimidir [2. 281-283]. Bundan kelib chiqadiki, kognitivlik nafaqat insonga xos, balki ba'zi hayvonlarda, xususan primatlarda ham namoyon bo'larkan. Ko'p jihatdan faylasuflar intellektni ratsional tafakkur olamini deb ataydilar. Inson tomonidan yaratiladigan olamning manzaralari muayyan intellektga tegishlidir [3. 167].

Ba'zi tadqiqotchilar intellektni turli darajadagi insonning aqliy mehnat faoliyati, yoki o'z faoliyatini rasional boshqarish uchun olamdagi hatti-harakatni, yoki olamni boshqarish mexanizmini asoslash sifatida tushunadilar [4. 93].

Yosh bolalarda intellekt rivojlanishi bilan quyidagi sifatlar rivojlanadi:

- adaptasiya (moslashish) qobiliyati;
  - ta'lim olish va o'rganish qobiliyati;
  - mavhumlikni tushunish qobiliyati;
  - voqelikni boshqarish, maqsadlar qo'yish, maqsadga erishish strategiyalarini qurish va rejalashtirish.
- Intellektual – aqliy mehnat vakili bo'lib, yuqori rivojlangan intellekt va analitik tafakkurga ega kishidir. Albatta bu kognitiv jarayonlar orqali amalga oshadi.

Bilim – intellektning tarkibiy qismi bo'lib, bu obyektiv borliq haqidagi yoki muayyan (ilmiy, madaniy, marifiy, ma'naviy, harbiy va b) sohalarga oid ilmiy, amaliy ma'lumotlar, tushunchalar majmuidir. Demak, intellekt falsafiy kategoriya sifatida keng mazmunga ega.

Intellektning ayrim holatlari polimorfizmi uning ma'nolarining boshqa guruhini tashkil etadi. Bunda shubhalanish, tushkunlik, aybdorlik, shodlik, qo'zg'alish, e'tiqod, ishonch, qo'rqinch, istak kabi ruhiy holatlarda yaqqol namoyon bo'ladi. Bunga o'xshash holatlar ko'pincha aqldan tashqari, ongsiz yoki jismoniy omillardan vujudga keladigan ko'rinishlarida namoyon bo'ladi. Intellektning yo'naltirilganligi sifatlarining predmeti, maqsadi, mazmun-mohiyati, vositalari, shakllari, sharoitlari va boshqalarda ko'rsatiladi. Intellekt doimo hayotni anglashda ifodalanadi. Shu asnda intellektning "botinga" va "zohirga" yo'naltirilganligini farqlash zarur. Intellekt inson hayotining ham botiniy olamiga ham uning zohiriy olamiga yo'naltirilgan bo'lishi mumkin. Intellekt botiniy olamga yo'naltirilganligida o'z-o'zini kuzatish, o'z-o'zini anglash, o'zini tahlil qilish, o'zini his etish, o'zini baholash, o'zini boshqarish va hokazolarda qayd qilinadi.

Har bir odamning olamni bilishida o'ziga xos bo'lgan shart-sharoitlar natijasida biron-bir qobiliyat

shakllangan bo'ladi. Bunda bilish qobiliyati deb, shaxsning muayyan faoliyat yuzasidan layoqati va uning ish uddalay olishidagi subyektiv shart-sharoitlarini ifodalovchi individual ruhiy va jismoniy xususiyatlarga aytiladi.

Faylasuf va psixologlar o'tkazgan tadqiqotlari intellekt va kognitiv jarayon o'rtasida dialektik aloqadorlik, uzviy bog'lanish borligi haqida ma'lumotlar bor. Kognitiv jarayonlar inson intellektni kuchaytirishga qaratilgan mental fenomen ekan.

**\*Idrok kognitiv jarayon sifatida:** kognitiv idrok sezgilardan oladigan stimullar orqali atrofimizdagi dunyoni tashkil qilish va tushunish imkonini beradi. Barcha bu ma'lumotlar olinadi va bizning miyamiz yanga bilim yaratadi.

**\*Diqqat kognitiv jarayoni sifatida:** diqqat – bu bilish jarayoni bo'lib, undan ko'proq xabardor bo'lish uchun ma'lum bir rag'bat yoki faoliyatga nisbatan diqqatni jamlash imkonini tushuniladi. Diqqat eng muhim vazifadir, u biz uchun har doim zarur. Bundan tashqari, diqqat yordamida bilish jarayonlari tartibga solinadi. Idrok asosida esa (diqqat sezgilarga kelayotgan tashqi ta'sirlarga javob qaytaradi) ushbu jarayon o'rganiladi va murakkab mulohaza yuritiladi.

**\*Xotira kognitiv jarayon sifatida:** xotira – oldindan olingan axborotni kodlash, saqlash va qayta tiklash imkonini beruvchi kognitiv funksiyadir. Xotira ma'lumotni o'rganishdagi asosiy jarayon bo'lib, o'zligimizni ham shakllantiradi. Xotiraning ko'plab turlari va tasniflari, xususan, qisqa muddatli xotira, ma'lumotni vaqtincha boshda ushlab turish qobiliyati (masalan, telefon raqamini qog'ozga yozganga qadar eslab qolish) va uzoq muddatli xotira, ya'ni uzoq vaqt saqlaydigan bilim va xotiralarimiz mavjud. Uzoq muddatli xotira, o'z navbatida, nutq va ta'lim orqali olingan (masalan, Ispaniya fuqarolik urushi 1939-yilda tugagan, bilim) va shaxsiy hayot tajribasi orqali olingan bilimlarni (masalan, buvingizning qishloqda siz uchun pishirgan pishiriqlari, xotiralar) o'z ichiga olgan deklarativga bo'linadi; shuningdek, prosessual xotira – harakatlar uchun xotira (masalan, mashina haydash yoki velosipedda yurish). Shuningdek, audial (eshituv) xotirasi, kontekstual xotira, nomlar uchun xotira, tanib olish xotirasi mavjud.

**\*Tafakkur kognitiv jarayoni sifatida:** tafakkur (fikrlash) eng muhim bilish jarayonidir. Olingan barcha ma'lumotlarni birlashtirish va uni tashkil etuvchi ma'lumotlar o'rtasidagi munosabatlarni o'rnatish imkonini beradi. Buning uchun fikr yuritish, sintez qilish va muammoni hal qilish, ya'ni ijro etuvchi funksiyalardan foydalaniladi.

Tafakkur esa insonning bilish faoliyatidir. Psixologiyada tafakkur – diqqat, idrok, tushuncha va hukmlarni shakllanish kabi aqliy operatsiyalarning kombi-natsiyasi sifatida tushuniladi.

**\*Nutq kognitiv jarayoni sifatida:** nutq – his-tuyg'u va fikrlarimizni so'z bilan ifodalash qobiliyatidir.

Ushbu vosita yordamida biz o'zimiz va atrofimizdagi dunyo haqida ma'lumot olamiz, to'playmiz va uzatamiz. Nutq va fikrlash parallel ravishda rivojlanadi, bir-biri bilan chambarchas bog'liq va bir-biriga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Sh.Kushakov fikricha, nutq va kognitiv faoliyatda semantik transformasiya jarayoni kechib, ma'nolar birlashib yangi ma'no kelib chiqishini taqozo qilarkan[5.32].

**\* Ta'lim kognitiv jarayoni sifatida o'rganish:** mavjud bilimlarga yangi ma'lumotlarni qo'shish imkonini beruvchi jarayon. Ta'lim bilan, biz uning turli xil degani, ta'lim xulq-atvordan tortib (tish cho'tkasi yoki yurish-turish) biz maktabda va ijtimoiylashish paytida olgan barcha bilimlardir. Piaje va boshqa tadqiqotchilar kognitiv ta'limni axborot kognitiv tizimiga kiradigan va uni o'zgartiradigan jarayon sifatida belgilaydilar.

Kognitiv jarayonlar tabiiy va sun'iy, ongli yoki ongsiz bo'lishi mumkin, umuman olganda, ular juda tez va tez-tez sodir bo'lib turadigan jarayonlardir, lekin biz ulardan xabardor emasmiz. Misol uchun, biz ko'chada yurib, qizil svetoforni ko'rsak, bizda kognitiv jarayon boshlanadi, natijada (yo'lni kesib o'tish yoki kesib o'tmaslik qabilida) qaror qabul qilamiz.

*Kognitiv tizim va kognitiv struktur* – insonning xarakterini shakllantirish, tarbiyalash, o'qitish, kuza-tish va atrof-muhitda aks ettirish natijasida uning ongida rivojlangan bilish tizimidir[6]. Ushbu tizim asosida maqsadlar qo'yiladi va muayyan vaziyatda qanday hatti-harakatlar qilish, kognitiv dissonansdan qanday qochishga urinish haqidagi qarorlar qabul qilinadi. Bilim tizimining asosini tafakkur, ong, xotira va tilning o'zaro ta'siri tashkil etadi; bunday tizimning tashuvchisi esa inson miyasidir [6.180-197].

Kognitiv tizimi o'z ichiga quyidagi belgilovchi xususiyatlarni olishi mumkin:

namoyon bo'lish – til tizimi vositasida verbalizatsiya;

samaradorlik – amaliy muammolarni tez va samarali hal etish;

algoritmlik – ketma-ketlikka asoslanganlik;

o'zlashtirish – tizimni o'rganish natijasida o'zlashtirish;

adaptatsiya – moslashish. Demak, barcha kognitivlik tizimlar konstruktiv xarakterga ega ekan.

Voqelikning akkumulyatsiyasi deb muayyan madaniyat yoki etnik guruhga xos bo'lgan ma'lum belgi tizimlarida ifodalangan haqiqat haqida to'plangan bilimlar, muayyan tilda gapiradigan etnik guruhning aqliy va madaniy xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, butun insoniyat uchun xos bo'lgan dunyo haqidagi umuminsoniy g'oyalarni birlashtiradigan tushunchalarga aytiladi [7.26-29].

Shuni ta'kidlash kerakki, maqsad va qarorlarni shakllantirish nafaqat bilimning mazmuni va yangi olingan ma'lumotlarga, balki insonning jismoniy va

ruhiy holatiga va boshqa omillarga ham bog'liq. Xususan, bu yangi qabul qilingan axborotni taqdim etish shakliga ma'lum darajada bog'liq.

Sun'iy kognitiv tizimlar ham farqlanadi, ya'ni bilish funksiyasiga ega bo'lgan sun'iy intellekt belgilari-ga ega bo'lgan mashinalarga xos, biologik bo'lmagan tizimlar tushuniladi, bu esa o'z navbatida "hodisalarni o'z vaqtida bog'lash qobiliyati, hodisalarning interaktiv fazo-vaqt modelini qurish"dir.

**Kognitivlik va intellekt muammosining interpretatsiyasidan shunday xulosalar kelib chiqadi:**

**Birinchi**dan, ijtimoiy-tarixiy taraqqiyot shuni ko'rsatadiki, jamiyatda kishilar kognitiv faoliyati har doim intellektning shakllanishi va rivojlanishiga olib keladi. Ilmiy izlanishlar intellekt konstruktiv kognitiv faoliyat jarayoni va natijasi ekanligini isbotlab berdi.

**Ikkinchi**dan, intellekt va kognitiv jarayon insonning bilim olish, ularni qayta ishlash, xotirada saqlash hamda uzatish kishilarning boshqarilishi hamda qadriyatli maqsadlarini ro'yobga chiqarish, muloqot qilish va tajriba almashish hamda vorislikni ta'minlash maqsadida uni bir avloddan boshqasiga yetkazishning konstruktiv shakli sifatida namoyon bo'ladi.

**Uchinchi**dan, kognitiv jarayon va intellekt insonning ijtimoiy, kasbiy va ma'naviy faoliyati davomida amalga oshiriladigan konstruktiv kreativlik imkoniyatlarini sintezlashtiradi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Гуревич П.С. Интеллект // Гуревич П.С. Психологический словарь. М., 2007. – С.281-283.

2. Шипунова О.Д. Интеллект и субъективность: социально-философский анализ. Диссертация доктора философских наук. – Санкт-Петербург, 2004. – С. 354.

3. Беляева М.И. Интеллектуальный синтез в структуре воображения: диссертация.... кандидата философских наук. – Москва, 1999. – С.167.

4. Yaxshilikov J. Muhammadiyev N. – *Texnika va informasion texnologiyalar falsafasi*. – Samarqand.: "SamDU" 2019. -B.93.

5. Kushakov Sh.S. *Kreativnost kak xarakteristika semantichnoy virtualnosti // Falsafa va fanlar metodologiyasi muammolari: Respublika ilmiy-nazariy seminar materiallari*. – T.: Mumtoz so'z, 2016. -S.32.

*Когнитивная система // Философия: Энциклопедический словарь – М.: Гардарики. Под редакцией А.А. Ивина. 2004.*

Александров О. А., Андреева О. А. УНИВЕРСАЛЬНЫЕ КОНЦЕПТЫ В КОГНИТИВНОЙ СИСТЕМЕ ЧЕЛОВЕКА. Филологические науки. Вопросы теории и практики Тамбов: Грамота, 2010. No 3 (7). С. 26 – 29. ISSN 1997 – 2911. Издательство Грамота. Дата обращения: 25 октября 2013. Архивировано 29 октября 2013 года.

UDK: 1.(316)

## YOSHLAR BILAN YAKKA TARTIBDA G'OYAVIY TARBIYA ISHLARINI OLIB BORISH

**Annotatsiya:** Maqolada kelajak hayotni yaqqol tasavvur etish, jamiyatimizning ijtimoiy-ma'naviy poydevorini mustahkamlash, g'oyaviy xurujni oldini olish va unga yo'l bermaslik, mamlakatimiz ravnaqini har tomonlama ta'minlash uchun o'tmish va bugungi kun talablariga mos milliy g'oyani rivojlantirish masalalari, shuningdek, yoshlar bilan yakka tartibda g'oyaviy tarbiya ishlarini olib borishlari ilmiy jihatdan tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** tarbiya, yakka tartibda, yoshlar, mamlakat, vatan, o'tmish, bugun, g'oyaviy xurujlar, mafkuraviy profilaktika.

**Аннотация:** В статье анализируется четкое видение будущего, укрепление социально-духовной основы нашего общества, предотвращение и пресечение идеологической агрессии, развитие национальной идеи, отвечающей требованиям прошлого и настоящего для обеспечения полноценного развития нашей страны. А также научно проанализированы индивидуальную идейно-воспитательную работу с молодежью.

**Ключевые слова:** образование, личность, молодежь, страна, родина, прошлое, настоящее, идеологические атаки, идеологическая профилактика.

**Annotation.** The article analyzes a clear vision of the future, strengthening the social and spiritual foundation of our society, preventing and suppressing ideological aggression, developing a national idea that meets the requirements of the past and present to ensure the full development of our country. And also scientifically analyzed individual ideological and educational work with young people.

**Key words:** education, personality, youth, country, homeland, past, present, ideological attacks, ideological prevention.

Yoshlarning xayoliy orzusi bilan hayot haqiqati o'rtasidagi nomutanosibliklarning mavjudligi, ularning g'oyaviy jihatdan tushkunlikka tushishiga sabab bo'lishi ijtimoiy-falsafiy jihatdan tahlil qilingan holda "yoshlarning g'oyaviy tushkunlikka tushishi" tushunchasiga – hayotning achchiq-chuchuk zarbalari borligini yetarlicha tasavvur qila olmasdan yashash uchun kurash qoidalarini to'liq egallamagan yoshlarning jo'shqin hayotdan voz kechib aql-irok, aql-farosat, aql-hushidan ayrilish holatiga tushib qolishiga aytiladi, degan ta'fni bergan. Mazkur falsafiy ta'rif, amalda ayrim yoshlarning jinoyatchilar to'dasiga qo'shilib ketishi, o'zining joniga qasd qilishi, odamovi bo'lib qolishi va boshqa shunga o'xshash axloqiy-ma'naviy buzilishlarning mavjudligini tahlil qilish orqali isbotlatlangan.

Yoshlarning bunday holatga tushishlarining oldini olish bo'yicha mafkuraviy profilaktika ishlarini olib borishni tashkil etishda O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning "Inson manfaatlarini ta'minlash uchun esa, avva-



**Tamara  
XO'JANOVA,**  
Denov pedagogika  
tadbirkorlik instituti,  
falsafa fanlari  
bo'yicha falsafa dok-  
tori (PDd),  
katta o'qituvchi



lo, odamlar bilan, xalq bilan muloqot qilish, ularning dardu tashvishlari, orzu niyatlari, hayotiy muammo va ehtiylarini yaxshi bilish kerak” [2, 114-b.], – degan soʻzlarini metodologik asos qilib olgan holda yoshlar bilan muloqot qilish – bu ota-onalar, muallim-murabbiylar va boshqa mutasaddilar tomonidan yoshlarning orzu-istak, dilidagi armon va dardlarini, shikoyatlarini, takliflarini yaqindan bilish maqsadida, ular bilan bevosita yoki bilvosita uchrashish, koʻrishish, qabul qilishi orqali oʻrnatiladigan munosabatlari natijasida olingan maʼlumotlar boʻyicha tegishli xulosalar chiqarishga asos boʻladigan koʻp qirrali jarayonlar tizimiga aytiladi, degan xulosaga kelingan. Shunga koʻra, yoshlarning gʻoyaviy tushkunlikka tushishlarining oldini olish maqsadida olib boriladigan mafkuraviy profaktikaning metodikasi sifatida: 1) tarbiyachi-subʼekt va tarbiyalanuvchi-obʼektning “subʼekt – obʼekt”, “subʼekt-subʼekt”, “subʼekt-obʼekt” tarzida oʻzaro bir birini tushinishi; 2) “obʼekt va subʼekt” oʻrtasida umumiy va mos keladigan qiziqishlarni topish; 3) “subʼekt va obʼekt” oʻrtasida muloqot uchun taklif etiladigan sifat va qabul qilinadigan prinsiplarni aniqlab olish; 4) “obʼekt va subʼekt” oʻrtasida muloqot uchun xavfli boʻlgan sifatlarni aniqlash; 5) “subʼekt”ning individual taʼsir etishi va suhbatdoshiga moslashishi; 6) “subʼekt va obʼekt” oʻrtasida umumiy qoidalarni yaratish va oʻzaro harakat qilish kabilar tavsiya qilingan.

Yoshlar bilan muloqot qilish chogʻida uni olib borishning birinchidan, kommunikativ – axborot kim tomonidan uzatilmoqda; qanday maʼno-mazmundagi axborot uzatilmoqda; axborot qanday yoʻl bilan uzatilmoqda; axborot kimga yoʻnaltirilmoqda; axborot qanchalik samarador uzatilganligi; *ikkinchidan, interaktiv* – hamkorlik va raqobat shaklidagi oʻzaro taʼsirning qanday darajada boʻlishi; *uchinchidan, peretseptiv* – yoshlarning oʻz guruhiga mansub individni; boshqa guruhga mansub individni; oʻzining guruhini; oʻzga guruhni idrok etishi boʻlib, u identifikatsiya, empatiya, refleksiya, stereotipizatsiya mexanizmlarini ishga solish orqali amalga oshirilish yoʻnalishlari ish olib borish zarurligi yoritilgan.

Jamiyatning kompyuterlashuvi va internet tufayli vujudga kelayotgan muammolarning muhim spektri ijtimoiy taraqqiyot, uning manbalari, bosqich va rivojlanish mezonlari bilan bogʻliq. Axborotlar sohasining tez surʼatlar bilan oʻsishi, uni avtomatlashtirish usullarining rivojlantirilishi kompyuterlarning yaratilishi va kishilar hayotining turli sohalarini kompyuterlashtirishga olib keldi. Bu esa oʻz navbatida “Informatsion jamiyat” nazariyasini maydonga keltirdi.

Bu nazariya bugungi kun yangi industrial jamiyat tushunchasi toʻgʻrisidagi taʼlimotlar (U.Rostou, Dj. Bell, Z.Bjezinskiylar) haqidagi ilgari surilgan qarashlardir. Bu gʻoyaning asoschilari O.Toʻffler, E.Masuda, Dj. Pelon, Dj. Martinlar hisoblanadi. Bu olimlar odamlar kundalik turmush tarzini sanoatlashgan va axborotlashgan jihatlar koʻrinishda qarab, bun-

dan keyingi bosqich kelajagini axborotli-ekologiyaviy tarzda yuz berishini oldindan aytganlar. Kompyuterlashuvni umumsotsiologik pozitsiyadan turib anglash jamiyat taraqqiyotining yangi “triada” shaklidagi konsepsiyasini ilgari surishni taqozo qildi. Bu konsepsiyalardan keng tarqalgani amerikalik sotsiolog D.Belga taalluqli boʻlib, u asosiy ijtimoiy rivojlanish bosqichi sifatida agrar, industrial va postindustrial jamiyatlarni ajratib koʻrsatadi (postindustrial jamiyatni keyinchalik u informatsion jamiyat deb atagan). XXI asrning boshiga kelib postindustrial jamiyat fazasiga D.Bell hisoblashicha, AQSh, Yaponiya, Gʻarbiy Yevropa davlatlari qadam qoʻyadi.

Gʻoyaviy-mafkuraviy taʼlim-tarbiya ishlarini samarali tashkil qilish Sh.M.Mirziyoev aytganidek, “... bir-ikki marta nomiga tadbir oʻtkazish bilan ish bitmaydi. Bu yoʻnalishda har kuni, har soatda, doimiy va tizimli ravishda ish olib borish kerak. Buni maʼnaviy hayot, gʻoyaviy-mafkuraviy ish deb qoʻyibdi. Bu bizga gʻalla yoki chigit ekish emas, urugʻni tuproqqa tashladik, boʻldi, endi kutamiz, deb qarab oʻtirsak. Mafkura sohasida boʻshliq degan narsaning oʻzi hech qachon boʻlmaydi. Chunki insonning qalbi, miyasi, ongu tafakkuri hech qachon axborot olishdan, fikrlashdan, taʼsirlanishdan toʻxtamaydi. Demak, unga doimo maʼnaviy oziq kerak. Agar shu oziqni oʻzi yashayotgan muhitdan olmasa yoki bu muhit uni qoniqtirmasa, nima boʻladi, aytinglar? Bunday oziqni u asta-sekin boshqa yoqdan izlaydi. Shunga yoʻl bermasligimiz kerak. Mana, gap nima haqida ketyapti! Buning uchun oʻzini jamiyatimiz, yoshlarimiz maʼnaviyati, gʻoyaviy-mafkuraviy tarbiyasi uchun masʼul deb bilgan insonlar – bu mahalla yoki diniy tashkilotlar boʻladimi, huquq-tartibot idoralari xodimlari yoki katta taʼsir kuchiga ega ijodkor ziyolilar boʻladimi – ularning barchasi ayniqsa faol boʻlishlari lozim” [3, 484-b.].

“Barchamiz guvohimiz – bugun dunyo misli koʻril-magan surʼatlar bilan keskin oʻzgarib bormoqda. Ijtimoiy hayotimizda koʻplab ijobiy jarayonlar bilan birga, yosh avlodning qalbi va ongini egallashga qaratilgan maʼnaviy tahdidlar ham tobora xavfli tus olmoqda.

J.Ya.Yaxshilov va N.E.Muhammadiyevlar tomonidan: “Yakka tartibda gʻoyaviy-mafkuraviy taʼlim-tarbiya ishlarini olib borish deb jamoat tashkilotlari, davlat va nodavlat muassasalaridagi rahbar, boshliq va mansabdor shaxslarning oʻziga boʻysunuvchi har bir yoshni har tomonlama oʻrganish, shaxsiy imkoniyatlarini inobatga olish asosida uning ongida ozod va obod Vatanga mehr-muhabbat, qonunga hurmat tuygʻusini shakllantirish, inson haq-huquqlarini himoya qilish, yoʻl qoʻyilgan xato va kamchiliklarini tezda tuzatib, tartib-intizomni mustahkamlash, har qanday qiyinchiliklarga bardosh berib, toʻsiqlardan qoʻrqmasdan oʻz xizmat vazifasini halol, bekamu koʻst bajarishlarini taʼminlash uchun muntazam ravishda olib boradigan faoliyatiga aytiladi” [5, 597-598-bb.], degan taʼrif va tavsiflarini metodologik asos qilib olgan. Shu met-



odologik ahamiyatga molik bo'lgan falsafiy ta'rifga ko'ra yoshlar bilan yakka tartibda g'oyaviy tarbiya ishlarini olib borish – mafkuraviy profilaktika ishlarining samaradorligini oshirishda foydalanilinishning: *birinchidan*, biron bir aniq maqsadni ko'zlab, ya'ni g'ayriinsoniy g'oyalar ta'siriga tushib qolishi orqali ma'naviy-axloqiy tanazzulga uchrashining oldini olish maqsadida tezkor tarzda olib borish imkoniyatining beqiyosligi; *ikkinchidan*, yoshlarni o'ziga xos bo'lgan bir shaxs-fuqaro sifatida uning barcha ijobiy va salbiy fazilatlarini chuqur o'rganish asosida suhbatga choralash zaruriyatining mavjudligi; *uchinchidan*, suhbat mavzusini tanlashdan maqsad har bir yoshning ichki e'tiqodini shakllantirish va rivojlantirish orqali ruhiy-ma'naviy tushkunlikka tushishining oldini olish yoki tushkunlikdan chiqarib olishning ishonchli qurolli ekanligi; *to'rtinchidan*, bunda nafaqat yoshlar bilan suhbatlashish, balki ularni kuzatish, sinash, shaxsiy topshiriq va vazifa berish, shaxsiy namuna ko'rsatish, shaxsiy yordam ko'rsatish, oila va ish joyiga tashrif buyurish kabi amaliy ishonchli vositalarini qo'llashning tub mohiyat-mazmuni va uning amaliy ahamiyati ochib berilgan.

Texnik mo'jizalar dunyoni zabt etayotir, so'zlashuv hajmi ham sezilarli oshib bormoqda, dunyoda mobil telefon abonentlari soni oddiy telefon abonentlari sonidan ancha oshib ketdi. Bir qarashda, axborotlar dunyosidagi aloqa tizimi – uyali telefonlar va internetning g'oyalar falsafasiga aloqador emasdek tuyuladi. Ammo, aynan ana shu tizim insoniyat hayoti va aloqalari tuzilmasida katta inqilobiy o'zgarishga olib keldiki, hozircha mutaxassislar, asosan, uning axborot almashuv funksiyasiga ko'proq e'tibor bermoqdalar. Faqat keyingi yillardagina ushbu tarmoqlar nihoyatda tezlik bilan tarqalayotgan g'oyalar oqimi ekanligi ayonlashib, uning ta'siri bilan bog'liq masalalarga e'tibor qaratilmoqda.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida shunday deyilgan: "Ommaviy axborot vositalari erkindir va qonunga muvofiq ishlaydi. Ular axborotning to'g'riligi uchun belgilangan tartibda javobgardirlar. Senzuraga yo'l qo'yilmaydi" [1, 13-b.]. Axborot va so'z erkinligining mamlakatimizda yuqori darajada ta'minlanishi birinchidan, fuqarolarning konstitutsion shaxsiy huquqlarini kafolatlash bilan birga, o'sib kelayotgan yosh avlodning bilim olish jarayonida o'ziga kerakli axborotni ishonchsiz va noxolis tashqi axborot manbalaridan emas, balki mamlakatda ro'yxatga olingan va har bir berilgan axboroti uchun javob beradigan manbalardan olishiga imkoniyat yaratadi.

Demokratik islohotlarni, milliy g'oyani hayotga tadbiq etishda, yangicha ong, yangicha tafakkur, yangicha dunyoqarashni shakllantirishni, ommani g'oyaviy qurollantirishda ommaviy axborot vositalarining o'rni va ahamiyati beqiyos bo'lib:

birinchidan, ommaviy axborot vositalari mustaqillikni mustahkamlashga, erkinlik va islohotlarni

amalga oshirishga, yangicha tafakkur va zamonaviy dunyoqarashni shakllantirishga xizmat qiladi. Darhaqiqat, O'zbekistonda barpo etilayotgan o'ziga xos demokratik, insonparvar, huquqiy jamiyat ommaviy axborot vositalari faoliyatining ko'lamini, maqsad va vazifalarini belgilab beradi;

ikkinchidan, ommaviy axborot vositalari milliy mustaqillikning Vatan, xalq, millat taqdiridagi o'rni va ahamiyatini, o'tmish rejalari va xalqimizning bunyodkorlik faoliyati misolida yoshlarni g'oyaviy tarbiyalaydi, ularda Vatanga sadoqat, mustaqillikka muhabbat tuyg'ularini avj oldiradi;

uchinchidan, ommaviy axborot vositalari demokratik islohotlar ahamiyatini, davlatning ichki va tashqi siyosatini odamlar, yoshlar onggiga yetkazadi. Inson va jamiyat manfaatlarini himoya qilishda davlat va jamiyat o'rtasida vositachilik vazifasini bajaradi;

to'rtinchidan, axborot vositalari ijtimoiy fikrni shakllantiruvchi omillardan biri. U jamoatchilikni hokimiyatni boshqarishda qatnashishga jalb etadi, qonunlar, qarorlar qabul qilishda qatnashishga da'vat qiladi, shy tariqa ularni sissiy, g'oyaviy ruhda tarbiyalaydi;

beshinchidan, mustaqil O'zbekistonda axborotlarning mafkurasidan mutlaqo xoliligi nazarda tutiladi, jamiyatning xolisona, haqqoniy, xilma-xil axborotlarga bo'lgan ehtiyoji qondiriladi;

oltinchidan, mamlakat aholisini, chet el jamoatchiligini O'zbekistonning siyosiy-iqtisodiy va ijtimoiy-madaniy hayotidagi o'zgarishlardan xabardor qilish va hokazolar.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoevning so'zlari bilan aytganda, "...Gap yoshlar tarbiyasi haqida borar ekan, bu borada shoshmaslik, yoshlar va ota-onalarning talab-istaklaridan kelib chiqib, har tomonlama puxta o'ylab ish tutish kerak" [4].

Yoshlar ma'naviyatini yanada shakllantirish uchun OAV va internetdan to'g'ri foydalanish talab etiladi. Ulardan to'g'ri foydalangan holatdagina biz yoshlardan, ularning ma'naviy olamidani eng ezgu o'y va g'oyalar hamda ulkan marralarni hech ikkilanmasdan kutishimiz mumkin.

Xulosa sifatida ta'kidlash joizki: yosh avlod dunyoqarashini g'oyaviy himoya qilishning ikki samarali yo'li mavjud:

a) zamonaviy ruhdagi yigit va qizlarda, moddiy va ma'naviy hamda ilmiy va milliy dunyoqarashni shakllantirish orqali mafkuraviy profilaktika ishlarini tashkil etish zarur;

b) yoshlarning tushkunlikka tushushiga qarshi qaratilgan mafkuraviy immunitetni shakllantirish metodikasi ish faoliyatini yangi bosqichga ko'tarish kerak.

Yoshlarning ilmiy dunyoqarashini shakllantirish jarayonida yakka tartibda g'oyaviy tarbiya ishlarini olib borish mafkuraviy profilaktika ishlarining samaradorligini oshirish va shakllantirish usullariga bag'ishlangan risolalar chop etib, hayotga tatbiiq qilish lozim.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: “O'zbekiston”, 2018.

2. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi // Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild. – Toshkent: “O'zbekiston” NMIU, 2017.

3. Mirziyoev Sh.M. Vatanimiz taqdiri va kelajagi

yo'lida yanada hamjihat bo'lib, qat'iyat bilan harakat qilaylik // Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild, –T.: “O'zbekiston” NMIU, 2017.

4. <http://uza.uz/oz/politics/shavkat-mirziyeev-yeshlar-talim-tarbiyasida-shoshmas-lik-kerak-07-07-2017>.

5. Yaxshilikov J.Ya., Muhammadiev N.E. Milliy g'oya: O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi. Darslik. – Toshkent: Cho'lpon NMIU, 2018.

## SO'ZLAR SALTANATIGA SAYOHAT



# “ZANGORI”GA TUSHGAN ZANG

“Zangori”ni talaffuz qilishingiz bilan shuuringizda tiniq moviy manzaralar jonlanadi. Lekin “ko'm-ko'k”, “moviy” ma'nolarni anglatgan “zangori” so'ziga “zang” so'zi qanday aralashib qolgani kishini ajablantiradi.

“O'zbek tilining etimologik lug'ati”da izohlanishicha, forsiydan kirgan “zangori” so'zining asl ma'nosi “havorang”, “moviy” degan ma'nolarga umuman to'g'ri kelmaydi. Y'ani “zangori” so'zining tub ildizi metall sirtida hosil bo'ladigan oksid qatlami mazmunini anglatuvchi “zang” so'zidir. Shuning uchun bu so'z dastlab “to'q qizil” ma'nosini ifodalagan, keyinchalik uning mazmuni o'zgarib ketgan.

**Eshqobil SHUKUR,**

*O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi*



## MILLIY XAVFSIZLIKNI MUSTAHKAMLASHDA MILLIY GVARDIYANING O'RNI

**Annotatsiya:** Maqolada milliy xavfsizlikni mustahkamlashda milliy gvardiyaning o'rni ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Dunyodagi eng yuksak standartlar darajasida tashkil etilgan uzluksiz harbiy ta'lim tizimi izchil rivojlanmoqda. Hozirgi paytda yangitdan tuzilgan, mohiyat e'tibori bilan noyob bo'lgan Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va aloqa harbiy instituti mamlakatimizning zamonaviy oliy ta'lim muassasalari qatoridan munosib joy egalladi.

**Kalit so'zlar:** milliy xavfsizlik, milliy gvardiya, harbiy ta'lim, zamonaviy oliy ta'lim, tezkor-strategiya bo'g'in, Qurolli Kuchlar akademiyasi.

**Аннотация:** В статье научно анализируется роль Национальной гвардии в укреплении национальной безопасности. Постоянно развивается система непрерывного военного образования, организованная по самым высоким мировым стандартам. В настоящее время уникальный по своей сути Военный институт информационно-коммуникационных технологий и связи занял достойное место среди современных высших учебных заведений нашей страны.

**Ключевые слова:** национальная безопасность, национальная гвардия, военное образование, современное высшее образование, оперативно-стратегическое звено, Академия Вооруженных Сил.

**Annotation:** The article scientifically analyzes the role of the National Guard in strengthening national security. The system of continuous military education, organized according to the highest world standards, is constantly developing. At present, the Military Institute of Information and Communication Technologies and Communications, unique in its essence, has taken a worthy place among the modern higher educational institutions of our country.

**Key words:** national security, national guard, military education, modern higher education, operational-strategic link, the Academy of the Armed Forces.

**B**ugungi kunda milliy-ma'naviy xavfsizlikni ta'minlash milliy xavfsizlikni ta'minlashning asosiy xalqasini, negizini tashkil etadi. Chunki milliy ma'naviyat ong, dunyoqarash, ruhiyat, qalb va axloq kabilarni o'zida mujassamlashtirgan, ulardagi o'zgarishlar tabiiy ravishda jamiyatning siyosiy, ijtimoiy hayotida, mamlakatdagi barqarorlikda sodir bo'ladigan munosabatlarda ham o'z ifodasini topadi. Shu ma'noda ham milliy-ma'naviy xavfsizlikni ta'minlash har bir Vatandoshimiz ongida Vatanparvarlik, ona Vatanimizni chegara daxlsizligini asrash, xalqparvarlik, o'z xalqi, Vatani manfaatlari yo'lida fidoiylik, uning barqarorligi, nufuzini asrashda mas'ullik, g'urur, iftixor, yosh-



**Bobomurod  
ABDULLAEV,**  
ilmiy izlanuvchi



larimizni yovuz g'oyalar tajovuzidan himoya qilish mamlakatimizda ma'naviy-ruhiy sokinlikni ta'minlash zarurligini anglab yetishdek muhim vazifalarni hal qilish imkonini beradi [4, 357-b.]. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev ta'kidlaganlaridek: "Armiyamiz unib-o'sib kelayotgan yosh avlodni vatanparvarlik va ona yurtga muhabbat, milliy qadriyat va an'analarimizga hurmat, shonli tariximizni chuqur bilish ruhida tarbiyalash borasidagi ishlarga faol kirishganini alohida qayd etishni istardim. "Vatanparvar" va "Faxriylar" singari tashkilotlar, shuningdek, Mudofaa vazirligi qoshidagi Jamoatchilik kengashi yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashni yanada kuchaytirish hamda ularda faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish bo'yicha g'oyat zarur bo'lgan ishlarni birgalikda davom ettiradi, deb ishonaman" [1].

Ma'naviyati qashshoq inson, millat va xalqda ana shu tuyg'ular mavjud bo'lmaydi, u ruhan tushkunlikka muhtalo bo'lgan o'zgalarga itoatkor, ularning orqasidan yuradigan bo'lib qoladi [7, 132-b.]. Keltirilganlardan ko'rinib turibdiki, ma'naviyatning yemirilishi, uning barbod bo'lishi boshqa barcha sohalarning ham barbod bo'lishiga olib keladi. Shu ma'noda ham Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov "... ma'naviyatga qarshi qaratilgan har qanday tahdid o'z-o'zidan mamlakat xavfsizligini, uning milliy manfaatlarini, sog'lom avlod kelajagini ta'minlash yo'lidagi jiddiy xatarlardan biriga aylanishi va oxir-oqibatda jamiyatni inqirozga olib kelishi mumkin" [2, 145-b.], deb milliy ma'naviyat xavfsizligini ta'minlash, milliy ahamiyatga molik bo'lgan masalalardan biri ekanligini alohida ko'rsatib o'tgan.

Albatta, milliy gvardiyaning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat: jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari, erkinliklari hamda qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish; terrorizmga qarshi kurashishda, shuningdek terrorchilik harakatlarining hamda tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlar oqibatlarini bartaraf etishda ishtirok etish; tergovga qadar tekshiruvni amalga oshirish, surishtiruv o'tkazish, jinoyat ishlarini qo'zg'atish va ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni yuritish; davlat ob'yektlarini, o'ta muhim, toifalangan ob'yektlarni hamda boshqa ob'yektlarni, jismoniy va yuridik shaxslarning mol-mulkini qo'riqlash; qo'riqlash faoliyati sohasidagi davlat siyosatini amalga oshirish; huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirish, shu jumladan mazkur huquqbuzarliklarning sodir etilishi sabablarini va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlash, bartaraf etish; jamoat tartibini saqlash, shu jumladan ommaviy tadbirlar, mitinglar, yig'ilishlar, namoyishlar o'tkazilayotganda hamda fuqarolar g'ajum bo'ladigan joylarda jamoat tartibini saqlash; favqulodda holat, alohida davr va terrorchilikka qarshi operatsiyalarni o'tkazish sharoitlarida huquqiy rejimni ta'minlash; qo'riqlanadigan shaxslarning xavfsizligini ta'minlashda ishtirok etish; chet davlatlarning rasmiy

vakillarini, oliy darajadagi xorijiy delegatsiyalarni kutib olishda va kuzatib qo'yishda, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti ishtirokidagi tantanali tadbirlar chog'ida rasmiy marosimlarni o'tkazish; huquqbuzarliklarning oldini olish, ularni aniqlash va ularga chek qo'yish maqsadida aholi punktlaridagi jamoat joylarida patrullik qilish; O'zbekiston Respublikasining hududiy mudofaasi tizimida O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarini jangovar qo'llash rejaları bo'yicha maxsus vazifalarni hal etish, O'zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmatining Chegara qo'shinlariga O'zbekiston Respublikasining Davlat chegarasini qo'riqlash hamda himoya qilishda ko'maklashishdan iborat.

Bugungi kunda milliy intellektualning milliy ma'naviyatni globallashuvning salbiy ta'siridan himoya qilishdagi vazifalarining qamrovi har qachongiga qaraganda ham kengayib bormoqda. Nazarimizda, ular quyidagilarda o'z ifodasini topmoqda: a) eng avvalo maktab ta'limini bugun globallashuv qo'yayotgan talablar darajasida rivojlantirish, faoliyatini kuchaytirish [3, 7-b.]. Bugun har bir maktabni tamomlab chiqayotgan yoshlar zamon talabi darajasidagi bilimni egallashida, fan, texnika, texnologiya yutuqlaridan xabardor bo'lishida yuksak darajadagi intellektual salohiyatga ega bo'lgan insonlar faol ishtirok qilishi lozim; b) bugungi intellektuallar maktabni millat istiqbolining asosiy quvvatini shakllantiruvchi ma'rifat o'chog'i ekanligini, eng avvalo o'zlari chuqur anglab yetishlari va undan keyin buni jamiyatdagi barcha insonlar ongiga singdirishda faol ishtirok qilishlari lozim bo'lmoqda. Chunki mamlakatimizda maktab ta'limiga katta e'tibor berilayotganligi, uning rivojlanish va moddiy bazasini mustahkamlashga katta mablag'lar ajratilayotganligiga qaramasdan, unda ta'lim olayotgan o'quvchilarning bilim darajalarini zamon talablariga mos izchillik bilan takomillashtirish ehtiyoji oshib bormoqda. Maktab ta'limini bugungi talab darajasida izchillik bilan takomillashtirmas ekanimiz, u o'rta-maxsus va oliy ta'limda ham kutilayotgan samaralarga erishishda murakkab muammolarni keltirib chiqaradi. Chunki maktabni sayoz bilim bilan tugatgan o'quvchi bir amallab oliy o'quv yurtlariga kirib olib, bu dargohda ham qanchalik harakat qilinmasin, u baribir sayoz bilimdagi "oliy" ma'lumotli kadr bo'lib chiqishi mumkin. Buni ko'p yillik tajribalarimiz tasdiqlamoqda. Xuddi ana shu masalani hal etishda intellektuallar maktab ta'limini yuqori darajaga ko'tarish umummilliy vazifasida yetakchilik qilishlari lozim; v) Maktabda o'quvchilarga ta'lim berayotgan o'qituvchilardan turli reytinglarni o'tkazish, ularni hisob-kitoblar bilan shug'ullanishi, o'quvchilar bilimining oshuvi bilan bog'liq bo'lmagan qandaydir kerak bo'lmagan ma'lumotlarni to'lg'azishni talab qilish amaliyotidan xoli qilish, ularning o'z ustida muntazam ishlashi, o'quvchiga bilim berishi nafaqat o'z moddiy manfaatdorligi, shuning bilan millatining istiqboli yo'lidagi fidoyiligi,

burchi, mas'uliyati ekanligini to'la anglab yetishiga erishish amaliy ahamiyatga ega bo'ladi. Davlat tilida (o'zbek tilida) dars olib boriladigan maktablarning nufuzini oshirishda o'qituvchilarning mas'uliyatini oshirish eng dolzarb vazifaga aylanganligini milliy intellektuallar tayyorlanayotgan dargohlarda kadrlar ongi va qalbiga yetib borishi lozim. Bugun respublikamizda o'zbek tilida dars olib borilayotgan maktab va sinflarga o'z farzandlarini berishga ko'pgina ota-onalarda ishonchsizlik ruhiyati shakllanayotganligi hech kimga sir emas. Ular xarajati (ya'ni til o'rganishga ketadigan xarajatlar) ko'proq bo'lsa-da, o'z imkoniyatidan kelib chiqqan holda ingliz va rus tilida dars olib borilayotgan maktab va sinflarga o'z farzandlarini berishga harakat qilayotgani yangilik emas. O'zni kelganda, shuni ham alohida ta'kidlash lozimki, millatimiz vakillari qancha ko'p xorijiy tillarni yaxshi bilsa, ularning dunyoga chiqish, mamlakatimizga dunyodagi yutuqlarni olib kelish imkoniyati ham shu darajada kuchayib boradi. Ammo, bu ona tilimiz nufuzining tushib ketishi hisobiga bo'lmasligi lozim. Chunki shu holat yuzaga kelishi oqibatida yana ikkita muammo: birinchidan, ona tilimizning nufuzi tushib borishi, yana sobiq sho'ro zamonida bo'lganidek, rus tilining nufuzi oshib, o'zbek tili ilmda emas, balki kundalik hayotda qo'llaniladigan "yordamchi" til darajasiga tushib qolish xavfining yuzaga kelishi; ikkinchi tomondan, maktablarda milliy tilning talab darajasida o'qitilmasligi yoshlar o'rtasida uning nufuzi tushib borishiga, bu esa o'z navbatida, milliy ruhiyatning sayozlashuvi va milliy ma'naviyatning qashshoqlashuviga olib keladi [6, 139-b.]; g) milliy intellektual salohiyatni izchillik bilan takomillashtirib borish nafaqat shaharlarda, shuningdek viloyat, tuman va qishloq rahbarlarining doimiy e'tiborida bo'lishi lozim. Mamlakatimiz rahbariyatining yoshlar intellektual salohiyatini oshirish borasida olib borayotgan e'tiboridan kelib chiqqan holda, iqtidorli yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, jumladan iqtidorli bolalarni maktabdayoq moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlash, imkoniyat darajasida xorijning yetakchi oliy o'quv yurtlarida o'qishni davom ettirishida ham yordamlashish "millatimiz istiqboli uchun o'zini fidoiymen" – deb hisoblaguvchi mahalliy rahbarlardan tortib fermer, tadbirkor va boshqa jamoat tashkilotlari oldidagi umummilliy vazifa darajasiga erishish. Uning bugun amalga oshishi, ertaga o'zining amaliy natijasini berishini millatning barcha vakillari anglab yetishiga erishish zarur [4, 213-b.].

Milliy-ma'naviy xavfsizligimizni ta'minlashning asosiy omillari quyidagilardan iborat: milliy intellektualni bugungi globallashtirishning milliy ma'naviyatimizga o'tkazayotgan ta'siri, tezlik darajasidan ustun holatda

rivojlantirish; milliy-ma'naviy tiklanishimizni davom ettirish, hali xalqimiz qo'liga yetib bormagan ma'naviy va moddiy meroslarimizni chuqur o'rganish, ularni xalqimizga yetkazish va ular asosida milliy ma'naviyatimizni bugungi taraqqiyotga mos ravishda takomillashtirib borish; milliy merosni bugungi yoshlarimiz ongi va dunyoqarashining ajralmas qismiga aylantirish va ular ongida yuzaga kelayotgan milliy ma'naviyatdan begonalashuv tuyg'ularining oldini olish, ular ongini milliy va umuminsoniy qadriyatlar hisobiga boyib borishiga erishish; qonun ustuvorligiga erishish va demokratik qadriyatlarni izchillik bilan rivojlantirish kabilardir.

Xulosa sifatida aytish joizki, bugungi kunda bizning harbiylarimiz o'zlarining professional tayyorgarlik darajasi bo'yicha jahondagi yetakchi mamlakatlar armiyalarining harbiy xizmatchilaridan aslo qolishmasligini so'zda emas, amalda isbotlamoqda. Xalqaro harbiy o'quv musobaqalarida, armiyalar o'rtasidagi va sport bellashuvlarida O'zbekiston vakillari o'zlarining mahorati, ruhan baquvvatligi, g'alabaga bo'lgan irodasini namoyon etmoqda, buyuk ajdodlarimizning munosib vorislari ekanliklarini yaqqol ko'rsatmoqda. Hech shubhasiz, bularning barchasi butun O'zbekiston xalqida, ayniqsa, yoshlarimizda milliy armiyamiz bilan faxrlanish tuyg'usini, Vatan himoyachisidek sharafli kasbga hurmat-ehtiromlarini uyg'otmoqda. Milliy armiyamizni qurol-yarog' va boshqa zarur vositalar bilan ta'minlashga qodir bo'lgan mudofaa-sanoat kompleksimizni yanada rivojlantirish bo'yicha vazifalar bosqichma-bosqich hal qilinmoqda.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. *O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning O'zbekiston Qurolli kuchlarining 28 yilligiga bag'ishlangan tadbirdagi nutqi. 14-yanvar 2021-yil. <https://president.uz/uz/3290>.*
2. *Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: "Ma'naviyat", 2008.*
3. *Isoqov B. Ziyolilik mas'uliyati. – T.: Ma'naviyat, 2008. – B. 7.*
4. *Ma'naviyat: asosiy tushunchalar va izohli lug'at. – T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2009. – B. 213.*
5. *Otamuradov S. Globallashtirish va milliy-ma'naviy xavfsizlik. – Toshkent, 2012.*
7. *Falsafa: ensiklopedik lug'at. – T., 2010. – B. 139.*
8. *Qisqacha siyosiy lug'at. To'ldirilgan va qayta ishlangan ikkinchi nashri. – T.: O'zbekiston, 1983. – B. 132.*

## ALISHER NAVOIY TASAVVUFIY TA'LIMOTIDA KOMIL INSON KONSEPSIYASI



**Shaxnoza  
AGZAMXODJAEVA,**  
Toshkent to'qimachilik  
va yengil sanoat  
instituti ijtimoiy fanlar  
va jismoniy madaniyat  
kafedrasini mudiri, f.f.n.,  
dotsent



**Annotatsiya:** Maqolada Alisher Navoiyning tasavvufiy ta'limotida komil inson konsepsiyasi ilmiy jihatdan tahlil qilindi. Komillik bu insoniyat orzusidir. Komil inson biz uchun idealdir. Bizning ko'hna tariximizda yuzaga kelgan, xalq, mamlakat tarixida katta ma'naviy-axloqiy tarbiya rolini o'nagan tasavvuf komil inson nazariyasi haqidagi, uni tarbiyalash, voyaga yetkazish haqidagi ta'limot va amaliyot sanaladi.

**Kalit so'zlar:** komil inson, tasavvuf, konsepsiya, ma'naviy-axloqiy tarbiya, tavba-tazarru, ezgulik, oila, muloyim tilli bo'lish, rahmdil bo'lish, mard bo'lish, sabrli bo'lish, sadoqatli bo'lish.

**Аннотация:** В статье научно-анализировано концепции гармонично-развитого человека в мистическом учении Алишера Навои. Совершенство – это человеческая мечта. Идеальный человек идеален для нас. Мистицизм, возникший в нашей древней истории и сыгравший большую роль в духовно-нравственном воспитании народа и страны, теории совершенного человека, его воспитания.

**Ключевые слова:** гармонично-развитый человек, мистицизм, концепция, духовно-нравственное воспитание, покаяние, доброта, семья, сострадание, щедрость, мужество, терпение, верность.

**Annotation:** The article scientifically analyzes the concept of a harmoniously developed person in the mystical teachings of Alisher Navoi. Perfection is a human dream. The ideal person is ideal for us. Mysticism, which arose in our ancient history and played a great role in the spiritual and moral education of the people and the country, the theory of the perfect man, his upbringing.

**Key words:** harmoniously developed person, mysticism, concept, spiritual and moral education, repentance, kindness, family, compassion, generosity, courage, patience, loyalty.

**K**omil insonlar jamiyatning tirik vijdonlaridir. Kishilar ularga qarab hushyor tortadilar, dunyo behudaligidan o'zlariga kelib, o'z qalblariga o'zi qilayotgan ishlariga razm soladilar, tavba-tazarru qiladilar. Komil insonlarning af'alu-amali insonlar diliga quvvat, ko'ziga nur bag'ishlagan. Komil inson azal-azaldan xalqimizning ezgu orzusi, uning ma'naviyatning uzviy bir qismi bo'lib kelgan. Komil inson tushunchasi ma'naviy barkamol inson tushunchasi bilan hamohangdir. Ma'naviy barkamollikka erishmay komil inson darajasiga yetish mumkin emas. Demak, ma'naviy barkamollikka intilish – bu komil inson darajasiga erishish uchun intilishdir. Komillikka inson butun umri davomida erishib boradi. Komil inson biz uchun idealdir. U barcha dunyoviy va ilohiy bilimlarni egallagan, ruhi mutlaq ruhga tutash, fayzu karomati serob, qa-

Ibi ezgu tuyg'ularga limmo-lim to'la pokiza zot. Komil inson odamzod orzu qilgan jamiki ezgu xislatlarning ifodachisi. Komil inson haqida tasavvuf adabiyotida ko'p asarlar bitilgan. Ana shunday kishilardan biri XIII asrda yashagan Aziziddin Nasafiy bo'lib, "Insoni komil" nomli risolasida komil insonga ta'rif berib shunday yozadi: "Bilgilki, komil inson deb shariat va tariqat va haqiqatda yetuk bo'lgan odamga aytadilar va agar bu iborani tushunmasang, boshqa ibora bilan aytayin: bilgilki, komil inson shunday insondirkim, unda quyidagi to'rt narsa kamolotga yetgan bo'lsin: yaxshi so'z, yaxshi fe'l, yaxshi axloq va maorif". Bu sifatlar bilan ziynatlangan odam yolg'on, riyo va badkirdorlikdan chekinadi, hamma vaqt ezgu niyat bilan yashab, ezgu ishlarga tayyor turadi.

Komil, barkamol insonni tarbiyalash, voyaga yetkazish haqida musulmon Sharqi axloqi tarixida inson hayoti uchun dasturulamal, qo'llanma vazifasini o'tagan ko'p pandnomalar, xalq kitoblari mavjud bo'lgan. Shulardan ba'zilarini sanab o'tamiz. Chunonchi, Kaykovusning "Qobusnoma", Sa'diyning "Guliston", "Bo'ston", Amir Temurning "Temur tuzuklari", Abdurahmon Jomiyning "Bahoriston", Alisher Navoiyning "Mahbubul-qulub", Xusayn Voiz Koshifiyning "Axloqi muhsiniy" va boshqalarni ko'rsatishimiz mumkin. Bu asarlarning ko'pchiligida odil shoh va adolat, halollik, soflik, poklik, to'g'rilik, rostgo'ylik, insonparvarlik, ma'rifatli bo'lish kabi insonning sharqona fazilatlarini berilgan. Alisher Navoiyning "Nasoyimul muhabbat" asarida komil insonga xos xususiyatlar, uning sharqona fazilatlarini sanab o'tilgan. Bular qatoriga ulug' mutafakkir quyidagilarni kiritadi: tavba, halol luqma bilan qanoatlanish, o'z kasbidan topib kun o'tkazish, shariatga rioya etish, barchadan o'zini kam deb bilish, hatto farzandlari, xizmatkorlariga qo'pollik qilmaslik, chuchuk tilli bo'lish – yaxshi, muloyim tilli bo'lish, rahmdil bo'lish, saxiy bo'lish, mard bo'lish, halimlik, xushxulq bo'lish, rizo-rozilik bilan kun o'tkazish, sabrli bo'lish, sadoqatli, vafoli bo'lish, riyozat chekishdan qo'rqmaslik va boshqalar.

XV asr bilan bog'liq yana bir dolzarb masala – bu uning mustaqillik bilan chambarchas bog'liqligidir. Darhaqiqat, dastlab arablar istilosidan, keyinchalik esa mo'g'ullar asoratidan ozod bo'lgan O'rta Osiyoda ilm-fan, madaniyat yuksaldi, insonning erkin fikrlashi, aql-zakovati rivoji uchun keng imkoniyatlar tug'ildi. "Forobiyning dono rahbar yoki rahbarlar boshchiligida fozil jamoa, komil inson, o'zaro yordam asosida yashovchi xalqlar haqidagi xayollari, Jomiy, Navoiylarning adolat hukmron bo'lgan o'lkalar, cheksiz insoniylik va yuksak axloq-odob haqidagi o'ylari shunday mustaqillikda tug'ilgan va, avvalo mustaqillikni nazarda tutadi" [6, 14-b.], – degan edi M.Xayrullaev.

Komil inson "bir tomondan, jami ruhiy-ma'naviy qudrat, aqlu zakovat, yaxshi sifatlarning jamuljami hisoblangan mavhum bir zot tushunchasi, ikkinchi to-

mondan shu cho'qqiga intilib muayyan martabalarga erishgan kishi ham komil inson deb hisoblangan" [5, 138-b.]. Alisher Navoiy komil inson to'g'risida butun bir ta'limot yaratdi. Uning nasriy va nazmiy asarlari, g'azallari, "Xamsa"ga kirgan dostonlari, "Nasoyimul-muhabbat", "Tarixi anbiyo va hukamo", "Holoti Sayid Hasan Ardasher", "Mahbub ul-qulub", "Majolis un-nafois", "Lison ut-tayr" va boshqalarda komil inson qanday bo'lishi kerakligi, qaysi fazilatlarini egallashi lozimligi haqidagi fikrlar har tomonlama yoritib berilgan.

Navoiyning komil inson ta'limoti negizini tabiat, inson va Allohga bo'lgan muhabbat belgilaydi. U payg'ambarlar, aziz avliyolar, piru komillar, orifu so'fiylar to'g'risida so'z yuritganda, g'azal va ruboiylarida tabarruk zotlarning xislatu fazilatlarini haqida ishq-muhabbat bilan yozgan. Tasavvufshunos Ibrohim Haqqul fikricha, Navoiyning komillik haqidagi qarashlari to'rt ustuvor asosga, ya'ni Axloq go'zalligi, qalb tasfiyasi (*Tasfiya – soflash, tozalash, tiniqlash – A.SH.*), Ruhiyat qudrati va tafakkur balog'atiga tayanadi [4]. Mutafakkir payg'ambarlar, avliyo va oriflarni, yirik karomat sohiblarini komil insonlar qatoriga qo'shadi. Bunday zotlar doimo xalq g'amida yashaydilar, atrofdagilarga mehr-muruvvat ko'rsatib, beva-bechoralarga yordam beradilar. Barkamol zotlar insonlarning eng a'losi bo'lib, butun umr poklanish va Haq yo'lini ixtiyor qilgan kishilardir.

Alisher Navoiy "Tarixi anbiyo va hukamo" kitobida Muhammaddan oldin yashab o'tgan payg'ambarlarga maxsus to'xtaladi. Nabiyning birini ikkinchisidan yuqori qo'ymay, ularning faoliyatini xolisona yoritadi. Payg'ambarlarning hayoti, turmush tarzi, qilgan xayrli ishlari, fuqarolarga munosabati, tinch va osoyishta yashashi uchun sa'y-harakatlarini ta'riflab, ularni komil insonlar deb hisoblaydi. Lekin shuni qayd qilish lozimki, Navoiy o'tmishdagi barcha musulmon Sharqi mutafakkirlari, ulug' donishmandlari singari Muhammad Payg'ambarni boshqa o'tgan payg'ambarlar ichida eng a'losi, komillarning komili, mukammal inson sifatida talqin qiladi. Shuning uchun ham, uning ko'plab asarlarida, xususan, "Xamsa"ga kirgan dostonlari, "Munojot", "Lison ut-tayr", "Siroju-l-muslimiyn", "Nasoyimul-muhabbat", "Nazmul-javohir" va boshqalarda payg'ambarning fazilatlarini madh qilingan joylar ko'p. Ulug' mutafakkir Muhammad payg'ambar haqida shunday deydi: "Va chun ul hazrat anbiyoning xotami erdi va andin so'ngra nubuvvat eshigi bog'landi, har oyinakim noqislar takmilig'a ummatining komil va olimlarini ma'mur ettiki, burung'i anbiyo o'rnig'a ahdo qilg'aylar va yo'ldin chiqq'onlarga yo'l ko'rguzgaylar..." [1, 14-b.].

Mutafakkir nabiyalar, ya'ni payg'ambarlardan so'ng valiyarlarni komil insonlar deb talqin qilgan. Al-loma avliyolar amal qiladigan tavba, halol rizq bilan oziqlanish, tariqat odobini saqlash, kamtarlik, mu-

loyimlik, saxiylik, sabrlik singari xislatlarga to'xtab o'tadi, xususan, u halol luqma deganda, valiyning biror kasb bilan mashg'ul bo'lib, o'z mehnati bilan kun ko'rishini tushunadi. Darhaqiqat, tasavvufning yirik vakillari, valiylar muayyan bir kasb-hunar bilan shug'ullanganliklari tarixdan ma'lum. Navoiyning zikr qilishicha, mashoyixlardan Xoja Abdulloh Ansoniy etikdo'z, Shayx Muhammad Sakkok pichoqchi, Shayx Abu Hafz Haddod temirchi, Shayx Abulabbos Omiliy qassob, Shayx Abulhasan Muzayin, Shayx Banon hammol, Bahovuddin Naqshband esa matolarga naqsh soluvchi bo'lganlar [1, 15-b.].

Ulug' mutafakkirning "Farhod va Shirin", "Layli va Majnun" dostonida ham tasavvuf ta'limoti nuqtai nazaridan badiiy timsollarni talqin qilish muhim o'rin egallaydi. Dostonda Farhod va Shirin, Layli va Majnun o'rtasidagi sevgi-muhabbat majoziy ishq, ya'ni Shirin, Laylilar siymosida Allohga bo'lgan ishq bir-biri bilan bog'lanib ketgan. Unda zohiriylik va ilohiy ishqqa, dunyoviylik Haqqa yetishib bo'lmayligi to'g'risida fikr yotadi. Navoiy nazarida komil inson xayoliy bir timsol emas, balki o'zida butun zohiriy va botiniy bilimlarni, insoniy fazilatlarini mujassam etgan real hayotda bor kishi. Ikkinchidan, Navoiy uchun Muhammad Payg'ambar boshqa nabiy'larga nisbatan yuksak darajada kamolga yetgan ulug' zot. Uchinchidan, axloqiy poklik, nafsni tiyish, jabr-zulm, adolatsizlik, haqsizlik singari hayot qiyinchiliklariga qarshi kurashish Farhod insonparvarligining o'zagini tashkil qiladi va komil inson sifatida shakllanishining asosi bo'lib xizmat qiladi. Unda naqshbandiylik tariqatining, futuvvat, ya'ni javonmardlik oqimining ta'siri seziladi. To'rtinchidan, sho'rolar davrida Navoiy dostonlaridagi ikki yoshning bir-biriga muhabbati faqat dunyoviy, zohiriy nuqtai nazardan talqin qilindi, vaholanki, komil inson g'oyasini tahlil qilganda, uning dunyoviy va ilohiy, zohiriy va botiniy jihatlari, ularning bir-biri bilan chambarchas bog'liqligini yoritish zarur masalalardan biridir.

Ulug' mutafakkir odil podshohni komil insonlar sirasiga kiritar ekan, agar u adl yo'lidan borsa mamlakat obod bo'lishini, xalqning turmushi yaxshilanishini, farovonlik, mo'l-ko'lchilik bo'lishini ta'kidlaydi. Alisher Navoiy do'sti sulton Husayn Boyqaroda ham asarlarida tasvirlangan adolatli, xalqparvar, oqil podshohni ko'rishni istaydi. Doimo uni ezgu ishlarga, xalq dardi bilan yashashga undaydi. Masalan, Navoiy Husayn Boyqaroga "Hech vaqt ko'ngulni tengri taolo yodidin g'ofil va musulmonlar dodidin otil (*otil* – *o'zini chetga tortgan* – A.SH.) qilmang. Do'stlar fikridin va dushmanlar makridin beparvolig' joyiz ermas, va bu ish nadomatdin o'zga natija bermas" [2, 156-b.], – deb nasihat qiladi, saltanat ishlarini boshqarishda adolatli, xalqparvar, insonparvar bo'lishga chaqiradi.

O'rta asrlarda podshoh Xudoning yerdagi xalifasi,

degan fikr ustuvorlik qilar edi. Unga ko'ra, podshoh adolat ramzi hisoblanib, uni yer yuzi aholisiga tatbiq qilishi, o'z faoliyatida faqat adolat qonun-qoidalari bo'yicha ish tutishi, undan chetga chiqmasligi lozim. Ushbu masala yuzasidan tadqiqotlar olib borgan ingliz islomshunos olimi E.Rozentalning "Musulmon mamlakatlarda davlat boshlig'ining faoliyatiga 2 xil nuqtai nazardan baho berish odat bo'lgan. Bular, ilohiy-huquqiy va tarixiy-siyosiy jihatlardir. Qolaversa, davlat boshliqlari har qanday sharoitda ham musulmon ekanligini yodda tutib, shariat qonun-qoidalariga asosan mukammal islom davlatchiligining ustuvorligiga ishonishgan" [7, p.6], – degan e'tirofi ushbu fikmi tasdiqlaydi. Hazrat Navoiy ham o'z asarlarida podshoh xalqning er yuzidagi posboni, Allohning erdagi vakili, degan fikrga qo'shiladi. Alloma "Mahbub ul-qulub" asarida bu haqda – "Adolatli podshoh haqdan xaloyiqqa ko'rsatilgan marhamatdir, mamlakat uchun tinchlik va farovonlik sababidir. Quyosh bilan bahor yomg'iridek qora tuproqdan gullar ochar va mamlakat kishilari boshiga oltin bilan durlar sochar" [3, 12-b.], – deydi.

Xulosa sifatida aytish joizki, Alisher Navoiyning komil inson g'oyasi davlatni boshqarishda, uning tasavvuridagi ideal, mukammal jamiyat to'g'risidagi qarashlarida, odil shoh haqidagi fikr-o'ylarida, hukmdorning raiyatga munosabatida, diniy-huquqiy qoidalarga rioya qilishida o'z in'ikosini topdi. Alloma "Xamsa"ga kirgan dostonlarida, ayniqsa, "Saddi Iskandariy", "Sab'ai Sayyor", "Farhod va Shirin"da insonlarni baxt-saodatga eltuvchi, mamlakatni ravnaq toptiruvchi, xalqi farovon yashovchi, jabr-zulm, adolatsizlik, zo'ravonlik, haqsizlikdan xoli bo'lgan mukammal jamiyat va adolatli, har tomonlama komil podshoh timsolini yaratdi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Alisher Navoiy. *Nasoyimul-muhabbat*. MAT T. 17. –Toshkent: Fan, 2001.
2. Alisher Navoiy. *Munshaot*. MAT T 14. –Toshkent: Fan, 1998.
3. Alisher Navoiy. *Mahbub ul-qulub*. MAT T 14. –Toshkent: Fan, 1998.
4. *Ibrohim Haqqul. Navoiy she'riyatida komil inson mavzui // Alisher Navoiyning ijodiy merosi va uning jahonshumul ahamiyati. – Toshkent-Navoiy: Fan, 2001.*
5. *Komilov N. Tasavvuf. –Toshkent: Movaroun-nahr-O'zbekiston, 2009.*
6. *Xayrullaev M. O'rta Osiyoda ilk Uyg'onish davri madaniyati. –Toshkent: Fan, 1994.*
7. *Rosenthal E. Some aspects of islamic political thought // Islamic culture. –An English Quarterly 1948, january.*



## SHARQDA MAQOM SAN'ATINING RIVOJLANISH EVOLYUTSIYASI

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada maqom san'atining tarixiy genezisi, nazariy amaliy va retrospektiv asoslari belgilab berilgan. Shuningdek, maqom san'atining milliy va mintaqaviy ko'rinishlari yoritilgan. Undan tashqari maqom san'atining turli san'atshunos olimlar (D.Karomat, A.Djumaev, O.Ibrohimov, O.Matyakubov) tomonidan ilgari surilgan fikrlari, qarashlari qiyosiy tahlil metodi orqali ochib berilgan. Maqolaning tadqiqot metodologiyasida Ibn Sino, Forobiy, Kavkabi, Jomiy Ibn Zayla, Darvesh Ali Changiyaning qarashlaridan keng foydalanilgan. Maqolada maqom san'atining bugungi kundagi zamonaviy estetik ahamiyati to'g'risida ham fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** maqom, lad, estetika, tasavvuf, ritm, ohang, mushkilot, nasr, shahsarakhbor.

**Аннотация:** В статье про анализирован теоретические, практические и ретроспективные основы а также исторический генезис искусства макама. Определено национальные и региональные взгляды искусство макама. Кроме того, методом сравнительного анализа раскрываются идеи и взгляды на искусство макама, выдвигаемые различными искусствоведами (Д.Каромат, А.Джумаев, О.Ибрагимов, О.Матякубов). В исследовательской методологии статьи широко используются взгляды Ибн Сины, Фараби, Кавкаби, Джамии, Ибн Зайлы, Дарвиша Али Чанги. В статье также обсуждается современное эстетическое значение искусства макама.

**Ключевые слова:** макама, лад, эстетика, мистика, ритм, мелодия, мушкيلات, проза, шашсарахбор.

**Annotation:** This article identifies the theoretical and practical foundations of the art of maqom, its historical genesis, retrospective foundations. National and regional views of maqom art are highlighted. In addition, the ideas and views of maqom art thoughts by various art historians (D.Karomat, A. Djumaev, O. Ibragimov, O. Matyakubov) are revealed through the method of comparative analysis. The research methodology of the article makes extensive use of the views of Ibn Sina, Farabi, Kawkabi, Jami, Ibn Zayla, Darwish Ali Changi. The article also discusses the modern aesthetic significance of maqom art today

**Key words:** makom, lad, aesthetics, mysticism, rhythm, melody, difficulty prose, shahsarakhbor.

**Kirish.** O'zbek mumtoz musiqa san'ati turlari orasida maqomlar Sharq musiqa san'ati nafisligini anglashga yordam beradigan muhim omil hisoblanadi. U ifodaning individual shakli bo'lishi bilan bir qatorda ijrochining kayfiyati, estetik dunyoqarashi, xulq go'zalligi hamda tabiat nafosati bilan chambarchas bog'liq. Maqom va mumtoz musiqalar tinglovchilarning ruhiy olami va estetik tuyg'ulariga ijobiy ta'sir ko'rsatishi muhim ma'naviy qadriyat hisoblanadi. Shuning uchun ham diniy marosimlarga aloqador ko'pchilik kuylar – maqom va katta ashulaga juda yaqindek tuyuladi. Maqomlar musiqaning boshqa janrlaridan o'z mohiyatini ulug'vorlik va vazminlik, go'zallik va ma'naviyat mezonlari asosida aks ettirishi bilan farq qiladi.



**Zulxumor  
NURULLAYEVA,**  
O'zbekiston Milliy  
universiteti etika va  
estetika  
kafedrasida tayanch  
doktoranti



**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** Maqom san'ati, ayniqsa, Sharq xalqlari jahon sivilizatsiyasi xazinasiga bergan madaniy va ma'naviy qadriyatlar orasida ajralib turadi. Ushbu noyob, elita va boy musiqa san'ati Gibraltar bo'g'ozidan Hindiston yarim oroliga tarqaldi [1]. Bugungi kunda Turkiya, Ozarbayjon, Eron, Arab halqlari, Turkmaniston, O'zbekiston, Tojikiston, Sharqiy Turkiston kabi davlatlarda maqom san'ati mavjud. Maqomlar Sharq xalqlarida juda qadim zamonlardan mavjud bo'lgan mumtoz musiqa janridir. Ular bu xalqlarning o'ziga xos musiqa boyliklari asosida kasbiy sozanda va xonandalar tomonidan yaratilgan va uzoq madaniy-tarixiy taraqqiyot jarayonida mustaqil musiqa janri sifatida yuzaga kelgan. Modernizatsiya davri yaratgan madaniy qadriyatlarning keskin uzilishlariga qaramay, ushbu san'at hozirgi kungacha saqlanib qoldi, o'ziga xosligi va o'ziga xosligini saqlab qoldi va o'z kelajagini zamon ruhiga mos ravishda ta'minladi. Maqomlar Sharq xalqlarining musiqa merosida juda katta o'rin tutadi. Maqom atamasi arabcha so'z bo'lib, "istiqomat o'rni", "turar joy" ma'nolarida keladi. Musiqa istiloxida esa maqom musiqa cholg'ularida kuy va ashulalarni tashkil etadigan tovushlarning joylashadigan o'rni, ya'ni pardalardir. Musiqa risolalarining ba'zilarida maqomlar turlicha ta'riflanadi. Bu so'z nima ma'noni bildiradi? Ibn Zaylaning fikricha maqom so'zining lug'aviy ma'nosi, arabcha "o'rin", "joy", "holat", "vaziyat", "bosqich", "daraja" kabi ma'nolarni bildiradi. Bu atama dastlab musiqiy atama sifatida talqin qilinmagan. Maqom atamasi turi sohalarda turli ma'nolarda qo'llanilgan. U ilk bor tasavvuf ta'limotida, so'fiylikning to'rt bosqichni ifoda etgan. Bu bosqichlarni inson Oллоhni tanishi, bilishi uchun o'z nafslarini yengib, ruhiy-axloqiy poklanishi uchun bosib o'tishi lozim bo'lgan. To'rt bosqichning har biri o'n asosdan iborat bo'lib, ular "maqom" deb atalgan. Keyinchalik maqom so'zi matematikada "mahraj" ma'nosini anglatgan [2]. Dilorom Karomatning "12 maqam System and its similarity with Indian Raga's" (according to the Indian Manuscripts) (O'n ikki maqom tizimi va uning hind ragalari bilan o'xshashligi (qo'lyozmalarga ko'ra) deb nomlangan maqolasida yozishicha, Kashmirda ham maqom so'fiyona kalom [3] deb atalishini e'tirof etadi.

XIII-asrning 50-yillari "nag'ma joyi", "parda o'rni" ma'nolarini anglatuvchi atama sifatida qo'llanilgan. Maqom atamasi XV-XVIII asr manbalarida "lad", "lad tizim"ni anglatgan va o'n ikki maqom parda tizimini bildiruvchi atama tarkibida qo'llanilgan.

Maqomning mohiyatini ochib berayotganda haddan tashqari idealizatsiya va tasavvuf harakatlaridan, shuningdek uni haddan tashqari moddiy nuqtai nazardan talqin qilish tendensiyasidan qochish kerak. Umuman olganda, o'rta asrlar san'ati, shu bilan birga maqom san'ati qarama-qarshi dunyoviy va diniy qutbni o'z ichiga oladi:

Maqomlarni tadqiq etgan bir qancha o'zbek olimlarining asarlarida, dastlabki maqom tizimlari qachon va qanday holatda yuzaga kelganligi xususida aniq ma'lumotlar yo'qligi aytib o'tiladi. Shunga qaramay, San'atshunoslik fanlari doktori O.Ibrohimov va yana bir qancha olimlarning fikriga ko'ra, maqom kuylari ilohiy ong tomonidan yaratilgan, ya'ni payg'ambarlar tomonidan yaratilgan degan qarashni ilgari suradilar. Musiqashunos olim maqom san'atini tasavvuf ilmi bilan bog'lagan. Uning fikricha maqomlarning shakllanishi va vujudga kelishida payg'ambarlarning roli katta. Masalan Rost maqomi hazrati Odam Alayhissalomga, Ushshoq maqomi esa, Nuh Alayhissalomga, Rohaviy maqomi Muhammad s.a.v.ga nisbat berilgan [4].

San'atshunos olim A.Djumayev va bir qancha olimlar fikriga ko'ra, maqom kuylari sof matematik bilimlarga asoslanganligini va maqomning ilk yetti pardasi Eron shoxi Xisrav Parvez saroyida xizmat qilgan Borbad tomonidan yaratilganligi e'tirof etiladi. Olimning fikricha maqom kuylari paydo bo'lishida ilohiylikning daxli yo'q. U asrlar davomida Barbod asos solgan yetti pardaning evolyutsiyasi natijasida paydo bo'lgan degan fikrni ilgari suradi [5].

Ingliz olimi G.Farmerning islom ensiklopediyasiga yozgan musiqaga doir maqolasida, O'rta Osiyo va Xuroson xalqlarida arab istilosigacha maxsus musiqa nazariyasi mavjud bo'lganligi qayd etib o'tilgan. Bunday musiqa nazariyasida esa, maqom kabi nazariy asosga ega bo'lgan professional musiqa janrlariga o'z ifodasini topishi ehtimoldan holi emas [6], deb ta'kidlaydi.

Lekin ayrim olimlarning asarlarida Sharq xalqlari musiqa sivilizatsiyasi shakllanishi arab xalqlari musiqa madaniyati bilan bog'liqligini ta'kidlab o'tganlar. Musiqa sivilizatsiyasi o'zida Suriya, Vizantiya, Misr, Eron, Turk, arab-badaviy musiqa an'analarning qorishmasidan paydo bo'lgan. Bu etnik qorishmada turkiy, eron va arab xalqlari musiqiy etnostrukturasida asosiy o'rinni egallaydi. Qadimgi manbalariga ko'ra, maqom kuylarining asoslari aynan badaviylarga borib taqalishi e'tirof etilgan. Badaviylar ko'chmanchi hayot tarzida yashaganlar, islomgacha bo'lgan davrda badaviylar har xil toshdan yasalgan bud sanamlarga sig'inganlar [7]. Sig'inish jarayonida xudosini ulug'lovchi kuy qo'shiqlarni qiroat bilan ijro qilganlar. E.Uilson-Dikson o'zining "Xristian musiqasi tarixi" nomli tadqiqotida Arabiston cho'lida badaviy qabilasiga tashrifi paytida yuz bergan bitta epizodni misol qilib keltiradi. Uzoq safarga chiqishdan oldin badaviylar baland ovozda xitob qila boshladilar va qandaydir madhiyaga o'xshash bir narsani kuylay boshladilar. Keyinchalik E.Uilson-Dikson yozadi: "Badaviylarning o'ziga xos faryodlari – har bir qabila uchun har xil bo'lgan, "Rabbimiz taxtidagi qo'l" kabi musiqiy undovlar bilan birga sayohatlarini boshlagan va tugatgan[8].

**Tadqiqot metodologiyasi.** Shu o'rinda maqom kuylarining ilk namunalari shu tariqa yuzaga kelgan deb taxmin qilish mumkin. Islom dinini qabul qilgan badaviylar keyinchalik bu tarzda ibodatlariga ma'naviy ehtiyoj qolmadi va bu musiqa san'atiga aylana boshladi. Shu tarzda arab musiqasi paydo bo'la boshladi.

O.Matyakubov nazariy jihatdan Maqomot evolyutsiyasini uchta yirik tarixiy davrga ajratadi: VI-VII asrlardan XIII asr boshlarigacha, XIII-XV asrlar va XVI asrdan XX asr boshlarigacha bo'lish mumkin [9]. O.Ibrohimov esa maqomlar tarixini o'rganish nuqtai nazardan ikkiga bo'ladi:

1) Maqomlarning qadimiy davrlarga mansub kuy va qatlamlar tarixi; 2) Maqom tizimlarining shakllanish davri tarixi [10].

Falsafiy nuqtai nazardan maqom evolyutsiyasiga baho beradigan bo'lsak, maqom kuy qo'shiqlari oliy sivilizatsiya yoki arsh a'lodan kelgan. U tasavvufdagi "hol"ni ifodalaydi ya'ni, so'fiy "jazva" holatiga aynan shu kuylar orqali tushgan va ruhiy komillikka intilgan. Balki shu sababdan maqom kuylari katta hajmi o'z ichiga oladi.

Ushbu maqomchilik san'ati insonning tafakkuriga, hissiy va estetik vazifasidan tashqari ichki fikr va gnoseologik oydinlashtirishga yordam beradi. Falsafiy nuqtai nazardan maqomning tarixiy evolyutsiyasini 3 bosqichga bo'lish mumkin. 1-bosqich maqomlarining bazis substansiyalari (iyqo' va alhon)ning shakllanishi, 2-bosqich maqomlarning nazariy metodologik asoslarining shakllanishi, 3-bosqich maqomlarining zamonaviy rivojlangan davri.

Birinchi bosqichda maqom hali bir janr sifatida o'zini to'liq namoyon etmagan. Uning faqat bazis substansiyalari (iyqo' va alhon) shakllanayotgan davr edi. Buni Ibn Sino va Forobiy asarlarida ko'rish mumkin. "Iyqo" (ritm) arabcha "vaqa" "tuzmoq", "sozlamoq", "belgilamoq" alhon (arabcha "lahn" so'zining ko'pligi) alhon (kuy) ma'nosini bildiradi. Ritm va kuy nafaqat maqom san'atida, balki boshqa musiqiy janrlarning ham asosida yotuvchi omil hisoblanadi. Bu haqda keyingi bobda batafsil to'xtalib o'tamiz.

Ikkinchi bosqichda maqom san'atining nazariy amaliy asoslari yuzaga keldi. Bu davrda Qutbiddin Sheroziy, Ibn Zayla, Sayfiddin Urmaviy, Jomiy, Zaynulobidin Husayniy, Darvish Ali Changiy, Najmiddin Kavkabi [11] kabi allomalarning ijod namunalari Sayfiddin Urmaviy davrida tizimlashtirildi.

Sayfiddin Urmaviy davrida ishlab chiqilgan O'n ikki maqom tizimi XVII asrgacha davom etdi. O'n ikki maqom negizida milliy va mintaqaviy maqom turkumlari vujudga kela boshladi. O'zbek tojiklarda maqom, turkman uyg'urlarda muqom, eron xalqlari, ozarbayjon xalqlarida mug'om yoki dastgoh, arab xalqlarida maqom shaklida vujudga keldi [12].

Maqom san'atining zamonaviy rivojlangan uchinchi bosqichida O'n ikki maqom tizimi XIX asrda oltitagga tushib qolishining sabablaridan biri fikrimizcha,

insonlarning estetik ehtiyojidan kelib chiqib estetik ong, estetik tafakkur va estetik didning transformatsiyasi jarayonida yuzaga keldi. Shuningdek makon va zamonda vujudga kelgan ijtimoiy-ma'naviy o'zgarishlar bunga yaqqol bo'la oladi.

Shashmaqom O'rta Osiyoda yashab kelgan maqom turkumlarining eng so'nggi shaklidir va bundan taxminan ikki asr ilgari (XVIII a.) shakllangan. Maqom san'atiga faol qiziqish, uni ma'naviy qadriyat sifatida e'zozlash XIX asrdan e'tiboran Buxoro, Xiva va Qo'qon xonliklarida biroz jonlana boshladi. XX asr boshlariga kelib mintaqada jadidchilik harakatining rivojlanishi munosabati bilan milliy musiqa maqomlariga bo'lgan ehtiyoj yangi bir bosqichga ko'tarildi. Jadid namoyondalari vakili bo'lmish Abdurauf Fitrat "O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi" asarida Sharq maqomchilik san'atining o'ziga xos xususiyatlari to'g'risidagi fikr yuritgan. XX asrning 20-yillarida bu mavzuga oid birin ketin Mulla Bekjon Rahmon o'g'li (Bekjon Rahmonov) va Muhammad Yusuf Devonzoda (Matyusuf Xarratov)larning "Xorazm musiqiy tarixchasi", A.Uspenskiyning "Shoshmaqom" nota to'plami va "O'zbeklarning klassik musiqasi" maqolasi, G'ulom Zafariyning maqolalari va Farg'ona-Toshkent ustozlarining shajarasi maqomshunoslik tarixida yangi burilishning yuzaga kelganidan dalolat beradi [13].

Dovud (Dovudcha), Yusuf (Yusufi Gurg-Yusuf Bo'ri), Levi Boboxon (Levicha) XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida Buxoroda o'tgan yahudiy hofizlari. Bu san'atkorlarning birgina syporishi (syporish maqom turkumlarini yakunlovchi kichik bir kuy lavhasi) – tushirimi majoziy ma'noda osmondagi falak raqqosalarini ham yerga qaytaradi, "tushiradi",– deb ta'rif beriladi [14].

**Tahlil va natijalar.** Keyingi asrlarda maqom san'ati ustalardan shogirdlarga nafaqat an'anaviy yozma shaklda, balki individual ijodkorlarning individual talqinlari orqali ham o'tdi. Shu sababli, qurilma va uning qismlari dastlabki namunalardan sezilarli o'zgarishlarga duch keldi.

XIX-XX asrlar maqomlarni notalashtirish davri bo'ldi. Hozir O'zbekistonda maqomlarning uch turi mavjud: 1. Olti maqom (Shashmaqom yoki Buxoro maqomlari). 2. Xorazm maqomlari. 3. Farg'ona – Toshkent maqomlari. Shu kunga qadar xalqning sevimli kuylari bo'lib kelayotgan Shashmaqom (olti maqom) Duvozdah maqom zaminida shakllanib bordi. Shashmaqom olti turkumdagi maqomlarni o'z ichiga oladi. Buzruk, Rost, Navo, Dugoh, Segoh va Iroq. Bu maqomlardan har biri uch butoqdan tashkil topadi: 1. Mushkilot – faqat cholg'u asboblari bilangina ijro etiladi. 2. Nasr – cholg'u va ashula bilan ijro etiladi. 3. Ufar – cholg'u, ashula va o'yin bilan ijro etiladi. Har bir maqom alohida cholg'u va ashula yo'llariga ega bo'lib, bu yo'llarning o'zi bir nechtalab musiqiy asarlarni birlashtiradi. Maqomlar avlodan-avlodga an'anaviy og'zaki tarzda o'tkazilib, bunda "ustoz-sho-

gird" usulidan foydalanilgan. Shogirdlar o'z ustozlari ijrosini juda uzoq vaqt o'zlashtirib, ma'lum imtihon topshirgandan keyin mustaqil ijro etishlariga ruxsat berilgan. Maqomlarning zamonaviy nota matni birinchi bo'lib taniqli kompozitor va etnograf V. A. Uspenskiy tomonidan buxorolik maqom ustozlari hofiz Ota Jalol Nosirov va sozanda Ota G'iyos Abdug'anilar ijrolari asosida yaratilgan. Mahalliy mutaxassislardan esa birinchi bo'lib bu ishga akademik Yunus Rajabiy qo'l urdi va Shashmaqomni to'liq notaga tushirib ikki marta nashr ettirdi. Maqomlarning cholg'u kuylar bo'limi – "Mushkilot" deb yuritiladi. "Mushkilot"ning qismlari esa quyidagicha nomlanadi: 1. Tasnif 2. Tarje'. 3. Gardun 4. Muhammas 5. Saqil. Maqomlarning ashula bo'limi – "Nasr" deb yuritiladi. Nasrning qismlari "Tasnif" (tuzish, tashkil etish), "Tarje'" (murojat qilmoq), "Gardun" (falak), "Muxammas" (besh ritm), "Saqil" (og'ir) bular usulning nomini anglatadi. "Sarahbor" (boshlanish, kirish), bir qancha "Tarona" (qo'shiq)lar, "Talqin" (xotira), "Suporish" (qaytish) va "Ufar" (raqs) bular ham usulning nomi bo'lib, deyarli barcha maqomlarda uchraydi [15].

Shashmaqom fors tilida olti maqom ma'nosini anglatadi. Uning tarkibiga quyidagi maqomlar kiradi: 1. Buzruk 2. Rost 3. Navo 4. Dugoh 5. Segoh 6. Iroq. Shashmaqom bunday ko'rinishda XVIII asr o'rtalarida Buxoroda shakllanganligi uchun Buxoro shashmaqomi ham deyiladi [16]. Shashmaqom – olti maqom tipikumi "Olti Saraxbor" deb ham aytiladi. Shashmaqom va "Shashsaraxbor", atamallari teng ma'nolardagi sinonim so'zlar o'rniida keladi. Muayyan turkumning negizini tashkil etuvchi maqomlar zamonaviy musiqashunoslik istilohida "birinchi guruh sho'balari" deb atala boshlandi. Ular Shashmaqom tizimining birlamchi o'zagini – tom manodagi Shashmaqomni tashkil qiladi va Maqom majmuasining o'n sakkiztasini o'z ichiga oladi: Rost, Ushshoq Navro'zi Sabo, Panjgoh, Buzruk, Uzzol, Nasrullovi, Navo, Bayot, Oraz, Husayniy, Dugoh, Chorgoh, Segoh, Ajam, Navro'zi Xoro, Iroq Muxayyar [17].

Yuqorida tahlil qilganimizdek xalq marosim musiqalari estetik qadriyat sifatida xalq turmush tarzi va madaniyati faoliyatida muhim ahamiyatga ega. Chunki ular asrlar davomida xalqning milliy an'analari, ma'naviy dunyoqarashi hamda estetik olamini boyitishga xizmat qilgan qadriyatlarni kuy va ohang vositasida saqlab keldi. Mumtoz musiqa san'ati ham ana shu xalq ijodidan oziqlanadi. O'zbek milliy musiqa madaniyati boy badiiy-estetik qimmatga ega. O'zbek musiqa merosi faqatgina folklor asarlari bilan cheklanib qolmay, professional va og'zaki an'anaviy merosimizni, shuningdek, professional ijrochilikni, professional musiqani va professional janrlarni o'z ichiga qamrab oladi.

**Xulosa va takliflar.** Baland pardalarda ijro etilishi, katta avjlar mavjudligi, so'zlarning tinglovchilarga ravon etib borishi va ta'sirchanligi katta ashulaga xos.

Katta ashula ijrochidan zo'r qobiliyat va mahorat, shuningdek, so'z bo'g'inlariga ehtiyot bo'lishni, she'ming ma'nosini tinglovchilarga to'la yetkazishni talab qiladi. Katta ashula qadimiy marosim va mehnat qo'shiqlari, marsiya, navha, cholg'u qo'shiqlari hamda aruz vaznidagi g'azallarning qadimiy o'qilish uslublari, aytim ijrochilik madaniyatining yuksalishi zaminida o'rta asrlarda vujudga kelgan. Uning o'tmishdagi namunalarida lirik va nasihatomuz g'azallar bilan bir qatorda diniy, tasavvufiy yo'nalishdagi she'rlar ham kuylanadi. Ushbu she'r va g'azallar esa o'z navbatida ulug'vorlik, go'zallik va hattoki matniga qarab fojiviylik kasb etadi. Shu asnoda insonga estetik zavq bag'ishlaydi.

Shashmaqomning kuylarini eshitish jarayonida kishi o'zida qandaydir mo'jizaviy hislarni tuyadi. Aynan shuning uchun ham bizning maqomlarimizni sayyohlar o'z operasidek eshitib zavq olishlariga ma'naviy ehtiyojlari katta deb hisoblaymiz.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. М. А. Родионов. *Культура и этнография Ближнего Востока: арабы и ислам. Санкт-Петербурге Президентская библиотека, 2015.*
2. Oripov Z. *Ibn Zaylaning "Kitab-I-kafi fi-I-musiqa" risolasidagi atamalar – T.: 2008.*  
<http://syrianmusiclives.files.wordpress.com>> *Dilom Karomatning 12 maqam System and its similarity with Indian Raga's (according to the Indian Manuscripts).*  
*O.Ibrohimov s.d.f.dissertatsiyasi. Maqomlar semantikasi.*
3. Джумаев А. *"Эстетические основы макамата" рукопись – Т.: 1991.-С.24.*
4. I.Rajabov "Maqomlar", "SAN'AT" nashriyoti. Toshkent. 2006-y.  
<http://yanko.lib.ru/books/cultur/sadohin-culturology-teor-i-ist-cult-2007-a.htm> A. P. A. П. Садохин *культурология теория и история культуры Учебное пособие, МОСКВА ЭКСМО 2007. 398,401-стр.*
5. Эндрю Уилсон-Диксон – *История христианской музыки Пер. с англ. – СПб.: Мирт, 2001. – 428 с.*
6. O.Matyakubov "Maqomot", "MUSIQA" nashriyoti. Toshkent. 2004-yil.47-, 48-bet.
7. O.Ibroximov "Maqom san'ati o'rta asr shahar madaniyati tizimida" (IX-XIII asrlar) Toshkent. 2005-yil, 6-b.
8. I.Rajabov "Maqomlar", "SAN'AT" nashriyoti. Toshkent. 2006-y. 21-, 22-bet.
9. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent. 2003-yil. 5-jild, 544-bet.
10. O.Matyakubov "Maqomot", "MUSIQA" nashriyoti. Toshkent. 2004-yil. 20-bet.
11. O.Matyakubov "Maqomot", "MUSIQA" nashriyoti. Toshkent. 2004-yil. 54-bet.
12. N.Mironov "Muzika uzbekov" – Samarkand: Uzb. Gos izd-vo, 1926.
13. "O'zbekiston nomoddiy madaniy merosi" nashri. 2019-y.
14. O.Matyakubov "Maqomot", "MUSIQA" nashriyoti. Toshkent. 2004-yil.

## ABU ALI IBN SINONING ONTOLOGIK TA'LIMOTIDA NEOPLATONIK UNSURLAR VA AXLOQIY QARASHLAR

**Annotatsiya:** Maqolada Abu Ali ibn Sinoning ontologik ta'limotida neoplatonik unsurlar va axloqiy qarashlarning o'ziga xos xususiyatlari ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Shuningdek Ibn Sinoning fanlar tadqiqot ob'ektlariga ko'ra ajratishga asoslangan tasniflar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** ontologiya, ta'limot, neoplatonik unchurlar, axloqiy qarashlar, ijtimoiy fanlar, inson borlig'i, mavjudlik.

**Аннотация:** В статье научно анализируются особенности неоплатонических элементов и моральных воззрений в онтологическом учении Абу Али ибн Сины. Существуют также классификации, основанные на разделении Ибн Сины по объектам научных исследований.

**Ключевые слова:** онтология, доктрина, неоплатонические элементы, моральные взгляды, социальные науки, человеческое существование, существование.

**Annotation:** The article scientifically analyzes the features of neoplatonic elements and moral views in the ontological teaching of Abu Ali ibn Sina. There are also classifications based on the division of Ibn Sina according to the objects of scientific research.

**Keywords:** ontology, doctrine, neoplatonic elements, moral views, social sciences, human existence, existence.



**Gularam MASHARIPOVA,**  
Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti professori, falsafa fanlari doktori

**M**arkaziy Osiyolik allomalardan biri Abu Ali ibn Sino falsafada Abu Nasr Forobiy an'anasini davom ettirgan holda "Donishnoma" asarida ta'kidlaganidek: "Har bir ilm ichida uni o'rganadigan bir narsa bo'ladi. Bu narsalar ikki turga bo'linadi: biri borligi bizning harakatimizga bog'liq bo'lgan narsalar, ikkinchisi, mavjudligi bizning harakatimizga bog'liq bo'lmagan narsalar. Avvalgisiga bizning qilmishlarimiz misol bo'lsa, ikkinchisiga yer, osmon, hayvon va o'simliklar misol bo'ladi" [1, 76-b]. Ibn Sino axloq ilmining amaliy falsafa tarkibidagi o'rini aniqlab olishga intiladi, uning fikricha, falsafa amaliy va nazariy qismlarga bo'linar ekan, amaliy falsafani axloqshunoslik bilan bir deb bo'lmaydi. Shuning uchun uni axloq ilmi, degan ma'qul.

Abu Ali ibn Sino ijodida fanning strukturasi tekshirish, ilmlarning tartibini aniqlash, ulami tasnif qilishga e'tibor alohida o'rin egallaydi. Bu masalada ham olim Forobiy boshlab bergan fanlar tasnifi haqidagi masalani yanada taraqqiy ettirishga harakat qiladi. Ibn Sinoning falsafiy sistemasini ifodalovchi asarlarida ("Kitob ush-shifo", "Kitob un-najot", "Donishnoma") falsafiy bilimlar: mantiq, fizika, matematika, metafizika tartibida beriladi. Bulardan mantiq – bilishning metodi, mavjudotni o'rganish, u haqda fikr yuritishning ilmiy usuli sifatida talqin etiladi. "Mantiq, – deb yozadi ibn Sino, – insonga shunday bir qoida beradiki, bu qoida yordamida inson xulosa chiqarishda xatolardan saqlanadi". Mantiq yordamida inson haqiqiy bilimni yolg'ondan ajratadi va noma'lum narsalarni o'rganadi. U



mantiq ilmini tadqiq etishga katta e'tibor beradi, unga maxsus risolalar bag'ishlaydi. Xususan, u mantiqiy usullar, ta'riflash, hukm, xulosa chiqarish, isbotlash masalalarini o'rganishga katta hissa qo'shdi, mantiq fanini Forobiydan so'ng bilishning to'g'ri metodi sifatida rivojlantirdi. Mantiqdan tashqari barcha qolgan ilmlarni Ibn Sino tabiat va ijtimoiy hodisalar haqidagi ilmlar sifatida o'zining "Aqsom ul-ulum ul-aqliya" ("Aqliy bilimlar tasnifi") asarida alohida-alohida sanab, ta'rif berib o'tadi [5, 158-159-b.].

Abu Ali ibn Sino falsafiy ilmlarni avvalo ikkiga bo'ladi: nazariy va amaliy ilmlar. Nazariy ilmlar haqiqatni to'g'ri anglasa, amaliy ilmlar xo'jalik faoliyatida dasturul amal vazifasini o'tagan. Falsafiy-nazariy ilmlarga kiruvchi har uch turdagi ilmlar asosiy va yordamchi bo'laklarga ajraladi; tabiatshunoslik ilmlari astrologiya, tibbiyot, al-kimyo kabi yetti xil tarmoqni o'z ichiga oladi. Matematika esa arifmetika, geometriya, astronomiya, musiqa nomi bilan 4 tarmoqqa bo'linadi. Asarda 29 ilm tarmog'i tilga olinadi.

Abu Ali ibn Sino o'z dunyoqarashida panteistik prinsipga asoslanadi: Tangri va borliq bir-biriga zid, bir-birini inkor etuvchi narsalar emas, aksincha, ular bir butun holda mavjudotni tashkil etadi. Abadiylik Tangriga xos. Tangri va tabiat ma'lum pog'onalar yordamida bog'lanadi. Uzun va yaxlit zanjirning bir tomonida yaratuvchi Tangri – zaruriy vujud, ikkinchi chekkasida tabiat yotadi. Ibn Sino fikricha, haqiqiy axloqiy fazilatlar va ideal jamoaga shu mavjud dunyoda erishuv mumkin, jamiyatda insonlar o'zaro yordam asosida yashashlari kerak. Jamiyat kishilarning o'zaro kelishuvi asosida qabul qilinadigan adolatli qonunlar yordamida boshqarilishi lozimligini ta'kidlaydi. Jamiyat a'zolarining hammasi bu qonunga itoat etishlari, qonunni buzish va adolatsizlik jazolanishi, basharti, podshoning o'zi adolatsizlikka yo'l qo'ysa, xalqning unga qarshi qo'zg'olonni to'g'ri va jamiyat tomonidan qo'llab-quvvatlanmog'i lozim.

Olimning falsafaga oid eng yirik va muhim asari "Kitob ash-shifo"dir. U 4 qismdan iborat: 1) mantiq 9 bo'lakka bo'lingan: al-madhal – (المدخل) mantiqqa kirish; al-maqulot (المقولات) – kategoriyalar; al-iborat (العبارات) – interpretasiya; al-qiyos (القياس) – sillogizm; al-burhon (البرهان) – isbot, dalil; al-jadal (الجدل) – tortishuv, dialektika; as-safsata (السفسطة) – sofistika; al-xitoba (الخطابة) – ritorika; ash-she'r (الشعر) – poetika (she'r san'ati); 2) tabiiyot (bu erda minerallar, o'simliklar, hayvonot olami va insonlar haqida alohida-alohida bo'limlarda gapiriladi); 3) riyoziyot 4 fanga bo'lingan: hisob (arifmetika), geometriya (geometriya), astronomiya, musiqa; 4) metafizika yoki ilohiyot. Bu asarning ayrim qismlari lotin, suryoniy, ibroniy, nemis, ingliz, fransuz, rus, fors va o'zbek tillarida nashr etilgan.

Abu Ali ibn Sinoning "Kitob an-najot" (كتاب النجات) asari "Kitob ash-shifo" (كتاب الشفا) ning qisqartirilgan shakli bo'lib, u ham qisman jahonning bir necha tillariga tarjima qilingan. Olimning falsafiy qarashlari yana "Al-ishorat vat-tanbihot" (الإشارات والتنبيهات) ("Ishoralalar va tanbihlar"), "Hikmat al-mashriqiyn" (حكمة المشرقيين) ("SHarqchilar falsafasi"), "Kitob al-ishorat fil-mantiq val-hikmat" (كتاب اشارات في المنطق والحكمة) ("Mantiq va falsafaning ishoralari"), fors tilida yozilgan "Donishnoma" (دانشنامة) ("Bilim kitobi") va boshqa turli hajmdagi falsafiy risolalarda hamda "Tayr qissasi", "Salomon va Ibsol", "Hayy ibn Yaqzon", "Yusuf haqida qissa" kabi falsafiy mazmundagi badiiy qissalarda o'z aksini topgan.

Abu Ali ibn Sinoning dunyoqarashi Aristotel ta'limoti va Forobiy asarlari ta'sirida shakllandi. Uning fikricha, falsafaning vazifasi mavjudotni, ya'ni barcha mavjud narsalarni, ularning kelib chiqishi, tartibi, o'zaro munosabati, bir-biriga o'tishini zaruriyat, imkoniyat, voqelik, sababiyat omillari asosida har tomonlama o'rganishdan iborat. Olamda mavjud barcha narsalar ikkiga bo'linadi: zaruriy vujud (vujudi vojib) va imkoniy vujud (vujudi mumkin). Zaruriy vujud eng irodali, qudratli, dono Tangridir. Qolgan narsalar imkoniyat tarzida mavjud bo'lib, Tangridan kelib chiqadi. Zaruriy vujud bilan imkoniy vujud munosabati sabab va oqibat munosabatidir. Bu jarayonda olamdagi hamma narsalar emanasiya tarzida, ya'ni quyoshdan chiqayotgan nur shaklida asta-sekin amalga oshadi. Shu tartibda imkoniyat shaklida mavjud bo'lgan aql, jon, jism, ular bilan bog'liq osmon sferalari kelib chiqadi. Bularning hammasi substansiya (javhar) bo'lib, yana borliqda aksidensiya – narsalarning rangi, hajmi, belgilari, xillari mavjud. Jism modda va shakldan tashkil topadi. Xudo abadiy, uning oqibati bo'lmish materiya ham abadiydir. Uning o'zi boshqa tayin jismlarning asosidir. Narsalarning moddiy asosi hech qachon yo'qolmaydi. Materiyaning eng sodda bo'linmas shakli 4 unsur: suv, havo, olov, tuproqdan iborat. Ularning turlicha o'zaro birikuvi natijasida murakkab moddiy narsalar tashkil topadi. Murakkab narsalar shaklan o'zgarishi mumkin, lekin ularning moddiy asosi bo'lgan 4 unsur abadiy saqlanadi, yo'qolmaydi [6, 95-b.].

Alloma mineralogiya (ma'danshunoslik) sohasida ham salmoqli ishlar qilgan. U minerallarning original tasnifini taklif etdi. Unga ko'ra, barcha ma'danlar 4 guruhga: toshlar, eriydigan jismlar (metallar), oltin-gugurtli yonuvchi birikmalar va tuzlarga bo'linadi. Bu tasnif to' XIX asrgacha deyarli o'zgarishsiz saqlanib keldi. Ibn Sinoning geologiya va mineralogiyaga oid fikrlari uning "Al-Af'ol va-linfiolot" ("Ta'sir va ta'sirlanish") asarida ham uchraydi.

Abu Ali ibn Sinoning tabobatda qilgan ishlari uning nomini bir necha asrlarga shu fan sohasi bi-

lan chambarchas bog'ladi. Olimning tabobat taraqqiyotidagi buyuk xizmati shundaki, u o'zigacha o'tgan turli xalq namoyandalari tomonidan asrlar davomida tib ilmi sohasida to'plangan ma'lumotlarni saralab, muayyan tartibga soldi, ularni o'z tajribalari bilan boyitgan holda ma'lum nazariya va qonun-qoida asosida umumlashtirdi. Bunga uning "Tib qonunlari" va bu asarning jahon tib ilmi tarixida tutgan mavqei va qozongan shuhrati yorqin dalildir.

Abu Ali ibn Sino neoplatoniklarning jon hissiy narsalarni tananing biron-bir a'zosisiz idrok etadi, degan ta'limotini asossiz deb hisoblaydi. "Qadimda ayrim olimlar (neoplatoniklar) jon hissiy idrok etiluvchi narsalarni hech qanday organlarsiz bevosita sezadi, deb faraz qilganlar. Muhitga kelsak, bu – ko'rish uchun muhit bo'lib xizmat qiluvchi havo, organlarga kelsak, bu – ko'rish organi bo'lib xizmat qiluvchi ko'zdir. Biroq, ular haqiqatdan yiroqdir, chunki hissiy idrok etish jonning o'zida bu organlarsiz yuz berganida, mazkur organlar behuda yaratilgan bo'lib chiqar, ulardan hech qanday naf bo'lmas edi", deb yozadi va so'zining davomida neoplatoniklarning qarashlari asossiz ekanligini ta'kidlab, haqiqat sezgilar tana a'zolariga muhtojligidadir [2, 265-266-bb.], degan xulosaga keladi.

Ibn Sino sezgilar va sezgi organlari haqida gapirar ekan, u yoki bu sezgining yuzaga kelish mexanizmini ilmiy tushuntirishga harakat qiladi. Uning fikricha, hech qanday jism o'z holicha ovozga ega bo'lmaydi. Ovoz ikki jism to'qnashganda havo va harakatning tebranishi natijasida yuzaga keladi. Bu to'lqinlar juda tez tarqaladi. Ular quloqqa yetgach, tebranuvchi havo eshitish nervlariga tegadi, ular bundan jonni xabardor etadi [3, 260-261-bb.]. Bu tavsif ancha sodda bayon etilgan bo'lsa-da, hozirgi tasavvurlarga mos keladi. Shuningdek, Ibn Sino sezgilarni hali ob'ektiv dunyoning sub'ektiv obrazi sifatida idrok etmaganidan dalolat beradi. Sezgilarni tashqi ta'sirning organizmdagi harakati sifatida tushuntirar ekan, Ibn Sino uni mexanik talqin qiladi.

Ibn Sino ko'rish haqidagi ta'limotni ishlab chiqdi. Ko'rish jarayonini tushuntirar ekan, u ayni vaqtda Platonning bu boradagi ta'limoti asossiz ekanligini ko'rsatadi. Ibn Sino yorug'likni ko'rishning asosiy vositasi sifatida alohida qayd etadi [2, 224-b.]. Alloma sezgilar va tuyg'ularning barcha shakllarini o'rganib, ularning fiziologik asoslarini, ya'ni miya tuzilishida sezgi markazlarining joylashuvini tushuntirishga harakat qildi. Miyani aks ettirish faoliyatining bosh apparati deb talqin qilib, hissiy bilish shaklini miya bilan bog'ladi, uni idrok etish va sezish asosi [3, 38-b.], deb e'tirof etdi. Ibn Sino ta'limotiga ko'ra, in'ikos faqat aks ettiruvchi tizimga bog'liq emas. Sezish markazi – miyaning old qismida, tasavvur qilish markazi – mi-

yaning o'rta qismida, eslab qolish qobiliyati – miyaning orqa qismida joylashgan. "Kitob un-najot" asarida Ibn Sino har bir sezgining fiziologik asoslarini tadqiq etar ekan, hissiy bilish jarayonida asablar muhim rol o'ynashini qayd etadi. Uning fikricha, miya asablar vositasida sezgilar va harakatlarni insonning boshqa a'zolariga uzatadi. Asablar miya uchun o'tkazkich bo'lib xizmat qiladi [3, 41-b.]. Umumiy ma'lum tasavvurga ko'ra, asablar bosh miyadan boshlanadi, ularning tarmoqlari terining yuzi tomonida tugaydi [3, 39-b.]. Ko'rib turganimizdek, Ibn Sino hissiy bilishning fizik va fiziologik asoslarini ilmiy yo'l bilan tushuntirishga harakat qiladi.

Ibn Sino O'rta Osiyoning boshqa mutafakkirlari kabi tasavvumi ichki sezgilar qatoriga kiritadi. Uning falsafiy merosini qiyosiy o'rganish tabiat hamda tasavvurning gnoseologik funksiyasini tushunishda yagona yondashuvga tayanganini ko'rsatadi. Uning tasavvurining kuchi shundaki, umumiy sezgiga kiruvchi hamma narsa bizning sezgilarimizgacha etib boradi [4, 262-b.], deb qayd etadi.

Abu Ali ibn Sino musiqa bobida Forobiyning ilmiy yo'nalishini davom ettirgan yirik nazariyotchidir. Musiqa haqidagi "Javome' ilm ul-musiqiy" ("Musiqa ilmiga oid to'plam") asari "Kitob ash-shifo"ning bir qismi bo'lib, har biri bir necha bobli 6 bo'limdan iborat. "An-najot", "Donishnoma"larda musiqa haqida kichik bo'limlar mavjud, "Tib qonunlari", "Risolai ishq" va boshqa asarlarida musiqaning ayrim masalalari haqida fikr yuritgan. O'z davri musiqasining barcha muammolarini bayon etgan: nag'ma, bo'd (interval), lad tizimlari, iyqo, kuy yaratish, musiqa asboblari va h.k. Evropada keyinchalik "sof tizma (tovush qator)" atalgan musiqaviy tuzilmani birinchi bo'lib asoslagan.

Abu Ali ibn Sino musiqiy go'zallik haqida mukammal ta'limotni ilgari surib, musiqani hamohanglikning eng kamolga etgan turi, deb biladi. Ritm masalalariga Sharqning boshqa musiqa nazariyotchilari singari aruz badiiy tizim bilan bog'liq holda qaraydi. Tabib sifatida u musiqani muhim tibbiy vositalar jumlasiga kiritgan. Inson nutqiy ohanglari rivojlanishi natijasida musiqa paydo bo'lganligi haqidagi nazariyasi hozirgi zamonaviy musiqa nazariyalariga mos keladi. O'zining barkamol shaxsni tarbiyalash haqidagi g'oyasida musiqani asosiy vositalar sirasiga kiritgan.

Xulosa sifatida aytish joizki, Abu Ali ibn Sino o'zining falsafiy ta'limotida rohat va azob-uqubat, yaxshilik va yomonlik, iffat, sharm-hayo va benomuslik, adolat va adolatsizlik, saxiylik va baxillik, donolik va johillik, kamtarlik va takabburlik, sevgi va nafrat, poklik va nopoklik, vafodorlik va bevafoqlik, manmanlik, maqtanchoqlik singari odob-axloqqa taluqlik masalalarga alohida e'tibor bilan qaradi. Uning fikricha, yaxshi va yomon xulqlarning hammasi

odatdan paydo bo'lishi, odamlarning yaxshi yoki yomon bo'lishiga hukumat ahllarining ta'siri ham borligini tushuntirishga harakat qildi. U insonni o'ch olishi, aldash, rashk, bo'hton, tuhmat, xusumat singari yomon xulq, fe'l-atvorlardan o'zini tiyib yurishi, bema'ni yo'llarga kirmasligi lozimligini ta'kidladi. Shuningdek, xayrli hatti-harakatlarni amalga oshiruvchilar uchun ham, yomon hatti-harakatlarni amalga oshiruvchilar uchun ham bularning barchasi kimga ma'lum bo'lsa va bularning barchasidan xabardor hamda har narsaga qodir bo'lgandan olinadigan mukofot nazarda tutilgan bo'lishi kerak. Shuning uchun hakam va qonunshunosning ustuvorligini tan olish zarur. Abu Ali ibn Sinoning ma'naviyat, ma'rifat, odob-axloq haqidagi ta'limoti jahon ilm-fani, madaniyati va ma'naviyati taraqqiyotiga qo'shilgan ulkan hissa bo'ldi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. *Абу Али ибн Сина. Даниш-намэ – “Книга знания”.* – Душанбе: Таджгосиздат, 1967.
2. *Ибн Сина. Книга исцеления.* – Ташкент: Фан, 1967.
3. *Ибн Сина. Канон врачебной науки. Кн. 1.* – Ташкент: Фан, 1996.
4. *Ibn Sino. Donishnoma.* – Tashkent: Fan, 1976.
5. *Masharipova G. Xorazm Ma'mun akademiyasi allomalari tabiiy-ilmiy, ijtimoiy-falsafiy va ma'naviy merosining ijtimoiy tafakkur taraqqiyotiga ta'siri. Monografiya.* – Toshkent: Navro'z, 2019.
6. *Masharipova G.K. Abu Ali ibn Sino ilmiy-falsafiy va ma'naviy merosining jamiyat hayotidagi o'rni. Monografiya.* – Toshkent: Navro'z, 2020.

## MA'NOLAR MAHZANI

# “QUTADG`U BILIG` HIKMATLARI

Sabr qilgan odam tilagiga yetadi, sabr bilan turgan kishi oqqush tutadi. Agar mehnat-mashaqqat yo qayg`u-alam duch kelsa, sabr bilan qarshi olsang, ketidan shodlik keladi.

Davlat hovliqtirgudek bo'lsa, qut haddini bilsa, sabr qilsa, oshiqmasa, barchasi ko'ngildagidek bo'ladi.

Sabr qilgin, sabr-mardlarning odati, sabr qilgan kishi hatto ko'kka parvoz qilishga ham yo'l topadi.

Tilingdan yolg`on so'z chiqarma, bu yolg`on qadringni tushiradi.

Qarindoshlarga, yaqinlarga yaqinlik bog`la, katta va kichikka ochiq chehra bilan kulib boq.

Non-tuzingni keng tut, odamlarga yedir, odamlarning aybini ko'rsang, uni fosh qilma, yashir.

**Yusuf Xos HOJIB**



UDK: 502.10:159.955.000.93

## ALLOMALAR MEROSIDA SOG'LOM TURMUSH TARZI VA UNGA TA'SIR KO'RSATUVCHI ASOSIY OMILLAR

**Annotatsiya:** Maqolada buyuk mutafakkirlarning inson hayoti uchun zararli bo'lgan va inson salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan odatlar haqidagi fikrlari keltirilgan va tahlil etilgan.

**Kalit so'zlar:** tarbiya, sog'lom turmush tarzi, ma'naviy meros, oila, mahalla, ta'lim muassasasi, salomatlik, tashqi muhit.

**Аннотация:** В статье раскрыты и проанализированы высказывания великих мыслителей о вредных человеческих привычках, которые приносят большие неприятности и влияют на ухудшение человеческого здоровья.

**Ключевые слова:** воспитание, здоровый образ жизни, духовное наследие, семья, махалля, образовательное учреждение, здоровье, внешняя среда.

**Abstract:** In article are opened and the statements of the great scientists about harmful human habits are analysed which bring the large troubles and influence deterioration of human health.

**Key words:** education, healthy lifestyle, spiritual heritage, family, makhalla, educational institution, health, external environment.



**Dilbar ORTIQOVA,**  
Toshkent  
to'qimachilik va yengil sanoat instituti dotsenti, falsafa fanlari nomzodi

Sog'lom turmush tarzi nima o'zi? – bu faol mehnat, kuchli jismoniy va ruhiy holat, o'ta xavfli va zararli ta'sir ko'rsatuvchi omillarni yenga oladigan, yetuklikka intiluvchan shaxsning shakllanish jarayonidir. Sog'lom turmush tarzining asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat: to'g'ri va ratsional ovqatlanish, harakatli turmush va badantarbiya, kun va ish tartibini biologik qonuniyatlar asosida tashkil qilish, jinsiy tarbiya, sog'lom oila, ruhiy osoyishtalikni ta'minlash, zararli odatlardan voz kechish; shaxsiy va jamoat gigiyenasiga rioya qilish, baxtsiz hodisa va jarohatlardan ehtiyotkorlik, sog'lom turmush tarzi haqida bilim va malakaga ega bo'lish.

Salomatlik – inson tanasidan joy oladigan eng katta boylik. Salomatlik tashqi muhitning muttasil o'zgarib turadigan sharoitlariga odamning doimo moslashish imkoniyatidir. Uning asosiy belgisi poklik va ozodalik hisoblanadi. Har bir insonning kiyimi ham, fikri ham, qalbi ham pok va toza bo'lishi lozim. Zero, “**sog'liq bo'lsa – beklilik bo'lar**”, deydi xalqimiz. Inson hayoti davomida muttasil o'zgarib turadigan sharoitlarga moslashib boradi. Ammo ba'zi zararli odatlar ham borki, odam organizmiga qo'shimcha yuk bo'lib, moslashish imkoniyatlarini kamaytiradi. Ichkilikbozlik, kashandalik, ortiqcha ovqatlanish, qattiq hayajonlanish, og'ir ruhiy hissiyotlar, atrof-muhit ifloslanishi odamlarga behisob zarar yetkazadi. Bu illatlar inson organizmini yemiradi, aqliy va ijodiy faoliyatini pasaytiradi, turli kasalliklarning rivojlanishiga yo'l ochib beradi.

Ichkilikbozlik doimiy ravishda qoralanib kelingan. Qadimgi Hindistonda ichkilikbozlikda ayblangan dindorni qizib turgan temir idishdagi qaynoq suyuqlikni ichishga



majbur etganlar. Xitoyda ichkilikka ruju qo'yganlarga o'lim jazosi tayinlangan. Muhammad (s.a.v) davrida esa bunday kishilarni 40 darra urish jazosi joriy etilgan. Ichkilik haqida mutafakkirlarimiz ham o'z fikrlarini bayon etganlar.

Kamol Xo'jandiy **"Ichiladigan birinchi qadah sog'liq uchun, ikkinchisi – kayfiyat uchun, uchinchisi – surbetlik uchun, to'rtinchisi – aqldan ozish uchun ichiladi"**, degan bo'lsa,

**Ibn Sino:**

**May mastga dushmanu, hushyorga yordir, Ozi taryoq, ko'pi bir zahri mordir,[1]** deydi.

Qomusiy olim Abu Ali ibn Sino o'zining "Siyosat al-badan" asarida sharob ichish natijasida paydo bo'ladigan kayfiyatlar, mast kishida yuz beradigan holatlar, sharobning zaharlik xususiyati, agar ko'p iste'mol etilsa yuz beradigan o'zgarishlar, ko'p iste'mol qilinaverilsa bora-bora zahar ham ovqat hisobiga o'tishi mumkinligi to'g'risida gapiriladi. Ushbu risola uning "Tib qonunlari" asaridan ilgari yaratilgan ta'liflaridan hisoblanadi. Bu risola ba'zan "Risola al-hamriya va siyosat al-badan" deb ham yuritiladi. Uning o'zbekcha tarjimasida "Badanni idora qilish, sharobning fazilatlarini va uning zararlari" nomi bilan nashr etilgan.

Lev Tolstoy "Insoniyatga dog' soluvchi o'nta jinoyatdan to'qqiztasi ichkilik ichish tufayli sodir bo'ladi", deb fikr bildirgan. "Qobusnoma"da "Sharobxo'rlarning hosili ikki narsadir: yo bemorlik, yo devonlik. Nedinkim sharobxo'r yo mast bo'lur, yo maxmur"[2] deyilgan. Abul Farajning yozishicha: "Sharob, uni ichadigan kishida, to'rt sifatni yuzaga chiqaradi. Avvalo, odamning yuzlariga qon yugurib, tovusdek tovlanadigan, harakatlari muloyim va ulug'vor bo'lar ekan. Shundan keyin maymun fe'lini o'zida namoyon etadi va hamma bilan hazil-mazah qiladi va o'ynashadi. So'ngra u arslonga o'xshab qoladi va o'z kuchiga ishongan, hech kimni nazar-pisand qilmaydigan, mag'rur, janjalkash bo'lib qolar ekan. Lekin oxir oqibatda cho'chqaga aylanadi va unga o'xshab, balchiqqa botib yotishni o'ziga bir fazilat deb bilar ekan"[1]. Bu fikrlar hech qachon o'z qimmatini yo'qotmaydigan javohirlardir-ki, har bir ichkilikka ruju qo'ygan kishi, albatta, bu vaziyatlarni boshidan kechiradi.

**"Ichkilik bolalarning nimjon tug'ilishiga va kasalmand bo'lib o'sishiga sababchidir" (Gippokrat).** Spirtli ichimliklar naslga yomon ta'sir qiladi. Ichkilikbozlarning bolalari jismoniy va aqliy jihatdan noraso bo'lib tug'iladi. Ular jamiyatimiz kelajagiga ziyon yetkazadilar. Shunisi achinarliki, ular bu jinoyatlari uchun qonun oldida javob bermaydilar.

Tadqiqotchilar er-xotinlardan biri ichkilikka ruju qo'ygan 215 oiladan 819 bolaning taqdirini kuzatganlar. Ularning ma'lumotlariga ko'ra 16 bola o'lik, 37 tasi chala, 38 tasi yaxshi rivojlanmagan, 145 tasi ruhiy kasal bo'lib tug'ilgan, 55 bola sil bilan kasallangan,

121 nafari bevaqt o'lib ketgan [3]. Demak, ichkilikka berilgan odam faqat o'ziga, zurriyodiga emas, balki butun jamiyatga ham katta xavf tug'diradi. Bunday holatdagi kishi o'zini nazorat qilolmay qoladi, oqibatda jinoyatga ham qo'l urishi mumkin. Bu illat minglab oilalarning buzilishiga olib keladi, bolalar tarbiyasida ham kamchiliklar yuz beradi, notinch oilada farzandlar kamoli e'tibordan chetda qoladi.

Salomatlik masalasi vatandoshimiz Ahmad Donish asarlarida alohida e'tirof etilgan. Mutafakkir mamalakat gullab-yashnashi uchun besh shart bajarilishi kerakligini aytib, ulardan biri har bir shaharda kerakli-chah shifokorlarning bo'lishi ekanligini ta'kidlaydi.

Sog'lom tafakkur deganda turmush tarzini qaror toptirishga xizmat qiladigan, o'tmishni hozirgi zamon orqali kelajak bilan bog'laydigan, barcha illatlarni o'z yo'lidan surib tashlaydigan ma'naviy, madaniy, ma'rifiy sog'lom kuchni tasavvur qilamiz. Sog'lom tafakkur yuksak ma'naviyatni shakllantiradi, ma'naviy qashshoq odamda sog'lom tafakkur qaror topmaydi.

Sog'lom tafakkursiz oqilona turmush tarzini qaror toptirib bo'lmaganidek, sog'lom turmush tarzi ham o'z navbatida sog'lom tafakkur shakllanishining asosiy manbai hisoblanadi. Inson tafakkuri o'z ichki mazmuni va namoyon bo'lishi xususiyatiga ko'ra ancha murakkab xalqalardan, ya'ni bosqichlardan iborat tahliliy va amaliy jarayondir. Ya'ni, demoqchimizki, tafakkur kuchi jiddiy ishlarni rivojlantirish, ularni amalga oshirish jarayonida qanday maqsadni qo'ygani, bu maqsadlar uning ichki ehtiyojlariga nechog'liq mosligi, hayotiy manfaatlarni aks ettirishiga qarab, tafakkurning rivojlanishiga nisbiy ta'sir qiladi. Xususan, o'z oldiga buyuk maqsadlar qo'yib va ularni amalga oshirish uchun astoydil kurash olib borgan insonning tafakkuri ham barcha qusur va illatlardan tozalanib tobora chuqurlashib borishi mumkin. Binobarin, buyuk maqsadlar inson intilishlariga kuchli yo'nalish beradi, uning ichki, botiniy imkoniyat va qobiliyatlarini ishga soladi, bularning hammasi sog'lom tafakkur jarayoni mazmunini tashkil etadi.

Mutafakkir shahar va qishloqlarda sanitariya holatining juda yomon ekanligi turli xil yuqumli kasalliklarning paydo bo'lishiga sabab bo'lib, aholi o'rtasida o'lim ko'payganligini hikoya qiladi va shu o'rinda birinchi navbatda salomatlikni asrashni talab qiladi. **"Agar, – deydi u, – tabib donishmand bo'lmasa xalq har xil kasallarga chalinadi va halok bo'ladi"** [4].

"Sivilizatsiya tartibi va o'zaro yordam haqida" risolasida adolatli hukmdor haqida o'z fikrlarini bayon etib, bunday kishi ovqatlanish va kiyinish odobiga e'tibor berishi kerakligini ta'kidlaydi. Ahmad Donish inson umri haqida shunday yozadi: **"Agar inson ovqat iste'mol qilish tartib-qoidalariga, gigienaga amal qilsa, u albatta, bir yuz yigirma yil va undan ham ko'proq umr ko'rishi mumkin"** [5].

Mutafakkir asarlarida qanoat qilish, hoyu-havasga berilmaslik, nafsga qul bo'lmislik masalalari ham asosiy o'rin egallaydi. U **“oziga qanoat qilinglar”, “tan sog'lig'ining qadrini biladiganlar taomni ko'p yemasinlar”, “dunyo to'plashga kirishganlar botqoq loyga botadilar”, “mehnat va dam olishni teng bo'lib olish kerak”, [6]** degan fikrlarni keltiradi. Ya'ni uning fikricha barcha boyliklar insoniyatga xizmat qilishi, har bir inson o'zi va oilasi uchun mehnat qilishi, farzandlarini sog'lom va baquvvat qilib tarbiyalashi lozim.

Ahmad Donish oila masalasiga ham alohida e'tibor qaratadi. Mutafakkir Ahmad Donish so'zi bilan aytganda “Buzuqchilikka olib boradigan ishq-muhabbatning madaniyatga zarba berishi shubhasizdir”. Uning fikricha, oila qurish jarayonida yigit bilan qiz bir-birining xulq-atvorini bilishi juda muhim omil.

Turmush madaniyati haqida so'z borar ekan, u qiz ko'ngil qo'ygan yigit hurmatli, obro'li, ezgu ishlari bilan barchaga manzur kishi bo'lishi kerakligini ta'kidlaydi. Oila qurayotgan har ikkala tomon elda hurmatli kishilar bo'lsagina, ularning muhabbati g'alaba qiladi. Bundan tashqari Ahmad Donish oila qurayotganlar bir-birining oilasi, nasl-nasabi haqida bilishi, ya'ni o'zidan keyingi avlod sog'-salomat bo'lishi uchun qayg'urishi kerakligini aytadi.

Abu Ali ibn Sino shogirdlariga shunday debdi:

– Ey shogirdlarim, mening kunim bitgan ko'rinadi. Shu boisdan meni davolayman deb behudaga harakat qilmanglar. Bordi-yu, kunim bitib vafot etsam, yig'i-sig'i qilib o'tirmanglar. Faqat haqqimga duo qilib, onda-sonda qabrimni ziyorat qilsanglar bas. Va yana ustoz olamdan o'tdi, endi tabobat oqsaydi, deb ham qayg'urmanglar. O'rnimga besh zo'r tabibni qoldirib ketmoqdaman. Shu tabiblarning maslahatlariga o'zingizlar ham doim amal qilinglar, boshqalarni ham ularga da'vat etinglar, – debdi.

Ibn Sinoning shogirdlaridan biri: – Ustoz, siz aytgan tabiblar kimlar! – deb so'rabdi.

Shunda ibn Sino: – Men qoldirib ketayotgan zo'r tabiblarimning biri – tozalik, ikkinchisi – parhez, uchinchisi – badan tarbiyadir. Va qolgan ikkisi – mijoz bilan kayfiyatdir. Doimo pokiza, ozoda bo'lishlik, ko'ringan narsani, ya'ni ovqatni kelsa-kelmasa eyavermaslik, apil-tapil ovqatlanmaslik, badan a'zolarini harakatsiz qoldirmaslik, mijozni unutmaslik va nihoyat, kayfiyatni yaxshi tutishga harakat qilish – mana shu aytganlarimga amal qilinsa, kasallanish u yoqda tursin,

bevaqt o'lim ham orqaga chekinadi [7]. Ha, rivoyatlarda yarim haqiqat yotadi. Ibn Sino mahoratli jarroh bo'lganligi rost. Shuning uchun Ibn Sinoning bilimiga, jasoratiga tan bermaslik sira mumkin emas. Ulug' bobomiz sha'niga har qancha so'z aysak kamlik qiladi. Chunki ming yil oldin, bugungi texnika taraqqiyotiga qiyoslagan holda biror asbob yordamisiz, rentgen apparati ishlatmasdan, faqat kasallik manzarasiga qarab, dardni adashmay, aniqlash uchun buyuk aql va zakovat bo'lishi kerak.

Ibn Sino sog'lom turmush tarzini shakllantirishda jismoniy mashqlarning, sportning beqiyos rolini quyidagicha ifodalaydi: “Jismoniy mashq insonni chuqur uzluksiz nafas olishga olib keladigan ixtiyoriy mashqdır. Sistematik ravishda jismoniy mashq bilan mashg'ul bo'lgan va tartibga amal qilgan odamning dori-darmonga muhtojligi bo'lmaydi. Tartib-qoidalarga to'g'ri rioya qilgan holda bajarilgan jismoniy mashqlar boshlang'ich kasallik belgilari to'planishining oldini oladi”. Alloma birinchilardan bo'lib, sog'lom turmush tarzini shakllantirishda jismoniy mashqlarning rolini ilmiy asoslab berdi. Jismoniy mashg'ulotlarning inson sog'ligini saqlashda bosh omil ekanligi hozirgi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotgan emas. Sportni rivojlantirishga e'tibor qaratishi qomusiy olim ibn Sino fikrlarining hayotda o'z aksini topayotganligidan dalolatdir.

Xulosa qilib aytganda, davlatimizning sog'lom turmush tarzini shakllantirishga qaratilgan siyosatini amalda qaror topishida buyuk ajdodlarimizning bu boradagi fikrlari hanuzgacha o'z mazmun va mohiyati bilan yoshlarni namunali odob va axloq ruhida tarbiyalash borasida xizmati beqiyosligi shubhasizdir.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. *Aql-aqldan quvvat oladi.* – Toshkent, 2017, 199-bet.
2. *Kaykovus. Qobusnoma.* – Toshkent, 2016, 57-bet.
3. *Afanasev Yu, Kulikov Yu. Salomatlik alifbosi.* – Toshkent, 2013, 98-bet.
4. *Donish Axmad. Risola dar nazmi tamaddun va taovun.* – Dushanba, 1976, sax-151.
5. *Donish Axmad. Navodir-ul-vakoe'.* – Toshkent, 1964, 352-bet.
6. *Дониш Ахмад. Путешествие из Бухары в Петербург.* – Санкт-Петербург, 1960, стр-248.
7. *Ajdodlar o'giti* – Toshkent: “Cho'lpon”, 1991, 11-bet.

# GLOBALLASHUV JARAYONIDA “AXBOROTLASHGAN JAMIYAT” VA UNING YOSHLAR MILLIY O‘ZLIGIDAN BEGONALASHUVINING OMILLARI



**Nigora ZOKIROVA,**  
Toshkent  
to'qimachilik va  
yengil sanoat instituti  
assistenti,  
mustaqil tadqiqotchi

**Annotatsiya:** Maqolada globallashuv jarayonida axborotlashgan jamiyat va uning yoshlar milliy o'zligidan begonalashuvining omillari ilmiy jihatdan tahlil qilindi. Globallashuvning tobora avj olishi milliy ma'naviyatlarga qarshi tahdidlarning kuchayishini tezlashtirmoqda, ularning o'ziga xos xususiyatlarning zaiflashuviga va yuksak taraqqiy qilgan mamlakatlar hamjihatlikda shakllantirayotgan “ommaviy ma'naviyat”ga singib ketish xavfini yuzaga keltirmoqda. Bu xavf mavjud bo'lgan fan, texnika, texnologiya yutuqlarini ommalashtirish, investitsiyalar kiritish, iqtisodiy integratsiyani jadallashtirish kabi omillardan foydalanish vositasida yoshlarning ongi, qalbi va ruhiyatini egallash va oxir-oqibatda ular ustidan hukmronlikni to'la o'rnatish imkoniyatini kengaytirishga xizmat qilayotganligi maqolada o'rganilgan.

**Kalit so'zlar:** globallashuv, begonalashuv, iqtisodiy jarayonlar, humkronlik, millatlar, elatlar, moddiy boyliklar, ma'naviy qaramlik

**Аннотация:** В статье научно анализировано факторов информационного общества и эго отчуждения от национальной идентичности молодежи в процессе глобализации. Растущая глобализация ускоряет растущие угрозы национальной духовности, угрожая ослабит их специфику и проникнут в “массовую духовность”, сформированную совместно развитыми странами. В статье исследуется, как эта угроза захватывает умы, сердца и умы молодых людей и в конечном итоге расширяет их способность полностью доминировать над ними за счет использования таких факторов, как популяризация существующей науки, технологий, технологических достижений, инвестиций и ускорения экономической интеграции.

**Ключевые слова:** глобализация, отчуждение, экономические процессы, смирение, нация, народы, материальное богатство, духовная зависимость

**Annotation:** The article scientifically analyzes the factors of the information society and its alienation from the national identity of youth in the process of globalization. Growing globalization accelerates the growing threats to national spirituality, threatening to weaken their specificity and penetrate into the “mass spirituality” formed by jointly developed countries. The article explores how this threat captures the minds, hearts and minds of young people and ultimately expands their ability to completely dominate them through the use of factors such as the popularization of existing science, technology, technological advances, investment and accelerated economic integration.

**Key words:** globalization, alienation, economic processes, humility, nations, peoples, material wealth, spiritual dependence.



Jahonning mafkuraviy manzarasi juda murakablashib, unda kuchli ta'sirga ega bo'lishning eng maqbul yo'li, har qancha mablag' talab etilishidan qat'i nazar, yirik axborot tarqatuvchi mavqeini egalash ekani ayon bo'lib qoldi. Jahonda "axborot urushi" ketayotganini hatto oddiy odamlar ham payqashi qiyin emas. Biron bir xorijiy mamlakatning turmush tarzi, qadriyatlar tizimini ulug'lovchi risolalar, kinofilmlar tarqatiladigan bo'lsa, tabiiyki, bunday axborotlar jamiyatda ma'lum ijtimoiy fikr shakllanishiga ta'sir etmay qolmaydi. Postindustrial inqilob, axborotlashuv va globallashuv jarayonlari, taassufki, faqat moddiy manfaat va ehtiyojlarini qondirishga intiladigan, milliy qiyofasini qariyb yo'qotgan, o'z maqsadi yo'lida har qanday g'oyani qo'llashga tayyor toifalarni milliy o'zligidan begonalashuviga qarshi yoshlarni tarbiyalash va uni oldini olish omillarini yoritish dolzarb muammolardan biridir.

Dunyoda axborot madaniyatini shakllantirish masalasi jamiyat rivoji bilan bevosita bog'liq bo'lganligi sababli u mamlakat miqyosida ijtimoiy ahamiyatga molik masala, shu sababli axborotlashgan jamiyat shakllanishi sharoitida axborotlashtirish jarayonining barcha sohaga oid jihatlarni o'rganish alohida ahamiyat kasb etmoqda. Bugungi kunda millat va davlatning eng muhim resurslaridan biri insonlarning aqliy salohiyati va bilim darajasi hisoblanadi. Ijtimoiy taraqqiyot, avval tasavvur etib kelinganidek, yuqori turmush darajasiga erishgan yoki zamonaviy texnika ishlab chiqarishni yo'lga qo'ygan mamlakatlar emas, balki ta'lim va tarbiyaning yanada yuqori darajasini ta'minlashga erishgan mamlakatlar tarix sahnasining old qatorlariga chiqayotganligini ko'rsatmoqda.

Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev ta'kidlab o'tganlaridek: "Agar jamiyat hayotining tanaasi iqtisodiyot bo'lsa, uning joni va ruhi ma'naviyatdir. Biz yangi O'zbekistonni barpo etishga qaror qilgan ekanmiz, ikkita mustahkam ustunga tayanamiz. Birinchisi – bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyot. Ikkinchisi – ajdodlarimizning boy merosi va milliy qadriyatlarga asoslangan kuchli ma'naviyat" [1]. Shu jihatdan olganda, yoshlar tarbiyasida axborotlashgan jamiyatda yoshlar milliy o'zligidan begonalashuvining oldini olish omillari mavzusini o'rganish dolzarb muammolardan biridir.

Maqolada dunyoda axborotni jamlash va rivojlantirish bo'yicha bir qator, jumladan, quyidagi ustuvor yo'nalishlarda ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda: ushbu axborotlarda gumanistik ahamiyatini ochib berish; o'zaro hamjihatlik, mehr-shafqat, o'zaro hurmat tuyg'ularini shakllantirishga oid ilmiy konsepsiyalar yaratish; "axborotlashgan jamiyat" tushunchasi va uning yoshlar milliy o'zligidan begonalashuvining globallashuv sharoitidagi xususiyatlarini yoritish; ijtimoiy va ma'naviy-axloqiy o'ziga xoslikning inqirozini oldini olishga oid; madaniyat va sivilizasiya, xalqlar va madaniyatlar o'rtasidagi dialektik bog'liqlik mu-

mmolari; axborotlashgan jamiyat va milliy o'zlikni anglashning o'zaro munosabatlari hamda yoshlar milliy o'zligini anglashda oila, mahalla va ta'lim muassasalari arining o'rnini yoritishdan iborat.

Dunyoning ko'zga ko'ringan nazariyotchilari, ekspert va mutaxassislari globallashuvni iqtisodiyotda ketayotgan jarayon sifatida qarab kelmoqdalar. Jumladan, iqtisodiyot bo'yicha Nobel mukofotining sovrindori, Kolumbiya universitetining professori (AQSh) Jozef Stiglits, AQShning taniqli faylasufi va sotsiologi Frensis Fukuyama, shu mamlakat prezidentining sobiq yordamchisi, taniqli sotsiolog Zbignev Bjezinskiy, iqtisodiyotni Bombay, Kembrij, Oksford universitetlarida, Massachuset texnologiya institutlarida va Kolumbiya universitetlarida o'rganigan globallashuv bo'yicha ekspert, dunyoning yetakchi iqtisodchilaridan biri Jagdish Bxagvati va boshqa bir qator iqtisodchilar globallashuvni jahon iqtisodiyotida sodir bo'layotgan jarayon sifatida qaraydilar. Shuning bilan bir qatorda globallashuvni siyosat va davlatchilik bilan bog'lab qaraydiganlar ham bor. Ular jumlasiga globallashuvni o'rganuvchi Yel markazi eksperti (AQSh) Mark Sirvel, J.Kennedi nomidagi Garvard universitetining Siyosat maktabi institutining direktor o'rinbosari Devid King, rossiyalik yetakchi analitik "Siyosat" jamg'armasi prezidenti Vyacheslav Nikonov va boshqalarni kiritish mumkin [2, 42-45-bb.]. Ulardan, masalan Jozef Stiglitsning fikri qo'yidagicha: "Globallashuv insonlar hayotini yaxshilashning eng yaxshi potensialidir, shu jumladan, rivojlanayotgan mamakatlar aholisi yaxshilanmoqda. Uning ayrim yo'nalishlari hozirning o'zida, masalan, ilmning globallashuvi sog'liqni saqlash, insonlarning umrini uzaytirishga olib keldi" [2, 42-b.].

Jagdish Bxagvati esa globallashuvni iqtisodiyotdagi ketayotgan globallashuv sifatida tushunadi va uning fikricha, "bu o'ziga savdo, to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar, transmilliy korporatsiyalar faoliyati, mamlakatlar o'rtasidagi moliyaviy oqim, xalqaro migratsiyalarni o'z ichiga oladi" [2, 44-b.].

Vyacheslav Nikonovning fikricha, "globallashuv davlatning ichki va tashqi siyosati chegaralarini bartaraf etishiga yordam beradi va xavfsizlik siyosatining mohiyatini o'zgartiradi" [2, 45-b.].

Ayrim olimlar millatning mavjudligini inkor qilsalar, ikkinchi birlari uni hatto ilmiy tildan olib tashlash zarur, - deb hisoblaydilar. Masalan, rus olimlaridan biri P.A.Sorokin, "millat ijtimoiy borliq sifatida mavjud emas" [3, 248-b.] – degan bo'lsa, ikkinchi biri V.A.Tishkov esa "millat – bu siyosiy shior va safarbar qiluvchi vosita, ammo u ilmiy tushuncha emas... uning yashashga huquqi yo'q va u ilmiy tildan olib tashlanishi kerak" [4, 52-b.], deb yozadi. Ba'zi bir Ovropalik olimlarning fikricha, "G'arbda va boshqa mamlakatlarda millat masalasi so'nib bormoqda". Kembrij universitetning professori Ernest Gellnening fikricha

esa "amalda millat bori yo'g'i davlat kabi tasodif, ular umumiy zaruriyat emas" [5, 124-b.]. Uning rus tiliga tarjima qilingan "Нации и национализм" asarida millat belgilari sifatida guruh odamlarning huquq, burchlarini o'zaro e'tirof etishlari sifatida talqin etadi [5, 35-b.]. Uning fikridan ko'rinib turibdiki, millat uchun keng ma'nodagi ma'naviy omillar yoki inson uchun xos bo'lgan milliy qadriyatlarning o'рни hamda ahamiyati "yo'q". Karen Momdjyan ham T.A.Tishkovning fikriga qo'shiladi va kelajakda millatni esdan chiqarishga to'g'ri kelsa kerak, deb hisoblaydi.

Globallashuv va milliy xavfsizlik muammolari respublikamizda taniqli olimlardan S.Otamuratov [6] ilmiy izlanishlarida yoritib berilgan. Globallashuv jarayoni N.Jo'raev [7, 449-b.] to'g'ri qayd etganiday, hozircha faqat qandaydir mavhum ijobiy jihatlar bilangina emas, balki ko'proq "hozirgi davr global muammolari"ni vujudga keltirgani bilan xarakterlidir. Ko'pchilik mutafakkirlar bu davrni hatto global krizis (bo'hron) davri deb atamoqdalar. "XX asr krizisni kuchli his etish bilan boshlangan edi va shu hissiyot bilan poyoniga yetdi", deb yozadi, masalan, rus faylasufi S.I.Dudnik. Darhaqiqat, globallashuv zamonaviy jamiyatga ko'plab ijobiy jihatlar olib kirish bilan birga, insoniyat taraqqiyotidagi shunday pallani ham o'zida aks ettiryaptiki, endilikda dunyo xalqlari vujudga kelayotgan muammolarga qarshi yolg'iz kurasha olmaydi, ularni birgalikda hal qilish mumkin.

Globallashuvning salbiy oqibatlari asosan, quyidagi sohalarda namoyon bo'lmoqda: ekologiya, sog'liqni saqlash, demografik, resurslar, axloq, oila, ta'lim-tarbiya, ma'naviy, dunyoqarash va boshqalar shular jumlasidandir. Ayni shu ma'noda bugungi kunda eng yangi fan sinergetika ham shu krizis holatini ifodalash uchun "global bifurkatsiya nuqtasi" degan maxsus yangi tushunchani kiritgani, "katastrofalar nazariyasi"ni ishlab chiqqani bejiz emas. Chunki S.P.Kapitsa, S.P.Kurdyumov, G.G.Malinetskiy ta'kidlaganlaridek, "Olimlar siyosatchilarning qo'liga butun Planetadagi hayotni bir emas, bir necha bor yo'q qilish quvvatiga ega bo'la oladigan qurollarni tutqazdilar, vaholanki, kelajakda ularni qanday yo'qotish va nima qilish mumkinligini aniqlashga harakat qilmadilar..., ular energiyani yangi manba'larini kashf etdilar va etmoqdalar, shuning bilan birga radioaktiv chiqindilar va yadroviy terrorizmdan qutulishday juda jiddiy muammolarini ham vujudga keltirdilar..., ular odamlarga antibiotiklarni sovg'a qildilar, ayni paytda, zararli mikroorganizmlarning tabiiy tanlanish jarayonini kuchaytirdilar".

Oksford universiteti direktori, professor Nik Bostrom bu ishlarning salbiy oqibatlari haqida o'ylab ko'rilmayotgani haqida shunday deydi: "Texnologik progressning tezlashuvi tufayli insoniyat hozir o'z taraqqiyotining keskin burilish nuqtasiga katta tezlik bilan yaqinlashib kelayotgan bo'lishining ehtimoli katta. Insoniyatga yaxshi tanish bo'lib qolgan yadroviy

xavf-u xatar yoniga endilikda nanotizimlar va mashina intellekti kabi sohalarning jadal rivojlana boshlagan texnologiyalari misli ko'rilmagan o'z imkoniyatlari va xatarlari bilan qo'shilmogda.

Globallashuv fenomeni ob'ektiv va ochiq ekanligini hisobga olinsa uning turli muqobillarda namoyon bo'lishi tabiiy tus oladi. Shunday ekan globallashuv jarayonining biror-bir aspektini mutlaqlashtirib, unga mutlaq ijobiy yoki mutlaq salbiy jarayon sifatida qarash nojoizdir. O'z navbatida nemis sotsiolog olimi U.Bek "Shubhasiz, globalizatsiya eng ko'p qo'llaniluvchi va eng ko'p suiste'mol qilinuvchi va eng kam o'rganilgan, ehtimol tushunarsiz mavhum, siyosiy jihatdan samarali so'zdir (bahs-munozarada kuchli qurol, shior)", - deb yozadi.

Globallashuv jarayonida axborot olishning tezlashuvi, shuningdek, internet orqali uzatiladigan turli yangiliklarni ijobiy va salbiy jihatlarini tahlil qilish masalarini e'tibordan chetda qoldirmaslikni taqozo etadi. Masalan, globallashuv haqida 1998 yilda Nobel mukofotini olgan Portugaliyalik yozuvchi J.Saramagu: "Men antiglobalistik harakatlar tarafdoriman. Chunki menga hozir sayyoramizda keskin tezlikda shakllanayotgan tartib, nizom yoqmaydi" - degan bo'lsa, J.Soros "globallashuvning shuncha kamchiliklariga qaramay, men uning rashkchi tarafdoriman. Men uni qo'llab-quvvatlashim sababi nafaqat u beradigan qo'shimcha boyliklar, balki u odamlarga berishi mumkin bo'lgan erkinlik sababli hamdir" [8, 22-b.], - deb yozadi.

Mumtoz musiqa, ashula, laparlarvasan'atimizning boshqa turlarining tiklanishi va ommaviylashib borishi bilan bir qatorda ularning milliy ma'naviyatimizga tashqaridan bo'layotgan xavf-xatarlar darajasiga nisbatan orqada qolayotganligi ham bugungi reallikdir. Bu borada bugun jahon miqyosida musiqa sohasida ketayotgan "zamonaviylik" bilan mumtozlik o'rtasidagi "raqobat"da birinchisining ustuvor mavqeni egalayotgani milliy musiqa va ashula san'atimizda ham o'z ifodasini topayotganligini ta'kidlash lozim. Aslida bugun "zamonaviy" estrada deb baholanayotgan ko'pgina ana shu janrdagi qo'shiqlar yoshlar ongida yengil hayot va turmush tarzining shakllanishiga xizmat qilmoqda. Xuddi ana shunday "zamonaviy" estrada janridagi qo'shiqlar ta'sirida yoshlar ruhiyatida banggichilik, fohishabozlik, beandishalik, beo'xshov harakatlarga "moyillik" kuchayib bormogda. Bunday salbiy jarayonlar milliy ma'naviyatimiz taraqqiyotiga salbiy ta'sir ko'rsatmogda.

Xulosa sifatida aytish joizki, globallashuv murakkab va serqirra jarayon bo'lib, uni turli mamlakatlar hayotiga o'tkazayotgan ta'siri ham turlicha. Bu hol dunyo mamlakatlarining iqtisodiy, ma'naviy salohiyatlari va siyosati qanday ekani bilan bog'liq. Shu maqsadda axborotlashgan jamiyatda yoshlar milliy o'zligidan begonolashuvining oldini olish omillari mavzusini o'rganish eng dolzarb muammolardan biridir.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Shavkat Mirziyoev. "Jamiyat hayotining tana-si iqtisodiyot bo'lsa, uning joni va ruhi ma'naviyatdir" mavzusidagi yig'ilishdagi nutqidan. <https://president.uz/uz/lists/view/4089>.

2. Uzbekistan and Central Asia. – Sentr poli-ticheskiy issledovaniy. Informatsionno-analiticheskiy Byulleten. IX-2007. – S. 42-45.

3. Сорокин П.А. Человек, цивилизация, общество. – Москва, 1992.

4. Тишков В.А. Постсоветское пространство. Экономические проблемы (круглый стол). // Социологические исследования. 1992, №1.

5. Геллнер Э. Нации и национализм. – Москва, 1991.

6. Otamuratov S. Globallashuv va milliy-ma'naviy xavfsizlik masalalari. – Toshkent, 2012.

7. Jo'raev N. Tarix falsafasining nazariy asoslari. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008. – B. 459.

8. Сорос Дж. О глобализации. - Москва, 2002.

## SO'ZLAR SALTANATIGA SAYOHAT



# BEQASAM TO'N KIYGAN "CHO'T"

Tilimizda "xomcho't" degan so'z tez-tez ishlatiladi. O'zbek tilining izohli lug'atida izohlanishicha, bu so'zda "xom" – forscha bo'lib, chala ishlangan, xomaki ma'nolarini anglatadi, "cho't" so'zi esa rus tilidagi "счёт" so'zining o'zgargan shakli bo'lib, hisob-kitob degani. Demak, "xomcho't" – xomaki hisob-kitob degan ma'noni bildiradi. Shuningdek, tilimizda "cho'tingga to'g'ri kelsa", "cho't bermaydi" degan iboralar ham borki, unda ham "счёт" o'zgargan. Qizig'i shundaki, "cho't" so'zi butunlay o'zbekchalashib ketgan, hatto uning ruscha ekanligi ham esimizdan chiqqan. Qachon qaramang, "cho't", "xomcho't" so'zlarini egnida beqasam to'n, boshida do'ppi bilan ko'rasiz. Xuddi yapon bobo – Kato boboga o'xshab. Bu so'z jonli tilda juda ko'p qo'llaniladi. Ehtimol, buning sababi hisob-kitob bilan bog'liqligidir.

Bundan tashqari, tilimizda qadimdan "tesha" ma'nosini anglatgan "cho't" so'zi ham borki, bu boshqa mavzu.

**Eshqobil SHUKUR,**

*O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi*



# XOJAGON-NAQSHBANDIYA TA'LIMOTIDAGI BAG'RIKENGLIK TUSHUNCHALARINING IRFONIIY- FALSAFIY TALQINI



**Behzod DEHQONOV,**  
BuxDU doktoranti

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada insonlar qalbiga poklik, bag'riken-glik va ezgulikni singdirishni o'ziga maqsad qilib olgan Xojagon-Naqsh-bandiya vakillari o'z ta'limotlarida hamisha bag'rikeng bo'lib yashashga, qo'ldan kelguncha hammaga yaxshilik qilishga, mehr-oqibatli, muruv-vatli bo'lishga da'vatlari va boshqa axloqiy fazilatlar haqidagi qarashlari ham ana shunday umuminsoniy ahamiyatga ega g'oyalar ekanligiga ishonch hosil qilish, nafsni tiyish, irodani kuchaytirish, o'zini-o'zi qayta tarbiyalash kabi omillar haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** Tasavvuf, Xojagon-Naqshbandiya, tariqat, bag'riken-glik, irfon, Abduholiq G'ijduvoni, tarbiya.

**Аннотация:** В этой статье представителей Ходжагон-Накшбанди, цель которой - прививать чистоту, терпимость и добро в сердца людей, всегда учат жить терпимо в своих учениях, делать всем как можно больше добра, быть Его призыв быть и его взгляды на другие моральные добродетели также имеют такое универсальное значение, как самоограничение, укрепление воли, самообразование.

**Ключевые слова:** суфизм, Ходжаган-Накшбанди, тарикат, толерантность, ирфан, Абдухалик Гиждувани.

**Annotation:** In this article, the representatives of Khojagon-Naqsh-bandi, whose goal is to instill purity, tolerance and goodness in the hearts of people, always teach to live tolerantly in their teachings, to do as much good as possible for everyone, to be His call to be and his views on other moral virtues also have this universal meaning, as self-restraint, strengthening of will, self-education.

**Keywords:** Sufism, Khojagan-Naqshbandi, tarikat, tolerance, irfan, Abdukhalik Gijduvani.

**T**asavvuf tarixida muhim o'rin egallagan Xojagon-Naqshbandiya tariqati o'zining hayotbaxsh g'oyalarini ilmiy-falsafiy tadqiq etish va uni ta'lim-tarbiya jarayoniga tadbiiq qilish yangi O'zbekistonni barpo etish-da muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, Xojagon-Naqshbandiya ta'limotidagi bag'rikenglik tushunchalarini hozirgi davr ma'naviyatimiz rivojida katta tarbiyaviy ahamiyatini tahlil qilish munosabati bilan ta'kidlash joizki, ko'pchilik tadqiqotchilar tasavvuf nafaqat ahloqiy, balki ilmiy ta'limot ekanligini ta'kidlab keladilar. Shu bilan birga komillik tariqatiga kirgan insonning yashash tarzi, nazariy bilim bo'lish bilan birga, tajribada ko'rinadigan amaliy ilm hamdir, deb e'tirof etadilar.

Din ahkamlari, imon-e'tiqodni axloqiy turmush tarzi bilan bog'lab talqin qilish esa, Xojagon-Naqshbandiya ta'limotida ma'naviy poklik, yuksak axloqiylik va bag'rikenglik tushunchalarida yaqqol namoyon bo'ladi. Bu borada Xojagon-naqsh-bandiya Markaziy Osiyo tasaavvuf ahli orasida shu darajada katta nufuzga ega bo'lganki, uning suluk va ta'lim qoidalari tariqatda hujjatdir, deb tan olingan. Jum-





ladan, Xojagon-Naqshbandiya solikning ma'naviy yuksalishi uchun zaruriy bo'lgan talablardan biri nafsni tarbiyalash va barchaga birday seva oladigan, mehr ko'rsata oladigan bag'rikeng bo'lish haqida dastur bo'larli darajadagi o'g'it va pand nasihatlarini jamlagan ta'limot bo'lganligi haqida Alisher Navoiyning "Nasoyim ul muhabbat" asarida quyidagi ma'lumot keltiriladi: "Har solikki nafs fanosi sarhadig'a yetgan bo'lsa, anga g'azab dast bergay. Shayton anga dast topqay. Chun nafs fanosi qilmish bo'lsa, anga g'azab bo'lmas, g'ayrat bo'lur va shayton g'ayratdan qochar" [1].

Shu munosabat bilan bag'rikenglik tushunchasini tasavvufiy axloqiy ta'limot tizimida qanday o'rin egalaganligi haqidagi diqqatga molik bir ma'lumotni keltirib o'tmoqchimiz. Misrlik tadqiqotchi Sullamiy o'zining "Tabaqotus sufiyya" asarida o'rta asr manbalarida bag'rikenglik tushunchasiga berilgan ko'plab ta'riflar qatorida Abul Xusayn Nuriy (vafoti 907y) ning quyidagi ta'rifini keltiradi: "nafsnig barcha istaklarini va xudbinlikni tark etmoqdir"[2]. Bag'rikenglik tasavvufda insonning ma'naviy kamolot sari yuksalishida va jamiyatning tinchligini ta'minlashda hamda insonlararo birodarlik ruhini yoyilishida eng asosiy tamoyillardan biri bo'lganligini hozirgi zamondagi ko'pgina tasavvufning nufuzli tadqiqotchilari ham ta'kidlab o'tganlar. Chunonchi, Ye.E.Bertels Xojagon tariqatining yirik vakili G'ijduvoniyning halifasi Orif Revgariyning "Ma'rifatning chegarasi nafsdan xoli bo'lmoq va halol narsalardangina bahramand bo'lmoqni odat qilmoqdir", - degan ta'kidini buning asosiy sifatida ko'rsatadi[3].

Haqiqatan ham Xojagon-Naqshbandiya vakillari, xususan Abduholiq G'ijduvoniy va uning maslakdoshlari o'z qarashlarida nafsni jilovlash, unga bo'ysunmaslik, odamlarga bag'rikeng munosabatda bo'lish masalasiga katta e'tibor berganlar. G'ijduvoniy ta'kidlashicha, tariqatni tutgan solik shuni anglab yetmogi zarurki, insonni g'afolat, razolat, xudbinlikdan ozod aylaydigan bosh asos nafsni yengishdir. Shuning uchun haqiqat yo'lini izlagan va unga erishishni hojlagan solik bu yo'lda sobitqadamlik bilan maqsadga intilishi shart. Bu haqda G'ijduvoniy shunday deb yozadi:

*Hohiki shavi ba darveshoni anvor,  
Monandi hilol shav, darin roh nazar.  
Biqat'i manozil notavoi koxil shud,  
Bisyor safar kunki, shavad nafsi tu xor[3]*

#### **Tarjimasi:**

Agar nurli darvesh kabi bo'lishni hojlasang,  
Darhaqiqat yo'lida yangi oydek nur taratib tur.  
Bu yo'lda har manzilda to'xtab dangasalik qilma,  
Ko'p safar qilginki, sening nafsing bo'lsin xor.

Demak, nafsni tarbiyalash borasida har qanday to'siq va qiyinchiliklarni yengib o'tish solikni xudbinlikdan qutilish hamda keng fe'l, bag'rikenglik sari yetaklash bilan birga uni boshqalar uchun nurli bir darveshga, ya'ni rahnamoga aylantiradi. Shuni aytib o'tish joizki, tasavvuf istilohida "darvesh" iborasi so-

lik uchun hamma zaruriy axloqiy fazilatlar yig'indisi sifatida ham tushiniladi. "Bilginki, ulug'lar darveshlik barcha adabdir demishlar"[4].

Xojagon-Naqshbandiya ta'limoti XV-asr Markaziy Osiyo mutasavviflaridan biri, soliklik ahloqi masalalarini ishlab chiqqan Voiz Koshifiy qarashlariga ham ma'lum darajada g'oyaviy ta'sir ko'rsatganligini kuzatish mumkin. Chunonchi, u "Futuvvatnomai sultoniy" asarida shunday deb yozadi: "Tariqatning maqomati (bosqichlari) nechta deb so'rasalar, to'rt yuz qirq to'rtta deb ayt. Ammo, uning jam'i to'rt maqomda mujassamdin: avval tadbakim, u ikki nav bo'ladi: biri gunohdan zohiran tavba qilish, ikkinchisi xudbinlikdan botinan tavba qilish" [5, 218]. Demak, bag'rikenglikning ziddi bo'lgan xudbinlik inson uchun tashqi dushmandan ko'ra ham havfliroq dushmandir. Chunki tashqi dushman o'zini oshkor qiladi, lekin ichki dushman yashirindir. Bunday dushmanga qarshi kurash insondan katta ma'naviy jasorat va matonat bilan kurash olib borishni talab qiladi.

Umuman tasavvufda nafsning yetti turi va ular ustidan nazorat qilish nafsni tarbiyasini bosqichlarining mukammal qoidalari ishlab chiqilgan [5, 180]. Xojagon-Naqshbandiya ta'limotidagi bag'rikenglik haqidagi g'oyalarining tarixiy ahamiyati shundaki, u barcha Xojagon tariqati mutasavviflari ahloqiy qarashlarida g'oyaviy manba, dastur vazifasini o'tash bilan birga badiiy adabiyotda Jomiy, Navoiy, Binoiy, Bobur kabi mutafakkirlarning qarashlariga ham ma'lum darajada ta'sir etdi va bu tushuncha ularning asarlarida umuminsoniy ahamiyatga ega bo'lgan ma'naviy kamolot belgilaridan biri sifatida tarannum etildi. Chunonchi, Navoiy xudbinlik inson uchun katta ma'naviy tanazzul va ahloqiy tubanlik manbai ekanligini uqtirib yozadi: "Nafs ketiga tushgan xudbinlik manzilidagina to'xtaydi. Hech kim o'z ko'ngliga g'am tilamaydi va o'z nafsini qiyinlashni hojlamaydi. Ammo o'zganing aziz zotida behad xorlik ko'rsa, o'ziga bir qiyinchilik yuzlanganligini bilmaydi. Bir aziz kimsaning sha'niga nihoyatda qattiq tegilganini anglasa, o'ziga ozgina kulfat tushgandek ham ta'sirlanmaydi. Barcha uchun o'zi o'zagidan azizroq, o'z so'zi o'zgalamikidan ma'qulroq. Xudbin odam olamdagi yaxshiliklarni hech ayamaydi, ammo bu yaxshiliklarni o'zgalarga ravo ko'rmaydi" [6]. Nafsga berilgan odam bilan xudbin odam bir xil ekanligini ta'kidlab yozadi: "nafs balosiga uchragan odamning yeyishdan boshqa hunari yo'q, xudbin odam gap sotishdan boshqaga yaramaydi. U biri harom ovqatdan rohatlanadi, bu biri esa doim o'zini maqtab orom oladi" [7, 55].

Demak, nafs tuzog'iga ilingan odam faqat o'z huzur-halovatini o'ylaydi. Boshqalar boshiga tushgan kulfat va musibatlar haqida zarracha qayg'urmaydi. Manmanlik botqog'ida botib, o'zini hammadan afzal ko'radi. Hamma narsani o'z foydasiga bo'lishini hojlaydi. Eng achinarlisi shuki, u o'zining bu xudbinlik intilishida haromdan xazar qilmaydi.

Xojagon-Naqshbandiya vakillarining solikni “Odamlar bilan bir davrada o’tirmaslik”ka chaqirishi bag’rikenglikka zid xudbinlik emas, balki asosan so’fiyning boylikdan kechish, ma’naviy va moddiy jihatdan o’zini tiya bilishi fazilatiga ega bo’lishini mustahkamlash maqsadida ta’kidlangani shubhasizdir. Zero, G’ijduvoniyning xalifasi, uning vafotidan keyin Xojagon tariqatining piri murshidi maqomini egallagan Orif Revgariy ta’kidlaydiki: “Orif emas ul kishikim ilm va ma’rifatni dunyoparast va badavlat odamlar oldiga “dasturxon”, bozor, balki xor aylagay”. Demak Xojagon tariqati mutasavviflarining fikricha, nafaqat moddiy jihatdan, balki bari ma’naviy maqsadni ko’zlab ham nafs mayliga berilishini solikni oqibatda nafs ta’magirlikka, o’z izzat-nafsini xorlashga, alal oqibat xudbinlikka olib keladi. Nafs inson uchun shunday bir ofatki, uning tuzog’iga ilingan inson hech mahal qoniqish sezmaydi, tobora uning botqog’iga botib boradi.

Xojagon-Naqshbandiya ta’limoti nafs haqidagi ushbu g’oyalari Jaloliddin Rumiy ijodida ajoyib badiiy obrazlar o’z ifodasini topgan:

*Nafs do’zohidir va do’zah-ajdaho,  
Bari daryoning ancha bo’lmas vaho.  
Yetti daryoni simirsa ichsa ham,  
Chanqovi qolmas, degaykim, menga kam...  
Nafsi dev olamni ham yalab yutar,  
Na’ralar tortib, yano olam kutar.* [7, 87]

Rumiy fikricha, haqiqiy merosi, murodlik eng avvalo nafsni jilovlay bilishda:

*Sher agar saflarni yormishdir netar  
Sher ulkim, nafsni mag’lub etar.* [8]

Albatta mutasavviflarning bu g’oyasi hamma davrlar uchun va hamma insonlar uchun umum-bashariy ahloqiy-tarbiyaviy ahamiyatga ega bo’lib o’z ma’naviy qiymatini yo’qotmagan.

Xojagon tariqati mutasavviflarining ta’kidlashicha, bag’rikenglik tushunchasining mohiyati toqatlilik tushunchasi bilan hamohangdir. Chunki toqatlilik ya’ni o’zgacha qarashdagi insonlar fikri va amaliga nisbatan keng fe’l bo’lish, sabr-qanoatli hamda bardoshli bo’la olish orqali amalga oshadi. Shuning uchun ham ular tariqatda sabr maqomiga alohida e’tibor berganlar. Zero, insonsonlararo munosabatlarda muammolarga duch kelganda ularga nisbatan agressiv bo’lmasdan, qar qanday odamga yaxshi gumonda bo’lish orqali bag’rikenglik qila olishi kerak. Har qanday holda odamlarning yaxshi va yomon fe’l-atvorlariga sabr-bardoshli bo’lish insonni eng og’ir ahvolda ham murodiga yetkazadi, kishi ko’ngliga ravshanlik beradi, ma’naviy qoniqishga olib keladi. Xojagon-Naqshbandiya ta’limotiga ko’ra, tariqat yo’liga kirgach solik bag’rikeng va qanoatli bo’lishi kerak. Bu yo’ldagi riyozat, oqibatda solikni javonmardlik maqomiga yetkazadi:

*On kas ki, 34 asbobi jahon fard buved,  
Bo hamiyati u ro’yi zaming gard buvad.*

*Har gandaki, Xaq dihod, ato soz Xoliq,  
On kiss ki, kulod bazl, juvonmard buvad.* [9]

Tarjimasi:

Agar kishi dunyo tashvishlaridan forig’ bo’lsa uning hamiyati oldida dunyo (qiymatlari) garcha emas. Xudo barcha va ato qilgan (ne’matlarini odamlarga (sovg’a qilib) bersa, u javonmard bo’ladi.

Tadqiqotchi O.T.Sharipova Xojagon-Naqshbandiya ta’limotining bag’rikenglik, sabr-qanoat haqidagi qarashlarini tahlil qilar ekan, shunday xulosa qiladi. “Tasavvuf tariqati borasida Xojagon-Naqshbandiya ta’limoti o’z mustaqil aqidaga ega. Ayniqsa sabr va rizo maqomi haqida fikr yuritib, sabr iymoning yami ekanligi, insonlararo muloqotda ham va boshqa masalalarda ham qiyinchiliklarga duch kelganida betoqatlik qilmasdan sabr qilish lozimligi ta’kidlangan”[10]. Shunisi muhimki, Xojagon-Naqshbandiya ta’limotining bag’rikenglik, sabr-qanoat va boshqa ahloqiy fazilatlar haqidagi g’oyalari keyingi davr tasavvufiy ta’limotlar va tasavvufiy adabiyotlardagina o’z ta’sirini namoyon qilibgina qolmasdan, buyuk mutafakkirlarning dunyoqarashida va badiiy dunyoviy adabiyotda ham o’z aksini topdi.

Xulosa qilib aytganda, bag’rikenglik singari bunday insoniy fazilat Xojagon-Naqshbandiya ta’limoti orqali xalqimiz ma’naviy tarixida keng ko’lamda tarannum etildi. Uning qon-qoniga singib ketishida, oqibatda xalqimizning oliy fazilatlaridan biriga birga aylanishida Markaziy Osiyo tasavvuf tariqatlarining, xususan Xojagon-Naqshbandiya ta’limoti g’oyalari muhim o’rin egallaydi. Xojagon-Naqshbandiya ta’limotining tarixiy xizmati va hozirgi davrimiz uchun ma’naviy-tarbiyaviy ahamiyati ana shundadir.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Alisher Navoiy. *Nasoim ul muxabbat. Min Jamoimul Futuvvat /O’zRFASHI qo’lyozmalar xazinasini. Inv №5420/ III-b. 290.*
2. Usmon Turar. *Tasavvuf tarixi. T., “Istiqlol”, 1999, 17-bet.*
3. Бертеле Е.Э. *Суфизм и суфийская литература. Т.3.М. 1965.с.18*
4. *Abduxolik G’ijduvoni. Vasiyatnoma. Qulyozma. O’zFA SHI. Inv. №3844/XVI v, 182-b.*
5. *Voiz Kashfiy. Futuvvatnomai sultoniy. Komil inson haqida to’rt risola. T. “Ma’naviyat”, 1997.*
6. *Navruzova T.N. Naqshbandiya tasavvufiy ta’limoti va barkamol inson tarbiyasi. Falsafa fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun tayyorlagan dissertatsiyasining avtoreferati. T. 2002, 29-bet.*
7. *Alisher Navoiy. Muxbub ul-kulub. T. 1983. Nasriy bayon muallifi I.Maxsumov.*
8. *Jaloliddin Rumiy. Masnaviy-ma’naviy. 139-bet.*
9. *G’ijduvoni Xoja Abduxoliq. Maslak ulrifin. Buxor viloyat muzibati. № 2182. 88-b.*
10. *Sharipova O. T. Xoja Abduxoliq G’ijduvoni tasavvufiy ta’limotida axloqiy qadryatlar. Falsafa fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun tayyorlagan dissertatsiyasining avtoreferati. T. 2002. 15-bet.*

UDK:100.1:316

## INNOVATSION BILIM VA MALAKALI KADRLAR TAYYORLASH OMILLARI

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada, Innovatsiya kadrlar tayyorlash tizimini amaliyot bilan bog'lashni shart qilib qo'yilishi, barcha yangiliklar o'quv tarbiya jarayoni tajribalar bilan, sinov va modellashtirish bilan bog'liq bo'lishi kerak ekanligi, hamda yuqoridagi pog'onalar va ularning innovatsion bilim, malakali kadrlar tayyorlash bilan bog'liqligi haqida fikr bildiriladi.

**Kalit so'zlar:** Innovatsion bilim, ishlab chiqarish vositalari, inson intellektual kapitali, indikator, mobil, kam xarajat, texnika, asbob-uskuna, innovatsion faoliyat, kadrlar tayyorlash jarayonini, amaliyot, ishlab chiqarish, korxon faoliyati.

**Аннотация:** В этой статье говорится, что инновационная система обучения должна быть связана с практикой, что все инновации в образовательном процессе должны быть связаны с экспериментами, тестированием и моделированием, и что вышеуказанные шаги и их инновационные знания связаны с подготовкой квалифицированного персонала.

**Ключевые слова:** Инновационные знания, средства производства, человеческий интеллектуальный капитал, индикатор, мобильный, низкая стоимость, машины, оборудование, инновационная деятельность, учебный процесс, практика, производство, предпринимательская деятельность.

**Annotation:** This article states that an innovative learning system should be linked to practice, that all innovations in the educational process should be related to experimentation, testing and modeling, and that the above steps and their innovative knowledge are related to the training of qualified personnel.

**Key words:** Innovative knowledge, means of production, human intellectual capital, indicator, mobile, low cost, machinery, equipment, innovation, educational process, practice, production, entrepreneurial activity



Iroda  
**ABDULLAYEVA,**  
Urganch Davlat  
universiteti,  
falsafa doktori (phd)



O'zbekistonda xalq xo'jaligi, iqtisodiyot va ilmiy-texnik yangiliklarni amaliyotga joriy etish bo'yicha malakali kadrlar tayyorlashga o'tgan asrning 30 yillarida kirishilgan. Ammo bizni kadrlar tayyorlash tarixi emas, balki hozirgi innovatsion rivojlanish jarayonida amalga oshirilayotgan izlanishlar, bu borada to'plangan milliy tajribalar, duch kelinayotgan muammolar va ularning echimlari qiziqtiradi. Ijtimoiy- iqtisodiy rivojlanish masalalari bilan shug'ullanadigan mutaxassislar innovatsion, ilmiy-texnik taraqqiyotni ta'minlashda bir-biriga aloqador to'rt tarkibiy qism borligini ta'kidlaydilar: 1) ilm-fan; 2) texnika va texnologiya; 3) ishlab chiqarish; 4) boshqaruv [1.47]. Mazkur tizimda intellektual salohiyat, ya'ni malakali kadrlar markaziy o'rinda turadi.

Innovatsion bilimning navbatdagi pog'onasi ishlab chiqarish vositalari (texnologiyalar) bilan bog'liq. Ishlab chiqarish vositalari innovatsion faoliyatning inson

intellektual kapitalidan keyin muhim o'rinda turadigan qismidir. Innovatsiya ko'pincha mana shu bosqichni, pog'onani yangilashga, takomillashtirishga qaratiladi. Bu pog'onaning samarali ishlashi barcha qismlarning indikator sifatida keladi va intellektual kapitalning qanchalik tez, mobil, kam xarajatli, zamonaviy va bozorbop ekanini ko'rsatadi. Shuning uchun ishlab chiqarish vositalari shunchaki texnika, asbob-uskuna va mehnat qurollarigina emas, ular butun innovatsion faoliyatning mohiyati, maqsadi va rejalarini ifoda etib keluvchi mezondir [2.201-203]. Navbatdagi pog'onalar "moddiy resurslar kapitali (bino, infratuzilma)" va "tabiiy resurslar kapitali" deb ataladi. Mazkur pog'onalar malakali kadrlar tayyorlashga bevosita ta'sir etmaydi, ammo ularsiz kadrlar tayyorlash jarayonini amaliyot, ishlab chiqarish, korxonada faoliyati bilan bog'lash mumkin emas. Innovatsiya kadrlar tayyorlash tizimini amaliyot bilan bog'lashni shart qilib qo'yadi, barcha yangiliklar o'quv tarbiya jarayoni tajribalar bilan, sinov va modellashtirish bilan bog'liq bo'lishi kerak. Yuqoridagi pog'onalar va ularning innovatsion bilim, malakali kadrlar tayyorlash bilan bog'liqligi o'zbek olimlari asarida, o'quv qo'llanmasida yaxlit tizim sifatida tasvirlab berilgan.

Keyingi yillarda davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoev tashabbusi bilan boshlangan innovatsion rivojlantirishga o'tishga qaratilgan islohotlar malakali kadrlar tayyorlash tizimi, undagi standartlar va ta'lim usullari zamon talablaridan ancha orqada ekanini ko'rsatdi. Bu esa 2017-2021 yillarda oliy ta'lim tizimini kompleks rivojlantirish dasturini qabul qilishga undadi. Birgina 2018 yilda 13 yangi oliy ta'lim muassasasi, jumladan, ilg'or xorijiy universitetlarning filiallari tashkil etildi, Fanlar akademiyasi va Innovatsiya vazirligi ilmiy-texnik, innovatsion izlanishlarga qodir yoshlardan malakali kadrlar tayyorlashga yetakchilik qilishga yo'naltirildi. Mutaxassislarining hisob kitoblariga ko'ra, xorijda magistratura va doktoranturada o'qitish, malaka oshirish va stajirovka tashkil etish bo'yicha dastlabki ehtiyoj 3,5 mingdan ortadi, xalqaro va ilmiy tajribaga ega 600 dan ziyod mutaxassislarga, 1000 ga yaqin xorijiy olimlar va ekspertlarga, umuman olganda, 5 mingdan ortiq kechiktirib bo'lmaydigan, oddiy ilmiy va ilmiy pedagogik kadrlarga ehtiyoj, talab bor. "Agar ishlab chiqarishdagi talab ham inobatga olinasa, bu raqam kamida 50-100 barobar oshadi". Bu hali bugungi ehtiyoj, deydi Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoev. Yaqin va uzoq istiqboldagi iqtisodiy rivojlanish nuqtai nazaridan bizga qaysi soha uchun qanday mutaxassis kerak bo'ladi? Shuni hozirdan chuqur o'ylashimiz, zamon talabi, islohotlar shiddatiga mos kadrlar tayyorlashimiz kerak. Kelajagimiz, ertangi kunimiz bu masalani bugun qanday hal qilishimizga bog'liq"[3]. Malakali kadrlarga bo'lgan talab va ehtiyoj yuqori ekani barchaga ma'lum edi, biroq o'tgan o'n yilliklarda bu muammoni hal etishning samarali usuli izlan-

madi. Oliy ta'lim tizimidagi poraxo'rlik va korrupsiya shunchalik ildiz otgan ediki, hatto malakali kadrlar tayyorlashga mas'ul idoralarning ham asosiy ishi pul yig'ishga aylanib qoldi. Mamalakatimizga qancha yuqori malakali kadrlar zarurligini hech kim o'rganmagan, bilmasdi. Ilk bor bu to'g'ridagi ma'lumotni biz Sh.M.Mirziyoevning 2018 yil 24 oktyabrda vid-eoselektoridagi chiqishida eshitdik. Uning keltirishicha, oliy ta'lim muassasalari qabul kvotasi qamrovi umumta'lim maktablari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari bitiruvchilariga nisbatan 7-9 foizni tashkil etar ekan, bu ko'rsatkich Rossiyada 74, Koreyada 96 foizdir. Abdulla Sherning keltirishicha, Kopengagen universitetidagi estetika fakultetida kamida ikki mingga yaqin talaba tahsil oladi. Bu raqam bizdagi ba'zi universitetlar auditoriyasiga teng [4.21]. Davlatimiz rahbari deydi: "Ta'lim jarayoniga dunyoda tan olingan fan arboblari, yuqori malakali professor o'qituvchilarni jalb etish yaxshi yo'lga qo'yilmagan. Rektor va prorektorlarni tayinlashda professor-o'qituvchilarning fikri o'rganilmayotgani oqibatida yangi tayinlangan rahbarning jamoa bilan ishlash samaradorligi yetarlicha bo'lmayapti. Ilm-fanni rivojlantirish, tadqiqotlarni ishlab chiqarish bilan integratsiya qilish, ilmiy faoliyat natijadorligini oshirish, iqtidorli talabalar ilmiy izlanishlar olib borishi uchun zarur sharoitlar yaratilmagan. Ta'lim jarayoniga innovatsion metodikalarni joriy etish, o'quv dasturlarining ishlab chiqarish bilan hamohangligini ta'minlash va eng asosiysi, professor-o'qituvchilar malakasini oshirish ishlari umuman qoniqarsiz ahvolda. Oliy ta'lim muassasalari faoliyatini o'rganish, ularni attestatsiyadan o'tkazib, akkreditatsiyalash, hujjatlarni nostrifikatsiya qilish tartiblari bugungi kun talablariga mutlaqo javob bermaydi. Iqtisodiyot shiddat bilan rivojlanayotgan bir paytda oliy ta'lim tizimi taraqqiyotning lokomotivi bo'lishi o'rniga, zamon bilan hamqadam bo'lmayotgani achinarlidir. Mehnat bozorida tarkibiy o'zgarishlarga javob beradigan, yoshlarimizga kasb-hunar o'rgatadigan, ularda tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantiradigan tizim yo'q, desak, bu ham achchiq haqiqat" [6.32]. Mazkur fikrlar ko'rsatadiki, biz innovatsion o'zgarishlarga, bu o'zgarishlarni real hayotga, transformatsiya va modernizatsiya qilinayotgan ijtimoiy borliqqa joriy etishga hali tayyor emasmiz. Oliy ta'lim muassasalarining malakali kadrlar tayyorlashga bosh-qosh bo'layotgani sezilmaydi. Ayniqsa bu ilmiy-texnik yo'nalishlardagi oliy ta'lim tizimida yaqqol ko'zga tashlanadi. Masalan, 2018-2019 o'quv yilida qishloq xo'jaligi texnikasi yo'nalishiga ajratilgan 5 ming 807 o'ringa tushgan arizalar 3 ming 624 tani, irrigatsiya va melioratsiya yo'nalishiga ajratilgan 10 ming 299 o'ringa tushgan arizalar 6 ming 742 tani, ishlab chiqarish texnologiyasi yo'nalishidagi 78 ming 120 o'ringa tushgan arizalar 56 ming 323 tani tashkil qilgan. Shu tarzda respublikamiz bo'yicha 13 mingdan ortiq kvota o'rni bo'sh

qolgan [4]. Demak, oliy texnik ta'lim muassasalari o'z faoliyatini, tayyorlayotgan mutaxassislarini yetarlicha targ'ib etmaydi, shu bois ular o'z auditoriyasini to'ldir olmayapti. Jamiyatimiz ilmiy-texnik innovatsiyalarga juda ehtiyojmand bo'layotganda ajratilgan kvotalarning bajarilmayotgani e'tirozli savollar uyg'otmay qolmaydi. Bugun davlatimiz ilmiy-texnik ishlanmalarga yalpi ichki mahsulotning 0,21 foizini ajratayotgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2021 yilga borib to'rt barabarga oshadi. Shu davrga borib O'zbekiston global innovatsion rivojlanish reytingida 50 ta ilg'or mamlakat qatoriga chiqib olishni maqsad qilib belgilagan. Xo'sh, bu maqsadga oliy ta'lim tizimi tayyormi? Ular mazkur innovatsion rivojlanishga munosib malakali kadrlarni tayyorlab bera oladimi? Jahon standartlaridan orqada qolgan, eskicha ta'lim-tarbiya tizimini qisqa muddatda yangilab bo'ladimi? Shunga o'xshash hollar boshqa oliy ta'lim muassasalar tizimida ham ko'zga tashlanadi. Masalan, Prezidentimizning 2019 yil 6 mayda imzolagan "Tibbiyot va farmatsevtika ta'limi va ilm-fani tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorida ta'kidlanganidek: "Respublikamizning olis va yetib borish qiyin bo'lgan hududlarida umumiy amaliyot vrachlari hamda tor mutaxassislarining yetishmasligi, tibbiyot ta'lim muassasalaridagi zarur bo'lgan amaliy tayyorgarlikning yetarli bo'lmayotganligi, shuningdek, uzluksiz kasb-hunar ta'limini tashkil etishning zamonaviy shakl va uslublarning sust joriy etilishi tibbiyot va farmatsevtika kadrlarini tayyorlash, o'rta muddatli davrda uni rivojlantirishning istiqbolli yo'nalishlarini belgilash tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha kechiktirib bo'lmaydigan chora tadbirlar qabul qilinishini talab etmoqda" [6]. O'tish davri jamiyatga, davlat va kelajakka xizmat qilishga qaratilgan institutlarga jiddiy talablar qo'yadi, mavjud tajribani tanqidiy tahlil qilib, ilg'or, ibratli namunalar ketidan ergashish, imkoni bo'lsa, ulardan ham o'zishni taqozo etadi. Buning uchun noan'anaviy yondashishlar, goho murakkab, qiyinchi rejalar qabul qilishga to'g'ri keladi. Bu o'rinda gap yetarli mablag'lar ajratish ustida ketayotgani yo'q, balki muammo islohotlarning samarasini ta'minlaydigan, ilg'or xalqaro tajribalar va milliy xususiyatlarimizga, etnosotsial borlig'imizga muvofiq keladigan uslublarni yaratish, topishdadir. Keyingi yillarda biz ko'p yangi-yangi vazirliklar, institutlar, tizimlar yaratdik, ularning qanchalik samarali ishlayotgani hali tahlil qilinmadi. Agar davlatimiz rahbarining viloyatlardagi chiqishlari (2019-yil 6-7-may, Farg'ona)ni kuzatsak, ko'ramizki, innovatsion rivojlanish talablariga muvofiq faoliyat yuritayotgan hududlar, institutlar juda kam. Barcha sohada yangicha iqtisodiy va innovatsion tafakkurga ega kadrlar etishmayotgani seziladi. Shu bois ham yoshlarda yangicha iqtisodiy va innovatsion tafakkurni shakllantirish, chet ellarda tajriba orttirayotgan va yashayotgan vatandoshlarimizni jalb etish ilmiy ta'lim tizimida noan'anaviy yondashuv

sifatida qabul qilinmoqda. Bu o'rinda biz 2018 yili tashkil etilgan "El-yurt umidi" jamg'armasini va chet ellardagi ilg'or oliy ta'lim muassasalari bilan birgalikda ochilayotgan filiallar, fakultetlar va o'quv dargohlarini nazarda tutayapmiz.

Yangilikka o'ch tadbirkorlik va bozor munosabatlari innovatsion izlanishlarsiz rivojlanmaydi, hatto aytish mumkinki, innovatsion tafakkur butun ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlovchi fenomen sifatida ijtimoiy borliqni qaysi tomonga o'zgarayotganini, bu o'zgarishlar mohiyatini, konstruktiv yoki destruktiv jihatlarni aks ettirib turadi. Innovatsion o'zgarishlarga qarab ijtimoiy borliqning nafaqat real holati, xuddi shuningdek, ideal holati, ya'ni kelajagi haqida ham ma'lum bir xulosalar chiqarish mumkin. O'zbekiston 2035-yillarga borib dunyoda rivojlangan 50 davlatlar qatoriga kirish, shu maqsadda innovatsion rivojlanishni ta'minlashga intilmoqda. Maqsad benihoya katta, mas'uliyatli. Ayniqsa real holat, ijtimoiy munosabatlarni salbiy tomonga burayotgan korrupsiya, amalparastlik, ta'magirlik va tashqaridan etnomadaniyatga qaratilgan hujumlar, millat xislatiga aylangan beg'amlik, bu, Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoev iborasi bilan aytganda, "yirik marra"ga, oliyjanob maqsadga g'ov bo'ladigan boshqa omillar sa'y-harakatlarni yanada kuchaytirishni, salmoqli qilishni taqozo etadi.

Iqtisodiy va innovatsion tafakkurning shakllanishi, ularning bozor munosabatlari va ijtimoiy borliqdan joy olishi malakali kadrlarga bog'liqdir. Ushbu aksioma O'zbekistonda oliy ta'lim tizimi oldiga yangi-yangi vazifalarni qo'yimoqda, ular eski ta'lim tarbiya tizimidan keskin farq qiladi. Kadrlar tayyorlashdagi xalqaro integratsiya respublikamizning malakali kadrlarga, innovatsion izlanishlarga moyil ilmiy va ilmiy-texnik kadrlarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirishi kerak.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Gulyamov S.S., Ochilov I.S., Ganixodjaev S.O. *O'zbekiston iqtisodiyotining o'sish va barqaror rivojlanish omillari. Bilimga tayangan innovatsion iqtisodiyot. -Toshkent: "Fan va texnologiyalar" nashriyoti, 2016. 47 b.*

2. Чайковская Н.В. *Дисциплина инновационного рынка: формирование и эффективность. -Москва: Луч, 1995. С. 136-138; Шевченко С.М. Стратегия инновационного развития предприятия. -Санкт Петербург: ГУЭФ, 1998. С. 201-203.*

3. *O'zbekistonga jadal islohotlar sur'atiga mos ilg'or kadrlar kerak // Xalq so'zi, 2018, 19 dekabr.*

4. "Tafakkur", 2019, № 1,21 b.

5. *"Jadal rivojlanayotgan iqtisodiyot uchun zamonaviy kadrlar kerak" // Xalq so'zi, 2018, 25-oktyabr.*

6. *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. "Tibbiyot va farmatsevtika ta'limi va ilm-fani tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" // Xalq so'zi, 2019, 7 may.*

## NORELISTIK HIKOYADA YOZUVCHI IJODIY KONSEPSIYASI TALQINI



Feruza  
ALLANAZAROVA,  
Ajiniyoz nomidagi  
Nukus  
davlat pedagogika  
instituti o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Ulug'bek Hamdamning "Tosh" nomli hikoyasidagi g'oyaviy-badiiy jihatlar hamda ramziy-majoziy talqin negizida ochib berilayotgan psixologik jarayonlar tadqiq qilingan. Hikoya qahramoni har bir tasvirda o'zining botiniy, ya'ni ong osti qiyo-falarini namoyon qilib borish manzaralariga diqqat qaratildi. Nafs va shafqat tushunchasining poetik talqiniga to'xtalib o'tildi.

**Tayanch so'zlar:** hikoya, ramz, metafora, psixoanaliz, tush, talqin, poetika, syujet, g'oya, mavzu, konsepsiya.

**Аннотация:** В статье исследуются идейно-художественные аспекты повести Улугбека Хамдама "Камень" и выявленные психологические процессы на основе символической и образной интерпретации. Главный герой повествования сосредоточился на сценах, в которых каждый образ проявлял свой внутренний, то есть подсознательный, образ. Подчеркнута поэтическая интерпретация концепции вождения и сострадания.

**Ключевые слова:** рассказ, символ, метафора, психоанализ, сон, интерпретация, поэтика, сюжет, идея, тема, концепция.

**Annotation:** The article discusses the ideological and artistic aspects of the story of Ulugbek Hamdam "Stone" and the identified psychological processes on the basis of symbolic and figurative interpretation. The main character of the narrative focused on the scenes in which each image showed its inner, that is, subconscious, image. Poetic interpretation of the concept of lust and compassion is emphasized.

**Key words:** story, symbol, metaphor, psychoanalysis, dream, interpretation, poetics, plot, idea, theme, concept.

Yangilanayotgan O'zbekiston bugun har qachongidan ham dunyo intellektual maydoniga kirib bormoqda. Bu nafaqat iqtisodiy, balki ma'naviy-madaniy hayotda ham kuzatilmoqda. Jumladan, inson qalbining eng teran tuyg'ularini ham so'z vositasida aks ettirish borasidagi ijodiy izlanishlar olib borilayotgan islohotchilik kayfiyatining bir uzvi ekanligi sir emas. Negaki, bugun-ning talablari va maqsadlari, u yerda yashovchi inson botiniy olami ham o'zgacha va zamonaviydir. Badiiy shakl borasida ham shuni qayd etish lozimki, sobiq ittifoq davridan kelayotgan ba'zi talqin yo'sinlari adabiyotda ham o'zining samarasini bermasligini, ular bugunning qahramonlari oldida qo'ygan ulkan maqsadlarni amalga oshirishda qo'l kelmasligini isbotlab turibdi. Ayniqsa, fikrlovchi bugungi inson aql-zakovatini yuksaltiradigan asarlar yaratish dolzarb ekanligi ayon bo'lib qolmoqda. Mana shunday ulkan va sharafli maqsadlarga erishishda hech bir ikkilanishsiz aytish mumkinki, Isajon Sulton, Ulug'bek Hamdam, Nazar Eshonqul ijodini jahon hikoyachilik an'analari-ga to'laqonli mos kelishini ta'kidlash o'rinli. Bunday e'tirof adabiy jamoatchilik tomonidan ham bot-bot tilga olinmoqda.

O'zining qator asarlari bilan kitobxonlar mehrini qozongan yozuvchi Ulug'bek Hamdam badiiy izlanishlarida xilma-xil ifoda uslublarining dialek-



tik aloqasini kuzatamiz. Adib kim va nima haqida qalam tebratmasin, o'zining ijodiy konsepsiyasini yangi-yangi tasvir usullari bilan boyitib borishni diqqatidan qochirmaydi. Ayniqsa, an'anaviy hikoyalari qatorida noan'anaviy hikoyalarda ham zalvorli ramziy-majoziy talqinni idrok qiladiki, natijada bugunning xos o'quvchisi undan katta bir xulosa chiqarishi tabiiy. Adibning bundan yigirma yil oldin yozilgan "Yolg'izlik" qissasi keyingi yaratilgan asarlari uchun bir bosqich vazifasini o'tagani sir emas. "Ijtimoiy ong taraqqiyotining turli bosqichlarida hodisalarga yondashish tamoyillari o'zgarib, takomillashib borishini badiiy asarlarda aks etgan hayotiy haqiqatga munosabat masalasiga ham tatbiq etish mumkin. Yaqin-yaqingacha badiiy asarning yutug'i uning hayot haqiqatiga qanchalik mos ekanligida deb qaralardi. Endilikda tasvirning hayotga o'xshashligi ko'pchilik badiiy asarlarning muvaffaqiyatsizligi sababi ekanligi ayon bo'ldi. Chunki hayotda ro'y bergan deyarli hamma hodisalarning faqat sirti idrok etiladi xolos. Mohiyat, ichki jihat, sabab-oqibat bog'lanishlari, ko'ngil, tuyg'ular silsilasi hayot hodisalarining ichida pinhon bo'lib qolaveradi. Hayot uchun natija muhim. Adabiyot uchun esa – jarayon. Shu ma'noda, adabiyotning ham hayotga o'xshamasligida, unga qaraganda ko'lamliroq, chuqurroq ekanligidadir. Shuning uchun ham hayotdagiga o'xshamagan tasvirlar milliy hikoyachiligimizda keng yoyilib bormoqda" [3;132]. Haqiqatdan ham, Q.Yo'ldoshev ta'kidlagan masalalar bugungi kun adiblari ijodining asosiy tasvir usuliga aylanib ulgurdi. Bu fikrlar Ulug'bek Hamdam ijodida turfalashdi va yanada rivojlanib yozuvchining ijodiy konsepsiyasiga aylandi. Adib hikoyalari xususida so'z yuritgan F.Burxonova qayd etishicha: "Adib asarlariga xos umumiy jihatlaridan biri boshqalardan farq qiluvchi shakl izlashi, ifodada boshqa yozuvchilarni takrorlamagan holda ramzlarga, turli-tuman poetik topilmalarga (masalan, tush, xayol, yo'l, tabiat unsurlari – yomg'ir, daraxt, tosh, suv va h.k.) murojaat etishini kuzatamiz. Bu topilgan shakl va poetik topilmalar yozuvchi asarlarining originalligini, obrazlilikini ta'minlashga xizmat qiladi va shu nuqtai nazardan, yozuvchi ilgari surayotgan adabiy-estetik qarashlar, badiiy asar haqidagi bilimlari uning badiiy asarlarida u yoki bu tarzda mahorat bilan qo'llanilayotganligini kuzatish mumkin" [1;22]. Ko'rinadiki, ramziy-majoziy talqin ustuvorligi yozuvchi hikoyalarining aksariyatida alohida bir muammo tarzida o'rganish ehtiyojini yuzaga keltirayotgani oydinlashmoqda. Talqin va tasvir birikuv natijasida yozuvchi g'arbning ilg'or yozuvchilari, ayniqsa, Kafka, Kamyu singari so'z ustalarining asarlaridan benihoya lazzatlanadi. Yozgan asarlarida o'zining individual uslubini namoyon qilish ustida tinimsiz va mashaqqatli izlanishlar olib boradi. Bu esa, o'z navbatida, yozuvchining poetik mahorati sayqallanib borayotganini to'laqonli dalolatlaydi.

Ulug'bek Hamdamning "Tosh" nomli hikoyasidagi ijodiy konsepsiya badiiy takomili "Yolg'izlik" qissasida teran falsafiy-estetik talqin qilinib, unda inson qalbining teran qatlariga nazar tashlanadi. Har ikki asar ham bir vaqtda yaratilgan. Hikoyada birinchi shaxs tilidan ibtidolanib, erkak va ayol munosabatlari, bir kunda bo'lib o'tadi. Suje't juda oddiy tuyulishi mumkin, ammo yozuvchi bu o'rinda boshqa bir masalani ilgari surgan. "Tosh" mifik tasavvur yanglig' – inson qalbidagi "mehr, muhabbat"ning yo'qolib ketayotgan shakli ekanligi ayonlashadi. Prof. U.Jo'raqulov yozishicha: "Jahon tan oladigan diniy kitoblarda. Jumladan, Sharq idealistik falsafasida bunday murakkab tushunchalar tartib – tartibsizlik, ezgulik-yovuzlik, yaxshilik – yomonlik, nur – zulmat juftliklarida aniq, sodda talqin etiladi. Ammo shuni alohida ta'kidlash joizki, Sharq va G'arb idealistik falsafasi zohiran juft ko'rinuvchi tushunchalarning har birini ambivalet (ikki tomonli) hodisa sifatida o'rganadi. Bunga o'kra, ezgulik, yovuzlik, tartib, tartibsizlik, yaxshilik, yomonlik, nur va zulmat tushunchalari absolyot mustaqil holatida ham dialogik mohiyat kasb etadi. Universal ma'nodagi hayot tushunchasi negizida aynan shu absolyot mohiyat yotadiki, buni anglangan va anglash mumkin bo'lmagan, adabiy va o'tkinchi narsa-hodisalarning barchasiga nisbatan tatbiq etish mumkin" [2;513]. Aynan mana shu jihat inson botinida va ong ostida "uxlab yotgan" xislatlarni uyg'onib ketishi, jamiyat va inson ziddiyatlarida ochiqqlanishi haqidadir. Bu o'z-o'zidan sodir bo'lmaydi. Ulug'bek Hamdam tasvirni uzoqdan aylantirib – toshga birlashtiradi. Inson va tosh tushunchasining poetik ifodasi mana shu hikoyada yanada go'zal mohiyatga evriladi. Hikoyaga e'tibor beramiz:

"Mana, qarang, necha fursatdir qanday kayfiyat sirtmog'ida talvasa qilaman men. Tovba-tovba, na jonim uziladiyu va na la'nati sirtmoq!..

Bugun ham uning iskanjasida toqatim toq bo'lganda shartta kiyindim-da, tashqariga chiqdim-ketdim. Chunki ko'ksimdagi toshning zalvori tobora tosh bosayotganini sezib, bundan taraddudga tusha boshlagandim. Ko'chada odamlarning yaxshiliklariga, muruvvatlariga ro'baro' kelsamu zora tosh ham eriy qolsa. Masalan, buyrakdagi tuz misol... Axir, u ham ovqat, suv va hokazolarni noto'g'ri iste'mol qilishdan yillar davomida inson a'zosida yig'ilgan toshdek tuzda. Yoki tuzdek tosh... Nima bo'lgandayam buning ham vaqtida oldi olinmasa, sohibini alal-oqibat turli azoblarga, balolarga giriftor aylaydi. Shunga o'xshab men ham ichimdagi tosh bilan uzoq muddat yurishni o'zim va o'zgalarning hayotiga xatar, deb o'ylab qoldim. U buyrakdagi toshdek erimasa ham, arimasa ham, loaqal ichda – ichkarida qolsin. Shunday dedimu o'zimni tashqariga urdim..." [4;154-155]

Hikoya qahramoni o'z botinidagi siqilish, lohaslik va badbin kayfiyatda zada. U boshqalar qatori baxtli yashagisi keladi-yu, buning imkonsizligidan aziyat

chekadi. Qahramon o'y-xayollarnini bandi qilgan narsa ham kuchli depressiya, aqldan ozar darajadagi ayriliq, va nadomatlardir. Hikoyaning o'q ildizi bog' va undagi qirmizi rangda tovlanib borayotgan juvon, uning izidan ergashgan "nafs"ning yuzaga chiqish sabab va oqibatlarini ko'rsatishga qaratilganligi bilan belgilanadi. Ayniqsa, ayolning husni malohatda tengsiz latofatiga asir bo'lish qahramon qalbini junbushga keltiradi. U hayotning rangin tomonlariga nazar tashlaydi. Hayotning bir-biriga o'xshamagan boshqa bir mazmunini anglay olganligida yaqqol seziladi. Ayol va erkak oldinma-kekin bog' va yo'laklarda suhbatsiz sayr qilarkan, oshiqlardek o'zini o'nglashga bo'lgan urinishlarida umid uyg'ona boradi. Bu erda inson nafsinin jiddiy sinovdan o'tkazgan yozuvchi har qanday go'zallik qarshisida "mum" tishlashga moyil qahramonning botinidagi – toshni dag'al dunyoga chiqarib yuborishga tayyorlab boradi. Hikoyaning tush-hikoya deb nomlanishida ham bir ramziy ishora mavjud. Aslida voqelik tushda kechayotganligi aytilsa-da, hikoya ichida ham yozuvchi tush ko'radi. Rela hayotdan uzilgan, umri arosatda kechayotgan inson ongi shuurida kechuvchi ro'yo – ijodkorga katta tajribani tuhfa qiladi. Ayol – shaytoniy qiyofada namoyon bo'la boradi. Unga ergashgan qahramon ham yovuz instinktini oxir-oqibatda namoyon qilib ham ulguradi. Freyd talqin qilganidek, qahramon botinidagi "tosh" dunyo bilan ayni shu ayolga uchrashgan nuqtadan boshlab uyg'onadi. Bu "ongsiz hissiyotlar, mayllar, kechinmalar jamlanmasidir. Bu yashirin hissiyotlar, - axloq, muhit, aqliy cheklovlardan mutlaqo xoli. Ular qachonlardir boshdan kechirilgan, lekin mantiq, axloq va aql qoliplariga, o'lchovlariga, tartiblariga, qoidalariga sig'magani uchun chetga surilgan, to'liq ozod, erkin hissiyotlardir. Ular aqlning o'lchovlariga sig'magani uchun ham ong ostiga tushib olishgan. Bu hissiyotlar zarur paytlarda o'zini namoyon qiladi. Bunaqa hissiyotlar har bir shaxsda mavjud. U barcha ong osti qatlamlarini boshqaradi, yo'naltiradi, shakl va qiyofa, rang-tus beradi" [5;41]. Shuni ta'kidlash o'rinliki, yozuvchi aynan mana shu jihatga juda katta mazmun yuklaydi. Freyd, Yung singari psixonalizmlar talqinlarida shaxs psixikasini poetik talqin qilishga alohida e'tibor beradi. Shaxs konsepsiyasi shu tariqa o'zligini namoyon qiladi. Bu nafaqat "Tosh", "Lola" nomli hikoyalarida ham o'ziga xos tarzda talqin qilinishi fikrimiz yorqin dalilidir:

"Ayol sotuvchiga nimadir dedi. Sotuvchi esa javoban ikkita kattagina baliqni olib tarozi pallasiga qo'ydi va vazn ko'rsatgichiga qaradi. Shu asno palladagi baliqlardan biri dumini "tap-tap" etib pallaga urdi. Ayolning ko'zlari yiltillab, damodam yutindi. Sotuvchi esa baliqni barmoqlari bilan bosdi, tinchlangandek bo'lgach yana ko'rsatgichiga qaradi. Baliq yana potradi. Tarozi ko'rsatgichi yana o'ynadi. Sotuvchining sabri toshdi, baliqni palladan stol ustiga oldi-da, tarozi toshi bilan – xuddi pachoproq odamning kichikroq

kallasidek keladigan dumaloq, qop-qora tosh bilan naq boshiga jiqqillatib tushirdi..."[5;160-161]

Hikoyaning mohiyati mana shu tasvirda ochiladi. Qahramonning yetib kelgan manzili mana shu o'rinda ochiq-oydin namoyon bo'lib, ijodkor konsepsiyasini yuzaga chiqarishga zamin yaratadi. Tosh qahramonning ichida bo'lgani uning tashqariga chiqishi, har qanday insonning botinida zulmga qarshi isyon bo'lishi real mohiyat kasb etadi. Bu erda yozuvchi majozga tayanadi. Baliq – tilsiz bir jonzot. Ayol – nafs ramzi. Tosh zulmning bolg'asi. Inson qalbidagi tosh esa zulmga qartilgan – o'q! Yozuvchini yozishga undagan narsalarning eng muhimi isyondir. Bu toza isyon – dag'al dunyoga chiqib xiralashib, jamiyat uni hazm qilmasligida ko'rinadi. Qahramon nega o'z tushida boshqalarning boshini pachaqlashni odat qildi? Bu savol hikoyaning kompozitsiyasi va g'oyasini tutib turgan ustunlardan biri desak, mubolag'a bo'lmaydi. Mana bu tasvirda qahramon o'zining azaldan qarshi bo'lib kelgan zulmga qaratilgan urinishlarini endi boshqacha ifodalaydi: *"Tongga yaqin esa ko'zim ilinibdi. Keyin tush... Unda men qo'limda tosh bilan ko'chalarni kezar, duch kelgan odamning boshiga u bilan urar, qonatar ekanman. "Axir bu... axir bu tosh mening ichimda edi-ku, qachon, qanday qilib qo'limga tushib qoldi? Nega u chiqib ketdi? Nima uchun?..", deya o'ylab siqilarkanmanu negadir dahshatli yumushdan o'zimni to'xtatmas, to'g'rirogi, to'xtatolmasmishman"*[5;162].

Umuman, Ulug'bek Hamdam hikoyalarida jamiyatni toza ko'rish istagi mudomi dolzarb mavzu sifatida qaraladi. Undagi modernistik, ya'ni norealistik talqin xilma-xilligi voqelikni o'quvchiga og'ir hazm qilinadigan shtrixlarda berishida ekanligini unutmazlik lozim. Chunki o'quvchi ham jiddiy tayyorgarlik bilan kitob mutolaasiga kirishishi muhim. Bunday falsafiy-estetik talqin Rumiy, Navoiy, Cho'lpon singari ma'rifat egalarning hayotni anglash va anglatish konsepsiyasidan bahra olganlikni tasdiqlaydi. Zotan, hikoyadagi bosh konseptual mohiyat insonni yovuzlikdan zada bo'lishi va jamiyatdagi har bir a'zolarning fikrlash tarzining o'ziga xosligi, nafs "it"iga ergashish oqibatida ko'plab fojealarning bolalab ketishiga mantiqiy urg'u berganligida ko'rinadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Burxanova F. Muallif adabiy-estetik qarashlari va ijodiy paralellizm. *Filol.fan.bo'yicha falsafa dok. Diss.avtoref. –Toshkent, 2019.*
2. Jo'raqulov U. Mif va adabiy jarayon. O'zbek adabiy tanqidi. *Antologiya. –T: "Turon-Iqbol", 2011.*
3. Yo'ldoshev Q. Yoniq so'z. –T: "YAngi asr avlodi". 2006.
4. Hamdamov U. To'lin oy qissasi. –T: "O'zbekiston". 2017.
5. Eshonqulov N. Ijod falsafasi. –T: "Akadem-nashr". 2018.



UDK: 001.895:1(575.1)

## INNOVATSIYANING SSIENTIV MOHIYATI VA JAMIYATNING IJTIMOY HAYOTIGA TA'SIRI

**Annotatsiya:** Maqolada jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy hayoti va bozor iqtisodiyoti sharoitida ilmiy izlanishlar va ularning natijasida yaratilayotgan turli texnik kashfiyotlar, ishlanmalar, innovatsiyalarning o'rni haqida fikr yuritilgan. Bozor iqtisodiyoti va tadbirkorlikning innovatsiya bilan bog'liq jihatlari ochib berilgan.

**Tayanch so'zlar:** innovatsiya, tajriba, izlanish, yangilik, ijtimoiy hayot, ssientizm, pragmatizm, bozor iqtisodiyoti, tadbirkorlik, marketing.

**Аннотация:** В статье рассматривается роль научных исследований и различных технических открытий, разработок и инноваций, созданных в результате социально-экономической жизни общества и рыночной экономики. Раскрыты аспекты рыночной экономики и предпринимательства, связанные с инновациями.

**Ключевые слова:** инновация, опыт, исследования, новация, социальная жизнь, сциентизм, прагматизм, рыночная экономика, предпринимательство, маркетинг.

**Annotation:** The article discusses the role of scientific research and various technical discoveries, developments, innovations created as a result of the socio-economic life of society and the market economy. The aspects of market economy and entrepreneurship related to innovation are revealed.

**Key words:** innovation, experience, research, innovation, social life, statism, pragmatism, market economy, entrepreneurship, marketing.



**Sardor XODJAYEV**  
Urganch davlat universiteti,  
"O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi" kafedresi  
o'qituvchisi, mustaqil tadqiqotchi

**M**a'lumki, bozor iqtisodiyoti va tafakkuri aholi talab va ehtiyojlari ta'sirida yangilanib, o'zgarib, transformatsiyaga uchrab turadi. Ularga ijtimoiy harakatchanlik, dinamizm xos. Harakatchanlik va dinamizm hayotga, faoliyatga, kishilar intilishlariga yangiliklar olib kiradi, ular barcha narsalarni o'zgartiradi, zamonaviylashtiradi yoki yangilaydi. Shunday ekan, kapitalistik munosabatlarga yuzaga keltirgan ochiq bozor munosabatlari, iqtisodiy demokratiya sotsial innovatsiyalar omili bo'lib chiqadi.

Bozor iqtisodiyoti va tadbirkorlikning innovatsiya bilan bog'liq jihatlari, ilmiy, ssientizm nuqtai nazaridan avstriyalik iqtisodchi Y.Shumpeter asarlarida asoslab beriladi. Aynan u innovatsiya tadbirkorning asosiy funksiyalaridan biri ekani ta'kidlaydi. Boshqa tadqiqotchilardan farqli ravishda, u tadbirkorlikda "dinamik muvozanat" usuli muhim deb biladi [10. 189-190]. Bu usul ssientiv mohiyatiga ko'ra, mavjud ishlab chiqarish vositalari, usullari, omillarini samarali yangi kombinatsiyalar bilan almashtirish, ya'ni yangilash orqali ishlab chiqarish jarayonini muvozanatda tutish, saqlashni anglatadi. Y.Shumpeterning ssientik talqiniga ko'ra, tadbirkor mudom ishlab chiqarish jarayonini, usullarini, yangi mahsulotlar yaratishni, yangi texnologiyalarni joriy etishni, mahsulotlarni o'tkazish vositalari va yangi bozorlarni kashf etadi. Ammo Y.Shumpeter bunday funksiyalarni umumiy iqtisodiy xususiyatga ega deb biladi.



Bozor iqtisodiyotining global xususiyat kasb etishi tadbirkorlik faoliyati uchun keng imkoniyatlar yaratdi. Har bir sohadagi tadbirkorlik, o'zining funksiyalaridan kelib chiqib, rang barang yangiliklar, ish usullari va texnika vositalari, yangi boshqarish texnologiyalarini joriy etadigan bo'ldi. Xususi mulk, korporatsiya, firma va qo'shma korxonalar qanday texnologik yangiliklardan foydalanishni o'zlari, o'zlarining asosiy faoliyati maqsadidan kelib chiqib, o'rnatadi. Qaysi tashkilotga, mehnat jamoasiga qanday innovatsiya ko'proq muvofiq ekanini aytish mushkul, chunki har mehnat jamoasining ichki xususiyatlari bir-birining muvofiq, mos kelmasligi mumkin. Bundan tashqari, mulk egasining xohish, maqsad va strategik rejalari ham mavjudki, ularni hisobga olmay biror yangilik joriy etib bo'lmaydi.

Bozor iqtisodiyoti va tadbirkorlikning innovatsion xususiyati yana shundaki, aholining talablari va turli xizmatlarga bo'lgan ehtiyojlari innovatsion ishlanmalarga bo'lgan ehtiyojni oshiradi, bunday ishlanmalar mulk egasiga, mehnat jamoasiga daromad keltiradi. Y.Shumpeter, L.Mizes, F.fon Xaek kabi iqtisodchilar innovatsiyani nafaqat ilmiy texnik kashfiyotlarni joriy etish, shuningdek, daromad va faoliyat doiralarini kengaytirish, tashabbuslarni qo'llab quvvatlash manbai sifatida ham qaraydilar [6. 7. 9]. Demak, innovatsiyani iqtisodiyot, moliya, savdo-sotiq, mehnat jamoasini boshqarish, ishlab chiqarish jarayonlari va vositalarini yangilash, kadrlarni joylashtirish va qayta tayyorlash, rejalashtirish va loyihalashtirish, strategik vazifalarni belgilab olish va ularning uyg'unligini ta'minlash kabi rang-barang faoliyat turlariga tadbiriq etish mumkin.

Novatsiya va novatsion marketing to'g'risida AQSH va Yevropada juda ko'plab tadqiqotlar o'tkazilgan, asarlar chop etilgan. Har qanday yangi yondashuvni, faoliyat turini va g'oyani novatsiya atash, yangilik sifatida qarash marketing va menejment asoslariga kiritilgan. Masalan, AQShlik tadqiqotchi E.Rodgers va P.Sxniers "innovatsiya o'z manbasidan, ya'ni kashfiyotchisidan oxirida undan foydalanuvchi yoki uning izdoshlarigacha borib yetadigan g'oyadir" deb ta'rif beradilar [2. 3]. Ularning fikricha innovatsiya bu yangi g'oya, yangi fikr, yangi taklif. Bu g'oyani ishlab chiqqan, asoslagan sub'ekt innovator. Innovatorning g'oyasi boshqalarga tarqalsa, o'tsa, ularning ham g'oyasiga aylansa, fikridan, ongidan joy olsa, difuziya ro'y beradi, ya'ni innovatsion g'oya permanent tarzda tarqaladi. Innovatsiya iste'molchi ongidan joy olishi kerak, menejment va marketing talabi innovatorni mudom iste'molchi talabiga ishlashga, izlanishga undaydi.

Innovatsiyaga marketing va menejment asoslari nazariyotchilaridan biri F.Kotler va uning hammuallifi K.L.Keller quyidagicha ta'rif berishadi: "Innovatsiya kimdir tomonidan yangi sifatida tan olingan g'oya, xi-

zmat yoki har qanday tovardir. G'oya uzoq tarixiga ega bo'lishi mumkin, ammo unga ilk bor duch kelgan kishini uni innovatsiya sifatida qabul qiladi. Innovatsiyaning jamiyatda tarqalishi uchun vaqt zarur" [5. 275]. Ko'rinib turibdiki, F.Kotler va K.L.Keller innovatsiyaga keng, marketing va menejment nuqtai nazaridan qarashadi, shuning uchun ular bozor iqtisodiyotiga xos bo'lgan yangi xizmat turlari va tovarlarni ham innovatsiya deb bilishadi. Innovatsiyaning shakllanishi uchun iste'molchi ongi va uning yangilikni qabul qilishi bilan bog'liq jarayonlar zarur. Xizmat yoki tovarning sotib olinishi yoki qabul qilinishi innovatsiyaning cho'qqisi hisoblanadi. F.Kotler va K.L.Keller bu jarayonni: 1) iste'molchining innovatsiyadan xabardorligi; 2) iste'molchi qiziqishi va ehtiyoji; 3) iste'molchi bahosi, ya'ni yangilik sotib olishga arziydimi, kerakmi; 4) sinab ko'rish; 5) qaror qabul qilish, ya'ni tovar yoki xizmat turini sotib olishga qaror qilish [5. 275]. Tadqiqotchilar tovar yoki xizmat turini iste'molchi tomonidan sotib olinishiga urg'u berishadi. Iste'molchi innovatsiyani sotib olsa, qiziqishini unga yo'naltirsa, uni izlasa innovator (firma, korporatsiya, menejment) maqsadiga yetgan bo'ladi. Innovator bilan iste'molchi o'rtasidagi dialog, munosabat marketing talablariga muvofiq kechadi, ammo bu o'rinda markaziy nuqta iste'molchidir. Innovator uning qiziqishlarini, talab va ehtiyojlarini o'rganadi va o'z g'oyasini, tovar yoki xizmatini shu asosda taklif etadi [1].

Garvard biznes maktabi professori Kleyton M. Kritensen innovatsiyani marketing jarayonlari, kapital kiritish va firmanni boshqarish sohalaridagi o'zgarishlar deb tushunadi [4, 13]. Chamasi tadqiqotchi yangilik olib kirish bilan bog'liq o'zgarishni nazarda tutadi. U innovatsiyaning "muvaqqiyatli innovatsiya" va "yemiruvchi innovatsiya"larga ajratib, yangilik ham goho salbiy natijalarga olib kelishi mumkinligini yirik kompaniyalar faoliyatini tahlil qilish orqali ochib beradi. Demak, barcha innovatsiyalar ham ijobiy natijalar beravermaydi, muvaqqiyatlar keltiravermaydi. Mazkur xulosa innovatsiyalarni joriy etish jarayonlarini tahlil etishda muhim ahamiyatga ega.

AQShning sobiq prezidenti, yirik tadbirkor D.Tramp innovatsiyaga ijtimoiy falsafiy ta'rif beradi. U yozadi: "Ko'pincha yangiliklarni "innovatsiya" deb atashadi. Ko'p hollarda innovatsiya eski qismlarning ilgari bo'lmagan butunga birlashishidir"[8, 19]. "Men mistikaga berilishni maslahat bermayman, – deydi u o'quvchilariga, – hayotiy muvaqqiyat sog'lom fikr va jiddiy mehnatni talab etadi. Goho tushuntirish qiyin bo'lgan narsalarni e'tibordan qochirmang, ular yangi g'oyalarga eltishi mumkin. Axir biz yaratmaymiz, bizgacha yaratilganlarini bir joyga yig'amiz. Qiziqishlaringiz qaysi sohada bo'lmasin, a'lo yig'uvchi bo'ling, ana shunda siz ixtirochi bo'lasiz. Katta aqlga uni turib qoldirmaydigan ko'p fikr va stimullar zarur, shuning uchun miyangiz mudom ish bilan band bo'lishiga intil-

ing. Bu sizning omadli kishilar dunyosiga kirish chiptasi bo'lishi mumkin" [8, 21]. Ko'rinib turibdiki, muallif e'tiborini insonning intellektual faolligini oshirishga qaratadi. Butun kitob davomida D.Trampning ana shunday pragmatik va innovatsion xususiyatlarga ega fikrlariga, tavsiyalariga duch kelasiz.

Innovatsiyani ijtimoiy hayotning barcha sohalari-ga tadbiiq etish MDH olimlari ishlarida, tadqiqotlarida ko'p uchraydi. Shuning uchun bugun ilmiy adabiyot-larda ssientik mohiyatga ega "sotsial innovatsiya", "tibbiy innovatsiya", "boshqaruv innovatsiyasi", "inno-vatsion turizm", "texnik innovatsiya", "moliya innovat-siyasi", "madaniyat va san'at sohasida innovatsiya", "pedagogik innovatsiya", "estetik innovatsiya", "inno-vatsion usullar", "innovatsion platformalar", "inno-vatsion darsliklar", "innovatsion ishlanmalar", "inno-vatsion xulq atvor" kabi ko'plab tushunchalar va iboralar-ga duch kelamiz.

Innovatsiyaning turli ilmiy talqinlari uning keng ij-timoiy voqelik ekanidan darak beradi. Shuning uchun ham olimlar unga turli talqinlar berishga intiladilar. MDHdagi olimlardan Yu.V.Yakovets innovatsiyaga "faoliyat mahsuldorligini oshiruvchi yangi element-lar kiritish" deb ta'rif beradi. Bu bilan u faoliyatning samaradorligini oshirishga e'tiborini qaratadi. P.N. Zavlin, A.K.Kazansev va L.E.Mindeli "intellektual (ilmiy texnik) faoliyat natijalaridan foydalanish" deb hisoblaydi. Demak, mualliflar ientellektual izlanishlar va intellektual faoliyat tarafdorlaridir. F.F.Bezdudniy, G.A.Smirnova, O.D.Nechaeva "yangi g'oyani amal-ga oshirish jarayoni", deb ko'rsatadilar. Bu jarayon bozorda ehtiyojlarni qondirishga xizmat qiluvchi va iqtisodiy samara beruvchi voqelikdir. S.V.Ildemenov, A.S.Ildemenov va V.P.Vorobev, innovatsiya korxon-a faoliyatining samaradorligini oshirishga xizmat qiluv-chi kompleksli jarayon, deb yozishadi. Ular kompleks-li jarayon deganda innovatsion g'oya, investitsiyalash, amaliyotga joriy etish, samaradorligini hisob kitob qil-ish, deb tushunishadi. A.I.Anshin, A.A.Dagaev, yangi ilmiy texnik kashfiyotlarning "amalda birinchi marta qo'llanilishi" deb biladi. Birinchi marta qo'llanilishini ular innovatsiyaning belgisi deb qabul qiladilar. L.M. Goxberg innovatsiyani "yangi yoki takomillashtirilgan texnologik jarayon ko'rinishida namoyon bo'ladigan yakuniy natijasi", R.A.Faxrutdinov "yangilik kiritish-

ning yakuniy bosqichi", A.B.Titov esa "samaralar be-radigan, tamomila yangi yoki modifikatsiya qilingan vosita (yangilik) yaratish va o'zlashtirish (joriy qilish) yakuniy natijasi", deb biladi. Bu ilmiy talqinlardan ma'lum bo'ladiki, innovatsiya ijtimoiy hayotning bar-cha sohalari-ga kirib borayotgan voqelik, jarayon. De-mak, bugun ijtimoiy borliqda, inson va jamiyatlar hay-otida yangilanishga yo'naltirilgan chuqur o'zgarishlar sodir bo'lmoqda, insoniyat o'z ekzistensial borlig'ini yangicha tashkil etish va yuksaltirishga intilmoqda. Innovatsion va modernizatsion taraqqiyot ob'ektiv ehtiyoj sifatida global tafakkurni shakllantirmoqda, bu tafakkur esa tinmay izlanishga, yangilik izlashga, ijtimoiy ongni yangi-yangi paradigmalari, modellar va arxitonika yaratishga, topishga undamoqda.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Berry L. L., Parasuraman A. *Marketing Ser-vicees. Competing Through Quality.* - N. Y. Free Press, 1991;
2. Rogers M. E. *Diffusion of Innovations.* N. Y. Free Press, 1983;
3. Schnaars S. P. *Maanaging Ivitation Strategies.* N. Y. Free Press, 1994.
4. Kleyton M.Kristensen. *Dilemma innovatora. Как из за новых технологий погибают сильные компании. Перевод с англ. 7-изд. - Москва: Alpina, 2018. S.13.*
5. Котлер Ф., Келлер К.Л. *Маркетинг менед-жмент. Экспресс курс. 3-изд. SPb.: - Piter, 2008. S.275.*
6. Макарова И.В. *Предпринимательство: стимулирование инновационного поведения. - Екатеринбург, EGU, 1997;*
7. Ойши В. *Основные принципы экономиче-ской полотики. - Москва: Прогресс, 1995;*
8. Трамп Д. *Думай как чемпион: откровения магната о жизни и бизнесе. - Москва: Изда-тельство "Е", 2018. Стр. 19.*
9. Чайковская Н.В. *Дисциплина инновацион-ного рынка: формирование и эффективность. - Москва: Лучь, 1995*
10. Шумпетер И. *Теория экономического раз-вития.- Москва: Экономика, 1982. Стр.189-190*



# QORAQALPOQ TILIDAGI SOMATIK FRAZELOGIZMLARNING FONOSTILISTIK XUSUSIYATLARI



**Biybisānem  
YUSUPOVA,**  
Ajiniyoz nomidagi  
NukusDPI  
qoraqalpoq tili kafe-  
drasi dotsenti,  
filologiya fanlari  
nomzodi



**Annotatsiya:** Qoraqalpoq tilidagi somatik frazeologizmlar o'ziga xos guruhni tashkil qiladi. Ularning o'ziga xos xususiyatlaridan biri tovushlarning uyg'unligi, evfonik xarakteridir, bu ularning ta'sirchanligini oshirishda katta ahamiyatga ega. Tarkibida inson tana a'zolari nomlari bo'lgan turli xil frazeologik birliklar tovush va semantik xususiyatlarga ega. Maqolada qoraqalpoq tilidagi somatik frazeologizmlar tadqiq qilindi. Bosh, ko'z, quloq, og'iz, jag', til, yuz, oyoq, yurak, jigar, bel, shuningdek, qobirg'a, qo'ltiq, suyak, o'pka, qosh, tish, tobon, tomoq kabi tana a'zosi nomlari bilan bog'liq bo'lgan turli xil iboralarda uchraydigan tovush garmoniyasi, evfonik hodisalar tahlil qilinadi va ular tufayli yuzaga kelgan badiiylik, obrazlilik masalalari haqida so'z yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** frazeologizm, somatik frazeologizm, fonostilistika frazeologizmlarda tovush garmoniyasi, evfonik hodisalar.

**Аннотация:** Соматические фразеологизмы каракалпакского языка образуют уникальную группу. Одна из их отличительных черт – гармония звуков, благозвучность, что имеет большое значение для повышения их чувствительности. Различные фразеологизмы, содержащие названия частей тела человека, обладают звуковыми и смысловыми свойствами. В статье исследуется соматический фразеологизм каракалпакского языка. Звуковая гармония, эвфонические явления, встречающиеся в различных выражениях, связанных с частями тела, такими как голова, глаза, уши, рот, подбородок, язык, лицо, ступни, сердце, печень, талия, а также ребра, подмышки, кости, легкие, брови, зубы, пятки, горло анализируются и обсуждаются проблемы искусства, образности, вызванной ими.

**Ключевые слова:** фразеологизм, соматический фразеологизм, фоностилестика во фразеологизмах, звуковая гармония, эвфонические явления.

**Annotation:** Somatic phraseologies in the Karakalpak language form a unique group. One of their distinctive features is the harmony of sounds, the euphonic character, which is of great importance in increasing their sensitivity. Different phraseological units containing the names of human body parts have phonetic and semantic properties. The article examines somatic phraseology in the Karakalpak language. The sound harmony, euphonic phenomena occurred in various expressions related to body parts such as head, eyes, ears, mouth, chin, tongue, face, feet, heart, liver, waist, as well as ribs, armpits, bones, lungs, eyebrows, teeth, heels, throat are analyzed and the issues of art, imagery caused by them are discussed.

**Keywords:** phraseologism, somatic phraseologism, sound harmony in phonostylistic phraseologies, euphonic phenomena.

Qoraqalpoq tili frazeologiyasi bo'limida somatik frazeologizmlar o'ziga xos guruhni tashkil qiladi. Boshqa mavzuviy guruhdagi frazeologizmlar bilan taqqoslaganda, ular miqdor jihatidan ko'pligi va qo'llanilishi mahsuldorligi, shuningdek, ma'nolarining xilma-xilligi bilan farq qiladi. Somatik frazeologizmlar boshqa leksik-semantik, grammatik, uslubiy, lingvoadaniy xususiyatlar qatorida fonostilistik xususiyatlari tufayli ham ajralib turadi. Badiiy adabiyot tilida bunday frazeologizmlar har xil semantik farqlar bilan ishlatiladi. Bunday somatik frazeologizmlar alohida so'zlarning ma'nosiga nisbatan majoziy va ta'sirchan bo'lgani uchun, so'z ustalari ulardan turli xil uslubiy badiiy jihatdan samarali foydalanadilar.

“Uzoq muddatli taraqqiyot mahsuli hisoblangan frazeologizmlar jamiyat tajribasini aks ettirib, uni bir avloddan ikkinchisiga yetkazadi, shu boisdan, ular nafaqat aloqa vositasi sifatida, balki turli-tuman ijtimoiy jihatdan ahamiyatli ma'lumotlar manbai sifatida ham muhim o'rin tutadi. Shu nuqtai nazardan, tilning milliy madaniy semantikasi – bu tarixiy rivojlanish natijasi bo'lib, u madaniy o'tmishni ham o'z ichiga oladiki, xalq tarixi qanchalik boy bo'lsa, uning tiliga hos birliklar shunchalik yorqin va mazmunan ko'p qirrali bo'laveradi. Turli tillar frazeologiyasini qiyosiy jihatdan o'rganish esa har ikkala tilning ham tuzilishini chuqur anglab yetish, bu til sohiblari bo'lgan insonlarning fe'li, madaniyati, adabiyoti, tarixi, urf-odatlarini to'g'risidagi bilimlarning boyitilishiga xizmat qiladi”[4, b.5].

Inson o'z fikr-mulohazalarini ta'sirchan va ko'rkam ifodalash maqsadida frazeologizmlardan foydalanar ekan, o'zini qurshab turgan atrof-muhitdagi narsa, belgi, voqea-hodisalardan, ularning nomlari va xususiyatlaridan foydalanadi, ularni chog'ishtiradi va taqqoslaydi. Shu nuqtai nazardan, o'z tana a'zolari nomlaridan ham o'zining barcha ijobiy va salbiy his-tuyg'ularini, qarashlarini, o'z bahosi va tushunchalarini, yaxlit fikr-mulohazalarini aks ettirishda mohirona foydalanadi. Natijada, tilda inson tana a'zolari nomlari frazeologizm tarkibida unumli ishlatiladi, bu esa tilda ko'plab turg'un birliklarning shakllanishiga asos bo'ladi. Bunday somatik frazeologizmlar fikrning ta'sirchanligi, obrazlilik va badiiyligini ta'minlovchi vosita bo'lib xizmat qiladi. Ularning ma'nolari, tuzilishi va fonetik xususiyatlari ham turlicha bo'lib, frazeologizmning o'ziga xos xususiyatlarini birlashtiradi.

“Somatik frazeologizmlar – bu har qanday xalqning milliy madaniyatining ko'rsatkichi, kodi, tushunchasi. Bu orqali odamning ichki tuyg'ulari, o'z tana a'zolari bilan bog'liq tarzda aks ettirilib, inson ichki tuyg'usini namoyon etadi. Odam organizmini tuzilishiga ko'ra o'ng va chap deb qarash, ularga muayyan diniy e'tiqod, tushunchalar orqali munosabatda bo'lish faqat qozoq xalqiga emas, barcha musulmon xalqlariga ham xosdir. O'ng qo'l bilan salomlashish, ovqatni o'ng qo'l bilan yemoq, shu singari diniy,

ma'naviy udumlar bilan chuqur aralashib ketgan tushunchalar, diniy qadriyatlar, urf-odat, an'anaviy stereotiplar mavjud. Bu demak, xalqning inson bolasi dunyoga kelishining betakror in'omi deb hisoblashi, olamni anglashda o'z tushunchalarini, qarashlarini tana a'zolari nomlari orqali ifodalay olishining yorqin dalilidir” [2, b.15-16].

Qoraqalpoq tilidagi somatik frazeologizmlarning o'ziga xos xususiyatlaridan biri tovushlarning uyg'unligi, evfonik xarakteridir, bu ularning ta'sirchanligini oshirishda katta ahamiyatga ega. Leksik tarkibida inson tana a'zolari nomlari bo'lgan turli xil frazeologik birliklar tovush va semantik xususiyatlarga ega:

1. Qoraqalpoq tilining somatik frazeologizmlari guruhida “bosh” tana a'zosi nomi bilan kelgan frazeologizmlar alohida o'rin tutadi. Ular badiiy adabiyot tilida ham unumli ishlatiladi. Masalan: Biraq, biziñ añqıldaqshılıgımız **Biraq, biziñ añqıldaqshılıgımız** (K.R.) **Barmaqtıñ basınday** kip-kishkene qus ... (K.S.) Bul barısında demine nan pisetuğın, pilmâmbettiñ özine de **bash bermeydi!** (K.S.) Hây, balalı bolğıñ kelse **bası bos** hayallar az ba? (K.R.)

2. Tarkibida “ko'z” tana a'zosi atamasiga ega bo'lgan frazeologizmlar ham xalq tushunchasi, qarashlari, e'tiqodi, istaklari, niyatlari, ijobiy va salbiy fikrlari, minnatdorchilik va qarq'ishining ko'p qirrali tomonlarini bildiradi. Bu holda “ko'z” tana a'zosi nomi boshida so'zning tovushi bilan uyg'unlashgan so'zlarning to'g'ri va ko'chma ma'nolari frazeologizmning butun majoziy, ta'sirli ma'nosini hosil qiladi. Masalan: Endi ol kempir bizdi duyım jurıta masqara qıladı. **Kózin qurtıwım kerek...**Búğinnen qalmay... (K.R.) Aldında qanday **kózi qızıl bále** kútip tur? (K.S.) Kóp adamnıñ arasında turğan Qulmuratov ol qarağan tárepke **kóziniñ qıyıgın salıp edi**, júregi sızlap qoya berdi. Tanımay **kóziñ gór me?** (Q.Á.) **Jılasań kóziñe qum ..** (Q.Á.) Qansha moyın tawlıq etkeni menen el bolıp oylasıp **“Kóziñniñ qırın salıp júr, quda”** – dep pátıya berdi. (J.S.)

3. **“Quloq”** tana a'zosi nomli frazeologizmlar somatik frazeologizmlarning yana bitta guruhini tashkil qiladi. Ularning tovush jihatdan badiiy ta'rifi quyidagi misollardan yaqqol ko'rinadi: Óstemir ağa menen Xábiybulla ağa kempir-ğarrınıñ **qulağına qurt bolıp tústi**, eger aytqanına kónbeseñler, ğarrındı maqsım bolğanı ushın qamatıp jiberemiz dep atır. (K.R.) **Qulağıımızdıñ qurışı bir qansın**, oğada ruwxımız túsip qalğın eken, sizge raxmet, – dep jabırlastı. (J.Á.) Qızğa **kóz-qulaq bolıp**, óz qızınıñday kórip tálim-tárbiya beriñ, Qoshqarbay ağa. (K.R.) Bunday holda, frazeologizmi **qulağına qurt bolıp tústi** shaklida ishlatish tovush evfoniyasini yaratish bilan birga, har kuni yoki tez-tez, takror va takror aytish, ogohlantirish ma'nosini bildirib, u q tovushi alliteratsiyasiga asoslangan. Quloqqa yoqimli bo'lgan ovozlarni eshitish, harakatlarni ifodalashda **qulağıımızdıñ qurışı bir qansın** frazeologizmi shakllangan. **Kóz-qulaq bolıp**

frazeologizmida inson tana a'zolari nomlari juft shaklida alliteratsion frazeologik birikma yaratib, tovush va ma'no uyg'unligi bilan ajralib turadi.

4. “Og'iz”, “jag” tana a'zosi nomlari frazeologik iboralar tarkibida uchraydi va iboralarning har xil ma'nolarga ega bo'lishini ta'minlaydi. Ular variantdoshlik, omonimiya, ko'p ma'nolilik va uslubiy qo'llanilishi bilan ajralib turadi. Bunday holda, ularning tovush uyg'unligi ma'no ta'sirchanligi oshishiga yordam beradi. Og'iz va ochish, anqayish komponenti bilan kelgan frazeologizmlar quyidagi farqlarga ega: lol qolish, qoyil qolish, hayratlanish tufayli o'zini unutish, ko'ngilchan, sodda, ishonuvchan ma'nolari tushuniladi: Ómirimde birinshi ret bunday sulw etip bezelgen úydi kórmegenime, **awzim ashilip qalıptı**. (G.T.) “Qazannan qaqaq ketse, iyten uyat keter” degendey, ol sizlerdiñ **awzi ashıqlıgıñızdan** paydalanbaqshı bolğan”. (K.R.) Ey, bala, **awzıñ añqayıp** otira bergenshe, qıymıldasañ-â janı bar adam qusap! (K.R.)

Gapirmaslik, indamaslik, aytmaslik, javob bermaslik ma'nosini anglatuvchi frazeologizmlarda variantdoshlik, ayrim komponentlarining ellipsis hodisasi-ga muvofiq tushib qolishi kuzatiladi. Bunday ba'zi frazeologizmlarda tovushlar uyg'unligi, evfoniya saqlanadi. Masalan: Men oğan ol tuwralı **illa dep awzimdi ashpadım**. (Q.J.) Bu frazeologizm har qanday holatda ham gapirmaslikni anglatasa, quyidagi misolda avval gapirib, keyin gapirmaslik ma'nosi tushuniladi: Sol-sol eken, Turdimurat **jumğan awzın ashpadı**. (Q.J.) Qurbaniyaz ağağa ayt dúnyasın shashırqırasın”, – dedi saqalı shala ağargan zaqzaqlaw birewi tórde otırıp, esheyinde sayrap otratuğın Jamurat **jumğan awzın ashpadı**. (Q.J.) “Jag” a'zo nomi bilan kelgan ba'zi frazeologizmlarda ham tovush uyg'unligi, tovush garmoniyasi uchraydi. Masalan: Seniñ baslıq penen **jaq jarıstıra bergeniñ** bolmaydı. (Q.J.) Úlkenler menen **jaq jarıstıra berip** ne qılasañ, balam. (K.R.) Bu frazeologizm bahslashish, janjallashish, qarshi gapirishni bildiradi.

5. “Til” tana a'zosi atamasi bilan kelgan frazeologik iboralar faqat nutq faoliyati bilan bog'liq bo'lgan harakatlarni tasvirlash bilan chegaralanib qolmaydi, balki boshqa xil ma'nolarni anglatishda ham ishtirok etadi. Masalan: Háy aqmaqlar, **tiliñızdi tartıñ**. (Q.Á.) Hákimlerge **til tiydirmey** óziñnen bolğan sebepti ayt. (Q.Á.) **Tilimdi tislep ólsem ólermen-dá**, urlıq penen shuğullanbayman! – dedim aqırı (J.S.). Bunda **tilin tartıw** alliteracion frazeologizm bo'lib, gapirmaslik, asosan, qarshi bo'lmaslik ma'nosiga ega. **Til tiydirmew** frazeologizmi esa qoralamaslik, tuhmat qilmaslik, yomon gapirmaslik, sha'niga dog' tushirmaslik, obro'sini to'kmaslik ma'nosida ishlatilsa, **tilimdi tislep ólsem ólermen-dá** iborasi har qanday vaziyatda ham, qanchalik qiyin bo'lmasin ma'nosini anglatadi. Bu frazeologizmlar faqat o'xshash yoki bir xil tovushlarga ega bo'lgan so'zlar birikmasi, tovushlar birikmasi emas, balki chuqur ma'no, obrazli

xususiyat, emotsional-ekspressiv buyoqdor turg'in iboralardir.

6. Inson his-tuyg'ularini, turli emotsiyalarini, ichki ruhiy olamidagi o'zgarishlarni, ruhiy kechinmalarini tasvirlashda tarkibida “yuz” tana a'zosi nomi mavjud bo'lgan frazeologik iboralar juda muhim ahamiyatga ega. Masalan: Dárrıw Gúlsánem ornınan ushıp turıp, Jádigerdiñ betine túkirdi. Sonda da **beti bilsh etpey**, uyalğan tek turmaydı degendey jalına beredi. (Q.J.) Barlıq aybın **betine basıp** aytqandı kim unatadı házir! (K.S.)

7. “Qo'l” atamasi bo'lgan frazeologizmlar ham fonetik uyg'unlikda eng mahsuldor birliklar hisoblanadi. Ular juda ko'p ma'no xusiyatlariga ega. Masalan: **Qolıñnan kelse** ilaqtı hesh kimge bermey Ótegen aqsaqaldıñ qızı Arzıxannıñ aldına tasla! (J.S.) Beg-jan baslıqtıñ pinhamı ektirgen qawın-qámek, asqabaq, shalqam, láblebilere, kendir, gúnjileri de **qol keldi**. (J.Á.) **Qolı qızılğa tiygen** jeñgeñ ağağa taqım burawdı salmas pa eken? (K.S.)8. “Oyoq” atamasi ibora tarkibida uchraydi va xarakter, belgi, harakat va h.k. ma'nolarni anglatadi. Masalan: Onday **ala ayaqlar** menen esaplasıp qoyamız. Kimniñ elin bassınadı eken? (K.R.) Bizniñ otağasınıñ **ayaq alısına qara?!** – dedi (K.S.) Misollarda **ala ayaqlar** – yoqimsiz, yomon xulqli, yomon niyatli, salbiy xarakterli odam; **ayaq alısına qara** – ishni, biror narsa boshlash, nimaningdir boshlanishi; A tovushlarining assonant uyg'unligiga asoslangan bu frazeologizmlar tovush san'ati, tovush badiiyliigi, alohida e'tiborga qaratishga qodirligi va ta'sirchanligi bilan ajralib turadi.

9. Tarkibida yurak, jigar, bel atamaları bilan frazeologizmlar har xil harakatlar va his-tuyg'ularni bildiradi. Masalan: Way, ataña nálet, meniñ hákimlik súrgen qol astımda qanday háddi bar munday kúsh etiwege, men olarğa sonday jaza bereyin, xalıqtıñ **júregi jarılsın** (Q.Á.). Qaydaa? Ol kúnler kórgen tústey zım-zıya boldı goy. Endi hámmesi kózin alartıp qaraydı. Tap ákesinen qalğan dúnyasın **bawırma basıp** otrığanday! (K.R.) **Beliñdi bekem buwıp** balalarıñızdı úyiñe alıp ket, – desti eki qoñsımız (G.T.).

Eger sen aspandı tursañ da tirep,  
Attan túsip sálem bermegiñ kerek,  
Sonda garrılar qaytadan tuwğanday,  
Quwanar **beline belbew buwğanday**. (I.Yu)

“Beline belbew buwıw” frazeologizmi orqali keksalarga chopon kiydirish, hurmat qilish tushunchasi bilan bir qatorda, ularni qo'llab-quvvatlash va yordam berish semalari mujassamlashgan. Aytish mumkinki, bu frazeologizmlarda qoraqalpoq xalqining milliy o'ziga xosligini aks ettiradigan urf-odatlarimiz aks etgan deyish mumkin” [1, b.55].

Shuningdek, qobirg'a, qo'ltiq, suyak, o'pka, qosh, tish, tobon, tomoq kabi tana a'zosi nomlari bilan bog'liq bo'lgan turli xil iboralarda tovush garmoniyasi, evfonik hodisalar va ular tufayli yuzaga kelgan badiiylik, obrazlilik mavjud. Masalan: Ol bul húkimet ushın

adam eken ğoy, onıń ólimine hámmesiniń **qabırǵası qayısıptı ğoy.** (K.R.) Marapatlap **qoltıǵınan kótermelewshiler** kóp edi. (K.S.) Jol boyınsha onıń: “Joldas Stalinniń tapsırması boyınsha barlıq jer awdarılıp kelgenler urısqa alınbasın!” degen ızǵarlı sózi qulaǵımnan ketpey **say-súyegimdi qaqsatti.** (G.T.) Bir aqmaqtıń gápi dep sonsha jerden **ókpeń óship** kelip otırǵanın. (G.T.) **Qas qaǵımda** aldı da ketti. (J.Á.) Áne shólkemlestiriwshilikniń kúshi, rayon basshıları hámmesi uyalǵaninan **tisti-tiske qoyıp** ishten ózlerin keyip turdı. (J.Á.) Bayaǵıda Nawrızbaydıń **tabanın taydırǵanda** da tap usı taqiletles ándiysheni basınan keshirgen edi. (K.S.)

S.A.Maruxina tovush takrori haqida shunday yozadi: “Takrorning asosida turgan belgisiga qarab, ular farq qiladi: a) tovushlarning tabiati bo'yicha – alliteratsiyalar, assonanslar; b) tovushlar miqdori bo'yicha – ikkilik, uchlik va boshqalar, sodda va murakkab, to'liq va to'liq bo'lmagan; v) takrorda tovushlarning joylashuvi bo'yicha; g) so'zda, she'rda va h.k. takrorning joylashuvi bo'yicha – anafora, epifora, chegara, halqa va kombinatsiyasi [LES: 470]” [3,b.49]. Bunday takrorlardan alliteratsiya va assonans, ikki va uch marta takrorlashga asoslangan tovush takrori

qoraqalpoq tilidagi evfonik xususiyatga ega bo'lgan frazeologizmlarda ham ko'p uchraydi va ularning badiiyligini, tasviriyliги ko'rsatadi. Nutq turlarida, badiiy nutqda ular badiiy tasvirlash, emotsional-ekspressiv buyuqdorlikka erishish, ta'sirchanlikni ta'minlash maqsadida muhim vosita sifatida unumli foydalaniladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Абдиназимов Ш., Толыбаев Х. Лингвокультурология. – Нөкис: Қарақалпақстан, 2020.

2. Бекниязов Б.К. Қорақалпоғистон қозоқлари тилидаги соматик фразеологизмларнинг лингвомаданий таҳлили. Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Нукус: 2021. Б.53.

3. Марухина С.А. Фоносемантические маркеры поэтического текста (на материале английского и французского языков). Диссертация на соискание ученой степени кандидата филологических наук. – Ярославль: 2014. С.181.

4. Хакимова Г.Э. Фразеологик бирликларнинг лингвокультурологик аспекти. – Тошкент: ЎзДЖТУ, 2018. Б.126.

## MA'NOLAR MAHZANI

# “QUTADG`U BILIG” HIKMATLARI

Davlatning ziyoda bo'lsa, unga mag`rurlanmagin, qo'lingdan kelganicha yaxshilik qil, yomonlik qilmagin.

Mol-dunyoga mahliyo bo'lma, u ko'payadi va yana ozayadi, davlatga (boylikka) ishonma, uning umri qisqa, tez qariydi.

Tiriklikka ishonma, u tushdek o'tib ketadi, omonat baxtga beparvo bo'lma, u qushdek uchib ketadi.

Tiriklikni behuda o'tkazma, yaxshilik qil, o'tib ketayotgan kunlarda keraklik ishlarni qilib qol.

Ichimlik ichma, janjalga aralashma, undan uzoq yur, zino qilma va fosiq, tuban degan nom olma.

Bu ikki yaramas odatdan muqaddas qut qochadi, ular odamga qashshoqlik yo'lini ochadi.

Yusuf Xos HOJIB

# FARIDA AFRO'Z IJODIDA UCHLIK LIRIK SHAKLLAR SIFATIDA



**Guljahon  
DOSHANOVA,**  
Berdaq nomidagi  
QDU  
o'zbek tili va ad-  
abiyoti kafedrasida  
katta o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Bu maqolada shoira Farida Afro'z she'riyatining badiiy tadqiqi, shoiraning uchlik she'rlaridagi g'oya, shakl va mazmun, she'rlar badiiyati masalalari tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** uchlik, lirika, badiiy shakl, tasbeh, mazmun

**Аннотация:** В статье анализируется художественные исследования поэзии поэтессы Фариды Афруз, идеи и содержание троицы и художественные особенности лирики.

**Ключевые слова:** троица, лирика, художественная форма, аналогия, содержание

**Annotation:** This article analyzes the artistic study of poetry in the poets Farida Afruz, the idea, form and content of the poets trinity poetry.

**Key words:** trinity, lyrics, artistic form, analogy, content.

Hozirgi zamon lirikasi o'zining poetik yetukligi, ruhiy ta'siri, tafakkurni yanada boyitib borayotganligi, bir necha asrlik adabiy an'analarning munosib davomchisi bo'lib kelayotganligi bilan izohlanadi. Albatta, adabiyotdagi rivojlanish badiiy izlanishlar natijasida paydo bo'ladi. Badiiy tadqiqqa ta'sir qiladigan asosiy hodisalardan biri jahon adabiyotidagi mashhur ijod ahlining ta'siri orqali adabiyotga bir qancha janrlar, shuningdek, badiiy shakllarning kirib kelishi, poetik rang-baranglikni kashf ettirish jarayonidir. Hozirgi zamon she'riyatida badiiy shakllar orasida lirikaning kichik shakllari keng qo'llanilayotgani ko'zga tashlanadi. Shu o'rinda o'zbek shoirasi Farida Afro'z she'riyatida badiiy izlanishlar natijasida bir qancha kichik lirik shakldagi she'rlarning mavjudligini ko'ramiz. Shu bois biz bu maqolamizda shoira Farida Afro'z ijodidagi badiiy tadqiq va lirikaning kichik shakllari haqida fikr yuritimiz. Ko'pgina ijodkorlar, ayniqsa, shoirlar his tuyg'ularini o'y-fikrlarini ma'lum bir vaqtda paydo bo'lgan kechinmalarini ifodalash uchun munosib so'z va munosib shakl qidiradilar. Shoira Farida Afro'z ham o'z ijodida badiiy tadqiqot olib boradi va bir qancha she'rlar yaratadi. Chunki she'rda lirik qahramonlarning ichki kechinmalarini ixcham shaklda keng mazmunda bayon qilishi Farida Afro'z poeziyasining o'ziga xos asosiy xususiyatlardan biri bo'lib hisoblanadi. Bu xususiyatlar ayniqsa shoiraning "Tasbeh", "Ushshoq" kabi she'riy to'plamlariga xosligi ko'zga tashlanadi. Bu haqda olim Q.Yuldashev "Ma'lumki, tasbeh janri mumtoz milliy she'riyatimizning tajribasida ham, xalq og'zaki ijodida ham uchramaydi, lekin o'zbek she'riyatida uchlik baytlardan iborat she'rlar bor edi. Shuningdek, yapon xoykularidan ta'sirlanib yozilgan she'rlar bor. Lekin mustaqil uchlik tasbehlardan iborat bo'lib bir kitobda tartib berilishi va o'ttiz uch tasbeh bir shodaga tizilib katta she'riy marjon shakllanishi milliy poetik tajribamizda bo'lmagan edi", deb yuqori baholagan edi, kitob so'zboshisida.

Farida Afro'z ijodidagi badiiy tadqiqotni akademik Baxtiyor Nazarov quyidagicha baholaydi: "Farida Afro'z jahon adabiyoti bilan o'zbek adabiyotining aloqa-



larini baholi qudrat rivojlantirishga harakat qilayotgan va shu o'rinda jahon adabiyotining ilg'or tajribalarini o'rganishga harakat qilayotgan harakatchan ijodkarlardan biridir" [1,14-b]. Mazkur she'riy to'plam haqida shoir va olimlar, kitobxonlar tomonidan bir qancha ijobiy fikrlar e'tirof etilgan. Masalan, filologiya fanlari nomzodi D.Quvvatovning "Keyingi yillar o'zbek she'riyatida uslubiy-shakliy izlanishlar", M.Mirqosimovning "Hozirgi o'zbek she'riyatining yetakchi fikr va mulohazalari"ni bildirgan [2,155-b.]. Masalan, M.Mirqosimova Farida Afro'zning uchlik tasbehlari o'qigan o'quvchi matn mazmunini o'z tasavvuriga asosan, tafakkur doirasi darajasida uqib oladi" [3,28-b.],-deb alohida belgilasa, filologiya fanlari nomzodi G.Odilova "Farida Afro'zning "Tasbeh-chyotki – rosariy kitobi haqida" mavzusidagi maqolasida she'rlarning tasbeh deb nomlanishi yirik hajmga ega bo'lishi, she'rlarning mazmun–mohiyati va shoirning ijodiy mahorati haqida ijobiy va o'rinli fikrlarini bayon qilgan [4,34-b.].

Darhaqiqat, shoira Farida Afro'zning "Tasbeh" she'riy to'plamida keltirilgan uchliklar mazmuni jihatidan falsafiy-diniy mazmunda bo'lib, unda pand-nasihati va hayotiy haqiqatning badiiy in'ikosi keng tasvirlangan. Kitobda shoiraning yetti shodaga tizilgan 231 tasbehi to'qson to'qqiz fiqradagi lirik she'rlari berilgan. Uchliklarning ichki tarkibi bo'g'inlar soni turoqlar teng emas. She'rlarda Ollohga munajat g'oyasi badiiy ifodalangan. Shu bois tadqiqotchi G.Odilova Farida Afro'zning ushbu kitobidagi uchliklarini alohida qarasa, bo'gin va turoq teng emasligini, aksincha, ko'proq "men" ichki kechinmalaridagi evolyutsiyaning rivojlanishini va "sen"ni tushunish murakkabliklarini yuzaga keltiradi. Lirik "men" olamini uning noan'anaviy istehzolari asosidagi ma'nolarni o'zini-o'zi qabul qilish borasida "sen"ga ba'zi hollarda "uchinchi odamga murojaat qiladi" [4,34-b.],-deb baholaydi. Shoiraning mazkur to'plamidagi uchlik she'rlarida inson bu dunyoga kelib hayotida Ollohning berganiga shukrona bilan yashashi kerakligini alohida ta'kidlaganligini quyidagi misralarda yaqqol ko'rishimiz mumkin.

*Yig'lasam gar sen uchun emas,  
O'zim uchun ham yig'lamadim yo'q,  
Peshonamni o'qidim, xolos.*

Uchlikda muallif inson bu dunyoga kelar ekan, hayotida nimalar sodir bo'lishi, umri qay tarzda kechishi, Olloh taolo tomonidan inson yozmishiga yozib qo'yilishi haqidagi g'oyalari she'ring uchinchi misrasidagi peshonamni o'qidim xolos, degan obrazli ifodasida yaqqol namoyon bo'lgan. Unda hissiy idrok hayotiy asosga egaligi dalillanadi. Shoiraning quyidagi uchligida:

*Sovib ketdi havolar birdan,  
Quyoshni kim o'g'irladi, kim  
Kimga kerak muzlagan bag'ir.*

Uchlikda inson hayotida sodir bo'ladigan qayg'u-alam va qiyinchiliklarni "sovuq havo"ga o'xshatadi. Yaxshi kinlarni esa, Quyosh bilan metafora asosida qiyoslagan. Lekin insonlarga faqat yaxshi kunlarning, ezgulikning kerakligi haqidagi fikrni bevosita emas, balki ritorik so'roq orqali, kimga kerak muzlagan bag'ir?, deb ifodalaydi. Bu so'roqning javobini topishni o'quvchining o'ziga havola qiladi. Savolga javobning har xil bo'lishi shubhasiz, albatta. Shu o'rinda shoira insonlarning hayotga qarashlari turlicha ekanligini, har bir inson o'ziga xos alohida tafakkur doirasiga ega ekanligini anglashga erishadi. Shoiraning hayotga nisbatan falsafiy qarashlari uch misraga joylashib teran fikrni ifodalaydi. Buni esa o'z o'rinda shoiraning badiiy mahorati, badiiy izlanishlari samarasi deyish mumkin. Shuni ta'kidlash joizki, shoiraning "Tasbeh" uchliklarida mumtoz adabiyotdagi tasavvuf konsepsiyasi g'oyalari davom ettiriladi va keng taraqqiy qilib boradi. Masalan:

*Bugun tongda tirik uyg'ondim,  
Bir kosa suv ichdim....  
Shukur....*

degan misralarida inson uchun bu dunyoda moddiy narsalar, boylik emas, salomatlikning muhimligini alohida ta'kidlagan. Bugun kechasi uxlab tongda sog'-salomat uyg'onib, yorug' olamni, quyoshni ko'rayotganligiga shukr qilish kerakligi haqidagi mushohadalari mujassamlashgan. Zero, inson saharda sog'-salomat uyg'onasa, demak, uning hayoti davom etadi, olg'a qadam tashlaydi, shu bois shoira shukronalik g'oyasini ilgari suradi. Darhaqiqat, turkiy mumtoz adabiyotda shukronalik konsepsiyasi Xoja Ahmad Yassaviy, Alisher Navoiy, Maxtumquli va boshqa shoirlar ijodida ham tasvirlangan. Masalan, XX-asr turkman shoiri Gurbannazar Ezizovning:

*Seher turup, sil yuzine chag'angi  
Pakliginde bolup bilseng shoncha bol.  
Sen sanama gara saching ag'ini  
Sen sag'-aman o'reninge moncha bol [5,61-b.],*

kabi misralarni Farida Afro'z uchliklari bilan qiyoslasak, ularning tipologik jihatdan o'xshashliklari ko'zga tashlanadi. Ya'ni turkman shoiri G.Ezizov she'rida ham inson hayoti, uning shu kuniga shukronasi, kechasi uyquga ketib, tongda omon uyg'onishi, farzandlari bag'rida bo'lishi, ularning yuzidan o'pa olishi voqealiklar badiiy ifodalangan.

Adabiyotda shukronalik konsepsiyasi bilan yo'g'rilgan she'rlarni ko'plab uchratish mumkin, masalan, shoir B.Bekmatovning

*Hayotning lazzati shukronalikda,  
Qanoat degani baxt erur, chindan.  
Noshukur boshiga yog'iladi tosh  
Sabrli halovat topgani shundan [6, 66-b.].*

Mazkur she'rdam ham mana shu g'oya aks etganligining va sharq mumtoz adabiyotiga xos an'analarning ifodalanganligini ko'rishimiz mumkin. Shoir nazdda shukronalikning asosini qanoatda, sabrda deb tasvirlasa, noshukurlik oqibati yomon bo'lishini nasihatomuz tarzda bayon qiladi. Shu o'rinda har uchala shoir inson bu dunyoda boriga shukrona bilan yashashi kerakligi haqidagi qarashlari mushtarak bo'lsa ham she'rlarda o'ziga xos farqli jihatlarni ko'zga tashlanadi. Masalan, shoir Farida Afro'z bu g'oyalarni kichik lirik shakllarda ya'ni uchlik shakllarida ifodalagan bo'lsa, shoir G.Ezizov an'anaviy she'r shaklida, shoir B.Bekmatov esa, lirikaning kichik shakli - to'rtlikda ifodalagan. Shu qiyoslashdan ko'rinadiki, tahlilga olingan shoir larni nisbatan, shoir Farida Afro'z she'rlarida shakli ixchamlik, mazmunan teranlik yaqqol ko'zga tashlanadi. Shuningdek, shoir o'z qarashlarini erkin shaklda uchgina misraga joylay olgan. Farida Afro'z she'rlarida ko'zga tashlanadigan yana bir xususiyat shuki, shoir she'rlarida jonlantirish o'rniga fikr va mazmunning kam so'z bilan sodda va samimiy ifodalashining guvohi bo'lamiz, masalan:

*Derazamni chertdi, allakim,  
Yig'lab keldi yomg'ir, bemaol.  
Cho'chib tushdi qo'rzoq sukunat [7, 106-b.].*

She'rni o'qir ekanmiz, unda aniq bir shaxs ko'rinmaydi, biroq shoir "allakim"ni yig'layotgan odamga o'xshatadi va shuni eslatadi. Shu bois bu metaforik ko'chim o'zini oqlaydi. Shuningdek, uy ichkarisidagi lirik qahramon ishonuvchan tabiatini ham yaxshi biladi. Deraza chertilgan paytda ichkarida "Ishonuvchan" birdan jonlanadi, aniqrog'i ishonuvchiga qo'rzoq xislati beriladi. Bu so'z zamirida derazani qoqayotgan yomg'ir ekanligi tushuniladi. Yomg'irga insoniy fazilatlar ko'chirilgan. Yomg'irning yog'ish holati jonlantiriladi.

Shoir uchliklarida oddiy tushunchalar, o'simlik va tabiat hodisalarining bunday tarzda jonlanishi o'ziga xos yo'sinda ifodalanadi. "Yantoq"ni hamma biladi, u ba'zi kasalliklarga shifo bo'ladi. Lekin ko'pincha, unga xalq orasida, mol-chorva, qo'y-qo'zi, tuyalar uchun oziq, xas-cho'p deb qaraladi. Shoir tasvirida bu o'simlik yangicha poetik mazmunda yuzaga chiqadi:

*Sendan go'zal gul yo'q dunyoda,  
Sendan xushbo'y, sendayin mayin.  
Otam qabrin yashnatgan yantoq.*

Balki keng yaylovda gullab yotgan yantoqni ko'rgan shoir uni metaforik asosga ko'ra cho'l malika-

si deb ham atashi mumkin edi. Biroq she'rdagi ta'rifga ko'ra, butun tanasini tikon qoplagan yantoq ota qabrida o'syapti. Shu bois uni muallif uni dunyodagi eng go'zal gulga qiyoslaydi, yantoq gulga ko'chirilgan ekan, uning hidi ham seziladi go'yo. Yantoq tanasi tikon bilan qoplangan bo'lishiga qaramasdan, u qadrdon ota qabrida o'sib turganligi bois lirik qahramon xayolida juda yoqimli va iforli tuyuladi.

Shoir she'rlarining poetik xususiyatlari o'quvchi onggi va tasavvurini jahon she'riyati sari yetaklaydi. Shu tufayli Farida Afro'zning bunday uchliklaridagi ixcham, teran ma'noli hikmatlariga yapon she'riyatidagi xoyku janrining ta'siri sifatida qarash joizdir.

*Shoiraning:  
Shoh va gado....  
Go'yo zidga o'xshar bu ikki so'z,  
Aslida Shoh kimhobdagi gadodir.*

Bu misralarda muallif hayotdagi barcha insonlarni podsho va kambag'al, deb ajratish tushunchasining mavjudligini, lekin bu so'zlar bir-biriga qarama-qarshi qo'llanilsa ham o'z o'rnida podsho ham kambag'aldan kelib chiqishini, insonlar Oллоh tomonidan berilgan hayotda yashar ekan, podshoning ham bir kun kelib bu dunyodan o'tishini, har ikkalasining ham borar joylari bir ekanligini, u dunyoda barcha barobarligini, hamma oxiratda qumga aralashib tuproqqa aylanishi haqidagi falsafiy g'oyalarni badiiy tasvirlagan.

Xullas, Farida Afro'z she'riyati badiiy izlanishlarida birinchidan, mumtoz adabiyot an'analari davom ettirilganligini, ikkinchidan, jahon adabiyotining adabiy ta'siri katta ahamiyatga egaligining guvohi bo'lamiz.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Dil Afro'z shoir. Adabiyotshunos Baxtiyor Nazarov bilan faylasuf Ubaydulla Ro'ziqulovning shoir Farida Afro'z ijodi haqidagi suhbat. Sharq yulduzi, 2017, noyabr.
2. Quvvatova D. Keyingi yillar o'zbek she'riyatida uslubiy – shakliy izlanishlar. Buxoro Davlat universiteti Ilmiy axboroti. 2019. 1-son.
3. Мирқосимова М. Ҳозирги ўзбек шеърятининг етакчи тамойиллари. Тошкент, 2016.
4. Одилова Г. Фариди Афрўзнинг "Тасбеҳ-четки-rosary" китоби ҳақида. <https://kh-davron.uz/kutubxona-B.34>.
5. Ezizov G. Saylanan eserler. Aşgabat, 1995. –B.61.
6. Bekmatov B. Izmingda koinot. Ruboiylar, to'rtliklar. –Urganch: Xorazm nashriyoti, 2017.
7. Farida Afro'z. Ushshoq. –Toshkent: Sharq nashriyotmatbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2014.
8. Гайлиева О. Ғарезсизлик дэўири түркий халықлар лирикасында формалық изленислер хэм олардың типологиясы (өзбек, қарақалпақ хэм түркмен лирикасы мысалында). Докт. Дисс. Нөкис, 2019.

UDK: 8/ 81.33

# YOSH AVLODNI XALQIMIZNING MANGU BARHAYOT AN'ANALARI RUHIDA TARBIYALASH BURCHIMIZDIR!

*Filologiya fanlari nomzodi, adabiyotshunos olim Rahmatulla BARAKAYEV bilan  
tadqiqotchi Anvar ALLAMBERGENOV suhbatini*

**SAVOL:** *Istiqlol davri o'zbek adabiyotida turli xil uslubiy, shakliy yangiliklar bo'lib o'tdi va bu jarayon davom etmoqda. Bular sirasiga ikki so'zdan iborat she'rning yaratilishi ("Oy bolta", Faxriyor) yoki keng ko'lamga ega epik turning salmoqli janri bo'lmish romanning ixchamlashishi ("Na'matak", mini roman, Ulug'bek Hamdam) kiradi. Bu ro'yxatni yana davom ettirish mumkin. Ayting-chi, bolalar adabiyotida shunday shakliy o'zgarishlar ro'y berdimi va bu yangiliklar qaysi ijodkorlar ijodida, qay yo'sinda bo'y ko'rsatdi?*

**JAVOB:** Bolalar adabiyoti ham katta adabiyotimizning ajralmas bir bo'lagi bo'lib, uning taraqqiyoti muayyan ma'noda xalqimizning "katta arava qaysi yo'ldan yursa, kichigi ham o'sha yo'ldan yuradi" degan hikmatiga mos keladi desak, unchalar xato bo'lmas kerak. Avvalo, badiiy adabiyot "realistik adabiyot" deb nomlanadimi, "romantik adabiyot" deb ataladimi, "syurrealistik" debmi, bundan qat'i nazar, dastavval, kitobxon qalbiga ezgulik urug'ini sepishi, uni eng yaxshi insoniy fazilatlar ruhida tarbiyalashga xizmat qilishi kerak. Badiiy adabiyotning bosh vazifasi bundan ming yillar oldin ham shundan iborat edi, bugun ham, bundan ming yil keyin ham shundan iborat bo'lib qolaveradi. Zero, Hazrat Navoiy "Badoyi' ul-bidoya" devoni debochasida ta'kidganlaridek: "Devone topilg'aykim, anda ma'rifatomiz bir g'azal topilmag'ay. Va g'azale bo'lg'aykim, anda mav'izatangiz bir bayt bo'lmag'ay. Mundoq devon bitilsa, xud asru behuda zahmat va zoe' mashaqqat tortilg'on bo'lg'ay". Ushbu ta'kid, ayniqsa, bolalar adabiyotiga to'raligicha taalluqlidir.

Sizning savolingiz ko'proq uslubiy, shakliy yangilanishlarni ko'zda tutadi. Albatta, bolalar adabiyotida ham istiqloq davrida muayyan siz ko'zda tutgan o'zgarishlar ro'y berdi. Masalan, ayni istiqloq davrida o'zbek bolalar she'riyatiga o'ziga xos ovoz bilan kirib kelgan (afsuski, umri qisqa ekan) Abdurahmon Akbar ijodi shu ma'noda e'tiborga sazovor.

Abdurahmonning she'rlarini o'qir ekansiz, sizni savollarga ko'mib tashlaydigan bijildoq bolakay har qadamda oldingizdan chiqaveradi. Ulardan biri Shuhratjon degan yigitcha. U "Bir daftar savol" tuzib, ularni o'zicha "Bekatda tug'ilgan savollar", "Yo'lda tug'ilgan savollar", "Maktabda tug'ilgan savollar", "Uyda tug'ilgan savollar" singari turli guruhlariga ham ajratib olgan. O'sha savollardan ba'zilariga quloq tuting:

*"Gulzor" deb atalgan bu keng bekatning  
Atrofida nega gul o'smas? -*

deb o'z-o'ziga savol beradi bolakay bekatda turganida. Chunki uning nazdida (va aslida ham) ism jismga mos bo'lishi kerak edi-da!

*Bobongizdan so'raganmisiz  
Bobosining kim bo'lganini? -  
deb o'ylaydi bola maktabda.  
Dada, dada, o'zbek degani  
O'ziga bek deganlarimi? -*

deb so'raydi bola uyda dadasidan.

Bu savollar shunchaki savol emas, aslida ularning har biri katta ma'naviy-ma'rifiy mohiyat kasb etadi. Chunki aslida ham bobosining bobosi kim ekanligini biladigan bolalar yurtimizda necha dona ekan?

Binobarin, shakliy yangilik tarzidagi ushbu ikkilik she'rlar ham kelajagimiz yaratuvchisi bo'lmish yosh avlodni xalqimizning mangu barhayot an'analari ruhida tarbiyalashga, ma'naviy-ruhiy kamolot sari yetaklashga xizmat qilishi bilan qadri va bugungi istiqloq ma'naviyati manfaatlariga xizmat qilishi bilan zamonaviy bolalar adabiyotimizda o'z o'rniga egadir.

Abdurahmonning o'zbek bolalar adabiyoti she'riyatiga qo'shgan o'ziga xos yangiliklaridan biri raqa-

mli va sonli she'rlaridir. Fikr dalili uchun "Salom xat" she'rini birgalashib o'qiylik:

– Tushlarimga bu kecha  
Akang kiribdi, Rahmat.  
Vaqt topib yozib yubor  
Yana 2 enlik xat.  
Sog'inibman chamasi,  
3ayapti ko'zim ham.  
Buvim salom aytdi deb  
Qo'shib qo'y, xo'pmi, bolam?

She'r armiyada yigitlik burchini o'tayotgan nevarasini sog'inish hissi ko'ngliga tinchlik bermayotgan, "ko'zlari ham uchayotgan" buvining topshirig'i bilan akasiga maktub bitayotgan Rahmatjon degan bolaning shu haqdagi "axborot"i bilan boshlanadi. Bola bola-da, hatto ana shu jiddiy holatda ham uning o'ynab-kulgisi keladi, o'zicha so'zlar orasidan raqamlar, sonlar qidirib topadi. "Qisqagina" ma'nosidagi "ikki enlik" iborasidagi "ikki" so'zini raqam bilan yozib ko'radi. Qarasaki, o'zgacha bir ifoda, g'ayritabiiy bir shakl paydo bo'ldi. Ana shu g'ayritabiiylikdan bola o'ziga xos zavq tuyadi va boshqa so'zlardan ham harf va raqamdan tashkil topgan yangicha ifodalar "yarta" boshlaydi:

Aka, qanday yuribsiz,  
Soz ketyaptimi xizmat?  
Askarlikka k10ikib  
Ketgandirsiz batamom.  
Buvim, q10i-qo'shnilar  
Sizga yo'llashdi salom.  
Q3oq-q3oq ch3moma  
Terib qaytsak adirdan.  
Ko'chamizni nomlashib  
Ketishibdi yangidan.  
"Ul. Zarechnaya" emas,  
Bilib ko'ying, aka, siz.  
Endi bizning uy-hovli  
1lik ko'cha, 18!  
"Paxtakor" ham ketma-ket  
Q3ib turibdi zafar.  
1mas, 3 ta to'p urdi  
Ilhom kechagi safar.  
Ha, aytmoqchi, sal bo'lsa,  
Unutay debman, qarang,  
Ra'no opamlar bilan  
Ishlar bo'ldi vadavang.  
Tunov kun 4.30 da  
Chiqib turib yo'lga,  
Xatingizni tutqazdim  
Shaxsan o'zin qo'lga.  
"Shunaqa... akam sizni..."  
E, gapniyam d10dirdim.  
Xullasi, xat yozishga

"Yangam"larni k10dirdim.  
Yana ne dey, bizlarda  
Yangiliklar 1 jahon.  
6ariqqa bordik  
O'tgan oy bo'lib mehmon.  
Kirib keldi qishloqqa  
Bahor chalib q10g'iroq.  
G'3-g'3 gulladi o'rik,  
Gullari mayda 1oq...  
Fursatingiz bo'lganda  
Yozib turing, aka, xat.  
3rashguncha xayr deb  
Ukangiz Abdurahmat.

Bir qarashda, askarlik burchini o'tayotgan nevarasini sog'ingan buvining topshirig'i bilan ukasining akasiga yozgan odatdagi salom xati. Maktubda qishloq hayotidagi barcha o'zgarish va yangiliklarni akasiga yetkazish uchun to'lib-toshib, sevinchi ichiga sig'mayotgan yosh bola timsoli bor-bo'yi bilan aks etadi. Sinchkov bolaning tiyrak nigohi bahorda tabiatning gul ochib, yangilanishi, adirlardan bolalarning zavq bilan quchoq-quchoq chuchmomalar terib kelishlari bormi, Istiqlol sharofati bilan ko'chalarimiz nomlari ham milliylashib borayotgani ("Zarechnaya" emas – "Birlik") bormi, "Paxtakor"ning ketma-ket zafar quchayotgani bormi, bo'lg'usi "yanga" – Ra'no opasiga akasining maktubini shaxsan topshirgani bormi (Ishlar bo'ldi vadavang!!!), Oltiariqqa mehmon bo'lib borishgani bormi, bahor kelib, o'riklar g'uj-g'uj gullagani bormi – xullas, barcha-barchasini maktubida erinmasdan, ba'zan ko'pirib-toshib, hovliqib, ba'zan go'yoki parishonxotirlik qilganday (Ha, aytmoqchi, sal bo'lsa, Unutay debman, qarang!!!), aslida esa ataylab, akasiga birinchi navbatda yetkazilishi kerak bo'lgan xushxabarni shunchaki gap orasida aytganday bitadiki, bu ham aslida yosh bola qiyofasiga musavvir shoirning g'aroyib mo'yqalami chizayotgan turfa chizgilardir. She'rda yosh bolaning samimiy nigohi, qiyofasi tabiiy, ishonarli chizilgan. Yosh kitobxon bu asarni shakliy jimjimalarsiz ham maza qilib o'qishi shubhasiz. Ijodkor ushbu samimiyatga g'aroyib "to'n" kiygiza olgani esa nur ustiga nur, bu shakliy topilma she'rning yanada qiziqarli bo'lishiga olib kelgan.

Bunday she'riy usul o'zbek bolalar adabiyoti uchun yangilik. Bu she'rlarning o'ziga xosligi haqida fikr yuritilganda, dastavval, shakliy izlanish mahsuli sifatida baholash joiz. Aslida, bunday usul ham bolalar adabiyotining o'ziga xosliklaridan biri. Zero, yosh kitobxon she'r o'qir ekan, hatto uning g'ayritabiiy shaklidan ham zavq topadi. Harflar raqamlar bilan uyqashib ketgan bunday she'riy usul yosh kitobxon uchun ham hayratomuz, ham qiziqarli topilma. Chunki bunday she'rlarni o'qiy olish uchun undagi raqamlarni qayta harflarga aylantirish kerak. Binobarin, aynan kichik yoshdagi kitobxon (boshlang'ich sinf o'quvchisi yoki

bog'cha tarbiyalanuvchisi) bunday she'rni "mehnat" qilib, boshqotirma (krossvord) yechganday o'qiy olganidan zavqqa to'ladi. Ushbu raqamli she'rlarning mazmuni mukammalligi esa, o'z-o'zidan, shakl va mazmun uyg'unligini ta'minlaydi.

Bolalar adabiyotimiz she'riyatidagi shakliyl izlanishlar haqida so'z ketar ekan, Dilshod Rajab she'rlari ham e'tiborni o'ziga tortadi. Uning "Otamning bog'i" to'plamiga kirgan "Tanbeh", "Sport maydonida", "Minnatdorlik", "Guvoh", "Topishmoq she'r", "Chivinga talangan bola", "Futbol" she'rlarida o'ziga xos shakliyl izlanish samaralari ko'zga tashlanadi. "Tanbeh" she'riga ko'z tashlaylik:

*To'plaganing bor-yo'g'i  
Ikki uyum xas-xashak,  
Darrov cho'zilib olib  
Yotganing ne, Xashxashak?  
Shuncha yerni ag'darib,  
O'tirmasdan yana, ko'r,  
Ishlayman, deb,  
B  
e  
l  
k  
u  
r  
a*

t i k k a  
u a n  
r o'k  
a r

Shoir shakliyl o'xshashlik asosida yosh kitobxon ko'z o'ngida o'ziga xos manzara yaratishga erishgan. Zero, xas-xashak to'plashda ishlatiladigan xaskashni birov ushlab turmasa, erga yiqilib tushadi. Ijodkor ana shu tabiiy holatdan jonli manzara yaratgan (darrov cho'zilib olib yotganing ne, xashxashak?). Belkurakni esa, yerga sanchib qo'ysangiz, xohlagancha tikka turaveradi (shoir aytmoqchi, charchash nimaligini bilmaydi). Ushbu tashqi ko'rinish – holat ijodkorning o'ziga xos manzara yaratishiga sabab bo'lgan: zero, she'rning oxirgi satri tikka turgan belkurakning harflardan yasalgan suvratidir. Yosh kitobxon ko'z oldida bu manzara darrov jonlanadi, uning qiziqishini orttiradi.

**SAVOL:** *Adabiyotda ijodiy an'ana tushunchasi mavjud. Ayting-chi, qisqa tarixga ega o'zbek bolalar adabiyotida ta'kidlab aytishga arzigulik qanday ijodiy an'analar mavjud?*

**JAVOB:** Bolalar adabiyotining o'ziga xosliklari haqida fikr yuritilar ekan, uning badiiy-estetik yuksakligiga naqadar katta talablar qo'yilsa, ma'rifiy-tarbiyaviy mohiyatiga ham shu qadar ulkan talablar qo'yilishi aslo bejiz emas. Zero, bolalar adabiyoti, dastavval, yosh avlodning ma'naviy kamolotiga mas'uldir.

Dilshod Rajabning "So'z o'yini – zo'r o'yin" turku-

miga mansub she'rlar ham ushbu an'ananing o'ziga xos yangilanishi nuqtai nazaridan alohida e'tiborga sazovordir. Jumladan, "So'zboylovchi" she'ri:

*So'z sehrli deydilar,  
Demak, tilchi – sehrgar*

satrlari bilan boshlanib, she'r davomida so'zning sehrli ekanligini tasdiqlash uchun keltirilayotgan misollar to'raligicha fikr isbotiga xizmat qiladi. Chunonchi,

*"S" o'rniga "M" qo'ysa,  
"Sehr" do'nar "Mehr"ga*

misrasidagi birinchi harfni o'zgartirish bilan "sehr"ning "mehr"ga aylanishi, bir jihatdan, bir harf o'zgarishi bilan so'z ma'nosi mutlaqo o'zgarishi nuqtai nazaridan yosh kitobxon uchun so'z sehrli ekanligini tasdiqlashga xizmat qilsa, ikkinchidan, tilchi, ya'ni so'z zargari qo'lida har bir so'zning o'ziga xos tarzda tovlanishi nuqtai nazaridan bolani so'zning qadriga yetish, uni o'z o'rnida va to'g'ri qo'llash ruhida tarbiyalash manfaatlariga xizmat qiladi. "Aylanmoq, o'zgarimoq" so'zining ijodkor tomonidan "do'nish" tarzida qo'llanishi ham, bir jihatdan yosh kitobxon so'z boyligini bitta yangi so'z bilan boyitishga xizmat qilsa, ikkinchidan, tilchi, jumladan, ijodkorning ham sinonim so'zlar qo'llash mahoratini ko'rsatishga xizmat qiladi. Yoki shoir: "A"ni olib bir zumda

"Ayozi"ni "yoz" qiladi

der ekan, "ayoz" so'zidagi bir (birinchi) harfni qisqartirish natijasida "ayoz", ya'ni sovuqning "yoz", ya'ni issiqqa aylanishi yosh kitobxon uchun tom ma'nodagi sehrgarlikdir. Yoki so'z sehrgari "oz" oldiga "s" yozib, ajoyib "soz" hosil qilar ekan, "oz" aslida, salbiy ma'no kasb etsa, "soz"ga aylanishi bilan ijobiy ma'no kasb etishi ham yosh kitobxon so'z va fikr boyligini oshirishga xizmat qilishi shubhasizdir.

Keyingi misollar bundan-da qiziqarli: so'z sehrgari "qovoq"ning yoniga "ari" qo'yib, "qovog'ari" qilib uchirsa, "sakkiz" soniga "oyoq"ni qo'shish bilan uni "sakkizoyoq"qa aylantirib yurgizishi, hatto "karnay"ni ham "gul" qilishi ("karnaygul"), ayniqsa, yo'lovchilar tartib bilan yursin deb "yo'l"larga "chiroq" ilishi ("yo'lchiroq") tom ma'nodagi so'z sehrgari bo'lmish ijodkor kashfiyoti sifatida yosh kitobxon so'z xazinasini bir talay qo'shma so'zlar bilan boyitadi va uning o'zini ham shunday kashfiyotlarga undaydi, ruscha "svetofor"ning o'zbek tilida ilk bora "yo'lchiroq" tarzida qo'llanishi esa tilimizni yangi bir so'z bilan boyitishga xizmat qiladi.

"Testkari o'qiganda" she'rida esa o'zgacha so'z o'yini qo'llanadi. Ya'ni:

*"Qo'y"ni ters o'qisang,  
"Yo'q" bo'lib qolar.  
"Zog" birdan "g'oz" bo'lib,*

G'o'ddayib olar.  
"Kit" esa "tik" holida  
Suzadi sekin.  
"Kiyik" va "kuchuk"-chi,  
O'zgarmas lekin.  
Qay yondan o'qisang,  
Bir xil "quduq" ham.  
Qizig'-a, o'zgarmas,  
O'zi "qiziq" ham.

Shoir so'zning teskari o'qilishi natijasida boshqa so'zga aylanishi o'ziga xosliklarini ham muayyan misollar bilan o'yin vositasida tasvirlaydi. Ya'ni "qo'y" teskari o'qilsa, "yo'q" bo'lib qoladi, "qo'y" jonzot edi, "yo'q" esa hechlikdir; go'ng titib yuradigan "zog" teskari o'qilganda hurmatga sazovor "g'oz"ga aylanib, g'o'ddayib oladi; tez suzadigan "kit" "tik" bo'lib qolsa, albatta, sekin suzadi-da. Biroq bundan ham qizig'i oldinda: "kiyik", "kuchuk", "quduq" so'zlarini qay yoqdan o'qisangiz ham o'zgarmay qolaveradi, shunisi qiziqki, "qiziq" so'zi ham o'zgarmas. Bu o'yin bolalar uchun yangidan yangi so'zlarni kashf qilishning ajoyib imkoniyati. Aslida esa, ular shoir boshlab bergan o'yinni tinimsiz davom ettirish bilan o'zlarining so'z boyliklarini yanada oshiradilar.

"Harflarga hazil(lashma)" she'ridagi hazillar esa yanada qiziqroq:

"Nina"ga "chi"ni qo'shdim,  
Uchib ketdi pirillab. (**Ninachi**)  
"Kit"dan "k"ni oluvdim,  
Jahl qildi irillab. (**It**)  
"Tosh"in tashlab toshbaqa  
Tilga kirdi "qur"illab. (**Qurbaqa**)  
"Bo'r" bilan "i"ni yozdim,  
Qoching endi zirillab. (**Bo'ri**)

Tikishga xizmat qiladigan "nina"ga "chi"ni qo'shsa, "ninachi" bo'lib pirillab uchib ketadi; "kit"dan "k" olinsa, "it"ga aylanib, jahl bilan irillaydi; "toshbaqa"ning "tosh"i tashlab yuborilsa, "baqa"ga aylanib, qurillaydi; "bo'r" bilan "i" yozilsa, yovuz "bo'ri"ga aylanib qolishi esa yanada xavfliroq, vaqtida qochib qolgan yaxshi.

"Yozuv "yovuz" bo'lmasin" she'rida yosh kitobxon bir harfni almashtirish bilan yangi so'z paydo bo'lishi o'ziga xosliklarini anglab yetadi:

"Q" o'rniga "f" yozsang,  
"Qil"dan "fil" paydo bo'lar.  
"Gado"ning boshin olsang,  
Albatta, "ado" bo'lar.  
"Bulbul"ni "G'ulg'ul" dema,  
"B" o'rnin "g" olmasin.  
"Z" o'rniga "r" yozma,  
"Ko'z" "ko'r" bo'lib qolmasin.  
"S"ni "I"ga almashib,

Tiniq "soy"ni "loy" qilma.  
Harflarni chalkashtirib,  
Gapni poyma-poy qilma.

Bu she'r yosh kitobxonga pand-nasihatchilik tarzida bo'lib, "q" o'rniga "f" yozsang, "qil"dan "fil" paydo bo'ladi deyish bilan "qil"ning kichikligi "fil"ning ulkanligiga qarama-qarshi qo'yiladi (aslida bu vahimachi odamlarga nisbatan ishlatiladigan "pashshadan fil yasamoq" frazeologik birikmasining o'ziga xos shakli); "gado"ning boshi (ya'ni bosh harfi)ni olsang, "ado" bo'ladi (ya'ni o'ladi); "b" o'rnini "g" olsa, "Bulbul" "G'ulg'ul"ga (kurka doim "g'ul-g'ul" deb yurgani uchun xalq orasida "g'ulg'ul" deyiladi) aylanadi, ya'ni yoqimli sayrashi bilan ko'ngilga zavq bag'ishlaydigan qush doim tumshug'ini osiltirib yuradigan serzarda parrandaga aylanadi; "z" o'rniga "r" yozsang, "ko'z" "ko'r" bo'lib qoladi; "s"ni "I"ga almashtirsang, tiniq "soy" "loy"ga aylanadi.

Bulardan kelib chiqadigan xulosa, yosh kitobxonga pand-nasihatchilik ham o'ziga xos: harflarni chalkashtirib, gapni poyma-poy qilsang, kulgiga qolishing mumkin. Maktabda o'qituvchi, uyda ota-ona bolaga to'g'ri yoz, xato qilma deb tanbeh berishlari mumkin, lekin uning natijasi hamma vaqt ham ko'ngildagiday bo'lavermaydi. She'r esa bir harfni noto'g'ri qo'llashning oqibati ham naqadar xunuk bo'lishi mumkinligi xarakterli misollar bilan, avval kulib, so'ngra o'ylab ko'rishga da'vat qilishi nuqtai nazaridan o'quvchiga yorqin ibrat namunasi bo'lib xizmat qiladi.

**SAVOL:** O'zbek bolalar adabiyotida o'z tadqiqini kutayotgan dolzarb masalalarga to'xtalib o'tsangiz?

**JAVOB:** Bolalar adabiyoti namunalarini biror tur yoki janr nuqtai nazaridanmi, muayyan yozuvchi yoki shoir ijodining o'ziga xosliklari nuqtai nazaridanmi, tadqiq etilar ekan, nazarimda, avvalo, uning badiiy-estetik va ma'rifiy-tarbiyaviy ahamiyatiga bab-baravar e'tibor berilishi kerak. Chunki bu adabiyot hayotga endigina kirib kelayotgan yosh kitobxoniga mo'ljallab yaratiladi. Masalan, bolalar she'riyatidagi tabiat lirikasi tasviri o'rganilar ekan, bu asarlar yosh bola qalbida ona tabiatga nisbatan qanchalik muhabbat uyg'ota olishi hech qachon e'tibordan soqit qilinmasligi kerak. Shuningdek, lotin yozuviga asoslangan yangi alifboga o'tilishi munosabati bilan o'nlab ijodkorlar turli nomlardagi bir qator "alifbo-she'rlar" yaratdilar. Ushbu alifbo-she'rlarning sinfdan tashqari o'qiladigan adabiyot sifatida badiiyati va ma'rifiyligi maktabga endigina boradigan yosh kitobxonlar uchun qaydarajada ekanligini tadqiq etish ham bugungi kun uchun o'ziga xos nazariy ahamiyat kasb etadi. Aslini olganda esa, har qanday mavzuning dolzarbligi uning qaysi nuqtai nazardan o'rganilishida ham aks etadi.

**SAVOL:** Milliy bolalar adabiyotimizda o'ziga xos maktab yaratgan ijodkorlar deganda kimlarni ta'kidlagan bo'lardingiz?

**JAVOB:** Birinchi navbatda Abdulla Avloniyini tilga olish kerak. U o'zining yangi usul maktablari uchun yaratilgan alifbo va o'qish kitoblari bilan zamonaviy bolalar adabiyotining qator o'ziga xosliklarini belgilab berdiki, XX asrning birinchi yarmidagi ko'plab bolalar ijodkorlari uning maktabidan o'sib chiqqanlar. XX asrning ikkinchi yarmi bolalar she'riyatining asosiy, yetakchi namoyandalari esa Zafar Diyor va Quدرات Hikmat maktabi ta'limini olganlar deb o'ylayman. XX asr oxiri va hozirgi bolalar she'riyatida maktab yaratgan shoir sifatida shubhasiz, Tursunboy Adashboyevni e'tirof etish kerak.

**SAVOL:** *Bu savol oldingi savolning mantiqiy davomi desa ham bo'ladi. O'z ijod namunalari bilan bolalar adabiyotini nasriy va nazmiy asarlar bilan boyitayotgan faol ijodkorlar sifatida kimlarni sanab o'tgan bo'lardingiz?*

**JAVOB:** Afsuslar bilan qayd etish kerakki, XX asr birinchi choragidan keyingi ijodkorlarning ko'plab asarlari (bu nasriy va she'riy adabiyotga bab-baravar taalluqli) o'z davri siyosati mahsuli sifatida bugungi kun uchun eskirib qoldi. Barcha davrlarga birday xizmat qila oladigan sof badiiyat namunalari esa barmoq bilan sanarli. Keyingi davr ijodkorlaridan Tursunboy Adashboyev, Anvar Obidjon, Hamza Imonberdiyev, Abdurahmon Akbar

(afsuski, bular marhumlar) va Dilshod Rajabni tilga olgan bo'lar edim.

**SAVOL:** *Adabiyotshunos olim sifatida yosh tadqiqotchilar va izlanuvchilarga maslahat va tavsiyalar-ingiz?*

**JAVOB:** Men uchun hikmatga aylanib qolgan bir ta'kid bor: "Bir ijodkorning birgina asari haqida bitta maqola yozmoqchi bo'lsangiz ham uning ijodi bilan to'liq tanishib chiqishingiz kerak. Shundagina uning muayyan asariga xolis baho bera olasiz" (Korney Chukovskiy). Men ushbu ta'kidni barcha ilm ahliga to'raligicha taalluqli deb hisoblayman. Ikkinchisi: haqiqat qiyosda ko'rinadi. Hech bir yozuvchi yoki shoir cho'lda o'sgan yakka-yu yagona daraxt emas. Uning ijodi o'sha davr adabiy muhiti bilan taqqoslaganda, an'anaviylik va badiiy mahorat nuqtai nazaridan tadqiq etilgandagina bor-bo'yi bilan namoyon bo'ladi. Uchinchisi: puxta ilmiy-nazariy tayyorgarlik. Jahon adabiyotshunosligining eng baquvvat namunalari rus tiliga tarjima qilingan. Albatta, ulardan qanchalik ko'p xabardor bo'linsa, shu qadar fikr tiniqlashadi. To'rtinchisi: milliy adabiyotshunosligimizni ham puxta o'rganish kerak. Hech kim onasining qornidan mullo bo'lib tug'ilmaydi. Balki barcha narsaga muqaddas kitoblarimizda ta'kidlanganidek, o'qish, o'qish va yana o'qish bilan erishiladi!

## MAQSUD SHAYXZODA IJODIDA XALQ OG'ZAKI IJODINING O'RNI



**Javlonbek JOVLIYEV,**  
O'zbekiston Fanlar Akademiyasi  
Alisher Navoiy nomi-  
dagi Davlat Adabiyot  
muzeyi tayanch dok-  
toranti



**Annotatsiya:** Xalq og'zaki ijodida millatning ruhi va tarixi aks etadi. Unda o'tmish ham, kelajak ham yashaydi. Mazkur maqolada mashhur o'zbek va ozar shoiri, olim Maqsud Shayxzodaning O'zbekiston Fanlar Akademiyasi Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiy muzeyida folklorshunoslikka oid qo'lyozmalari tadqiq qilinadi.

**Kalit so'zlar:** folklor, qo'lyozma, ilk manba, doston, terma, manbashunoslik, matnshunoslik, adabiyot, tarix.

**Аннотация:** Дух и история нации отражены в литературе. В литературе живут и прошлое, и будущее. Итак, невозможно представить идентичность и историю континента без литературы. Всемирно известный узбекский и азербайджанский поэт, ученый Махсуд Шейхзода также связал Среднюю Азию с литературой. В этом можно убедиться, изучая его рукописи в Государственном литературном музее имени Алишера Навои Академии наук Узбекистана.

**Ключевые слова:** народное творчество, фольклор, рукописи, мифы, творческая лаборатория, документ, оригинальность, указатель, классификация, анализ, литература, метод, текст.

**Annotation:** The spirit and the history of the nation are reflected in the literature. Both the past and the future live in the literature. So, it's impossible to imagine the identity and the history of the continent without literature. World famous Uzbek and Azarbayjan poet, scientist Maqsud Sheikhzoda also connected the Central Asia with Literature. As you study his manuscripts at the Alisher Navoi State Literature Museum of the Academy of Sciences of Uzbekistan, you can see this.

**Key words:** folk art, folklore, manuscripts, myths, creative laboratory, document, originality, index, classification, analysis, literature, method, text.

Xalq og'zaki ijodi xalqning ildizidir. Undan uzulmoq, kelajakdan mahrumlikdir. Ildizsiz daraxt qurigani kabi, folklorisiz xalq ham o'z kuch-qudratini anglamaydi, his qilmaydi, avlodlarga umid va o'zlikni singdirolmaydi. Shuning uchun ham uni o'rganish har davrda muhim bo'lib kelgan. Folklor millatning mavjudligini, ulug'vorligini namoyon etib turuvchi, xalq bilan birga yashab, birga taraqqiy etib kelayotgan boqiy meros, o'lmas san'ati, olimlar e'tirof etganiday, barcha san'atlarning ibtidosidir. Bu o'rinda folklorshunos olim, filologiya fanlari doktori, professor Jabbor Eshonqulning quyidagi fikrlari o'rinlidir: "Mifologiyaning o'ziga xos falsafa ekanini tushunmasdan turib, undagi ramzlarning ma'no va mohiyatini ochib bermasdan turib biz na adabiyot, na san'at eshigiga kira olamiz. Bugun biz klassik adabiyotimizni ham dunyo adabiyotini tushunishimiz uchun eng avvalo ana shu qatlamni o'rganishimiz zarur bo'ladi. Xalq og'zaki ijodini bilmas-



dan turib, adabiyot haqidagi bilimimizni mukammal, deya olmaymiz. Yevropa, umuman G'arbdagi ijodiy inqiloblar, yuksak san'at namunasi hisoblangan badiiy asarlarning asosida ana shu qadim falsafa turadiki, U. Folkner(William Cuthbert Faulkner), X.Borxes (Jorge Luis Borges), A.Kamyu(Albert Camus), S.P. Sartr(Jean-Paul Charles Aymard Sartre), J. Joys(-James Augustina Alyosius Joyce) kabi XX asr adabiyotining bayroqdorlari bo'lgan adiblar buning isbotidir"[1].

Buni yaxshi anglagan XX asr o'zbek adabiyotining yirik vakili, shoir, dramaturg, zakiy olim, pedagog, tarjimon Maqsud Shayxzoda o'zbek xalqining og'zaki ijodini Toshkentga kelishi bilan (1929) chuqur o'rgana boshladi. Xalq ertaklari, ayimlari, doston va eposlari bilan yaqindan tanishdi, baxshichilik san'atining yirik vakillari bilan o'rtoq tutundi va bir qator xalq ohangida asarlar yaratdi. Akademik Aziz Qayumov yozadi: "Qalb harorati bilan bitilgan she'riy misralar va dostonlar, sahnamizning zebi bo'lmish dramalari, ekranimizning shuhrati bag'ishlagan kinosenariy, xalqimizning dilidagi oliy tuyg'ularni yuksak darajada ifodalagan publitsistik maqolalari, olimning donishmand nurli shuuri-la yo'g'rilgan tadqiqotlari o'zbek madaniyati va ilmining bebaho durdonalaridir. Shayxzoda O'zbekistonni sevar, uning madhiga ajoyib qasidalar yaratgan edi. U O'zbekistonni ta'riflaganda hamma vaqt bu o'lkaning uzoq o'tmishidan so'z ochar, uning boshidan kechgan voqealarni bir-bir tasvirlab, quvonib kuylardi"[2].

Shayxzoda satrlaridagi ohangdorlik, soddalik, o'ynoqlik, teranlik, go'zallik, falsafiylik kabi sifatleri uning xalq og'zaki ijodini naqadar sinchkovlik bilan o'rganganligi mevasi bo'lgani aniq. Shoirning "Zarb-dorga xat" she'ridagi quyidagi satrlar ohangi va ma'nosiga e'tibor qiling. Xalq og'zidagi so'zlarning poetik misralarda jaranglashi betakror aks etadi:

*"Bu kun oqshom  
Yosumanlar o'pisharkan  
Yulduz-la,*

Qayrag'ochlar soyasida va'dang bordir bir qiz-la"  
yoxud o'sha she'rdagi quyidagi satrlar:

*"Men bilaman siringni,  
Men o'qidim yozilmagan  
She'ringni..."[3]*

Shayxzoda xalqning shoiri, uning kuylovchisi edi. Shu uchun kichik she'rlardan tortib dramatik asarlaru dostonlarigacha xalq ertaklari, ayimlari, afsonalari, miflari va eng muhimi ohangidan unumli foydalandi. Uning "Ovchi qissasi" [4] dostonidagi muqaddimasini o'qishimiz bilan xalq ayimlariyu, tarix nafasining oltin xayollari jonlanadi:

*"Eshitdim Xorazmda,  
G'alat ish bo'libdi,  
Bu achchiq fojadan,  
Dillarga qon to'libdi.  
Buni kimlar eshitgan?  
Birov bizga naql etgan,  
Bizga aytib bergan ham,  
Eshitgandan eshitgan".*

Misralarda xalq xarakterining nodir jihatlarini o'ziga xos, teran va sodda she'riy satrlarga aylanganligini ko'rishimiz mumkin. Yoxud uning "Iskandar Zulqarnayn" dostonidagi ilk satrlarni tinglasak, biz qadim ertak ohanglariga sehrlab moziyga eltadi:

*"Bor ekanu yo'q ekan,  
Kun chiqarning chegida,  
Etti tog'ning tegida –  
Bir podshoh bor ekan,  
Ismi Iskandar ekan,  
Shohdan ekan g'azabi,  
Qizib ketsa g'azabi,  
Mijozi ajdar ekan".*

Starlarning quyilishi, ma'nodorligi va teranligi xalq dostonlari biridek o'quvchida fikr qoldiradi. Shoir bunga albatta, o'zbek xalqining epos va etnos tarixini, san'atini, madaniyatini, afsonayu rivoyatlarini kuchli o'rganish va tahlil qilish orqali erishdi.

Shayxzoda o'zbek xalq ijodiyotni o'rganish bilan jiddiy shug'ullanar ekan, 1935-yilda bilim yurtidagi saboqlarda xalq og'zaki ijodiyoti uchun alohida qaydlar daftarini tuzadi. (*Qalam va siyohda yozilgan. Arab grafikasi asosida eski o'zbek va rus yozuvlarida*). Unda rus va o'zbek xalq og'zaki ijodiyoti bo'yicha ma'ruzadan ko'chirmalar bitilgan. Ushbu qayd daftar va umuman bugungi kunda Maqsud Shayxzodaning barcha qo'lyozmalari O'zbekiston Fanlar akademiyasi Alisher Navoiy nomidagi Davlat Adabiyot muzeyining "O'zbekiston yozuvchilari arxivi" fondida saqlanadi. Ushbu arxiv boy va qimmatli qo'lyozmalar, hujjatlar, fotolar, kitoblardan iborat xazinadir. Shayxzoda qo'lyozmalari shoirning o'limidan to'rt yil o'tib, 1972- yilda xotini Sakina xonim roziligi bilan fondga olingan. Bu borada o'sha payt muzeyga rahbarlik qilgan taniqli professor Hamid Suloymonov tashabbusini yod etish alohida o'rindir. Aynan shu olim sa'y-harakatlari bilan bugungi kungacha shoir arxivi saqlanib qolmoqda va bu qimmatli materiallar tadqiqotchilar uchun Shayxzoda ijodiy laboratoriyasi, asarlar ustida ishlash metodi haqida xulosalar chiqarish imkonini yaratmoqda.

Shoir arxivida "Maqsud Shayxzoda o'zbek xalq og'zaki ijodiyoti haqida" maxsus ruknga olingan muhim manbalar saqlangan.

Bular:

✓"Baxshining ijod yo'li", maqola. Fozil Yo'ldosh o'g'lining ijodi haqida. "Qizil O'zbekiston" gazetasi.

1949-yil, 10-dekabr. Hozirgi o'zbek yozuvida. 1 huj., 1 v [5]

✓ “О некотрых poeticheskix osobennostyax poemi “Алпамыш”, maqola. Avtograf. Y. y. Rus yozuvida. 1 huj., 36 v.

✓ Maqsud Shayxzoda arxivida Fozil Yo'ldosh o'g'li “Shirin bilan

Shakar” dostonining nashrga tayyorlangan nusxasi [6].

“Shirin bilan Shakar” dostonining ilk nashriga so'zboshini Shayxzoda yozadi. Shuning o'zi ham shu paytga kelib shoirning naqadar folklor sohadagi bilim yuksalib va ilmiy jamoatchilikda nufuzga ega ekanligini ko'rsatadi (:Qo'lyozmaning mashinka nusxasi saqlangan. Manba o'zbek kirill yozuvida. Hajmi – 194 bet.). Maqsud Shayxzoda “Shirin bilan Shakar” dostoniga 81 yil oldin yozgan so'z boshida zamon mafkurasi, sinfiylik o'lchovlari, feodal kuchlar va qashshoq aholi manfaatlari nuqtayi nazaridan fikr bildirishga to'g'ri kelgan. Maqolaning katta qismi bayonchilikka qurilgan bo'lsa-da, tadqiqotchi o'zining umumiy fikrlarini berib borgan. “Shirin va Shakar jangnoma bilan ishqnoma o'rtasida turadi. U tor ma'noda bu navlardan hech biriga kirmaydi, keng ma'noda esa, bu ikki navni ham o'z ichiga oladi. Ishqiy intriga o'rtada turgan holda qahramon tomonidan maqsadga erishuv boshdan-oyoq botirlik, bahodirlik harakatini talab qiladi. Antiteza bu yerda keng tatbiq qilinib ketgan. Syujetdagi hodisalar ko'pincha qahramonning atrofida markazlashib rivojlanadi. Baxshining ifodasida siz dinamikadan ko'ra ko'proq dialoglarni uchratasiz. Shu xususiyat o'sha dostonlar yaratilgan davrning ahvol ruhiyasini, ijtimoiy turmush va o'sishdagi sur'atini ifodalaydi. Lekin shu bilan birga, baxshi kompozitsiyasining yaxshi bir xislati ham ko'rinib qoladi. Bu erda siz, qahramonga, personajga avtor (baxshi) tomonidan bevosita berilgan bahoga (falon xon zolim edi va hokazolar) ya'ni tor ma'nodagi tendensiyali xarakteristikalariga uchraymiz. Shaxs va personaj o'zining so'zlagan so'zida va yoki harakatida tavsiflanadi” [7]– doston haqida umumlashma fikrlar bildiradi Shayxzoda. Zamon noziklik iplariga qurshalgan edi. Tahdidlar va kuzatishlar avjida, sinfiylik nazariyasidan chiqish xalq dushmani, deya qaralardi. Ammo u har qanday ehtiyotkorlik qilmasin qalbida sidirilib kelayotgan so'zlarning, dostonidan olingan misralarning o'zi shoir maqsad muddaosini ochiq-oydin ifoda etadi. Jumladan, Shayxzoda yozadi: “O'z yurtidan qochib ketishga majbur bo'lgan Shakarbek ukasiga shunday der edi:

*Qursin ota yurt, Shirinjon, bormaymiz,  
Balki borsak bizlar omon qolmaymiz,  
Endi bizlar qanday qaytib boramiz?  
Qaytib borsak tag'in bandi bo'lamiz!  
Jahonni sayr etib bizlar yuramiz!  
Ota yurti yo'qdir, nima qilamiz!”*

Shayxzodaning “Alpomish” dostonidagi ba'zi bir poetik xususiyatlar haqida” maqolasi folklorshunoslik faoliyatida muhim rol o'ynaydi. Ma'lumki, o'tgan asrning elliginchi yillarida boshlangan “Alpomish”ga hujum uzoq davom qildi, uni boylar va hukmdor sinfni madh qiluvchi epik doston sifatida bilib, keng muhokamaga tortiladi, dostonni yo'qotish tadbirlari ko'riladi. O'sha yillarda qator kengashlar va muhokamalar bo'lib o'tadi. Va o'sha yillar Maqsud Shayxzoda ham o'z fikrlarini ushbu maqolada bayon qiladi. “Alpomish” dostonini madh qilib, uning vazni va badiiy xususiyatlarini betakror ekanligini ta'kidlaydi: “Bu bir necha poetik xususiyatlar “Alpomish” dostonidagi juda boy badiiy vositalarning faqat juz'iy qismini chuqur tahlil qilish adabiyotshunoslarimizning sharafli burchidir” [8].

Bundan ham Shayxzoda o'z taqdirining bir ifodasi o'laroq ko'rsatadi. Vatandan ayrilgan shoir ichki dardlariga ohangni dostonidan ham qidiradi.

Bundan tashqari yozuvchining qayd va kundalik daftarlaridagi turli vaqt va holatda yozib qoldirgan fikrlaridan ham Shayxzoda xalqimiz xalq og'zaki ijodiga naqadar qiziqqanligini va uning betimsol ahamiyatini qayd qilib keldi.

Shayxzoda folklorga oid kitoblar va maqolalarni doim saqlab kelgan. Bugungi kunda uning arxividan o'zbek folklorshunoslik fani asoslaridan biri Xodi Zarifning “Maqolalar ham jumboqlar”. Umumiy daftarga yozilgan. Hujjatning mundarijasidan keyingi ikki varag'i bo'sh. Oxirgi uch beti yirtilgan. Qo'lyozma arab grafikasi asosidagi eski o'zbek yozuvida. Sakson to'qqiz varaqdan iborat holda saqlanadi (Maqsud Shayxzodaning vaqtli matbuotda chop etilgan she'rlari 96-160 tartib raqamda joylashgan).

Vaqtli matbuotda mavzuga oid chop etilgan maqolalari ham alohida ahamiyatga ega. Ular o'sha paytda ommabop bo'lgan gazetalar “Qizil O'zbekiston”, “Buxoro haqiqati”, “Mushtum”, “O'zbekiston madaniyati”, “Pravda Vostoka”, “Yosh leninchi” kabi gazeta va jurnallarda bosilgan she'rlar va maqolalarda xalq og'zaki ijodining nodir jihatlarini aks ettirdi va targ'ib qildi.

Shayxzoda hayoti va faoliyati o'ta murakkab kechdi. Adabiyotshunos Rahimjon Rahmatning quyidagi fikrlari o'sha davr ijodkorlariga naqadar murakkab bo'lganligini ko'rsatadi. “... erkin fikrli yozuvchining taqdiri xavf ostida qolishi ham hech gap emas edi. Bir narsa to'g'risida chuqurroq va insonlarga xos fikr yuritib ko'raylik. O'tgan asrning 30-yillari avlodi deb ataydiganimiz Abdulla Qahhor, G'afur G'ulom, Maqsud Shayxzoda va boshqalar 20 yillardagi erkin fikrli yozuvchilar – Cho'lpon, Abdulla Qodiriy, Fitrat aynan erkin fikrli yozuvchi bo'lgani uchun jismoniy o'limga mahkum etilganini o'z ko'zlari bilan ko'rdilar. Bu narsa ularning ko'nglida juda katta qo'rquv va ehtiyotkorlik paydo qilishi shubhasizdir. Ikkinchidan, kommunistlar adabiyot va san'atning jon tomiri bo'lgan din va fal-

safani jamiyatdan butunlay quvib chiqardilar. Ijod ahli uchun partiya s'ezdlaridagi qarorlar ilhom manbayi qilib belgilandi. Ya'ni qushni keng va ozod osmondan mahrum etishdi, u faqat qafasning ichida kalta-kalta parvoz qilishi mumkin edi, xolos [9].

Shunday murakkab vaziyat, doimiy ta'qib, ish stolida o'ltirgan qo'rquvga qaramay chinakam san'at asari yaratish san'atkorlikdandan-da ziyoda, bir qahramonlikdir. Bundan albatta, ijodkorlar tarixga, jumladan xalq og'zaki ijodining abadiy va o'lmas manbalariga tayangan.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. *Jabbor Eshonqul "Mif va badiiy tafakkur"* – Toshkent: Fan, 1991.-B.

2. *Maqsud Shayxzoda. Asarlar, 6 tomlik. V tom. T.:G'afur G'ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti, 1969.*

3. *Maqsud Shayxoda qo'lyozmalari. Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi "O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi arxivi"fondi. № 329.*

4. *Maqsud Shayxzoda. Asarlar, 6 tomlik. V tom. T.:G'afur G'ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti, 1969. B. 396 b.*

5. *Maqsud Shayxoda qo'lyozmalari. Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi "O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi arxivi" fondi. № 329.*

6. *Maqsud Shayxoda qo'lyozmalari. Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi "O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi arxivi" fondi. № 778.*

7. *Maqsud Shayxzoda. Asarlar, 6 tomlik. V tom. T.:G'afur G'ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti, 1969. B. 192 b.*

8. *Maqsud Shayxzoda qo'lyozmalari. Alisher Navoiy nomidagi Davlat Adabiyot muzeyi, "O'zbekiston yozuvchilari arxivi" fondi. Tartib raqam – 779.*

9. *Rahimjon Rahmat. "Adabiyotdan chiqish". – Toshkent: "Akademnashr", 2015. B. 86-87.*

## QUR'ON OYATLARI BILAN ZARB QILINGAN ILK XORAZMSHOH TANGASI



**Shohruxmirzo  
ISMOILOV,**  
Xorazm Ma'mun  
akademiyasi  
tayanch doktoranti

**Annotatsiya:** Bu maqolada Xorazmning nihoyatda kam o'rganilgan X asr tarixi va tangashunoslik tomonidan yoritishga harakat qilamiz. Bunda, Xorazmning shu davrda zarb qilingan Xorazmshoh Ahmad ibn Muhammadning Shvetsiya tarix muzeyida saqlanayotgan tangasi tarixiga alohida to'xtalib o'tamiz.

**Kalit so'zlar:** qirollik tangalar kabineti, shvetsiya tarix muzeyi, Afrig'iylar, Bulg'or xonligi, xalifa, Qur'oni Karim

**Аннотации:** В этой статье мы попытаемся осветить крайне малоизученную историю Хорезма X века с нумизматической точки зрения. В этой связи мы остановимся истории монеты Хорезмшаха Ахмада ибн Мухаммеда в Шведский исторический музей.

**Ключевые слова:** королевский монетный кабинет, исторический музей Швеции, Афригиди, Булгарское ханство, халифа, Священный Коран

**Annotation:** In this article, we will try to cover the extremely little-studied history of Khorezm in the 10th century from numismatic point of view. In this regard, we will focus on the history of the coin of Khorezmshah Ahmad ibn Muhammad in the Swedish Museum of History

**Key words:** Royal Coins Cabinet, Sweden History Museum, Afrighids, Bulgar Khanate, Caliph, Holy Quran.

**B**u vaqtda Xorazmda ko'pchilik tarixchilar tomonidan "Banu Iroq" sulolasi nomi bilan tilga olinuvchi mahalliy Afrig'iylar xonadoni hukmdorlik qilar edi. Biroq, bu hududni 896-yilda Buxoro hukmdori Ismoil Somoniy egallagach, shu yili u yerga Iroq yoki `Aroq ibn Mansurni Xorazmshoh etib tayinlaydi [3:72]. Ammo, tadqiqotchilar, u tomonidan hijriy 280-yilda zarb qilingan ot tasvirli tangasiga asosan biroz oldin ya'ni, 893-yilda Xorazm taxtini egallagan deb ta'kidlashadi. Biroq, nima bo'lganda ham, Iroq ibn Mansur tomonidan zarb qilingan birona tangada u Xorazmshoh sifatida qayd etilmagan. Uning o'rniga arab tilida *مولى أمير المؤمنين* (mavla amir al-Muminin) ya'ni "Mo'minlar amirining xizmatkori" unvoni bilan tangalar zarb qilgan. Bu hukmdorning qachongacha hukmdorlik qilganligi haqida ham ma'lumot yo'q. Lekin, xalifa Al-Muqtodirning (908-932) Bulg'or davlatiga yuborgan elchisi Ibn Fadlan 921-yilda (hij. 309-yil) Kot shahriga kelganida, Iroq ibn Mansurning o'g'li Muhammad Xorazmshoh edi deb qayd etgan. Bu hukmdor Abu Rayhon Beruniyning ustoz, matematik olim Abu Nasr ibn Iroqning amakisi edi. Bu hukmdor haqida ma'lumot juda kam, hatto u tomonidan zarb qilingan tangalar ham bugungi kungacha topilmagan. Biroq, qandaydir noma'lum sababga ko'ra Ibn Al-Asir asarida 943-yilda (hij. 332-yil) Xorazmshoh taxtiga Muhammadning o'g'li Ahmad emas, Abdulloh ibn Ashkom degan shaxsni o'tirdi deb qayd etgan [3:73]. Lekin, Beruniy bu shaxsni Xorazmning 22



nafar hukmdori safiga kiritmagan [4:33]. Taxminimizcha, Abdulloh taxtni o'zboshimchalik bilan egallab, Somoniylar hokimiyatiga qarshi chiqqan. Keyinroq, Nuh ibn Nasr unga qarshi qo'shin yuborgach, u qochib ketadi. Uning o'rniga esa Somoniylar poytaxtida garov sifatida ushlab turilgan Muhammadning o'g'li Abu Said Ahmad Xorazmshoh sifatida qo'yiladi. Ahmad ibn Muhammadning taxtga o'tirgan yili to'g'risida ham aniq ma'lumot yo'q. Lekin, Abu Rayhon Beruniy "Osor ul-boqiya" asarida u taxtga o'tirgach Xorazmning mahalliy Ajg'ar (inglizcha matnda - Ajghar) nomli bayramini iyul oyi o'rtasiga to'g'irlash uchun Xorazm taqvimini isloh qilgan, deb ma'lumotlar bergan. Bu voqea Beruniyning aytishicha, Aleksandr vafotidan 1270 yil keyin ya'ni, 959-yilda sodir bo'lgani va bu masala haqida Ahmad 7 yil oldin, ya'ni Buxorodan qaytgan payti o'ylay boshlagani haqida yozgan [5:229-230]. Bundan kelib chiqadiki, Abu Said Ahmad taxtga 952-yil o'tirgan. Lekin, bu hukmdor o'z ajdodlaridan farqli jihati shundaki, uning tangalarida hukmdor tangalarda aynan "Xorazmshoh" unvoni bilan qayd qilingan. Shu asosda bu davrda Xorazm Somoniylar ta'siridan mustaqil tarzda faoliyat yuritgan, degan fikrga kelishimiz mumkin.



**Shvetsiyadan topilgan Ahmad ibn Muhammadning kumush tangasi. Shvetsiya tarix muzeyi. SMH 16184**

Xorazm X asrlarda shimoldagi hududlar bilan savdo-da mutloq yetakchi edi. Shuning uchun ham shimoliy hududlardan Xorazm tangalari ham topilishi tabiiy hol. Rossiyalik tadqiqotchi Mixail Feodorovning "Banu Iroq Xorazmshohlari (X asr)" nomli maqolasida Shvetsiya tarix muzeyida saqlanayotgan Xorazmshoh Ahmad ibn Muhammadning 2 ta kumush dirham tangasi haqida qisqacha ma'lumot berilgan [3:75]. Ahmad ibn Muhammadning bu tangalar hozirda SMH 9136 va SMH 16184 raqamlari ostida Shvetsiya Tarix muzeyida saqlanmoqda. Tangalarining har ikkalasi ham taxminan Xorazm taqvimini isloh qilingan yili ya'ni, hijriy 348-yil (mil.959 yoki 960-yil) Xorazmda zarb qilingan. Tanganing old tomoni markazida لا اله الا الله وحده لا شريك له (laa ilaha ilaallohu vahdah\ laa sharika lahu) ya'ni

"Allohdan o'zga iloh yo'qdir, u yagonadir va uning sherigi yo'qdir" deb yozilgan. Ushbu jumlaning atrofi-da ikki qator qilib arab tili, kufiy yozuvida xat bitilgan. Bu yozuvning ichki aylanasida بسم الله ضرب هذا الدرهم بجوارزم ... (bismillah haza ad-dirhamu Xorazm) ya'ni, "Alloh nomi bilan ushbu dirham Xorazmda zarb qilindi ...". Afsuski, bu jumlaning oxiridan joy olgan uchta so'zni o'qishni imkoni bo'lmadi. Tanganing old tomoni tashqi aylanasida bo'ylab esa, Qur'oni Karimning Rum surasi 4-oyatidagi [6] لله الامر من قبل ومن بعد ويومئذ يفرح المؤمنون (lillahi il-amru min qoblu va min ba'ad va yavmaizin yafrohul mu'mininun) ya'ni, "Bundan oldin ham keyin ham barcha ish Ollohdandir. O'sha kunda mo'minlar shodlanurlar" degan jumlasini yozilgan.

Tanganing orqa tomonida esa, markazda لله امحمدا (Lillah. Muhammadu Rosululloh. Ahmad bin Muhammad Xorazmshoh) ya'ni, "Allohniki. Muhammad Allohning rasulidir. Ahmad ibn Muhammad Xorazmshoh" deb yozilgan. Tanganing orqa tomoni qirrasida bo'ylab Qur'oni Karimning Tavba surasi 33-oyatida [6] yoki Saf surasi 9-oyatlarida [6] محمد رسول الله رسوله بالهدى ودين الحق ليظهره على الدين كله ولو كره المشركون (Muhammadu Rosululloh. Rosulahu bilhudaa va dini il-haqqi liyuzhirohu alaa ad-dini kullihi va lav kariha al-mushrikun) ya'ni, "Muhammad Ollohning elchisidir. O'z payg'ambarini hidoyat va haq din bilan, garchi mushriklar istamasalar ham barcha dinlarga g'olib qilish uchun yuborgan zotdir" deb yozilgan.

Umuman olganda, tanga yaqqol Somoniylar tangasidan nusxa olgan holda yasalgan. Uning uslubidan tortib, yozuv husnixatigacha deyarli bir xil. Lekin, shuni ham ta'kidlash kerakki, tanga arab yozuvida zarb qilingan tangalar ichida Xorazmshoh unvoni qayd qilingan ilk tangadir. Bundan tashqari, ustiga Qur'oni Karim oyatlari yozilgan birinchi tanga hisoblanadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Michael Mitchiner. *Evidence for Viking-Islamic Trade Provided by Samanid Silver Coinage*. Istituto Italiano per l'Africa e l'Oriente. 2015.
  2. Togan, A. Z. *Ibn Fadlan's reisebericht*. Leipzig. 1939
  3. Michael Fedorov. *The Khwarazmshahs of the Banu Iraq (Fourth/Tenth Century)*. *Journal of the British Institute of Persian Studies*. VOL 38. 2000.
  4. Ed. Sachau. *Zur Geschichte und chronologie von Khwarizm*. Wien. 1873.
  5. Sachau. *The Chronology of Ancient Nations*. London. 1879.
- <https://islam.global.com>

# ISLOMDA AYOLLAR HUQUQI



**Sayyora  
ULFATILLAYEVA,**  
O'ZMU, falsafa tarixi  
kafedrasi magistri

**Annotatsiya:** Mazkur mavzuni o'rganish va tahlil qilish hozirgi kundagi dolzarb muammolardan biri bo'lib u oilaviy munosabatlar va oila, uning mustahkamligi, baxtiyorligi, sog'lomligini ta'minlashda zarur ahamiyat kasb etadi. Ijtimoiy voqelikni oila timsolida, uning shaffofligi va mustahkamligini asosiy elementlaridan biri, oilada ayolning tutgan o'rni, oila ma'naviyatini, farzandlar kamolini, er-xotinlik munosabatlarining asosi ayol zimmasida ekanligi, ayolning bugungi saviyasi, maqomi, dunyoqarash darajasi, ertangi kunga daxldor ekanligi shubhasiz.

**Kalit so'zlar:** tarixiy qadriyat, odob ahloq, komil inson, shariat, diniy erkinlik, hadis, sunnat, metod, madaniyat, ma'rifat

**Аннотация:** Изучение и анализ этой темы является одной из наиболее актуальных проблем современности, которая играет важную роль в обеспечении семейных отношений и семьи, ее жизнестойкости, улучшении, здоровье. Один из главных элементов социальной реальности в воплощении семьи, ее прозрачности и незаблемости, роли женщины в семье, духовности семьи, полноты детей, того факта, что основа отношений мужа находится под ответственностью женщины, степени сегодняшнего уровня, статуса, мировоззрения, принадлежности к завтрашнему дню.

**Ключевые слова:** историческая ценность, этикет, зрелый человек, шариат, религиозная свобода, хадис, сунна, метод, культура, просветление

**Annotation:** The study and analysis of this topic is one of the most pressing issues today, which plays an important role in ensuring family relationships and the family, its strength, happiness and health. Undoubtedly, one of the main elements of social reality in the image of the family, its transparency and stability, the role of women in the family, family spirituality, child maturity, the basis of marital relations is a woman's responsibility, today's level, status, worldview, tomorrow.

**Key words:** etiquette, perfect man, sharia, religious, freedom, hadith, sunnah, method, culture, enlightenment

**T**urli sabablarga ko'ra ayollar masalasi Islomga qarshi ta'na toshi ot-  
ilishining asosiy nishonlaridan biriga aylanib qolgan. Hatto ba'zi mu-  
sulmon ulamolar "Ayollar masalasi Islom ummati ko'ksiga sanchilgan  
zaharli xanjardir", deb aytishga majbur bo'ldilar. Bu masala bo'yicha ko'plab kito-  
blar bitilgan, maqolalar yozilgan, xutbalar, mav'izalar qilingan. Islom o'z ta'limo-

tlariga xilof qilish oqibatida kelib chiqqan noto'g'ri holatga javob berishga majbur ham emas. Eng muhimi, Islom hech kimning himoyasiga muhtoj ham emas. Islomdan oldin ayol kishi nafaqat huquqlari poymol qilinishiga, balki insonlik darajasidan mahrum qilinishga mahkum qilingan edi. Misol uchun, Islom dastlab paydo bo'lgan yurt va zamonda qiz bola tug'ilgan oila motam tutar va keyinchalik or-nomus va iqtisodiy qiyinchilikka sabab bo'lmasin, deb qizni tiriklayin ko'mib yuborilar edi.

Qur'oni Karim bu odatlarni qattiq qoraladi va man qildi. Musulmon oilalarda qiz bola tug'lsa, o'g'il bola tug'ilgandan ko'ra ko'proq xursand bo'lish joriy qilindi. Qizlarni yaxshilab tarbiya qilganlarga o'g'il bolalarni tarbiya qilganlarga berilgandan ko'ra ko'p va'dalar berildi.

Islomdan oldin ayol kishi merosdan mutlaqo mahrum qilinir, eri o'lganda esa ayolni erning qarindoshlaridan biri meros tariqasida olar edi. Keyin xohlasa o'zi xotin qilar, xohlasa boshqaga erga berib, mahirini o'zi olar edi. Islom bu zolim hukmlarni botil etib, ayol kishining ham merosdan nasibasi borligini e'lon qildi. Alloh taolo Niso surasida: "Erkaklar uchun ota-ona va qarindoshlar qoldirgan narsadan nasiba bor. Ayollar uchun ham ota-ona va qarindoshlar qoldirgan narsadan nasiba bor. Ozidan ham, ko'pidan ham. Farz qilingan nasiba o'laroq", degan (7-oyat).

Shu bilan birga, Islomda jamiyatga zarur bo'lib qolganda, erkaklar uddasidan chiqa olmay qolganlaridagina, ayollarni ham ishga taklif qilish, hatto urushda qatnashtirishga ehtiyoj borligi eslatib o'tiladi.

Islomda ayollarni tug'ilganlaridan umrlarining oxirigacha kerakli maishat bilan ta'minlash erkaklar zimmasiga yuklatilgan, shuningdek, jamiyat uchun zarur bo'lgan og'ir ishlarni bajarish ham erkaklarga yuklatilgan. Hurmat va e'zozga loyiq bo'lgan ayollar esa ishlash mas'uliyatidan ozod qilinganlar.

Shuningdek, ayol kishi erining ishida yordamchi bo'lishi, oilasi muhtoj bo'lganda halol yo'l bilan halol mehnat qilishi joiz. Ya'ni o'zi xohlasa ishlaydi, bo'lmasa birov uni majbur qila olmaydi. Ba'zi ulamolarimiz: "Nodir qobiliyatga ega bo'lib, jamiyatga foydasi ko'p bo'lgan ayollar ham ishlashlari tavsiya qilinadi", deganlar.

Qolgan paytlarda ayol kishini ishlashga majbur qilish yo'q. Uni turli yo'llar bilan tashviqot qilib, arzon ish kuchi sifatida ezishga ham hech kimning haqqi yo'q. Ayol-qizlarni tong-saharda dalaga haydab ketib, xohlaganicha ishlatib, tun qorong'usida qaytarib olib kelishga ham hech kimning haqqi yo'q. Ayollarni o'zlariga mos bo'lmagan ishlarda ishlatib, ularning ayollik latofati va onalik qobiliyatiga putur yetkazishga ham hech kimning haqqi yo'q.

Ayollarning haq-huquqlari hattoki nikohda ham belgilangan.

#### **Nikohdagi haq-huquqlar:**

Islom huquqi normalarida nikohga kirishning quyidagi shartlari belgilangan:

- nikohlanuvchi ayol bilan erkakning o'zaro erkin izhor qilingan roziliklari;
- nikohning guvohlar ishtirokida tuzilishi;
- ruhiy tomondan har ikkala tomonning sog'lom bo'lishi;
- yaqin qarindoshlik munosabatida bo'lmaslik;
- har ikki tomonning nikoh yoshiga yetgan bo'lishlari;
- erkakning ayolga mahr berishi.

"Nikoh bir tomon - erkakning og'zaki taklifi, ikkinchi tomon ayolning bu taklifni qabul qilishi bilan tuziladi"[1].

Yuqoridagi ta'rifga ko'ra, islom huquqi normasiga asosan nikoh ikki kishi, ya'ni erkak bilan ayolning ixtiyoriy ravishda bir-birlariga bergan roziliklari asosida, ikki guvoh ishtirokida tuzilgan bitim bo'lib, uning bosh maqsadi oila qurish, avlodni davom ettirish, erkak hamda ayolning tabiiy ehtiyojlarini qondirishdan iborat.

#### ***Er va xotin o'rtasidagi mulkiy munosabatlar***

Islom huquqiga ko'ra er va xotin o'rtasidagi mulkiy munosabatlarni uch holatda namoyon bo'ladi. Ular:

1. Mahr
2. Nafaqa
3. Meros

Islom huquqining o'ziga xos xususiyatlaridan biri erning ayolga mahr berishidir. Mahrning muqarrarligi har ikki tomonni ham nikohni bekor qilishdan o'zini tiyishga kafolat bo'lib xizmat qilgan.

Mahr – bu ayol erning taklifini qabul qilgani evaziga unga beriladigan moddiy boylikdan iborat. Mahr berish qoidasi hozirgi zamon musulmon davlatlarida nikoh hadyasi sifatida saqlangan.

Demak: Mahrning shartlari:

- qiymatga ega, mol desa arzigulik narsa bo'lishi;
- mahrga beriladigan mol halol va pok bo'lishi;
- mahrga beriladigan mol birovdan tortib olingan bo'lmasligi shart.

- mahrga atalgan mol noaniq bo'lmasligi shart.

Quyida ular to'g'risida batafsil to'xtalib o'tiladi.

#### **Mahrdan kelib chiqadigan ayolning huquqlari:**

- mahrning hammasi ayolning mulki hisoblanadi.

Undan o'zi xohlaganicha foydalanadi, egalik qiladi va tasarruf qiladi;

- mahrni oldindan olishi yoki olishni orqaga surib qo'yish mumkin. Berish muddati uzoqmi yaqinmi bari-bir, muddatni aniq belgilash kerak;

- mahrni olmagan uchun ayol asosiy xotinlik vazifasini bajarmasligi mumkin;

- er mahming boshlang'ich qismini bera olmasa, ayol nikohni buzishni talab qilishga haqli bo'ladi.

Manbalarda keltirilishicha quyidagilarni mahr qilib bersa bo'ladi:

- O'n dirham

Imom Shofe'iy (ra) "o'n dirhamdan oz mahr yo'qdir" degan hadisni dalil qilib, savdo-sotiqda ni-maiki pul o'rnida ishlatish joiz bo'lsa, o'sha narsa ayol kishiga mahr bo'lishi mumkin deydi.

- Qur'ondan ta'lim berish;

Bir sahoba uylanish niyatida edi. Rasululloh (s.a.v.): "Senda mahrga biron narsa bormi?" - deb so'radilar. Aytdi: "Menda shu izorimdan boshqa narsa yo'q". U kishi: "Izoringni nima qilasan? Unga bersang, o'zing izorsiz qolasan! Biron narsa qidirib ko'r", - dedilar. Sahobiy: "Hech narsa topa olmadim", - dedi. Rasululloh (s.a.v.): "Birorta temir uzuk bo'lsa ham, top!", - dedilar. Qidirib hech narsa topa olmagach, Rasululloh (s.a.v.): "Senda Qur'ondan biron narsa bormi?", - deb so'radi. "Ha, shu-shu sura", deb bir nechta suralarning nomini aytdi. Shunda Rasululloh (s.a.v.): "Seni unga Qur'ondan bor narsang bilan nikohlab qo'ydim", - dedi. Boshqa rivoyatlarda: "Tur va unga yigirmata oyat o'rgat, u sening ayoling bo'ladi", - deyiladi.

- Urug' yoki danakdek keladigan oltin;

Anas ibn Molik (r.a) rivoyat qiladilar: "Abdurah-mon ibn Avf Rasululloh (s.a.v.) huzuriga keldi, uning qo'lida bir sariq narsaning dog'i bor edi. Undan bu dog' nimaning dog'i ekanligini so'raldi. U bir ansoriya ayolga uylanganligini aytdi. Payg'ambar: "Unga qan-cha mahr berding?", - dedilar. U: "Danakdek keladi-gan oltin", - dedi. Payg'ambar (s.a.v.): "Bir qo'y so'yib bo'lsa ham to'y qilgin!", - dedilar"[2].

- Mato;

"Hidoya"da keltirilishicha, er ayolga mahriga mato bersayu, ayol uni eriga hadya qilsa va o'rtalari-da yaqinlik bo'lmay ajrashishsa, er mato qiymatining yarmini berishi kerak. Xotin mahrga berilgan matoni eriga sotsa, yuqoridagi holatda mahrnig yarmini er-iga qaytaradi[3].

- Hayvon;

Agar ayolga mahr uchun biron-bir sifati aniqlan-magan hayvon berish evaziga uylansa, mahr durust hisoblanadi. Ayolga o'sha hayvondan o'rtachasi yoki puldagi qiymati beriladi.

To'rt mazhab faqihlari mahrga berilayotgan ashy-oning aniq sifatlar bilan ifodalanishiga ittifoq qilganlar. Agarda mahrga hayvon berilishi aytilsa-yu, uning ni-maligi aytilmagan bo'lsa yoki shariat taqiqlagan nar-salar mahr qilingan hollarda mahri misl beriladi.

"Mahri misl" deb, yosh jihatidan ham, xusn ji-hatidan ham bir xil bo'lgan qiz va ayollarga berish odat bo'lgan mahr miqdoriga aytiladi.

**Nafaqa.** "Nafaqa" so'zi lug'atda "sarflash" ma'no-sida ishlatilib, islom huquqida kishining xotini, bolalari, ota-onasini moddiy ehtiyojlar – oziq-ovqat, kiyim-ke-chak va uy-joy bilan ta'minlashi tushuniladi.

"Nafaqa - deyiladi "Hidoya"da, - er-xotinlikning tayanchi va oila davomli bo'lishining asosiy omilidir [3].

Ayolga nafaqa berishning majburiyligi Qur'on, sunna va ijmo' orqali belgilangan. Nafaqa berish

Qur'oni Karimning "Baqara" surasi 233-, "Taloq" sur-asi 6-oyatlarida ko'rsatilgan. Ayolning nafaqasi erning zimmasida ekan, demak, nafaqa miqdori er kishin-ing topganiga qarab belgilanadi. Bunga dalil Qur'oni Karimning "Taloq" surasi 7-oyatida: "Boy kishi o'z boyligidan nafaqa bersin. Kimning rizqi tang qilingan (kambag'al) bo'lsa, u holda Alloh unga ato etgan nar-sadan (holiga yarasha) nafaqa bersin!"

Oyatga ko'ra agar er boy bo'lsa, boy ayollarga beriladigan nafaqani, agar kambag'al bo'lsa, kam-bag'al ayollarga beriladigan nafaqa berishi shart bo'ladi. "Muxtasar"da zikr qilinishicha, agar kambag'al kishi ayoliga kambag'allarga qilinadigan nafaqani ado qilib kelayotgan bo'lsa, vaqtlar o'tishi bilan er boy-ib ketsa va xotin qoziga nafaqasini oshirish haqida da'vo qilsa, qozi erga nafaqani oshirishi va boylarni-kidek nafaqa berishini tayinlaydi [4].

Agar er boshqa shaharga ketib, boshqa bir kishi-ga omonat, qarz yoki foyda qilish uchun sheriklikka pul tashlab ketgan bo'lsa, qozi ushbu pullardan xotin-ga nafaqa undirib beradi.

Shuningdek, agar er xasis bo'lib, kerakli ta'mi-notni qilmasa yoki ayolga e'tibor bermasa, ayol uni sudga berishga haqli. Ayolning shikoyati tasdiqlansa, qozi uning talabini qondiradi, ya'ni ayol erining mol-idan ehtiyojiga ko'ra (isrof qilmay) uning ruxsatisiz ham olishi mumkin.

Bunga misol qilib quyidagi hadisni keltirish mum-kin: "Abu Sufyonning xotini Hind: "Yo Rasulalloh! Abu Sufyon xasis odam bo'lib, men va bolalarimga ye-taricha ovqat bermaydi, unga bildirmay molidan olib turaman, dedi. Payg'ambar (s.a.v.): Insof bilan o'zing va bolalaringga yetaricha olgin!", dedi" [1]. Ushbu masalalarning hammasi xotin erning nikohida bo'lgan paytidagi hollarga taalluqli. Ammo taloq qilingan xotin ham ma'lum miqdorda nafaqaga haqli bo'ladi.

Xotin erning qarindoshlari bilan yashashga ma-jbur emas, lekin uning (boshqa nikohdan) voyaga yetmagan bolalari bilan yashashi mumkin. Lekin er-ning ruxsatisiz xotin (avvalgi nikohdan) bolalarini yoki yaqinlarini uyga olib kela olmaydi. Bu fikrlar hanafiy-lar tomonidan qabul qilingan asoslardir. Shu o'rinda aytib o'tish kerakki, agar er tomonidan berilgan turar joy talabga javob bermasa, xotin xonani tark etishi mumkin. Lekin bu holatda xotin itoatsiz hisoblanmay-di va nafaqaga haqli bo'laveradi [4].

#### **Islom huquqida nikohni bekor qilish yo'llari**

Oilaviy munosabatlarning markaziy institutlari-dan biri nikohning bekor qilinishidir. Nikoh quyidagi holatlarda bekor qilinadi:

- tomonlardan birining o'limi;
- taloq yo'li bilan;
- xulu' yo'li bilan;
- qozilik sudi qarori (tafriq yo'li) bilan;
- zihor yo'li bilan;



- mulo'ana yo'li bilan;
- fasx yo'li bilan.

Ko'rib turganingizdek, islom huquqida nikohni bekor qilish huquqi faqat erkaklar bilan cheklanilmagan. Balki ayolning huquqi e'tirof etilgan holda uning nikohni bekor qilish vakolatlari mustahkamlangan.

"Zihor" so'zi "zohr" so'zining o'zagidan olingan bo'lib, insonning orqa bel tomoniga aytiladi. Shariatda esa, erning o'z xotiniga "sen men uchun onamning orqa bel tomoni kabisan" - deyishiga aytiladi. Bu to'g'rirog'i, xotinim onam kabi harom bo'lsin, degan ma'noni anglatadi.

Ulamolarning ta'kidlashicha, "zihor" faqat arablarga xos odat bo'lib, boshqa xalqlarda bu odat yo'q ekan. Ushbu oyatlar kishilar bid'at va xurofotga berilishi oqibatida ularning aqlari ham tubanlashib qolishini ko'rsatadi. Chunki aqli-hushi joyida bo'lgan odam hech qachon bir og'iz so'z bilan xotini onasiga aylanib qolishini qabul qila olmaydi.

"Xotinlardan zihor qilganlar o'z aytganlaridan qaytsalar, (qayta) qo'shilmalaridan avval bir qul ozod qilsinlar" (*"Mujodala" surasi, 3-oyat*). "Kim (qul) topmasa, bas (qayta) qo'shilmadan avval ikki oy ketma-ket ro'za tutsin. Kim (ro'za tutishga) qodir bo'lmasa, oltmish miskinni to'yg'azsin". (*"Mujodala" surasi, 3-oyat*)

#### **Nikohni bekor qilishdan kelib chiqadigan huquq va majburiyatlar:**

1. Idda
2. Nafaqa
3. Mahr
4. Meros
5. Farzand tarbiyasi

#### **Nafaqaga oid huquq va majburiyatlar**

"Taloq qilingan ayolga maskan va nafaqa berish erga vojib bo'lish-bo'lmasligi haqida quyidagi hukmlar bor:

1. Raj'iy taloq qilingan ayolga iddasi chiqquncha maskan va nafaqa berish vojib.
2. Taloq qilingan ayol homilador bo'lsa, homilasi-ni tuqquncha maskan va nafaqa berish vojib.
3. Eri o'lgan ayolga iddasi chiqquncha maskan berish vojib.
4. Uch taloq qilingan ayolning maskani va nafaqasi haqida ixtilof bor: "Hanafiyalar mazhabida taloq qilingan ayolga, uning iddasi chiqquncha taloq qilgan er tomonidan maskan va nafaqa berilishi vojib, deyiladi".

#### **Merosga oid huquq va majburiyatlar**

"Meros" so'zining lug'atdagi bir ma'nosi, bir narsaning bir shaxsdan ikkinchi shaxsga, bir qavmdan ikkinchi qavmga o'tishni anglatadi. Shar'iy istilohda esa, "meros" mulkning vafot etgan shaxsdan uning tirik merosxo'rlariga o'tishini bildiradi. Mulkiyat - mol, ko'chmas mulk va shar'iy haq-huquqlar bo'lishi mumkin.

Farz egalari.

Qur'on, Sunnat yoki Ijmo'da hissasi ochiq-oydin belgilab qo'yilgan merosxo'rlar farz egalari, deb nomlanadilar. Merosni bo'lish aynan ushbu toifadan boshlanadi. Er va xotin ham ushbu toifa egalari hisoblanadi.

*Fosid* va botil nikoh tufayli meros olish haqqi sobit bo'lmaydi. To'g'ri, shar'iy yo'l bilan nikohlari bog'langan shaxslar orasida bir-biridan meros olish haqqi sobit bo'ladi.

Agar xotin rajiy taloq qilingan bo'lsa, xotin marhum eridan meros oladi. Boin taloqdan keyin er yoki xotin vafot etsa, bir-biridan meros olmaydilar. Chunki, oralardagi nikoh uzilgan bo'ladi.

Ba'zi kishilar xotinim bolalarimga qo'shib meros olmasin degan maqsad ila bemorligida uni taloq qilishni o'zlariga ravo ko'radilar. Ana o'shanday shaxs o'z xotinini uning roziligisiz boin taloq qilsa va mazkur sababdan boshqa sabab bilan bo'lsa ham o'lib qolsa, xotini iddada bo'lsa, undan meros oladi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Islomda ayolning haq huquqi, ilm tahsil etishiga qarshi chiqqan erlarga o'rin yo'q. Aksincha, Islomni to'g'ri tushunib unga amal qilgan mo'min erkaklar, avvalo o'zlari ilmi bo'lganlari yoki ilm olayotganlari holda, ayollarga ham ilmni egallashlariga yordamchi bo'ladilar. Bu borada musulmonlar tarixi sharafli sahifalar bilan to'liqdir. Ayollarni ilm tahsil etmakdan man qilmoq bu jaholat va g'afolatga berilgan erlarning ishidir. Chunki, ayolni ilm olishdan man etmoq din o'rganmoqdan man etmoqdir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Qarang: *Burhoniddin Marg'inoniy. Hidoya -T. 1. - T.: Adolat, 2000. -B 646*
2. *Muhammad Ali Sobuniy. Islomiy nikoh va uning odoblari. - T.: Movaraunnahr, 2005. - B.51.*
3. *Burhoniddin al-Marg'inoniy. Hidoya, 1-jild. - T.: Adolat, 2000. - B. 759.*
4. *Imom al-Buxoriy. Hadis. -T. 3. -B. 481.*

# XIVA XONLIGIDA URBANIZATSIYA JARAYONLARINING EKOLOGIK MASALALARI



**Umida TAJIYEVA,**  
Urganch davlat  
universiteti  
tayanch doktranti

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Xiva xonligida urbanizatsiya jarayonlarining ekologik jihatlari o'ld ba'zi masalalar tahlil qilingan. Unda turar joylar qurilishida tabiiy-geografik omillar muhim rol o'ynagan, shahar infratuzilmasida suv ta'minoti va oqava suvlarni chiqarish tizimlariga e'tibor qaratilgan.

**Kalit so'zlar:** Xiva, iqlim, turar joy, shahar plani, suv ta'minoti, quduq

**Аннотация:** В статье анализируются некоторые вопросы, связанные с экологическими аспектами процессов урбанизации Хивинского ханства. Обращено внимание на важную роль природных и географических факторов в строительстве жилья, водоснабжении и канализации в городской инфраструктуре.

**Ключевые слова:** Хива, климат, проживание, план города, водоснабжение, колодец

**Annotation:** This article analyzes some issues related to the ecological aspects of urbanization processes in the Khiva khanate. It focuses on the important role of natural and geographical factors in the construction of housing, water supply and sewerage systems in urban infrastructure.

**Key words:** Khiva, climate, accommodation, city plan, water supply, well.

Xiva xonligining iqlimi quruq va issiqligi, atrofi cho'l va qumliklar bilan o'ralganligi uning hududidagi urbanizatsiya jarayonlarida tabiiy-geografik omillar muhim rol o'ynashiga sabab bo'lgan. Zero, shaharlar taraqqiyotida ularning vohalarda joylashuvi, suv ta'minoti, tashqi xavflardan himoyalanganligi hayot davomiyligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etgan. O'tgan asrlarda aynan shu muammolar, xususan, suvsizlik muammosi uzoq yillar davomida poytaxt bo'lib kelgan Ko'hna Urganch hamda Katda shahar hayotini izdan chiqarib, ularning bo'shab qolishiga sabab bo'lgan edi.

Xorazm vohasi mahalliy aholisi qadimdan uy-joy qurilish ishlariga o'ziga xos yondashgan. Har bir joyning o'ziga xos strukturasi kelib chiqib, eng avvalo, quyosh nurini tushishini nazarda tutgan bo'lsa, keyingi holat shamolning esishiga qarab qurilishi amalga oshirishiga, joyiga qarab intilish kuchliroq bo'lgan. Demak, uy-joy qurilishi, shaharsozlik rivoji, obodonchiligida vohaning tabiiy iqlim sharoiti bilan bog'liq omillar katta rol o'ynagan.

Xonlikning poytaxti sanalgan Xiva shahri dengiz sathidan 90 metr balandlikda, vohaning janubiy qismida, bepoyon qum sahrolaridan atigi 6 kilometr masofada joylashgan. Shahar iqlimi nisbatan o'zgaruvchan bo'lib, yozda jazirama issiq, qishda esa qattiq sovuq bo'lib turgan. Tadqiqotchi O.Shkapskiy Xiva xonligida qish uch oy, bahor bir yarim oy, yoz besh oy (aprel oyi yarmidan- sentabr-

ing yarmigacha), kuz esa ikki yarim oy davom etishini yozadi[3].

Xonlikning iqlimi haqida so'z yuritar ekan rus geolog olimi Gelmersen quyidagilarni qayd etadi: "Xiva shahri Markaziy Osiyo mintaqasining o'rtasida atrofi o'simliklarsiz qumlar bilan o'ralgan holda joylashgan bo'lib, kontinental iqlimga ega. Noyabr yoki dekabr oylarida sovuq qish boshlanadi, ba'zi kunlarda harorat -17 va hatto -20 darajadan pastga tushadi... qishdan keyin mart oyidan qisqa va quruq bahor, keyin issiq, deyarli yomg'irsiz yoz fasli keladi, bu davrda 28-30 darajadan yuqori bo'lgan kunduzgi issiqlik, salqin tun bilan almashadi" [4].

Xonlikdagi yana bir qal'a - Hazorasp Xivadan kichikroq bo'lsa ham, davlatning eng mustahkam shahri hisoblangan. Shahar paxsa devor bilan o'ralgan bo'lib, uning atrofida suv to'la xandaq bo'lgan. Shahar atrofida, ayniqsa, olmalari bilan mashhur bo'lgan juda ko'p bog'-rog'lar mavjud bo'lgan. Yangi Urganch esa Xivadan ancha kichik. Shaharni o'rab turgan devorlar butunlay xarobaga aylangan, bu shahar o'z sanoati va savdosi bilan xonlikda muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Toshovuzning maydoni Xivaga teng keladi, atrofi paxsa devor bilan o'ralgan. Shovot, Gurlan, Xo'jayli, Qo'ng'iro't shaharlari ham kattaligi jihatidan Hazorasp shahriga teng bo'lib, ularni o'rab turgan devorlari buzilib ketgan.

Sharqshunos Ye.Ya.Kileveyn Qo'ng'iro't shahri haqida quyidagilarni yozadi: "Qo'ng'iro't shahri Xon kanali va Amudaryoning chap tomonida joylashgan bo'lib, kanalning o'ng qirg'og'i bilan Amudaryo o'rtasida uzunligi 4 verstga yaqin bo'lgan keng qirg'oq devoriga ega edi, uning yonida daryo qirg'og'iga yaqinroq yerda boshqasi ko'tarilib, ikki tomondan daryoga yaqinlashadi va qirg'og'i bilan cho'zinchoq to'rtburchak hosil qiladi" [5].

XIX asr boshlarida Yangi Urganch, Xiva, Xazorasp, Toshhovuz, Nukus, Qo'ng'iro't, Xo'jayli kabi shaharlar qayta tiklangan bo'lsa, XIX asr oxirlarida Petro-Aleksandrovska shahri yangi qurilgan edi. XX asr boshlarigacha Xorazm shaharlari o'zining an'anaviy qiyofasini saqlab qolgan. XX asr boshlarida shahar manzilgohlarining qiyofasi o'zgara boshladi. Aholisi esa suv yetishmasligi natijasida atrofdagi qishloqlarga ko'chib o'tganlar.

Xivada shahar hayotining rivojlanishi natijasida ichki (Ichan qal'a) va tashqi (Dishan qal'a) shahar vujudga kelgan. Shaharning tarixiy topografiyasi faqat tabiat manzaralaridagina hosil bo'lmagan (Ichan qal'a tepaligi hayotbaxsh suv chashmalari xalqasida joylashgan) hamda Xivaning qo'shni manzillar va boshqa chegaradosh mamlakatlar bilan tarixiy aloqalari bilangina cheklanmagan. Shahar qurilishida xorazmliklarning ijtimoiy tarkibi va ma'naviy hayoti ham aks etgan. Xivadagi shahar darvozalariga xos xususiyatlardan biri ular yaqinida hovuzlarning bo'lganligidir.

Shahar aholisi shu hovuz va quduqlardan suv ichgan.

Shaharda suv ta'minotini qadim-qadimda Amudaryodan oqib chiquvchi kanallar izga solib turgan. Polvonyop kanali shaharning bosh arteriya tomiri edi. Polvonyop kanali shaharning shimoli-sharqiy qismida, Xiva shahridan 300 metr masofadan keyin ikki katta irmoqqa – Oqyop va Sirchali irmoqlariga bo'lingan[6]. Oqyop irmog'i shahar tashqarisidan oqib o'tib, shu atrofdagi qishloqlarning ekin maydonlarini suv bilan ta'minlagan. Sirchali irmog'i orqali esa, Dishan qal'ada joylashgan Rafaniq, Nurullaboy, Nurullobek bog'larini sug'organ. Sirchali kanalining o'zi ham Xiva shahrining markazidan ikki irmoqqa ajralgan. Bular Shixlar va Xumboz irmoqlari bo'lib, ular ham o'z navbatida solmalarga bo'lingan va shahar xonadonlarining yerlariga suv yetkazib bergan.

Shahar aholisini ichimlik suv bilan ta'minlash maqsadida hovuzlar qazilgan va ularga suv to'plangan. Bu hovuzlar asosan shahar darvozalari, karvonsaroy, bozor va chorrahalar yaqinida qazilgan. O'tgan asr boshida shaharda 14 ta katta hovuz: Dishan qal'adagi Ota hovuz (Ota darvoza oldida), Bog'cha hovuz (Bog'cha darvoza oldida), Polvon darvozaning janubi-sharqiy tarafida joylashgan Katta hovuz, Chitkar hovuz, Davlatyor oxund, Bol hovuz, Polvon hovuz, Chilla avliyo, Sulton zargar, Madaminxon, To'rt Shohboz, Abdol bobo, Bozor hovuz, Dishan hovuzlar bo'lgan[7]. Hovuz atroflari gujum, qayrag'och va tut daraxtlari bilan o'ralib, soya, xushmanzara joy bo'lgan. Suv xovuzlarga bahor oylarida quyilib, to'kech kuzgacha saqlangan. Hovuzda suv botil bo'lmagan, aksincha bir tomondan kirib, ikkinchi tomondan oqib chiqib ketgan. Shu boisdan ham suv toza, hamma vaqt ichish uchun yaroqli bo'lgan.

Shaharda hovuzlardan tashqari suv ta'minoti uchun maxsus muzxonalar ham qurilgan. Jumladan, Nurullo chitkar mahallasida Madaminxon (1851-1855) tomonidan shunday muzxona qurilgan. Kech kuzda havo sovub, hovuzlar suvi yaxlashi bilan muzlar to'planib, qamishlarga o'ralib, muzxonalarda saqlangan. Bahor kelishi bilan esa ularni eritib, ichimlik suv sifatida foydalanishgan.

Bundan tashqari Qutlug' Murod Inoq madrasasida, To'rt Shabbos masjidi yaqinida katta quduqlar – "tagzaminlar" (sardobalar) bo'lgan. Bu tagzaminlar yilning to'rt faslida ham suvga to'la bo'lib, aholini ichimlik suvi bilan uzluksiz ta'minlashda qo'l kelgan[8].

Shu o'rinda Xiva quduqlar shahri ekanligini eslash joiz. Chunki, har bir xonadon, masjid-madrasa sahnida quduq bo'lishi oddiy bir hol sanalgan. Quduq suvlarini aholi iste'mol qilgan, chorvasini va hatto ekin yerlarini ham sug'organ. Bir so'z bilan aytadigan bo'lsak, shahar hech qachon qurg'oqchilik va suv yetishmovchiligini boshdan kechirmagan. Suv ta'minoti mukammal bo'lib, ko'hna an'analar davomiyligini bildirgan.

Quduq qazish ancha mashaqqatli bo'lib, ishlar asosan qo'lda ketmon va belkurak yordamida bajarilgan. Qishloqlarda quduq atrofiga gujum ekilgan. Bu iqlim xususiyati bilan bog'liq bo'lib, gujumning qalin soyasi jazirama issiqda quduq suvining muzdek bo'lishini ta'minlagan.

1740-yilda injener Nazimov chizgan Xiva shaharining xaritasida shaharning sathi va umumiy ko'rinishini juda aniq belgilangan. Unda shahar atrofidagi bog'lar, tegirmonlar, quduqlar va boshqa topografik belgilar aniq aks ettirilgan [9]. Arxitektor olim Abdusafi Rahmonov ta'kidlaganidek, shahar qiya qilib qurilgan. Bu shaharni kanaldan suv bilan ta'minlashga imkon bergan, chunki "Xey-Vax" qudug'i shaharning doimiy o'sib borayotgan aholisini ta'minlay olmasdi. Nishab shaharning hamma joylariga suvning kirish oqimini ham, oqava suvlarining chiqishini ham ta'minlardi. Aynan mana shu holat XVII-asrda xorazmliklarga o'z kanalizatsiya tizimiga ega bo'lishga imkon bergan [2]. Shahardan chiqindi suvlar kanal orqali oqardi va Qizilqum sahosidagi qumlarda singib ketgan. Ekspertning aytishicha, shahar kanalizatsiya tizimini muntazam tozalash fuqarolar majburiyatiga kirgan. Bu ishlarni bajarish uchun har bir erkak kishi yiliga bir necha kun kelishi kerak edi. Bu ishdan qochganlar jazolangan, omma oldida jizza qilingan, hatto shahar tashqarisiga haydab chiqarilishi ham mumkin bo'lgan.

Ma'lumki, xonlikda raislar shariat tartib-qoidalari, diniy marosimlar ishlarining aniq bajarilishi ustidan nazorat qilishgan. Shu ishlar doirasida ular shaharning tozaligi va xavfsizligini ham kuzatib turishgan. Har bir shahar va katta qishloqning o'z raisi bo'lib, qozi kalon taqdimiga muvofiq xon tomonidan tayinlangan. Shuningdek, shaharda har bir kvartal yeriga alohida mirob tayinlangan. Ular ariqlarni tozalash ishlariga qazuvchilarni jalb etar, suv taqsimoti bilan shug'ullanar edilar.

Darhaqiqat, Xiva xonligi shaharlari infratuzilmasida o'tgan asrlar an'analari to'la saqlanib qolgan edi. Jumladan, Xiva shahrida bu davrda ko'plab qurilishlar amalga oshirilgan. Xiva xonligida masjidlar qurish rivojlangan. Masjidlar asosan aholi zich joylarda, mahalla markazlarida qurilgan. Katta masjidlarda tomning o'rtasida ikki yoki to'rt joyidan ochiq joy qoldirilgan. Bu masjidning yorug' bo'lishini va havoni tozalash vazifasini bajargan, chunki ko'pchilikning bir joyga to'planishi nafas olishni qiyinlashtirgan.

O'rta Osiyo shaharlari qadimdan o'z hammomlari bilan mashhur bo'lgan. Ularning qurilishi, me'moriy uslubi, isitish tarmoqlari tuzilishi maxsus, suv o'tkazmaydigan devorlari bilan hozirgi hammomlardan keskin farqlangan. XVII asr boshlarida Xivada 2 ta hammom bo'lgan. Birinchi - eski hammom bo'lib, plani va isitish tarmog'i bo'yicha juda sodda bo'lib, yer tagida qurilgan.

Ikkinchi qurilgan hammom Abul G'ozi Bahodirxonning o'g'li Anushaxon hammomining barcha xonalari yer ostiga joylashtirilgan. Aniq texnologiya asosida qurilgan, tuzilishi qulay va oddiy bu hammom Xivadagi kommunal inshootlar qurilishi haqida tasavvur beradi. Suv xammom uchun maxsus qazilgan quduqdan olingan. Hammomning isitish tuzilmasi juda oddiy - maxsus o'txonaga o't yoqilib, undan qozon ham tutun yurishiga mo'ljallangan mo'rilar orqali devorlar ham isitilgan. Xonalar ostidan o'tgan tazarlar orqali yuborilgan tutun hovuri bilan isitilgan [10]. Ifloslangan suvlar esa "gulbadav"lar - novlar orqali shahar tashqarisidagi zaxkashga oqizib yuborilgan [6].

2021-yil aprel oyida Ichon-Qal'a muzey-qo'riqxonasi hududida olib borilayotgan yo'llarni ta'mirlash ishlari chog'ida Toshhovli saroyi, Uch avliyo maqbarasi, Muhammadamin inoq va Do'st a'lam madrasalari o'rtasida bundan bir necha o'n yillar oldin ko'mib tashlangan chuqurligi 10 metru 60 santimetr, eni taxminan 1-1,5 metr bo'lgan quduq ochildi. Qadimgi an'anaga ko'ra quduqning asosi, ya'ni, poydevor qismiga Xorazm sharoitida ko'p uchrovcchi daraxt, tut yoki gujumdandan yog'och poydevor o'rnatilgan. Yog'ochning qalindigi 16 sm atrofida. Quduq devorlariga 25x25x6 sm o'lchamdagi pishgan g'isht nozik did bilan terilgan. G'ishtlar yuzasida rombsimon belgilar mavjud [11].

O'tmishda oqava suvlarning yer ostiga singib ketishini ta'minlaydigan bunday chuqurlarning eng kattasi "tagi zamin" (sardoba) deb nomlangan. Tagi zaminlar ham ikki xil bo'lib, birisidan ichimlik olib foydalanilsa, ikkinchisidan ortiqcha suvni yer ostiga o'tkazishgan. U suvlar tayyorlangan ma'lum tizimlar orqali shahardan tashqariga chiqarib yuborilgan [12].

Bunday quduqlarning o'rganilishi - butun shahar suv ta'minoti, ortiqcha suvlarni shahardan chiqarish, obidalarni zararlanishdan saqlash borasida ajdodlarimiz qo'llagan usullar, ularning naqadar samarali bo'lganini bilish imkonini beradi va kelgusida bu usullardan foydalanish yo'l-yo'riqlarini ko'rsatadi.

Xulosa shuki, Xorazmning o'ziga xos iqlimi (sahroga yaqinligi), aholining joylashishi, shaharlarning rivojlanishiga va uy-joylarning shakliga ta'sir qilgan. Bu yerda yoz juda issiq, qish esa sovuq bo'ladi. Vohada, butun mintaqada bo'lgani kabi har bir shahar va turar-joyning me'morchiligi tabiiy sharoit, ob-havo, aholining iqtisodiy-ijtimoiy hayoti ta'siri asosida rivoj topgan. Ota-bobolarimiz cho'llar o'rtasida kanallar qazishgani, shuningdek, shaharlar ichida oqilona kanalizatsiya tarmoqlarini tashkil qilishlari bejiz emas. Bu nafaqat shaharlarni sug'orish va ichimlik suvi bilan ta'minlash uchun qilingan. Doimiy zovurlarda bo'lgan namlik ma'lum mikroiklimni yaratgan, bu esa har bir aholi punktini hayot beruvchi voha sifatida namoyon imkonini bergan.

Bu borada Xiva shahri - har bir kvadrat metr uchun diqqatga sazovor joylarning zichligi yuqori

bo'lgan, nafaqat buyuk tarixiy, balki estetik ahamiyatga ega bo'lgan noyob hudud sanaladi. XVII-XIX-asrlarda bu yerda ko'plab go'zal me'moriy yodgorliklar, diniy va dunyoviy inshootlar qurilgan. Ayniqsa, Ichan qal'a majmuasi nafaqat o'zining tarixiy yodgorliklari bilan, balki noyob suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimi, o'ziga xos isitish tizimlariga ega hammomlari va boshqa inshootlari bilan mashhurdir.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Неразик Е.Е. Сельское жилище в Хорезме (I—XIV вв.). Из истории жилищной семьи. Археолого-этнографические очерки. М., 1976.

2. Хива - музей под открытым небом. Мнение эксперта // <https://podrobno.uz/lp/hiva>

3. Шкапский О. Как хивинцы ведут полевое хозяйство. – Москва: Типография Товарищества И.Д.Сытина, 1900.

4. Журнал “Нива” (Санкт-Петербург), 1873 г. №20.

5. Килевейн Е. Отрывок из путешествия в Хиву и некоторые подробности о ханстве во времена правления Сеид-Мохаммед Хана, 1856-1860 г. // Записки Императорского Русского географического общества. Кн.1. СПб, 1861.

6. Abdurasulov A. Xiva. Toshkent:O'zbekiston, 1997.

7. Xiva shahri tarixi (an'ana va o'zgarishlar, XVI-asr – XX-asr boshlari) / Yu.Rahmonova. – Toshkent: Akadempnashr, 2019.

8. Костенко Л. “Город Хива с 1873 году”. СПб, 1873.

9. Савельев П.С. Путешествие г. Базинера через Киргизскую степь в Хиву // Географические известия РГО. 1849. Вып. 4.

10. Xiva – ming gumbaz shahar. T.: Sharq, 1997.

11. Ichan qal'adan qadimiy quduq topildi. 20.04.2021 // [www. http://academy.uz](http://academy.uz)

12. Toshhovli saroyi oldidagi quduq haqida // [www.khivamuseum.uz/uz/toshkhovli-saroyi-oldidagi-kuduk-khakida](http://www.khivamuseum.uz/uz/toshkhovli-saroyi-oldidagi-kuduk-khakida)

# XX ASR BOSHIDA TURKISTON O'LKASIDA TURLI ZARARKUNANDALAR BILAN KURASH MASALALARINING MANBALARDA AKS ETISHI

*(“Sadoi farg’ona” gazetasi materiallari asosida)*



**Ravshan  
TURSUNOV,**  
O'zMU tarix fakulteti  
dotsenti, t.f.n.

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada “Sadoi Farg’ona” gazetasi sahifalaridagi XX asr boshida Turkiston o'lkasida qishloq xo'jaligi ekinlarini, mevali daraxtlarni turli zararkunandalardan asrash va ularga qarshi kurashish masalalariga oid materiallar tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** tabiatni asrab-avaylash, ekologik holat, entomologiya, entomologiya stansiyasi, qishloq xo'jaligi zararkunandalari, hasharotlar, chigirtkalar, dehqonchilik, bog'dorchilik

**Аннотация:** В статье анализируются материалы газеты “Садои Фергана” по охране и контролю сельскохозяйственных культур и фруктовых деревьев в Туркестане в начале XX века.

**Ключевые слова:** охрана природы, экологическая ситуация, энтомология, энтомологическая станция, вредители сельскохозяйственных культур, насекомые, саранча, земледелие, садоводство

**Annotation:** This article analyzes the materials of the newspaper “Sadoi Fergana” on the protection and control of agricultural crops and fruit trees in Turkestan in the early XX century.

**Key words:** nature conservation, ecological situation, entomology, entomology station, agricultural pests, insects, locusts, farming, horticulture.

**XX** asr boshida tabiatda yuz bergan tabiiy ofatlar, qishloq xo'jaligi ekinlarini, bog'larni, daraxtlarni, o'simliklarni hasharotlar va turli zararkunandalardan asrash, ularga qarshi kurashish borasida jadid matbuoti sahifalarida ko'plab maqolalar, amaliy maslahatlar va xabarlar muntazam berib borilgan.

Ekinzorlarga, bog'larga suv toqinlaridan tashqari, hasharotlar va qishloq xo'jaligi zararkunandalari ham katta talofat keltirgan. Shuning uchun ham qadimdan qishloq xo'jaligi ekinlarini, turli mevali daraxtlarni, o'simliklarni hasharot va zararkunandalardan asrab-avaylash bo'yicha chora-tadbirlar va amaliy harakatlarni qilingan.

1898 yilda qishloq xo'jalik zararkunandalarini o'rganish maqsadida Turkiston qishloq xo'jalik jamiyati qoshida “Chigirtka qo'mitasi”, keyinchalik 1911 yilda Toshkentda V.Plotnikov tomonidan “Turkiston entomologik stansiyasi” tashkil etiladi [1].

“Sadoi Farg'ona” gazetasining 1914-yil 16-maydagi 17-sonida Rossiya “Bog'dorchilik jamiyati”ning Bog'chasaroy sho'basi tomonidan Turkiston o'lkasiga “Bog'chalarimizga zarar va yerman qurtlar” nomli kitob pochta orqali kelganligi va kitob uchun “Tarjimon” gazetasi rahbariyatiga va “Rossiya bog'chachilik jami-

yati”ga tashakkur bildirilganligi haqida xabar beriladi [2]. Shuningdek, gazetaning “Bog’dorlik daftarina” deb nomlangan xabarida mazkur kitob haqida qisqacha ma’lumot berilgan: “Mazkur kitob o’rta qo’lda 63 sahifalik bo’lub, ichida har xil daraxt va zararlik qurtlarga doir 55 g’a qariyb mufassal rasmlari (suratlari) ham bordur. Lisoni bizam Turkiston lisoniga yaqin bo’lub, har kim anglarlikdir”[3].

“Sadoi Farg’ona” gazetasi sahifasidagi “Yana zararlik qurtlar” nomli xabarda Xo’jand atrofidagi tut daraxtlariga qurt tushganligi aytilib, tez fursatda Toshkent entomologiya stansiyasi tomonidan zararkunandalarga kurash choralar ko’rilishi bayon etilgan: “T.V. (Turkestanskaya vedemosti – muallif R.T) gazetasig’a Xo’janddan xabar bermoqlarig’a qaraganda: Xo’jand atrofida tut daraxtlarig’a qurt tushubdir. Bularning zohir bo’lmog’i ifakchilar orasida tashvishga sabab bo’ldi. Bu qurt 1911 yildan buyon zohir bo’lmay turub ekan. Toshkent entimulogiya stansiyasi tarafidan bunga qarshi iloj va choralar ko’rmog’ga boshlanadur”[4].

Qishloq xo’jaligi ekinlarini, bog’larni hasharotlar va zararkundalardan asrashda katta sarf-harajatlar talab etilgan. Hukumat tomonidan dehqonlarga zararli qurtlarga qarshi kurashish maqsadida qarz berilgan. “Sadoi Farg’ona” gazetasi sahifasida bu haqida quyidagi xabar keltirilgan: “Sirdaryo muzofoti ziyonlik qurtlar bilan olishmoqlik uchun ziroat ishlari idorasi tarafidan 2500 so’m zayomniy hisobidan 1500 so’m hamda bo’ltur qolg’on so’mdan 2500 so’m qarz aqcha ta’min qilinubdur”[5].

Shuningdek, hasharotlar va zararkunandalarga qarshi kurashish uchun maxsus texnikalar olib kelinib, ulardan foydalanish yo’lga qo’yilgan. Toshkent entomologiya stansiyasi tomonidan zararli qurtlarga qarshi tezroq va samarali kurashmoq uchun “Pomun” deb nomlangan mashinalar ijaraga yoki sotib olishga bog’ egalariga taklif etilgan. “Sadoi Farg’ona” gazetasi muharrirlari ham dehqonlarga, bog’ egalariga yordam berish maqsadida Toshkent entomologiya stansiyasining ushbu muhim ma’lumotini gazetaning 1914-yil 7-maydagi 13-sonida xabar sifatida bosib chiqaradi. Xabarda “Toshkent entimulogiya stansiyasi tarafidan ziyonlik qurtlar bilan tezroq olishmoqlik uchun “Pomun” nomida mashinalar prokat, ya’ni muvaqqat foydalanib turmoq uchun ju’ziy bir baho bilan bog’dorlarga berilur ekan. Ushbu mashinalarg’a 10 faqir suv sig’ar ekan. Buning ichig’a Parijskiy zelen solinub daraxtlarni sug’oriladur. Bul mashinalar Toshkand entimulugiya stansiyasida aqchag’a ham sotulub haqqi 53 so’m ekan.

Muvaqqat bermoq joylari ushbu shaharlarda ochiladur ekan. Sirdaryo muzofotida Chimkand, Avliyo-Ota, Qoplonbek shaharlarida ham Bogoroditskiy qishlog’ida. Samarqand muzofotida Xo’jand, Jizzax, Samarqand, Kattaqo’rg’on shaharlarida. Farg’ona

muzofotida Skoblev shahrida, Isfara qishlog’ida, O’sh va Chust shaharlarida ushbu konturlarni ochub “Pomun” mashinalariga sotub olmoq uchun Sirdaryo muzofoti Zemstvosi 1500 so’m aqcha ta’min etibdur. Samarqand muzofoti 500 so’m va Farg’ona muzofoti 100 so’m aqcha tayin etibdurlar” deb batafsil ma’lumot berilgan”[6].

Turkiston o’lkasidagi qishloq xo’jalik ekinlariga, mevali daraxtlarni zararkunandalardan saqlashda nafaqat bog’bonlar, entomologiya stansiyasi mutaxassisleri balki oddiy xalq vakillari ham hasharotlarga qarshi kurash yuzasidan ko’rgan va eshitgan ma’lumotlari asosida o’z maslahatlarini berganlar. Bu fikrga “Sadoi Farg’ona” gazetasi chop etilgan Sharifjon Xoji Solih o’g’lining maktubi asos bo’ladi.

Maktubda “Sadoi Farg’ona” ning 9-nomerisida mevali daraxtlarg’a qurt va boshqa zararlik hasharotlar haqidag’i maqolalarni o’qub, guft-gu qilib o’ltirmoqda edik. Oramizdan (ko’b vaqtlar Olma-Ota (Verniy) da turgon bir kishi shul so’zlarni so’zladi: “Olma-Otada ham 1907 yilda daraxtlarg’a shul yangi qurtlar paydo bo’lib erdi. Bog’bonlar va mahalliy hukumatdolar tarafidan ko’b iloj qilinub bo’lmay, oxirida qurtlar tuhum qo’ygandan keyin bahor vaqtida, nos talqonni ohak bilan aralashdurub, suv ko’yub moshina bilan daraxtlarg’a sepib yurgondek qilib erdilar. Jamiki daraxtlar ul ofatdan salomatlandi”. Ushbu eshitgon so’zimni gazetaga yozdim. Toki ushbu iloj vositasi bilan shoyad daraxtlar ofatdan salomat qolub, ba’zi: mevalari ovozasida tirikchilik qiladurgon kishilarg’a zo’r foydalar qoldursa” [7], deb yozilgan.

Dehqonlar, bog’bonlar erta bahordan dehqonchilikka bor e’tiborlarini berib, tinimsiz mehnat qilib topilgan daromaddan o’z oilalarini farovonligini ta’minlashni niyat qiladilar. Biroq, hosilni toki pishib yetilguniga qadar bo’lgan davrda katta qiyinchiliklarga, muammolarga duch keladilar. Birinchidan, ekinlarni, bog’larni sug’orishda suv tanqisligi asosiy muammolardan biri bo’lsa, ikkinchidan, ekinlarni, mevali daraxtlarni hasharotlardan va turli zararkunandalardan saqlab qolish muammosiga duch keladilar.

Toshkent entomologiya stansiyasining dehqonlarga zararkunandalarga qarshi kurashish yo’llari xususida muhim maslahatlar berib borishgan. Buni “Sadoi Farg’ona” gazetasi sahifasida keltirilgan ushbu xabardan ham ko’rish mumkin: “Hozirda Toshkandda qurt tushgon daraxtlarni Jipsin degan dori bilan sug’orub tajriba qiladurlar ekan. Bu dorining yaxshi foydasi tekgoni ma’lum bo’lubdur. Ammo (Parijskiy zelen) bilan sug’orilgon bog’larga bul darajada yaxshi foyda tekmas ekan. Xo’qand uezdi Isfarada zohir bo’lg’on o’ruk tamoman halok qilinub bo’lgon ekan. Chunonchi yerli aholi Toshkand entimulugiyasining so’zig’a va ko’rsotgon qoidalarig’a yaxshi quloq solub, vaqtida chora va muolajalarini ko’rmog’ga ijtiwod etgonlar ekan. Mana bul e’tibor va diqqatlar sababidan

o'zlarining bog'larini halokatdan qutqarmoqg'a muvaffaq bulubdurlar"[8].

"Sadoi Farg'ona" gazetasi sahifalarida rus tabiatshunosi Anton Dilevskiy (1862-1930yy.) ning bog'dorchilik va hasharotlarga qarshi kurashishga oid maslahatlari, maktublarini ko'rish mumkin. U faoliyati davomida Turkiston o'lkasida bog'dorchilikka oid ko'plab amaliy ishlardan tashqari, mutaxassis sifatida ilmiy risolalar[9] ham nashr ettiradi.

"Sadoi Farg'ona" gazetasining 1914-yil 27-apreldagi 9-sonida "O'ruklik bog'larning halokati to'g'risida Dilevskiy janoblarini maktublari" deb nomlangan maktub chop etilgan. Mazkur maktubda aprel oyida Isfara, Kulkand, Konibodom qishloqlaridagi o'rik bog'larini qurtlar va hasharotlar yeb, daraxtlarga katta talafot yetkazayotganligi, agar hasharotlarga qarshi vaqtida kurashilmasa, bog'dagi daraxtlar sekin-asta qurib, shunday katta bog'lardan asar ham qolmasligi mumkinligi bitilgan. A.Dilevskiy shuningdek, mazkur maktubida yana bog'bonlarga maslahat berib, quyidagi fikrlarni bildirib o'tadi: "Qurtlar qandog' hosil bo'latur? Avval daraxtg'a bo'lg'on qurtlar daraxtdan yerga tushub g'andakg'a uriladurlar, 2-3 xaftadan keyin g'andaklardan kapalaklar hosil bo'lub, uchub chiqadurlar hamda shul daraxtg'a o'zlarining tuxumlarini sola boshlaydurlar. Bul tuxumlardan kelasi bahorda qurtlar yaratilub yana daraxtni yeyurg'a boshlaydurlar. Hamda yaproqlarini butunlay yeyub daraxtni yalong'och qoldiradurlar.

Mana shuning uchun yerdan g'andaklarni kovlab topub halok va parokanda qilmoqlik lozim bo'latur. Qurtlar daraxtdan bir gazcha uzoq va bir qorishcha yerning ostida bo'latur. Hozirlik yer bo'sh va yumshoq bo'lub buni tesha bilan kovlamoq ham mumkindur.

Lekin qurtlarni bir bog'chaninggina halok qilmoqg'i kifoya etmaydur. Balki bul ishni ikkinchi qo'shni bog'larni ham qilmoqlik kerakdur. Chunonchi bir bog'li o'zining qurtlarini halok qilsa ammo ikkinchi qo'shni bog'i qilmag'on bo'lsa, ul vaqt bir qo'shnining qurtlari ikkinchi qo'shnining bog'ig'a kirub tuxumlar solub ush-budan bog'larning halok bo'lmog'i lozim kelur" [10].

Turkiston o'lkadagi qishloq xo'jaligi ekinlarini, bog'larda daraxtlarni hasharotlardan va turli zararkunandalar asrash maqsadida barcha tizim, jumladan, matbuotni ham sa'y-harakatlarini ko'rish mumkin. "Sadoi Farg'ona" gazetasi xodimlari faqat muammoga oid maqolalarni, xabarlar chiqarib qolmasdan, balki aholini ham hasharotlarga qarshi kurashishga chorlab, aholi orasidan dehqonchilik, bog'dorchilik sohasini yaxshi biladigan insonlardan gazetaga maqolalar, maslahat shaklidagi xabarlarni berib borishlariga chorlaydi [11].

A.Dilevskiyning matbuotda chop etgan maktubidan xabar topgan Farg'ona viloyati harbiy gubernatori Aleksandr Ivanovich Gippius (1911-1916 yillar bosh-

qaruv davri – muallif R.T) bog'larga, xususan, o'riklar-ga keladigan zararlarni eshitib, qanday bo'lmasin zarur choralarini ko'rib, bog'larni bu hasharotlardan qutqarish yuzasidan Xo'qand hokimlariga telegramma chiqartiradi. Ushbu telegramma orqali hokimlar matbuotda hamda qishloqlar va volostlarga buyruq va e'lonnomalar chiqartirib aholini zararkunandalarga qarshi kurashga chaqiradilar.

"Sadoi Farg'ona" gazetasida bu haqida quyidagi fikrlarni ko'rish mumkin: "Ushbu ishni oxiri qandog' bo'lur ekan?" Agar beparvolik qilinsa yanagi yilg'a ziyon kattaroq bo'lub, yana katta harakat lozim bo'lur-mikan deb chunonchi chigirtkalarg'a tamom fuqarolar necha yillar ishdan qolub ovora bo'lg'ondek, fuqarolar katta harajatga qolub ko'b ovora bo'lurlarmikan" deb hurmatlik Xo'qand ulug'lari ham nihoyatda xavotirda bo'lub xotirlari nojam'dur. Emdi sizlar va bizlar ahli shahar va ham qishloq ahli mulkdor va bog'dorlarga lozimdurki: muncha ulug'larning xavotir va tashvishlarini eshitub turub yana beparvo bo'lub, bular "ketor" deb tanballik qilmasdan ma'lumotlarga muvofiq lozimlik va bir muhim fahmlab ushbu kundan qoldur-may daraxtlarga zehn qo'yub daraxt tagini bir qorish kovlab ko'rub muolajasini qilsalar va ham mumkin bo'lsa, ba'zi qurtdin va ba'zi daraxtlarning tagidan tobulg'on g'andakdan topub ko'rsatulsalar taajjub ishdur va ham ehtimolki, g'andak va qurtlarni ko'rg'onlarida bog'dorlarning sa'y va harakat qilg'onlari ma'lum bo'lub, ulug'lar andak xotirjam bo'lsalar chunonchi, ushbu nima bo'lur ekan deb kecha-kunduz ulug'lar quloqlari bog'dor tarafidatur. Albatta beta'sir qolmay qattiq harakat qilmoq lozimdur. Har ishni oldini olsa oxiri hayrlu bo'lur"[11].

"Sadoi Farg'ona" gazetasi sahifasidagi "O'ruk va pillalar haqida" deb nomlangan xabarda tahririyat xodimlari gazeta o'quvchilaridan va xabarlaridan doimiy tanishib boruvchilardan qisqa fursat ichida o'riklarga tushgan qurtlar haqida yozib, tahririyatga ma'lumot berib borishlarini so'rab murojaat qilganliklarini ko'rish mumkin. Shuningdek, xabarda "mana bu kunda Samarqand muzofotlarida Xo'qandning ba'zi atroflarida yung'uchqalarg'a ham qurt tushub yung'uchqalarni tamoman nobud qilubdur ekan. Samarqand muzofotlarida yung'uchqalarni bekorg'a o'rub tashlag'on joylar ham bor ekan... Albatta, buning oldini olmoq uchun tez harakat qilmoq kerakdur... Bog'dor va mulkdorlarga lozimdurki: mundog' andishalik gapni eshitganlarida qattiq sa'y va harakatlar haqida kunba kun bildirub turmoqlari ham lozimdur. Pilla ishi haqida ham yozub eduk. Pillalarning ozayub va kamayub ketmoqlari haqida ham idorag'a bildirub va yozub tursalar edi. Ko'b pilla bo'lmoq uchun nima qilmoq lozimdur. Hamda pillaning kam bo'lub qolmoqig'a sabab nima bo'ldi? Agar yozsalar muvofiq va maslahat bo'lg'onlarini gazetamizg'a darj qilarmiz"[12] deb gazetaxonlarga murojaat qilingan.



“Sadoi Farg’ona” gazetasining 1914-yil 4-maydagi 12-sonida “O’ruklik bog’larning halokati to’g’risida “Dilevskiy” ning ikkinchi maktubi” deb nomlangan maqola chop etiladi. Mazkur maqolada muallif Isfara qishlog’idagi o’rik bog’lariga asosan 3 xil turdagi zararkunanda qurtlar, xususan, Tunlag deb nomlangan zang qurtlari, o’rik qurti nomli qizil ranglik qurtlar, Tut qurti degan qurtlar, Vorux va Chorkux qishloqlaridagi bog’larda esa qora rangli orqasida uzun junlari bo’lgan qurtlar zarar yetkazayotganligini ta’kidlaydi.

A. Dilevskiy mutaxassis sifatida ushbu hasharotlar va zararkunandalar qanchalik havfli bo’lsa ham ularga qarshi kurashish juda qiyin emasligini aytib, ularni yo’qotishni turli usullari haqida maslahatlar berib o’tadi: “birinchi usul – yerdan qurtlarni yig’ub halok qilmoqlikdir. Demoiqimizning sababi budur: qurt yerga kirdandan keyin pillag’a uralub 2 haftadan keyin kapalak bo’lub uchub chiqor. Chiqmog’i bilan o’ruk daraxtiga qo’nub o’zining tuxumlarini solur. Keladurgon bahorda ushbu tuxumlardan qurtlar paydo bo’lur. Ushbu qurtlar daraxtlarning g’unchalari ichiga kirub g’unchalarni kemirmoqg’a boshlarlarki: mundan g’uncha ochilmay qolur. Qachon ushbu qurtlar katta bo’lsalar ul vaqt daraxtlarning yemoqg’a boshlarlar. Mana shuning uchun pillalarni vaqtida yerdan yeg’ub halok qilmoqlik lozim bo’ladur. Pillalarning yerdan faqat 2-3 vershukgina tuban yer ostida ko’mulub turg’onlaridan bularni qovlab chiqarmoq har kim uchun qila biladur. Keladurgon bahorda qishdan chiqar chiqmas daraxtlarni yelim bilan bir necha yeridan xalqalab suykamoq kerak. Qanotsiz kapalaklar uchmag’onlaridan tuhmlarini solmoq uchun yerdan daraxtg’a o’rmalab chiqadurlar. Qachon yelim xalqa to’g’risig’a yetsalar, darhol yelimg’a yopushub halok bo’lub qolurlar. Keyin g’unchalar ochilub barglar chiqa boshlag’onda daraxtlarni “Parijiskiy zelen” degon doru bilan sug’ormoq kerak. Qurtlar mazkur suv bilan sug’orilgan barglarni yegonlarida zaharlanub o’lub qolurlar. Bu yil kelgonda shundoq qilib sug’orilgan bog’lar salomat qolub, qurtlar hammasi halok bo’lubdurlar. Qachon ushbu halok bog’chalar to’g’risida ma’lumotlar olinub bitsa, shul vaqt ushbu qurtlar bilan olushmoqlikni tartib va qoidalari tuzulub keladurgon 1915 yilg’a planlar hozirlanur”[13].

Muallif shuningdek, mahalliy xalq qishloq xo’jaligi idoralari bilan birgalikda harakat qilib, bog’dorchilik sohasidagi mutaxassislarning maslahatlari va hasharotlarga qarshi kurashishda ular aytgan usullaridan foydalanilsa albatta bog’larni halokatdan saqlab qolish mumkinligini alohida ta’kidlaydi. Muallif o’rik mevasi mahalliy aholi iste’mol qiladigan mevalar ichida muhimi ekanligini aytib, quyidagi ta’rifni keltirib o’tadi: “O’ruk bog’larini ham qurtdan qutqarmoqlik nihoyatda lozim ishdur. Chunonchi o’ruk xalqning aksarlari uchun bo’lak nondur. Mana o’ruk – demak non ekan”. Muallif mahalliy aholini hasharotlar va zararkunand

dalarga qarshi kurashishga chorlab, “ishning asli budurki: bu yil o’ruk bog’lari barglasalar ham va indingi yilda gullansalar ham lekin o’ruk o’zi bo’lmaydur. Hamma gullari to’kuladurgon bo’lur. Agarda aholi bunga ahamiyat berub vaqtida muolajasini qilmay qolsa ulvaqt keladurgon yilda yana ushbu qurtlar paydo bo’lub, butun barglarini yeb biturorlar. Va bundan daraxtlar yalong’och qolub qurumoq va halok bo’lmoqlari lozim kelur albatta. Endi ko’rosiz bog’larning va o’ruklarning salomat bo’lmog’ini sizning qo’lingizda ekan. Sabablarig’a kirishub ijti hod qilg’oningizda halokatdan qutulmoq mumkin ekan. Emdi shundog’ bo’ladurgon bo’lsa siz maslahat va aql bergonlarning so’zlarig’a muvofiq amal qilinglar va fikrlarig’a qo’shil-inglar. Ul vaqt bog’chalaringiz halokatdan qutqormish bo’lursiz albatta” deb xalqqa murojaat qiladi [13].

Gazeta sahifasida “Idoradan” nomli xabarda ba’zi shaharlarning aksariyat bog’larida mevalik daraxtlarga shira tushganligi, chumoli bosib yosh daraxtlarni barglarini yeb zarar keltirayotganligi bayon qilinadi. Gazeta tahririyati xodimlari bunday ofatlarni oldini olish, mevalik daraxtlarni salomat qolishi uchun nima qilish lozimligi, shira tushishi va uning paydo bo’lishi sababini aniqlash borasida mahalliy va rus tabiatshunos mutaxassislari ga murojaat ko’rinishida xabar berib, bularning oldini olish borasida zarur maslahatlarini bersalar umumxalqqa katta yordam bo’lishini ta’kidlab, agarda daraxtlar va ekinlarga tushgan bu kabi zararlar va hasharotlarga qarshi kurash yo’llarini biladigan mutaxassislarni idoraga kelishlarini bildiradi [14].

Turkiston o’lkasidagi uzumzorlar, bog’lar va qishloq xo’jaligi ekinlariga chigirtkalarining yetkazayotgan zararlari haqida gazeta sahifalarida muntazam xabarlar berib borilganligini alohida ta’kidlash lozim. Gazetaning 1914-yildagi 16-sonida Golodnoy stepda va Ulinskiy, ko’hna Gvardskiy qishloqlari atrofida 20 desyatina, Xo’jand uezdida Dorogomir stansiyasi atrofida 300 desyatina yerda chigirtka paydo bo’lganligi, ushbu zararkunandalarni yo’q qilish maqsadida mutaxassislar va texnikalar yuborilganligi to’g’risida bayonot berilgan. Shuningdek, xabarda, Xo’qand uezdining ayrim yerlarida chigirtka paydo bo’lganligi, Samarqand va Kattaqo’rg’on uezdlarida chigirtkalar-ga qarshi kurash olib borilib, ularni halok qilinganligini ta’kidlangan[15].

Gazetaning “Turkiston xabarlari” deb nomlangan turkumida berilgan ma’lumotga ko’ra, Xo’jand, Chakmand uezdlarining ba’zi yerlarida chigirtkalar paydo bo’lib, ekinlarga katta ziyon yetkazganligi, Xo’qand uezdining ba’zi bir qishloqlarida esa chigirtkalar zohir bo’lib, bog’larga zarar yetkazishni boshlaganligi, buning oldini olish uchun Toshkent entomologiya stansiyasi tomonidan jiddiy chora-tadbirlar qilinayotganligi bayon etiladi[16].

Xivadagi paxtachilikning ahvoli haqida berilgan xabarda suv tanqisligi sababli 1914-yil Xivada paxta

ekish ishlari nihoyatda kech qolganligi, ba'zi yerlarda umuman paxta ekilmaganligi, paxta ekilgan yerlar o'tgan yilgiga qaraganda ancha kam ekanligi, paxta ekilgan ayrim dalalarda yangi chiqqan go'zalarga qurt tushganligi bayon etilgan. Paxtaga bo'lgan talabning yuqoriligi sababli Xivadagi o'tgan yilda yetishtirilgan paxta to'liq sotib bo'linganligi, paxtani tashish haqqi ya'ni, Urganchdan Chorjo'ygacha bo'lgan masofa oralig'ida har bir pud paxta uchun 35-60 tiyin ekanligi ko'rsatib o'tilgan [17].

"Uzum bog'chalarining zararlanmog'i" deb nomlangan xabarda 1914-yilda Toshkand uezdining bir qancha yirik uzum bog'larida uzumlar zararlanishi boshlanganligi aytilib, bu ofatni oldini olish maqsadida bir qator chora-tadbirlar ko'rilganligi, xususan Toshkent entomologiya stansiyasi tomonidan tajribali mutaxassislar tayinlanib, ular 1914-yilning may va iyun oylarida Sirdaryo hamda avgust oyida Farg'ona viloyatlaridagi uzumzorlarda zararkunandalarga qarshi kurash olib borishlari haqida ma'lumot berilgan [18].

Gazetada Toshkent entomologiya stansiyasining xabar berishicha, "Golodnoy stepda ekinlarning halok qiladurgon "xaltalik" ismida yangi bir qurt zohir bo'lg'on ekan. Bul qurt o'zi bir tumorcha xalta ichida bo'lur ekan. Zohir bo'lmog'i yangi bo'lsa ham nihoyatda ko'payib ketgan ekan" deyiladi. Toshkent entomologiya stansiyasi mudiri ayni kunlarda shaxsan o'zi holatni o'rganish maqsadida Golodnoy stepga ketganligi, stansiya mutaxassislari tomonidan muammoni oldini olish bo'yicha rejalar tayyorlanayotganligi ta'kidlanadi.

Entomologlar ushbu yangi xaltalik qurt yo'lida nima to'g'ri kelsa, uni yeb bitirishini aytib, Parijskiy zelen dorisi bilan chigirtkalarni yo'q qilinganidek, uni ham shu dori bilan yo'qotish mumkinligini aytadilar. Shuningdek, bu qurt o'zi juda yirik bo'lganligi bois, kam tarqagan yerlardan qo'l bilan yig'ishtirib olish yoki yung'uchqa ekib, yung'uchqani Parijskiy zelen bilan sug'orish orqali ham yo'qotsa bo'lishini aytadilar.

Mutaxassislar bu qurt bilan birinchi marotaba kurashilayotganligi bois, chigirtkalarni yo'qotishda foydalanilgan qo'l mashinalarini yuborib, ularga qarshi kurashda qo'llab ko'rishlarini bildiradilar. Entomologlarning fikricha, yangi qurtdan hozircha Golodnoy stepda ekinlar o'sib chiqmaganligi bois, ziyon kelgani yo'qligini, ekinlar unib chiqqanidan keyin albatta, ushbu qurtlar katta zarar keltirishi aniqligini aytib, bu hududlarda sug'oriladigan yangi yerlar o'zlashtirilganligi, muhojirlarga bo'lib berilib, ekin ekish ishlari boshlanganligini inobatga olinsa, bu kabi zararkunandalarni yo'q qilish uchun albatta, kurashish lozimligini qishloq xo'jaligi xodimlariga hamda yer egalariiga uqtirib o'tadilar [19].

Xulosa qilib aytganda, XX asr boshida Turkiston

o'lkasidagi ekologik holat, qishloq xo'jaligining ahvoli hamda ekinlarga ziyon keltiruvchi turli zararkunandalarga qarshi kurash tarixiga oid ma'lumotlarni o'rganishda "Sadoi Farg'ona" gazetasi muhim manba sifatida xizmat qiladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. *O'zbekiston hududida tabiiy fanlar yo'nalishidagi ilmiy tadqiqotlar va ekspeditsiyalar (XIX asr – XX asr boshlari) [Matn] / loyiha rahbari D.H.Ziyaeva. – Toshkent: Akademyashr, 2019. – B.239-240.*
2. *Xo'qand xabarlar. // Sadoi Farg'ona. 1914-yil16-may.*
3. *Bog'dorlar daftarina. Xo'qand xabarlar. // Sadoi Farg'ona. 1914-yil16-may.*
4. *Yana zararlik qurtlar. // Sadoi Farg'ona. 1914-yil, 19-son.*
5. *Bog'larga ziyon etkuzgon qurtlar bilan olishmoq uchun kredit (qarz). Turkiston xabarlar. // Sadoi Farg'ona. 1914-yil 7-may*
6. *Turkiston xabarlar. // Sadoi Farg'ona. 1914-yil 7-may.*
7. *Idoraga maktublar. // Sadoi Farg'ona. 1914-yil 7-may.*
8. *Zararlangan daraxtlarni dori bilan sug'ormoqlik. Turkiston xabarlar. // Sadoi Farg'ona. 1914-yil 9-may.*
9. *Беседы по садоводству / А. А. Дылевский; Г.У.З. и З. Дед. земледелия. - Ташкент: Тип. при Канц. турк. ген.-губерн., 1914. - 16с., Абрикосовые сады в Кокандском уезде Ферганской области / А. Дылевский. - Ташкент: Тип. при Канц. ген.-губ., 1917. - 13 с.*
10. *O'ruklik bog'larning halokati to'g'risida Dilevskiy janoblarning maktublari. // Sadoi Farg'ona. 1914-yil 27-aprel.*
11. *Xo'qand 27-aprel. // Sadoi Farg'ona. 1914-yil 27-aprel.*
12. *O'ruk va pillalar haqida. // Sadoi Farg'ona. 1914-yil 2-may.*
13. *Anton Dilevskiy. O'ruk bog'larning halokati to'g'risida "Dilevskiy"ning ikkinchi maktubi. // Sadoi Farg'ona. 1914-yil 4-may*
14. *Idoradan // Sadoi Farg'ona. 1914-yil 4-may.*
15. *Chigirtka // Sadoi Farg'ona. 1914 yil. 16-son.*
16. *Chigirtka. Turkiston xabarlar. // Sadoi Farg'ona. 1914-yil18-iyun.*
17. *Xiva paxtasi. Har xil xabarlar. // Sadoi Farg'ona. 1914 yil. 19-son.*
18. *Uzum bog'chalarining zararlanmog'i. Turkiston xabarlar. // Sadoi Farg'ona. 1914-yil1 iyun.*
19. *Ziyonchi qurtlarning yangisi. Turkiston xabarlar. // Sadoi Farg'ona. 1914-yil 18-iyun.*

## TARJIMADA MAKON VA ZAMON TALQINI

*Tabiatda, odamzod hayotida bo'ladigan har qanday voqea, har qanday harakat vaqt bilan uzviy bog'liqlikda kechadi. Vaqt tushunchasi ichra kecha, bugun va erta mavjud ekan, barcha kechinmalar ana shu o'tgan, o'tayotgan va o'tajak vaqt birligi kesimida sodir bo'ladi. Tabiiy vaqt xronologik tartibda kechadi. Va har bir harakat o'z soati bilan peshma-pesh, navbatma-navbat aylanib turaveradi. Ulug'bek Hamdam "Tomchiman bir... Dengizga tashna" Jaloliddin Rumiyning "Majolisi sab'a" – "Yetti majlis" asari haqida [1]gi maqolasida ayni shu harakat haqida yozadi: "...bir tomchi suvning ummondan bug'lanib chiqib, ona sayyoramizning qaysi bir go'shasida yomg'ir bo'lib yog'ishi, xiyol o'tmay zamin qa'riga singishi-yu haftalar so'ngra o'simliklar tanasida ko'z ochishi, keyinroq esa meva, sabzavot, maysa shaklida maxluqot organizmiga kirishi, undan yana tuproqqa inishi va ayni shakldagi harakatini takrorlay-takrorlay vaqti-soati yetib, tag'in o'z vatani hisoblanmish o'sha ummon bag'riga qaytib kelishi... Bu – tomchining umri haqidagi ajoyib sarguzasht-hikoya edi men uchun". Demak inson ham xuddi hikmatdagi kabi "tug'ilishi bilan ummondan ayrilgan bir suv tomchisi holiga keladi va o'lim orqali yana o'z vataniga qaytadi!" Inson kunlardan iboratdir. Har bir o'tgan kun bir qismning ketganidan dalolatdir. Vaqt hech qachon betaraf bo'lmaydi. Har bir o'tgan vaqt insonning yo foydasiga yoki zarariga bir hujjat bo'ladi.*

**Guljahon NAMOZOVA,**  
O'zRFA O'zbek tili,  
adabiyoti va  
folklori instituti  
tayanch doktoranti

**B**adiiy adabiyotda esa vaqt hodisasi sal o'zgacha shaklda namoyon bo'ladi. Voqealar xronologik tartibga bo'ysunmaydi. Badiiy asardagi vaqt yozuvchi shuurida tug'ilib, qahramonlar hatti-harakati, xarakteri, asar kompozitsiyasida yuzaga chiqadi. Badiiy vaqtni astronomik vaqt o'lchovlaridan izlash maqsadga muvofiq emas. Haqiqiy hayotda kecha o'tgan kunni bugun, bugunni esa ertaga ortga qaytarib bo'lmaydi. Badiiy adabiyotda esa hammasi o'zgacha – bundan besh yuz yoki ming yil ilgari tarixga qaytish va xayollar ichra kelajakka ham sayohat qilish mumkin.

Badiiy asarda vaqt zamon, makon va harakat tizimida ishtirok etadi. Yozuvchi tomonidan yaratilgan badiiy makon esa harakat sodir bo'ladigan dunyoning tasviridir. Harakatdagi borliq ma'lum bir zamonda va makonda mavjuddir. Ayni shu mavjudlik zamirida ham vaqt tushunchasiga ro'baro' kelamiz. "Vaqt materiyaning yashash shakli sifatida moddiy dunyodagi jarayonlarning uzluksizligini xarakterlaydi. Ob'ektiv ravishda birin-ketin bo'lib o'tgan, bo'layotgan va kelgusida bo'ladigan jarayonlar yig'indisi dunyoning uzluksiz yashashi va rivojlanishi asosida yotadi. Vaqt bir o'lchovli bo'lib, faqat bir tomonga, ilgoriga qarab boradi" [2].

Badiiy vaqt esa "... suyuqlardan tashkil topgan voqealar o'zagida hosil bo'lib, unda har bir personaj xuddi real ob'ekt singari o'zining individual vaqtiga ega bo'lgan bir necha vaqtlar yig'indisini tashkil qiladi" [3]. Makon – vaqt bilan uzviy bog'liq bo'lgan ob'ektiv dunyoning mavjudligidir. Vaqt harakatda ekan, asarda

makon ham vaqt bilan hamohang o'zgarib boraveradi. Bu hamohanglik ilmiy adabiyotda xronotop (grek. Chronos – vaqt va topos – makon) deyiladi. Adabiyotshunoslikda bu nazariyani ilk bor M.M.Baxtin ilgari surgan. Olim o'zining “Формы времени и хронотопа в романе. Очерки по исторической поэтике” [4] nomli maqolasida “Существенную взаимосвязь временных и пространственных отношений, художественно освоенных в литературе, мы будем называть *хронотопом* (что значит в дословном переводе – “время пространство”). Термин этот употребляется в математическом естествознании и был введен и обоснован на почве теории относительности (Эйнштейна). Для нас не важен тот специальный смысл, который он имеет в теории относительности, мы перенесем его сюда – в литературоведение – почти как метафору (почти, но не совсем); нам важно выражение в нем неразрывности пространства и времени (время как четвертое измерение пространства). Хронотоп мы понимаем как формально-содержательную категорию литературы (мы не касаемся здесь хронотопа в других сферах культуры)” deb yozadi. Olim badiiy olamdagi vaqt va makonni xronotopning ikki tomoni sifatida baholagan. Hamda zamoniy va makoniy belgilar bir butun sifatida anglanadi. Bu erda vaqt zichlashadi, qisqaradi, badiiy ko'rinishli bo'ladi.

Adabiyotshunoslikda keyingi yillarda tarjima xronotopi masalasiga keng e'tibor qaratilmoqda. Tarjima xronotopi endi o'rganila boshlangan yangi sohadir. “Tarjima xronotopi” [5] terminini fanga ilk marta L.V. Kushnina kiritdi. U olimlarning xronotop borasidagi mulohazalari, tarjimada makon va zamon konsepsiyasiga asoslangan holda tarjimada zamon va makonni yaxlit holda o'rganish uchun ushbu tushunchani ilmiy foydalanishga kiritdi. Tarjima xronotopi, deb tushuntiradi olim, dunyo tarjima olamini tushunish natijasidir. Bunda tarjima olami manzarasi va ikki til (asl matn va tarjima matni – G.N) madaniyati hamda ularning har biriga xos bo'lgan makon-zamon xususiyatlari anglanadi. Tarjimada makon bu tarjimon o'zini topadigan muhit bo'lib, uning vazifasi asl matn tarkibidagi ma'nolar to'plamini o'zlashtirish va ularni tarjima matni o'z ichiga olishi kerak bo'lgan boshqa ma'nolar to'plamiga aylantirishdir [6]. Tarjimon tillararo va madaniyatlararo aloqalar, o'zaro ta'sir jarayonidagi o'ziga xos markaziy figuradir. Binobarin, tarjima xronotopi madaniyat va tillar orasidagi tarjimon-voisitachining o'ziga xos namunasidir. Tarjimon o'ziga madaniyat va makoniy birliklarni ona tilida berishda mediator vazifasini bajaradi.

Muammoga vaqt va zamon birliklar kontekstida yondashib, fikrlarimizni asardan olingan parchalar bilan izohlashga harakat qilamiz. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, tarjima ko'p bosqichli jarayon ekan bunda har bir tarjimon alohida shaxsiyat sifatida asarda tafak-

kur tarzidan kelib chiqib yondashadi. Oybek Navoiy dahosini o'zi yashagan tarixiy-adabiy jarayon kontekstida tasvirlagan. Tasvirda turkiy xalqlar madaniy tafakkuri mahalliy va diniy qadriyatlar tizimi asosida beriladi. Rus tilidagi tarjimalarda esa tarjimonlar o'zi mansub millat nuqtai nazaridan talqin etadi, xitoy tarjimonlar ulardan farqli ravishda o'z mentalitetidan kelib chiqib yondashadi. Masalan, bir o'rinda *so'fi* so'zi, ruschadan *sufi*, xitoychada esa *monax* tarzida ifodalanadi. Oybek vaqt birliklarini ifodalashda diniy urf-odatlar doirasida fikr yuritisa, tarjimonlar bu hodisani mohiyatini anglab anglamay o'z tushunchalari qamrovida talqin qiladi. Vaqt birliklari ifodasi tasvirining bu tarzda hal etilishi tarjimonlar uchun yangi imkoniyat bo'lishi mumkin. Sababi ular bir vaqtning o'zida asardagi badiiy vaqtni ko'rsatsa, ikkinchi tomondan mahalliy xalqning o'ziga xos qadriyatlar tizimini ko'rsatadi va tanishtiradi.

“Navoiy” romanida mutafakkir hayotining so'nggi o'ttiz yili tasvirlanadi. U do'sti Husayn Boyqaroning hukmronlik yillariga to'g'ri kelgan bu yillarning asosiy qismini o'zining Hirotida o'tkazadi. O'z sevikli shahrini ta'rifu tavsif etish uchun Navoiy butun iste'dodini ishga soladi, tengsiz ifodalar topadi va uni o'z asarlari ruhiga singdiradi. Romanda shahar xronotopi old planda turadi. Oybek Hirotni shunday tasvirlaydiki, shaharning har bir burchagi ko'z oldingizda gavdalanadi. Yozuvchi buyuk shaxsga aloqador nimaiki bo'lsa, barini sinchkovlik bilan o'rganadi. Oybek “Hirotni xaritasini oldiga qo'yib, ko'hna shahar ko'chalarini xayolan necha martalab kezib chiqardi. Navoiy zamondoshlari, ularning shoir haqida aytgan gaplari, saroy ziddiyatlari, do'stlari va dushmanlari, podshohning beqaror o'ylari, bari-bari Oybek xotirasiga o'rnashib qoldi” [7]. Xuddi Navoiy kabi Oybek ham romanda Hirotni juda go'zal, shoirona tasvirlaydi: “Mehmonlar kechga tomon tarqalishdi. Alisher Binoiyni olib qoldi. Quyosh ufqda alangada edi. “Unsiya” ajoyib edi. Bir nafas kezgali chiqdilar”.

Tarjimon Vang Jeng Jong jummalarni quyidagicha tarjima qiladi.

客人们傍晚时散去，纳沃依留下了比那依。夕阳在地平线上烧，“友谊院”异常美丽，他们走出来散一会儿步。(Kèrénmen bàngwǎn shí sǎn qù, nà wò yī liú xiàle bǐ nà yī. Xīyáng zài dìpíngxiàn shàng shāo. “yǒuyì yuàn” yìcháng měilì. tāmen zǒu chūlái sǎn yīhuǐ'ér bù). Kechga yaqin mehmonlar tarqalishdi, Navoiy Binoiy bilan qoldi. Ufqqa botayotgan quyosh alanganmoqda, “Do'stlik uyi” nihoyatda chiroyli edi, ular bir muddat tashqariga chiqdilar.

Tarjimon muallif fikrini to'liq tushungan va kitoxbonga aniq etkazishga harakat qilgan. “Kechga tomon”ni 傍晚时 (bàngwǎn shí) – под вечер, к вечеру [8] deb to'g'ri tarjima qilgan. “Quyosh ufqda alangada edi”... Romanda yozuvchi turli shoirona go'zal ifodalar ila quyoshni buyuk siymoga hamroh qiladi.

Bu jumlada muallif kun botish oldidan quyoshning holatini va vaqtni juda nafis ifodalaydi. Tarjimon bir o'qishda boshqa til vakiliga tushunish qiyin bo'lgan ushbu shoirona tashbehni aniq angelaydi va aniq tarjima qiladi: 夕阳在地平线上烧 (Xīyáng zài dìpíngxiàn shàng shāo) – Ufqqa botayotgan quyosh alangalanmoqda... “Unsiya”ni aynan *unsiya* emas, “友谊院” “yǒuyì yuàn”—“Do'stlik uyi”, deb tarjima qiladi. Tarjimonning bu yerda qo'shimcha izlanganini bilib olish qiyin emas. U jumlada “Unsiya” so'zining tarjimasini berib ketadi. Fikrimizcha, tarjimon tutgan yo'l to'g'ri. Xitoylik kitobxonga “Unsiya”dan ko'ra “do'stlik uyi” ko'proq tushunarliroq bo'ladi. Manbalarda hazrat yashagan uy shunday nomlangani haqida ma'lumotlar bor. Jumladan, “Hirotda hazrat Alisher Navoiy yashagan uyga tarixiy manbalarda, xususan, “Boburnoma”da ham “Unsiya” (“unsiya” arabcha so'z bo'lib, “ulfat”, “chin do'st” degan ma'noni bildiradi – B.R.) deb nom berilgani zikr etiladi. Ya'ni bu qutlug' dargoh do'stlar, ijod ahli, ustoz va shogirdlar suhbat qaradigan ezgulik, xayru ehson hamda ilm-ma'rifat maskani hisoblangan” [9]. Bobur Mirzo “Boburnoma”da ham “Bu yigirma kunda mashhur sayrgohlardan bir Sulton Husayn Mirzoning xonaqohidin o'zga er ko'rumagan shoyad qolmadi ekin. Gozurgoh va Alisherbekning bog'chasi va juvozi qog'oz va Alisherbekning o'turur uylarikim, “Unsiya” derlar, maqbara va masjidi jome'nikim, “Qudsiya” derlar”, deya Hirotda Alisher Navoiy barpo ettirgan maskanlarni bir-bir sanab, ularni ziyorat qilganini aytadi.

Vang Jeng Jong tarjimada asarning rus tilidagi o'girmalaridan foydalangan bo'lsa-da, ushbu jumlar tarjimasida asliyatga murojaat qilgan. Boisi rus tarjimoni M. Sale asarning yigirma birinchi bob, birinchi bo'linmasining (paragraf) oxirida “Mehmonlar kechga tomon tarqalishdi”, deb boshlangan Navoiy va Binoiy suhbat berilgan abzatsdan to shu bo'linma tugaguncha yozilgan etti abzatsni umuman tarjima qilmagan (romanning asl nusxasi va M.Sale tarjima qilgan rus tilidagi namunasi 21-bobi oxirini solishtirish mumkin).

Tarjimon Xao Guang Jong jumlaning quyidagicha tarjima qilgan: 份晚时候，客人们散了。艾里谢尔让毕纳依留了下来。夕阳得西方天边一片火红，映展得“温斯耶”绚丽无比，宾主二人外敷步。(Fèn wǎn shíhòu, kèrénmen sànlè. Ài lǐ xiè ěr ràng bǐ


nà yī liúle xià mǐ. Ta yáng dé xīfāng tiānbiān yīpiàn huǒhóng. yīng zhān dé “wēn sī yé” xuānlǐ wúbǐ. bīnzhǔ ěr rén wài shù bù). (249-b) Kechga tomon mehmonlar ketdilar. Alisher Binoiy olib qoldi. Quyosh g'arbda qip-qizarib turardi. Bu paytda “Unsiya” ajoyib edi. Mehmon va mezbon ikkowlashib sayr qildi. Tarjimadan ko'rinib turibdiki, Xao Guang Jong ham vaqtni aniq bergan. Faqat “Unsiya”ni o'z holicha, aslidagidek qoldirgan. Unsiyaga izoh ham berilmagan. Bu esa kitobxonda tushunmovchilik tug'dirishi mumkin. Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, Tarjima xronotopi tarjima olamini o'zlashtirish jarayonining natijasi bo'lib, o'zida zamon va vaqt birliklarini ifodalovchi ona tili va madaniyati va boshqa tomondan o'zga til hamda madaniyatining yaxlit manzarasini akslantiradi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

Ulug'bek Hamdam. Tomchiman bir...dengizga tashna | Xurshid Davron kutubxonasi (kh-davron.uz)

1. Falsafa. Qomusiy lug'at. – Toshkent: Sharq NMK, 2004. – B.69
2. Umarova M. Tarixiy dramada badiiy vaqt: Shekspir va Fitrat. – Toshkent: Mumtoz so'z, 2013. – B. 16.
3. Бахтин М. М. Вопросы литературы и эстетики. – М.: Худож. лит., 1975. – С.234-407.
4. Кушнина Л. В. Переводческий хронотоп: творчество vs стереотип / Л. В. Кушнина // Стереотипность и творчество в тексте: Межвуз. сб. науч. трудов / Под ред. М. П. Котуровой; Перм. ун-т. Вып. 11. – Пермь, 2007. – С. 77 – 88.
5. Кушнина Л.В. Теория гармонизации: опыт когнитивного анализа переводческого пространства. Пермь, 2009.
6. Ahmad S. Shu'la. Oybek zamondoshlari xotirasida. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2005. 52-b.
7. Котов А. В. Новый китайско-русский словарь. 新汉俄词典。Москва: Русский язык медиа. 2004г. с-13
8. Rajabova B. “Navoiy yashagan uy”// “O'zbekiston adabiyoti va san'ati” gazetasi, 2015-yil 46-son

# REKLAMA MATNIDA IMPERATIVLIK IFODALANISHINING PRAGMALINGVISTIK MASALALARI



**Kamola YUSUPOVA,**  
O'zbekiston Jurnalisti-  
ka va Ommaviy  
Kommunikatsiyalar  
universiteti mustaqil  
izlanuvchisi

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada tilshunoslikning nutqda til birliklarining vazifasini o'rganadigan lingvistik pragmatika (pragmalingvistika) ning maqsadi, ya'ni, "tilni matnda o'rganish"- ijtimoiy-ruhiy va hokazo aloqa vositasi sifatida tilni o'rganishdan iborat ekanligi tahlil qilindi, reklama matnlari esa bundan tashqarida qolishi mumkin emasligi ta'kidlanadi.

**Kalit so'zlar:** reklama, matn, imperativlik, antroposentrik, pragmalingvistika, performativ, lokutiv, illokutiv, perlokutiv

**Аннотация:** В данной статье приводится анализ того, что основная цель лингвистической прагматики (прагмалингвистики), изучающей функции языковых единиц в речи (изучение языка на материале текста), заключается в исследовании языка в качестве социально-психологического и т.п. средства общения. Утверждается, что в рамки её изучения входят и рекламные тексты.

**Ключевые слова:** реклама, текст, императивность, антропоцентричный, прагмалингвистика, перформативный, локутивный, иллокутивный, перлокутивный

**Annotation:** This article analyzes the fact that the purpose of linguistic pragmatics (pragmalinguistics), which studies the function of linguistic units in speech, the "learning of language in the text" - the study of language as a means of socio-psychological and emphasizes other communication, and advertising texts can not be left out.

**Key words:** advertising, text, imperative, anthropocentric, pragmalinguistics, performative, locutive, illocutive, perlocutive.

**O**'zbek tilshunosligida imperativlik tushunchasiga nisbatan umumiy qarash mavjud. Shuning uchun ham milliy qomusimizda *imperativ* lotincha *imperativus*, ya'ni buyuruvchi so'zidan olinib, talab, buyruq, qonun ma'noni anglatishi, nemis faylasufi I.Kant "Amaliy aqlni tanqid" (1788) asarida imperativni etika tushunchasiga kiritgani, unga ko'ra, shaxsiy prinsip (maksima)ga qarama-qarshi o'laroq, imperativ hammaga majburiy bo'lgan rasmiy axloq-odob talabi ekani qayd etilgan[1]. Shuningdek, ushbu mandan imperativ shartli va qat'iy imperativga bo'linishi, shartli (taxminiy) imperativ ma'lum shart-sharoitlardagina amal qilishi, qat'iy imperativ muqarrarlik (bo'lishi keraklik)ni ifoda etishi, u yurish-turishda rioya etilishi kerak bo'lgan shakl va qoidani belgilab berishi haqida ma'lumotlarga ega bo'lamiz. Shuningdek, ushbu termin A.Hojievning "Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati"[2] dan joy olmaganining tilshunoslik doirasida keng iste'molga kirmaganidan darak beradi. Qirg'iz

olimi A. Abdulatov dissertatsion ishining ikkinchi bobi "Imperativ kognitiv-lingvistik kategoriya sifatida" deb nomlanib, unda imperativ tushunchasi buyruqni anglatib, falsafada, etikada, lingvistika, pedagogika va boshqa sohalarida ishlatilishi, u, xuddi shuningdek, dinshunoslikka oid termin ekani ham qayd etiladi [3]. "Ruscha-o'zbekcha lug'at" da bu tushunchaga falsafiy termin sifatida qat'iy talab, amr, buyruq hamda grammatik termin sifatida buyruq mayli [4] deb izoh berilgan. Shu o'rinda "imperativ lingvistika termini sifatida aynan buyruq maylini ifodalaydimi yoki ular o'rtasida muayyan ma'no farqi bormi, agar bor bo'lmasa nimalardan iborat, yo'q bo'lsa, mutlaq bir xil ma'no anglatuvchi ikki terminni qo'llashdan maqsad nima?" kabi qator savollarga javob topish kerak bo'ladi.

Bugunga qadar yaratilgan grammatikaga oid darslik, o'quv qo'llanma va boshqa tip adabiyotlar ichida buyruq gaplarga berilgan ta'riflar ichida "O'zbek tili grammatikasi" da keltirilgan quyidagi ta'rif o'ziga xosligi bilan e'tiborni tortadi: "Buyruq gaplar kishining xohishi, iltimosi, maslahati, buyrug'i kabi turli *niyatlarini* (ta'kid bizniki – K.Yu.) ifodalab keladi" [5]. Alohida ta'kidga bo'lgan jihat ushbu ta'rifdagi *niyat* tushunchasi aynan hozirgi vaqtda tilni inson vujudi bilan bog'liq holda tahlil qiluvchi antropotsentrik tadqiq alomatlarini zohir qilib turibdi. Haqiqatan, imperativlikni yuzaga keltiruvchi omil *niyat*dir. Shuning uchun ham imperativlik turli shakllarda ifoda qilina oladi. Agar ushbu omil birlamchi bo'lmaganda uning ifoda shakllari cheklangan bo'lardi. Ana shu o'rinda, nazarimizda, yuqoridagi savollarimizning biriga bir qadar qoniqarli javob olamiz: birinchi navbatda, imperativ inson tabiatiga, buyruq mayli esa til tabiatiga xos tushunchalardir. Qolgan ajratuvchi belgilar mana shu bosh mezon asosida vujudga kelib boradi.

Mana shu kabi jihatlarni e'tiborga olib, jahon tilshunosligida imperativlikni funksional-semantik kategoriya sifatida o'rganishga katta e'tibor qaratilgan. Masalan, A.I. Izotov imperativlikni funksional-semantik kategoriyasini pragmalolingvistik fenomen sifatida o'rgangan [6]. Zero, pragmatika semiotika va tilshunoslikning nutqda til belgilarining amal qilishini o'rganuvchi sohasi; boshqacha aytganda, muayyan belgilar tizimini o'zlashtirib, undan foydalanuvchi sub'yektlarning ayni shu belgilar tizimiga munosabatini o'rganuvchi fan tarmog'idir. Tilshunoslikning nutqda til birliklarining vazifasini o'rganadigan lingvistik pragmatika (pragmalolingvistika) ning maqsadi "tilni matnda o'rganish" ijtimoiy-ruhiy va hokazo aloqa vositasi sifatida tilni o'rganishdan iborat ekan, reklama matnlari bundan tashqarida qolishi mumkin emas.

Umuman, rus tilshunosligida keyingi davrlarda bajarilgan, sarlavhasida "imperativ" (imperativ), "imperativный" (imperativ), "pobujdenie" (buyruq), "pobuditelный" (undov gap), "direktiv" (buyruq, ko'rsatma), "direktivный" (direktiv) terminlari tarkibli 47 ta

dissertatsiya mavjudligini ko'ramiz [7]. Misol tariqasida A.V. Bondarko imperativlikning funksional-semantik maydoni va imperativ vaziyat tushunchalari ustida tadqiqot olib borgan bo'lsa, V.S. Xrakovskiy va L.A. Biryulin tomonidan tahlil qilingan buyruq anglatuvchi birliklarning nutq aktidagi o'rni nazariy jihatdan asoslangan hamda istak (niyat) ning semantik interpretatsiyasi (ma'noviy talqini) ga ta'sir qiluvchi pragmatik omillar sanab berilgan [8].

E'tibor qaratadigan bo'lsak, imperativlik tadqiqi aslida jamiyatda kishilar o'rtasida bo'ladigan o'zaro nutqiy akt faoliyatining jadal rivojiga yetarlicha naf keltira oladigan mavzulardan sanaladi. Chunki buyruq gaplardan foydalanishda so'zlovchi va tinglovchi o'rtasidagi o'zaro aloqa munosabatlari muhim ahamiyat kasb etishi shubhasiz. Odatda, buyruq gap deyilganda so'zlovchi tomonidan tinglovchiga nisbatan qo'yiladigan talab yoki buyruq va ularning amalda o'z ifodasini talab qilinishini anglatadigan holat tushuniladi. Lekin ayrim tillarda til sohiblarining mental xususiyatlaridan kelib chiqib bunday jarayon ba'zan so'zlovchining tinglovchiga bo'lgan yaqin va do'stona munosabatini anglatuvchi grammatik shakl sifatida ham xizmat qilishini ko'rishimiz mumkin. Masalan, "Safardan qaytgach otam: "Sen, biror kun dam ol", – deganlarida xursand bo'ldim". Ana shu jihatini e'tiborga olganda, buyruq shakllari o'zbek tilida ham ko'pgina Sharq tillari kabi: a) mavqei baland shaxslar tomonidan jamoaga nisbatan tayinlanadigan buyruq; b) davlat tashkilotlari tomonidan o'rnatiladigan qonun-qoidalarni aks ettiruvchi buyruq; v) tashkilotlar tomonidan maxsus shaxslarga yuklatiladigan vazifalarning amalda natijalarini aks ettirishni talab qiladigan buyruq; g) rahbar lavozimidagi shaxs tomonidan, ish yuzasidan, xodimga nisbatan tayinlanadigan buyruq; d) huquqiy qonun-qoidalarga oid buyruq kabilarda ko'p ishlatiladi.

Reklama matnlaridagi buyruq ifodasi alohida tipni tashkil qiladi. Dunyoning ko'pgina tillarida buyruq gap darak gap, so'roq gap, his-hayajon gaplar qatori gapning bir turi sifatida talqin qilinadi. Bunday gaplarning bir-biridan farqli jihati shundan iboratki, darak gap va so'roq gaplarda zamon tushunchasi mavjud, ya'ni so'zlovchi nutqini zamonlarda tuslash va ish-harakatning sodir bo'lgan vaqtini aniq ko'rsatish imkoniga ega bo'ldi. Odatda, darak gap va so'roq gaplarda tinglovchi so'zlovchi tomonidan bayon etilgan fikrga nisbatan javob qaytaruvchi shaxs sifatida namoyon bo'ladi. His-hayajon gaplar esa so'zlovchining hissiyatini aks ettiruvchi fikr bayon qilingan vaqtda va zamon tushunchasida o'z ifodasini topadi. Boshqacha aytganda, hayajonni ifodalovchi jummalarni zamonlarda tuslay olmaymiz va bunday gaplar uchun tinglovchi so'zlovchining nutqiga nisbatan javob qaytarishi shart bo'lgan shaxs sifatida ishtirok etishi ham muhim ahamiyat kasb etmaydi. Buyruq gaplarda esa, bun-

ing aksi bo'lib, so'zlovchi tomonidan bayon qilingan buyruqni amalga oshiruvchi shaxs sifatida tinglovchining ishtiroki muhim hisoblanadi. Buyruq gapning his-hayajon gapdan farqli tomoni bilan bir qatorda, ularning o'zaro o'xshash jihatlari ham mavjud: odatda, buyruq gap va his-hayajon gaplar doimo fe'lning hozirgi zamon shaklida nutqimizda namoyon bo'ladi va shu holicha tinglovchiga yetkaziladi. O'zbek reklama matnlarida ko'pincha "buyruq" deganda so'zlovchi tinglovchini biror-bir harakatni amalga oshirishga va uning natijasini amalda namoyon qilishga undash kuzatiladi. Aslida "buyruq beruvchi" (reklama egasi) va "buyruq beriluvchi" (tinglovchi, o'quvchi)ning o'zaro munosabatini, mantiqan chuqurroq o'ylaydigan bo'lsak, quyidagi holat bo'yicha tahlil qilishimiz mumkin: a) so'zlovchining nutqi tinglovchi tomonidan bajarilishi shart; b) so'zlovchining nutqi tinglovchi tomonidan bajarilishi ixtiyoriy; v) so'zlovchining nutqi tinglovchi tomonidan bajarilgani ma'qul. Bu holatlarning qaysi biri amalga oshirilishi reklama matni mazmuni, turi, muassasa, shaxslar munosabati kabi juda ko'plab omillarga bog'liq. Masalan, reklama matni vakolatli rasmiy idora tomonidan berilgan bo'lsa, so'zlovchining nutqi tinglovchi tomonidan bajarilishi shart holati amal qiladi. Ichki ishlar vazirligi tomonidan taqdim qilingan reklama yakunidagi "Korrupsion holatlarga yo'l qo'ymang!" jumlasini qayd etilgan birinchi holatga; "Jaziramada Fanta iching!" jumlasini ikkinchi holatga; "O'zingizda ushbu alomatlarni his qilsangiz, darhol tibbiyot xodimlarini xabardor qiling" jumlasini uchinchi holatni aks ettiradi.

"Bir umr sog'lom bo'lay desang, baliq e" jumladagi buyruq shaklda qo'llanilgan "e" fe'lida buyruqni emas, shunchaki maslahat yoki taklifni anglatuvchi ma'noni ko'rishimiz mumkin. Tilimiz kommunikatsion xususiyatlaridan kelib chiqib aytadigan bo'lsak, so'zlovchi nutqida aks ettirilayotgan buyruq shakldagi so'zlar tinglovchi tomonidan biror-bir harakatni amalga oshirilishini talab qilib qolmasdan turli ma'nolarni ham ifodalash imkoniga ega. O'zbek tilida reklama matnlarida imperativlik ifodasi murakkabliklaridan biri xalqimizning mental xususiyatlari uzoq asrlar davomida shakllangani bois unda so'zlovchi (reklama egasi) ning fikri bayon ettirilgan nutqni to'g'ri talqin qilish va aniq xulosa chiqarish tinglovchidan katta mahorat va tajriba talab qilinadi. Shu bilan birga reklama egasiga imperativlikning ifodasini til imkoniyatlari va til sohiblari mental xususiyatlari uyg'unligida topa olish salohiyati kerak bo'ladi.

Bugun kunda mavzuga oid muammolar – reklama matnlariga taalluqli masalalarning katta qismi mental xususiyatlarni e'tiborga olmaslikdan kelib

chiqmoqda. Imperativlik til sohiblarining yosh, ijtimoiy maqom, gender kabi juda ko'plab jihatlarga oid masaladir. Boshqacha aytganda, imperativlik milliy xususiyatlar yaqqol aks etuvchi ko'zgidir.

Demak, reklama matnlarini tadqiqi hamda tahlili jarayonida shuni ta'kidlash lozimki, har bir shaxs (mavzudan kelib chiqqanda muassasa, shaxslar)ning undash etiketi u(lar)ning madaniyati ko'zgusi, xulosa asos mezon bo'lib, bu insonlarning muomala madaniyati, odob-axloqini ko'rsatadi va muloqotning samarali hamda muvaffaqiyatli chiqishiga xizmat qiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. *O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. To'rtinchi tom. – Toshkent: "O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2002.*

2. *Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. – Toshkent: "O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2002.*

3. *Абдулатов А. Кыргыз паремияларын когнитивдик-лингвистикалык өңүттө сыпаттоонун айрым проблемалары: Бишкек, 2008.*

4. *Ruscha-o'zbekcha lig'at. – Toshkent: O'zbek Sovet ensiklopediyasi Bosh redaksiyasi.*

5. *O'zbek tili grammatikasi. II – Toshkent: Fan, 1976*

6. *Изотов А. И. Функционально-семантическая категория императивности в современном чешском языке как прагмалингвистический феномен: Автореферат диссертации на соискание ученой степени доктора филологических наук. – Москва, 2007.*

7. <http://db.rulib.com/>

8. *Типология императивных конструкций / Под ред. Храковского В. С. . СПб.: Наука, 1992. . 301 с.; Беляева Е. И. Грамматика и прагматика побуждения: английский язык. Воронеж: Изд-во Воронежск. ун-та, 1992. . 167 с.; Крекич Й. Побудительные перформативные высказывания. . Szeged: Jgytf Kiadó, 1993. . 241 с.; Бирюлин Л. А. Семантика и прагматика русского императива. . Helsinki, 1994. . 229 с.; Храковский В. С., Володин А. П. Семантика и типология императива: Русский императив. .Л.: Наука, 1986. . 270 с.; [2-е изд., стереотипное.] М.: Едиториал УРСС, 2002. . 272 с.; Безяева М. Г. Семантика коммуникативного уровня звучащего языка: Волеизъявление и выражение желания говорящего в русском диалоге. .М.: Изд-во Моск. ун-та, 2002. 752 с.*



UDK: 81`373

## O'ZBEK VA QORAQALPOQ TILLARIDA AFFIKSATSIYA ORQALI FE'L YASALISHINING FARQLI XUSUSIYATLARI

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o'zbek va qoraqalpoq tillarida fe'llarning yasalishi va har ikki til orasida fe'l yasovchi affikslar orqali yasalgan fe'llarning farqli jihatlari ko'rsatib berilgan.

**Kalit so'zlar:** turkiy tillar, o'zbek tili, qoraqalpoq tili, fe'l yasalishi, affiksatsiya, fe'l yasovchi qo'shimchalar, sermahsul affikslar, kammahsul affikslar, yangi paydo bo'layotgan fe'llar.

**Аннотация:** В этой статье показана структура глаголов в узбекском и каракалпакском языках и различия между глаголами, образованными глагольными аффиксами между двумя языками.

**Ключевые слова:** тюркские языки, узбекский язык, каракалпакский язык, глагольное образование, аффиксация, глагольные аффиксы, продуктивные аффиксы, малопродуктивные аффиксы, возникающие глаголы.

**Annotation:** This article shows the structure of verbs in Uzbek and Karakalpak languages and the differences between verbs formed by verb affixes between the two languages.

**Key words:** Turkic languages, Uzbek language, Karakalpak language, verb formation, affixation, verb affixes, productive affixes, low-yielding affixes, emerging verbs.



Mehriyo  
TULASHEVA,  
Qoraqalpoq davlat  
universiteti,  
lingvistika: o'zbek tili  
magistranti

O'zbek va qoraqalpoq tillari kelib chiqishiga ko'ra bir o'zak ildizga borib tutashsa-da, ularning tovush tizimi, lug'at tarkibi va grammatik qurilishida tafovutlar mavjud. Xususan, so'z yasalishi sohasida, aniqrog'i, fe'l yasovchi qo'shimchalarni yordamida yasalgan so'zlarning tillararo semantik alomatlari, fe'l yasovchi qo'shimchalar doirasida sinonimiya hodisasining yuzaga kelishi bilan bog'liq farqlar va o'xshashliklar kuzatiladi.

Qadimgi turkiy til manbalaridan boshlab bugungi kungacha fe'llarni affiksatsiya usuli bilan yasalishi faol qo'llanmoqda. Ayrim affikslar qadimgi turkiy tilda qo'llangan holda hozirgacha yangi so'zlar yasashda davom etmoqda. Asrlar o'tishi va tilning rivojlanishi natijasida ayrim affikslar asos bilan birikib, ularni faqat etimologik lug'atlar yordamida diaxron aspektda o'rganish mumkin. Ayrim affikslar esa fonetik hodisaga uchragan.

O'zbek tilida fe'l yasovchi affikslar ot yasovchi va sifat yasovchilarga qaraganda anchagina oz miqdorda, ular 20 atrofidadir. Lekin oz miqdordagi bu affikslar yordamida juda ko'p miqdordagi fe'llar yasaladi. Lekin hozirgi o'zbek tilida -la va uning ishtirokida yuzaga kelgan -lan, -lash, -lantir, -lashtir affikslargina mahsulli fe'l yasovchilar sifatida xizmat qiladi. Boshqalari esa kam miqdorda yasaydi yoki umuman mahsulsiz affiksga aylangan [1].

Tadqiqotimizda, asosan, o'zbek va qoraqalpoq tillarida sermahsul fe'l yasovchi affikslar orqali yasalgan fe'llarning ma'nolari aksariyati o'xshash bo'lgani uchun,

ulardagi farqli jihatlariga e'tibor qaratishni lozim topdik.

-la/-le affiksi. Eng sermahsul fe'l yasovchi qo'shimcha bo'lib, nafaqat, o'zbek va qoraqalpoq tilida, balki boshqa turkiy tillarda ham eng mahsuldor affiks sanalib, fe'ldan boshqa barcha so'z turkumlariga oid so'zlardan, undov va taqlid so'zlardan fe'l yasaydi. Qadimgi turkiy tilda ham, eski turkiy tilda ham so'z yasash imkoniyati keng bo'lganini qadimgi manbalar orqali ham bilish mumkin. Har ikki tilda ham -la affiksidan fe'l yasaliş tiplari deyarli o'xshash. Quyidagi o'rinlarda ularning farqli jihatlarini kuzatish mumkin:

Nutqqa oid narsa-tushunchalarni anglatuvchi so'zlardan -la affiksi yordamida so'z yasaliş asosi bildirgan narsani nutqiy ifodalash kabi ma'noli fe'llar yasaydi: *so'zlamoq, ta'riflamoq, ta'birlamoq*. Shuningdek, *la'natlamoq, ma'qullamoq, o'zbekchalamoq* kabi fe'llar ham shu tipga mansub. Bunday yasama fe'llar u qadar ko'p emas. Qoraqalpoq tilida ham shu kabi yasama fe'llar mavjud: *taqmaqla, bayanla, xabarla, dağazala, g'iybatla* kabi yasama fe'llar qandaydir bir nutq yoki tovush chiqarish, xabar berishni bildiradi deya izohlanadi. O'zbek tilida e'lon (*dağaza*) va bayon (*bayan*) so'zlari -la fe'l yasovchi affiksini olmaydi. Odatda, bu so'zlar bilan qo'shma fe'l hosil qilinadi.

Qoraqalpoq tilida -la/le affiksi qo'shilgan otlarning ayrimlari fonetik o'zgarishga uchraydi. Masalan, "*uyqi, uri*" so'zlariga -la/le affikslari qo'shilsa, ularning keyingi tovushlari tushib qoladi: *uyqi-uyqlaw, uri-urlaw* fe'llari hosil bo'ladi. O'zbek tilida ham o'g'ri so'zidan o'g'irlamoq fe'li hosil qilinadi, tovush tushish hodisasi sodir bo'ladi. Uxlamoq fe'lini tahlil qilish uchun etimologik lug'atlarga murojaat qilish kerak. Chunki uxlamoq fe'li hozirgi kunda asos va qo'shimchaga ajralmaydigan tub fe'lga aylangan. Uning etimologik tahlili quyidagicha: uxlamoq fe'li qadimgi turkiy tilda *uyu-* fe'lidan -q qo'shimchasi bilan yasaliş, "uxlash holatida" ma'nosini anglatuvchi *uyuq-* so'zidan -la qo'shimchasi bilan yasalgan: *uyuq+la=uyuqla->yuqla->yuxla->uxla-*. Lekin uyqu so'zidan yasalgan, ayrim so'zlar o'zgarishga uchramagan: *uyqu-uyquchi-uyqu-li- uyqusiz-uyqusiramoq* kabi [3].

Qoraqalpoq tilida sanoq sonlardan (*birle*), *birewle, uşhle, beste* va jamlovchi sonlardan -la/-le affiksi yordamida fe'llar yasalişadi: *uşhewle, besewle* kabi. Bular yasama fe'l ma'nosiga o'tganda, dastlabki son ma'nosini saqlagan buyruq ma'nosidagi harakatni bildiradi. Bunday yasalmalarda asos orqali belgilangan predmetni qandaydir bir miqdorda guruhlariga bo'linish ma'nolarini bildiradi: *birle, ekewle, uşhewle* kabi. Hozirgi qoraqalpoq tilida *birle, uşhle* fe'llari paxta va boshqa ekinlarni "nihollarini siyraklatish, siyraklab yulish" ma'nolarini anglatadi. *Ekewle, uşhewle* fe'llari ikki yoki uch odam birgalashib ishlangan ish-harakatni bildiradi [2].

Jamlovchi sonlarga qo'shilgan -la/-le affiksi "birikish, kuch qo'shish" ma'nosini anglatadigan fe'llar yasaydi. O'zbek tilida esa sonning ma'no guruhlaridan -la affiksi vositasida fe'l yasaliş holatlari yo'q.

Bor, yo'q so'zlariga ham -la/-le affikslari har ikki tilda ham qo'shib, yangi so'zlar hosil qilgan, biroq asosdan uzoqroq ma'no anglatadi. O'zbek tilida *borlamoq* - xabar olmoq, hol-ahvol so'ramoq kabi ma'nolarda shevada qo'llaniladi. *Yo'qlamoq* so'zi esa "biror munosabat bilan so'rab-surishtir, hol-ahvol so'ragani bormoq yoki kelmoq" ma'nosini anglatadi. Bu fe'l eski o'zbek tilida "mavjud emas" ma'nosini anglatgan "yo'q" so'zidan -la vositasida yasalgan. Qadimgi turkiy tilda "yo'g'la" fe'li mavjud bo'lib, "o'lgan kishiga atab xotirlash marosimi o'tkazmoq" ma'nosi anglatgan [3].

Qoraqalpoq tilida esa "barla" fe'li "*awıspalı mánisinde kelip, bir nárseni barlaw mánisinde qollaniladi: Muğallim oqıwshılardı barladı*". "*Bir is-hareketti, hal jağdaydı, awhaldı, hádiysenni biliw, abaylaw, baqlaw, sinaw, qadağalaw*" kabi ma'noni anglatadi: *Erpolat shıy esikti ásten asğıp, ergenektiñ qulpın barladı*.

-lash affiksi bilan yasalgan fe'llarda o'zlik nisbatga xos xususiyatlar sezilib turadi va bu fe'llarda -lan affiksi yordamida yasalgan fe'llar o'rtasida ma'no jihatdan ma'lum umumiyliklar bor. Shuning uchun ham ba'zan ayni bir so'zdan aynan bir ma'noli fe'lning -lan yoki -lash affiksi yordamida yasaliş hollari uchrab turadi: *asabiylanmoq-asabiylashmoq, ravshanlanmoq-ravshanlashmoq, xiralanmoq-xiralashmoq, qimmatlanmoq-qimmatlashmoq* kabi. Qoraqalpoq tilida ham bu jarayonni ko'rish mumkin: *aktivlen-aktivles* kabi.

Yaqin davrlarda yuzaga kelgan, rus tili va boshqa o'zlashgan so'zlardan hosil qilinadigan harakat nomi tarzida qo'llanadigan *kreditlash, demokratlash, avtomatlash, intensivlash, ixtisoslash* kabi so'zlar uchraydiki, hozirda bu yasaliş kamayib, o'rnini -lashtir affiksiga bo'shatib bermoqda. Qoraqalpoq tilida ham *aktivles, gazles, avtomatlas, elektrles* kabi rus tilidan hosil bo'lgan yasalmalar qo'llaniladi.

Ayrim yasalmalar -la fe'l yasovchi va -sh birgalik nisbat shaklini yasovchi affiksining birikishidan hosil bo'lgan, lekin ajralmas holatga kelgan: so'z yasaliş asosidan anglashilgan narsa, ish-harakatni qilish ma'nosini bildiradi: *musobaqalashmoq, ko'maklashmoq, dardlashmoq* kabi, hozirda og'zaki nutq va reklamalarda uchrayotgan *smslashmoq, imolashmoq, xrusteamlashmoq* kabi so'zlarda ham birgalik ma'nosi, ish-harakatda birdan ortiq shaxsning o'zaro ishtiroki seziladi. Ayrim yasalmalar ham borki, ularda yakka bajaruvchiga xos holat seziladi: *qulaylashmoq-iykemles, joylashmoq-jaylas, ornalas* ya'ni, o'rnashmoq fe'li qoraqalpoq tilida -las affiksi orqali hosil qilinadi.

-lashtir affiksi yordamida fe'l yasalishi 20-yillardayoq faol holat bo'lgan. Murakkab holatda ajralmas affiks va orttirma nisbatni hosil qiluvchi fe'l shakllari sifatida omonimlikni hosil qiladi. Hozirgi o'zbek adabiy tilida fe'l yasovchi sermahsul affikslardan biriga aylandi. Mazkur affiksdan hosil bo'lgan fe'llarga e'tibor qaratisa, bu fe'llarning aksariyati boshqa tillardan kirgan so'zlardir. *kompyuterlashtirmoq, modullashtirmoq, ekranlashtirmoq* kabi.

*Hüjjetlestir, dramalastir, demokratizatsiyalastir, ionlastir* kabi yasama so'zlar qoraqalpoq tilida shu xususiyatga ko'ra yasalgan. Qoraqalpoq tili faktlarining ko'rsatishicha, -lastir/-lestir affiksining paydo bo'lishi rus tilining to'g'ridan to'g'ri ta'siri natijasi bo'lib, uning yordamida fe'l yasalishining ortib, yasama fe'llarning ko'payishi ilm-fan, texnika va boshqa sohalar bilan bog'liq [2].

-lantir affiksi ham o'zbek tilida fe'l yasovchi sifatida 20-yillardayoq faol qo'llana boshlagan. Lekin o'sha davrlarda bu affiksdan foydalanishda xatolik, me'yorga zidlik holatlari ham uchrab turgan: noto'g'ri ravishda -la yoki -lashtir affikslari o'rnida qo'llanishi yoki noto'g'ri fe'l yasash holatlarini kuzatish mumkin: "*Har bir istakni unumli ravishda natijalantirishka yo'l ochdi.*" ["Maorif va o'qit.", 1928. 5-son, 15-bet]. *Ishni malakalandirishda IV sinfdagidan ko'ra yuqoriroq asos tutish kerak* ["Maorif va o'qit.", 1926. 12-son, 18-bet].

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, hozirgi o'zbek va qoraqalpoq adabiy tilida -la/-le va uning ishtirokida yuzaga kelgan -lan/-len, -lash/les/-las; -lantir/-lentir, -lashtir/-lestir affikslari sermahsul affikslar bo'lib, fe'l yasalishining asosiy tiplarini ular yordamida yasalgan va yasalayotgan fe'llar tashkil etadi. Yana shuni qo'shimcha qilib o'tishni joiz deb bildik, hozirda ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda, so'zlashuv tilida hali "O'zbek tili izohli lug'ati"dan joy olmagan yangi ma'noli fe'llar qo'llanilmoqda: *Amerika Qo'shma Shtatlari va Yevropada hakerlik kiberjinoiyat tarzida malakalanadi. Kamaytirib ko'rsatish takroran aniqlanganda, ushbu harakatlar soliq to'lashdan bo'yin tovlash sifatida malakalanadi.* Malakalanadi so'zlari ma'no jihatdan yuqoridagi ikki gapda "sifatida qaraladi" degan ma'noni anglatgandek. Lekin bu gapda muallif tomonidan izoh bilan qavs ichida berilgan: *birinchi bosqichda-talabgorlar oldindan malakalanadi (saralanadi).* Bu gaplarda qo'llangan fe'l bilan "malaka" so'zining lug'aviy ma'nosi orasida yaqinlik ko'rmadik ("malaka" arabcha-qobiliyat, iste'dod, xususiyat, odat).

Ijtimoiy tarmoqlardan kelayotgan axborot xabarlarida ham "ochiqlandi" so'zi qo'llanilmoqda: *Koronavirus bilan qancha odamlar kasallangani ochiqlandi; O'zbekistonda qancha oltin zahirasi borligi ochiqlandi* kabi. Ochiqlandi so'zi haqida maqolalarimizdan birida batafsil to'xtalganmiz [4]. Odatda, yangi paydo bo'layotgan so'zlar eng avvalo, publitsistik uslubda yoki ma'lum bir ijodkoming o'ziga xos nutqidan paydo bo'ladi.

Gazeta-jurnal sahifalarini kuzatganimizda *optimallashtirish, moliyalashtirish, rag'batlantirish, subsidiyalashtirish, formallashtirish, loyihalashtir* kabi -lashtir affiksi bilan hosil qilingan fe'lning harakat nomi tarzida ko'p qo'llanayotgan fe'l shakllarini uchratdik.

Ayrim affikslar so'z tarkibiga singishib ketgan, affiks borligi sezilib tursa ham, ma'noli bo'laklarga ajratganda, asos mustaqil holatda ma'no anglatmaydi, affiks bilan qo'shilgan holda ma'no kasb etadi: Etimologik lug'atlarni kuzatib, shunday xulosaga kelish mumkin-ki, *serpa, so'ra, tara, tarqa, taqa* kabi fe'llar tarkibidagi -a affiksi fe'llarga qo'shilib, ma'no kuchaytirish vazifasini bajarsa, *sava, sayla, saqla, sina, siqta, tila, tira, tirna, titra, javra, to'sha* kabi so'zlarga -a affiksi tarixan asosi ot, sifat, taqlid so'zlarga qo'shilib, so'z yasovchi vazifani bajarib fe'llar hosil qilgan. Lekin hozirda bu so'zlar tub so'z bo'lib, bir butun sanaladi. Qoraqalpoq tilida ham aslida yasama, lekin hozirgi kunda morfologik jihatdan bo'linmaydigan fe'llar bor: *súye, puta, tuwra, túle, shide, sora, tara, tala, yama* va boshqalarni misol qilish mumkin.

Hozirda fe'l yasovchi affikslar bilan o'z qatlamga oid so'zlar bilan ham, fan-texnika taraqqiyoti natijasida tilimizga kirib kelayotgan yangi so'zlardan ham yangi yasalmalar bilan boyib, o'zbek tilining lug'at boyligi oshib bormoqda.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. *Ходжиев А. Ўзбек тили сўз ясашиши. Т., Ўқитувчи. 1989*
2. "*Маориф ва о'қитувчи*" *журнали. 1926-28-йиллар*
3. *Пахратдинов Қ. Сейтназаров И. Қарақалпақ тилиндеги сөз жасаушы аффикслер. Нөкис. 2010*
4. *Рахматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологияси. 1-жилд., Университет., Тошкент-2000 й*
5. *Tulasheva M., Kazakov I. Affiksatsiya usulida yasalayotgan ayrim fe'llar haqida//Magistrlarning ilimiy miqyotlarini toplami. Nokis 2021.*

# ИММУНОТЕРАПИЯ РАКА ПИЩЕВОДА

**Мэлс КАБУЛОВ,**  
доктор медицинских  
наук, профессор,  
заслуженный  
деятель науки РК

**Базарбай  
ОРАЗАЛИЕВ,**  
кандидат  
медицинских наук,  
заведующий экстрен-  
ного отделения  
Берунийского РМО  
Минздрава РК

**Гафур ОРАЗАЛИЕВ,**  
кандидат  
медицинских наук,  
врач-хирург высшей  
категории,  
докторант  
Республиканского  
специализированного  
научно-практического  
центра хирургии им. а-  
кадемика  
В. В. Вахидова

**Тимур КАБУЛОВ,**  
врач-хирург  
Республиканского  
специализированного  
научно-практического  
центра хирургии им. а-  
кадемика В.В.Вахидова,  
доктор философии по  
медицине

**Аннотация:** Ушбу мақолада дунёда энг долзарб муаммо бўлган қизилўнғач саратони ва уни иммунотерапевтик даволаш услубини амалиётта қўллаш қиёсий тақлил қилинган. Бу касалликнинг Қорақалпоғистон Республикаси халқи орасида кўп тарқалганлиги ва ўлимчиликнинг юқори даражада бўлиши (60% беморлар ташхис қўйилган йили бир йил давомида ҳаётдан кўз юмиши) даволашнинг янги услубларини амалиётга тадбиқ қилишни ҳаёт тақозо қилмоқда. Шу сабабли онкологик касалликларини даволашдаги янги революцион услуби – иммунотерапия тўғрисида кенг маълумот берилмоқда ва уни қўллашдан кейин 2-3 йил давомида беморларнинг яшаши 30-50% чўзилгани эътироф этилмоқда. Иммунотерапияни қўллашда асоратларнинг камлиги ва даволашнинг юмшоқ ўтиши тасдиқланган.

**Калт сўзлар:** қизилўнғач саратони, иммунотерапия, даволаш услуби, бемор, яшаш муддати.

**Аннотация:** В настоящей статье сравнительно анализированы об эффективности иммунотерапевтического лечение рака пищевода. Это заболевание является актуальной проблемой в мировом масштабе, особенно для Республики Каракалпакстан, где среди население наблюдается высокая заболеваемость и односторонняя (60% больных умирающих в течение 1 года с момента установления диагноза). Это обязательство диктует необходимости внедрения новых методов лечения. Поэтому широкая информация об иммунотерапии рака пищевода – которая признана революционным методом современной онкологии является жизненно необходимой. После применения иммунотерапии в лечении больных раком пищевода удлиняется 2-3 летняя выживаемость на 30-50%. После иммунотерапии осложнения наблюдается редко и больные переносят более мягко.

**Ключевые слова:** рак пищевода, иммунотерапия, методы лечения и продолжительности жизни больных.

**Annotation:** This article provides a comparative analysis of esophageal cancer, which is the most pressing problem in the world, and its practical application of immunotherapeutic treatment. The high prevalence of this disease among the population of the Republic of Karakalpakstan and the high mortality rate (60% of patients died within a year of diagnosis) call for the implementation of new methods of treatment.

Therefore, a new revolutionary method in the treatment of oncological diseases – immunotherapy – is widely reported, and it is recognized that the survival of patients is increased by 30-50% in 2-3 yeas after its application, good course of treatment is confirmed.

**Key words:** esophageal cancer, immunotherapy, treatment, patient, life expectancy.

По данным Международного Агентство по изучению рака (International Agency for Research on Cancer – IARC) в 185 государствах мира в 2020 году первично зарегистрировано 13,3 млн. больных со злокачественными новообразованиями. За этот же год умерли от рака 10 млн. человек [22].

В структуре онкозаболеваний рак пищевода в мире занимает восьмое место, а по смертности 6-ое место [14].

В республике Узбекистан в 2019 году заболеваемость раком пищевода на 100.000 нас составила 2,3, а в Республике Каракалпакстан – 7,2 [19].

Рак пищевода является наиболее агрессивной злокачественной опухолью с крайне неблагоприятным прогнозом: смертность в первом же году жизни с момента установления диагноза составляет 60% [11].

В настоящее время применяются более 20 методов лечения рака пищевода. В данной статье мы решили представить мировые успехи по иммунотерапии рака пищевода.

Иммунная система состоит из различных типов специализированных белых кровяных клеток (в том числе клеток, называемых Лимфоцитами) которые атакуют патогенные микроорганизмы и других “захватчиков”. В центре внимания современной иммунотерапии рака находятся два типа лимфоцитов: Т – клетки и естественные клетки – киллеры. (NK - клетки) [8, 17].

#### **Что такое иммунотерапия?**

Иммунотерапия рака – новейший перспективный метод лечения онкозаболеваний, принцип которого заключается в активации иммунной системы и восстановление её способностей атаковать и уничтожить злокачественные клетки, а также предотвращает метастазирование (распространение рака).

Иммунотерапия помогает нашему организму тремя ключевыми способами:

1. Стимулирует иммунную систему, чтобы повысить интенсивность её атаки на опухолевые клетки;

2. Помогает организму с дополнительными компонентами, способствующими им лучше бороться;


3. Обучает иммунную систему распознавать или диагностировать определение клетки, которые являются злокачественными или аномальными по своей природе.

Иммунотерапия может похвастаться более чем 100 летней историей. Толчком послужили открытие хирурга из США Вильяма Коли, сделанное им еще в конце XIX века. Врач обнаружил, что у онкопациентов которые переболели скарлатиной, размеры опухоли стали уменьшаться. Это побудило

#### **Так выглядят два Т-лимфоцита, атакующие раковую клетку**

врача создать первую в мире вакцину против рака, основанную на ослабленных культурах возбудителя инфекции. Применение этого средства не вызвало заболевание, но стимулировало выработку противоопухолевых антител [8, 17].

В клинической онкологии иммунотерапию начали применять за последние 40 лет и впервые были использованы при лечении лейкоза и лимфомы человека [12]. Врачи онкоиммунологи и иммунотерапевты рекомендуют в основном 4 различных типов иммунотерапии.



1. Моноклональные антитела, которые создаются в лаборатории и вводятся с антителами больного, чтобы помочь бороться с раком [16].

2. Онкологическая вирусная терапия [2].

3. Т-клеточная терапия [4].

4. Противораковые вакцины [1].

Большинство исследователей – онкоиммунологи констатируют, что после иммунотерапии получены революционные результаты в лечении онкологических заболеваний. Подтверждением выше приведенных слов является, что Нобелевскую премию по медицине за 2018 год получили американец Джеймс Аллисон и японец Тасуку Хондзё, за революционную методику иммунотерапии раковых заболеваний с использованием Т-клеток. Им удалось обнаружить, что иммунитет пациента, можно “настроить” на борьбу с онкологическими заболеваниями [4].

Эпохальные открытия этих двух лауреатов стали поворотным пунктом в нашей борьбе с раком” - говорится в решении Нобелевского комитета.

Иммунотерапия применяется за последние 40 лет и широко применяются при 16 видах злокачественных опухолей человека, в том числе при ране яичников, раке легкого, молочной железы, меланоме, раке желудка, предстательной железы, раке почки, лейкозе, гемобластозах, раке пищевода и других локализаций [5, 10, 17].



**В таблице приведены точки приложения иммуноонкологических препаратов, а также опухоли при которых они уже применяются**  
**Фото двух лауреатов Нобелевской премии**

В настоящей работе более подробно излагается возможности и эффективности иммунотерапии при лечении больных раком пищевода, который по чистоте занимает восьмое место в мире. Данное заболевание наиболее широко распространен в Азиатском регионе, так называемый “азиатский пояс”, куда относятся Китай, Япония, Иран, Туркменистан, Казахстан и Каракалпакстан [11].

Ввиду того, что рак пищевода является наиболее агрессивной злокачественной опухолью, онкологи, хирурги, радиологи, рентгенологи, иммунологи, генетики, молекулярные биологи и инженерно-технические сотрудники создают новые методы диагностики и лечения рака пищевода.

Для организации и использования в клинике иммунотерапию нужны следующие ключевые лаборатории: 1) гистологическая; 2) иммуно-гистохимическая; 3) молекулярно-генетическая.

Механизм развития рака пищевода настолько сложен, что в науке известно 5 под типов гистологической структуры и поэтому высокая мутационная нагрузка опухолей пищевода вырабатывают большое количество опухолевого белка – рецептора HER-2 (Human epidermal growth factor reception-2) и PD-L1 экспрессии. PD-L1 – это трансмембранный белок, легенд к рецептору PD-1. При связывание к рецептору PD-1 на цитотоксических лимфоцитах блокирует их цитотоксическую активность.

PD-1 в норме участвует в физиологическом механизме подавления аутоиммунных реакций. При экспрессии PD-L1 опухолевыми клетками данный белок участвует в механизмах ускользания от иммунного контроля. Это обстоятельство за-

трудняет создать противоопухолевые иммунные препараты. На сегодняшний день в мире разработаны 21 вид противоопухолевых иммунопрепаратов (лекарств), которые используются в дополнительном лечении больных раком пищевода [5, 10]. В настоящее время доступна нам лишь 4 препарата, они полагают собственной иммунной системе человека находить и уничтожить раковые клетки. Наиболее эффективными считаются препараты таргетной терапии (прямое попадание противоопухолевых препаратов только на мишень опухолевой клетки) которые нацелены на белки, рецепторы HER-2 и против рецептора PD-L1 при положительной опухолевой экспрессии. К таким препаратом относятся: Ниволумаб, пембролизумаб (Китруда), трастузумаб, рамуцирумаб, которые блокируя PD-1 повышают иммунный ответ против раковых клеток, что помогает уменьшить опухоли в размере или замедлить их рост [13].

По данным А.И.Буйнаковой [1] применение иммунопрепарата Ниволумаб при раке пищевода в два раза увеличили время до рецидива заболевания – до 22,4 месяца по сравнению с 11 месяцами у пациентов принимавших плацебо.

Самый последний разрешенный иммунотерапевтический препарат Китруда (пембролизумаб) была применена у 628 больных с местнораспространенным, неоперабельным плоскоклеточным раком пищевода и аденокарциномой пищеводно-желудочного перехода. Лечение были успешными в группе больных раком пищевода с опухолевой экспрессией PD – L1 (за счет блокирования рецептора), если заболевание прогрессировало после как минимум, одной линии системной против опухолевой терапии. Следует заметить, что некоторые виды рака пищевода содержат слишком много белка HER 2 на поверхности опухолевых клеток, которые может способствовать росту опухолевых клеток [13].

Израильские онкологи [7] широко применяют трастузумаб при лечении рака пищевода. Этот лекарственный – конъюгат антитело лекарственное средство, который представляет собой моноклональное антитело, связанное с химиотерапевтическим препаратом. В этом случае анти – HER-2 – антитело действует как сигнал самонаведения, прикрепляясь к белку HER-2 на раковых клетках, доставляя химиотерапию непосредственно им. Этот препарат вводится внутривенно 1 раз в 3 недели. Это лечение относится к группе таргетной иммунотерапии, где доступен тест опухоли на её чувствительность к разным иммунным препаратам. Количество курсов подбирает врач индивидуально.

В разработке и внедрении персонализированной иммунотерапии при лечении рака пищевода основную роль отводится применению в сово-

купности методов молекулярной онкологии, которая может дать четкую картину происходящих в действительности процессов в опухоли и выбора назначаемых препаратов.

Поэтому будущее медицины раковых заболеваний все больше и больше движется в направлении персонализированной (индивидуальной) терапии опухолей. Потому что не у всех пациентов с одним и тем же типом рака лекарственные противоопухолевые препараты одинаково эффективны. Одна опухоль не аналогична другой, различные генетические вариации могут изменить ответ раковой опухоли на лекарственные препараты или сделать её более уязвимой к определенным веществам [18, 20].

**Заключение:** Таким образом, из представленных данных стало очевидным, что иммунотерапия – один из прорывных методов лечения рака. При лечении рака пищевода существуют уже несколько препаратов (Новолумаб, Китруда, ипилимумаб, трастузумаб, и др), которые назначаются на этапе неoadьювантной химиолучевой терапии или адьювантной терапии (после операции, химиолучевой терапии) с целью уничтожения раковых клеток и микрометастатических очагов после удаления опухоли. Иммунотерапия переносится более легко, признаки при интоксикации гораздо меньше, чем химиотерапии, особенно у больных с положительной экспрессией HER-2 и PD-L1. При моноклональной иммунотерапии эффективность лечения больных достигает 30%, а при двойной иммунотерапии до 55% пациентов раком пищевода.

В будущем ученые онкоиммунологи, молекулярные биологи и генетики осуществляют поиск и разрабатывают персонализированную терапию рака с помощью определения тестов, каждой опухоли изменений в геноме, и лечение заболевания препаратом, который обеспечивает лучший результат в соответствии с обнаруженным изменением гена.

#### Список использованных литературы:

1. Балдуева И.А. Противоопухолевые вакцины //Практическая онкология. 2003. Т.4. №3. – с. 157–166.
2. Вирусная терапия рака: новый уровень //stimul-online. 17.09.2018
3. Волков Н.М. Новые и перспективные комбинации иммунотерапевтических препаратов: TIGIT //Практическая онкология. 2021. Т.22. №1. – с. 22-32.
4. Воронов Н. Нобелевскую премию по медицине 2018 года присудили за прорыв в лечении рака. РИА Новости 1.10.2018 // Интернет: [www.bbc.com](http://www.bbc.com).
5. Жуков Н.В. Иммунотерапия рака в вопросах и ответах. //onconet-online, 2020.
6. Иммунотерапия ниволумабом одобрена у пациентов с раком пищевода после хирургического лечения и химиолучевой терапии // <https://hadassah.moscow>
7. Иммунотерапия рака пищевода в Израиле // [www.resultmed.com](http://www.resultmed.com)
8. Иммунология рака – революция в лечении онкозаболеваний. Добрый прогноз. //dobro-clinic-immnote
9. Иммунотерапия: перспектива, типы, лечение. Плюсы и минусы // <https://ghealth121.com>
10. Имянитов Е.Н. Фундаментальная онкология в 2020 году: обзор наиболее интересных открытий //Практическая онкология. 2021. Т.22. №1. – с. 1-8.
11. Кабулов М.К. Ранний рак пищевода. – Ташкент: Изд. “ФАН” АН РУз, 2005. – с. 195.
12. Кадагидзе З.Г., Черткова А.И. Иммунная система и рак //Практическая онкология. 2016. Т.14. №2. – с. 62-73.
13. Китруда разрешен для лечения рака пищевода // <https://mosmedpreparaty.ru/>
14. Мерабшвили В.М. Динамика наблюдаемой и относительной выживаемости больных раком пищевода (популяционное исследование) // Вопросы онкологии, 2013. 59(2). – с. 41-46.
15. Микаэль Хор-Ной. Станет ли иммунотерапия панацеей от рака? // <http://114u.org.il/blog/about-israel> 17.02.2019.
16. Моисеенко В.М. Моноклональные антитела в лечении злокачественных опухолей // Практическая онкология. 2003. Т.4. №3. – с. 148-156.
17. Моисеенко В.М., Волков Н.М. История иммунотерапии рака //Практическая онкология. 2016. Т.17. №2. – с. 54-61.
18. Персонализированная терапия раковых заболеваний. Новости в онкологии //med-kontakt.ru
19. Тилляшайхов М.Н., Ибрагимов Ш.Н., Джанклич С.М. Состояние онкологической помощи населению республики Узбекистан в 2019 году. В сборнике. – Ташкент: Изд. “ФАН” АН РУз. 2020. – с. 165.
20. Федянин М.Ю. Персонализированная терапия в онкологии: настоящее и будущее //Злокачественные опухоли. 2015, №8. – с. 106-110.
21. Chau Zetae. Nivolumab plus ipilimumab or Nivo plus chemotherapy versus Chemo as first Line treatment for advanced esophageal squamous carcinoma (ESCC): First results of Check Mote 648 study. J.Clin. Jncol, 2021, 39, (Suppl, 15)
22. Sung H., Ferlay I., Siegel R et al. Global Cancer statistic 2020 CA Cancer L. Clin, 2021, 71(3). P. 209-248.

# MAKTAB AMALIYOTCHI PSIXOLOGI VA PEDAGOGIK JAMOANING O'SMIR YOSHDAGI O'QUVCHILAR BILAN ISHLASHI



**Umida ISMOILOVA**  
Qoraqalpog'iston  
Respublikasi,  
Beruniy tumani  
59-maktab amaliyotchi  
psixologi

**M**aktab psixologi, o'qituvchisi va umuman har bir tarbiyachi uchun bolalarning o'smirlik davri psixologiyasini bilish psixologik nuqtai nazardan ham pedagogik nuqtai nazardan ham muhimdir. Bu davrni biz yana o'tish davri ham deb ataymiz. O'smirlik davri asosan 11-15 yoshdagi bolalarni o'z ichiga qamrab oladi, ya'ni 5-8– sinf o'quvchilarini. O'smir o'quvchilarni ta'lim va tarbiya berish ishlarida uchraydigan ayrim qiyinchiliklar bu yoshdagi bolalarning psixik rivojlanishi va hususiyatlarini ba'zan yetarli darajada bilmaslikdan yoki inkor qilishdan kelib chiqadi. Kichik va katta yoshdagi maktab o'quvchilariga qaraganda o'smirlik yoshidagi bolalarni tarbiyalashda juda ko'p qiyinchiliklar bo'ladi. Chunki, kichik bolaning katta odamga aylanishi jarayoni juda qiyin kechadi. Bu jarayon o'smirlar psixologiyasining odamlar bilan bo'lgan munosabat formalari-ning jiddiy ravishda o'zgarishi hamda hayot sharoitining o'zgarishi bilan bog'liqdir. Bu davrda o'smirlarning o'z shaxsiy fikrlari paydo bo'ladi. Ularda o'z qadr-qimmatlari haqidagi tushuncha kengayadi. Ilmiy psixologiyaning aniqlashi bo'yicha o'smirlarning psixik taraqqiyotini harakatga keltiruvchi kuchlar, ularning faoliyatlari bilan tug'iladigan ehtiyojlar bilan bu ehtiyojlarni qondirish imkoniyatlari o'rtasidagi dialektik qarama-qarshiliklarni yuzaga kelishi va bartaraf qilinishidan iboratdir. Qarama-qarshiliklar ancha yuksak darajadagi psixik taraqqiyotini, ancha murakkab shakldagi faoliyat turlarini va shaxsning qator yangi psixologik xususiyatlarini tarkib toptirish orqali bartaraf qilishdan iboratdir. Shundan keyin psixik taraqqiyotning yuksakroq bosqichiga o'tiladi. Ana shu nuqtai nazardan o'smirlik yoshini yanada oydinroq qarab chiqaylik. Bola boshlang'ich sinfni tugatadi. Bolaning o'rta maktabda o'qishga o'tishi uning hayotida burilish davri hisoblanadi. O'smirlarning yangi ijtimoiy jihatdan tashkil topgan va rang-baranglantirilgan faoliyatni uning psixologik hamda shaxsning tarkib topishiga asos, sharoit va vosita xizmat qiladi. Shunday qilib, o'smirlarga ta'lim-tarbiya berishning yangi to'g'ri usullari hamda vositalarni topishi uchun o'smirlik yoshining o'ziga xos hususiyatlarini jismoniy va psixologik taraqqiyotini yaxshi bilishimiz kerak. O'smirlik yoshining mazmuniy xarakteristikasi vaqt o'tishi bilan o'zgarib boradi, chunki inson hayotining xususan ijtimoiy sharoitlari o'zgaradi.

Psixologiya taraqqiyotining biologik omillariga o'smirlar ongiga og'ir, ba'zan kuchi yetmaydigan bo'lib tushadigan, ularni jiddiy psixik inqirozga va hayajonga soladigan, masalan: o'smirlar uchun xarakterli bo'lgan norozilik, qo'pollik, qaysarlik, o'z-o'zini analiz qilishga moyillik subyektiv olamga va shunga o'xshash xislatlarni keltiradigan jinsiy yetilishga nihoyatda katta ahamiyat beradilar. Jinsiy yetilish munosabati bilan paydo bo'ladigan yangi sezgilar fikrlar, maylliklar, kechinmalar o'smirlar ongida hukmron bo'ladi. Ularning xulq-atvorini belgilaydi. Mana, shu tariqa oqibat natijada o'smirlarning psixologik qiyofalari asosan yolg'iz sof biologik omil deb qaraladi. Psixologlarning fikricha yosh psixologik xususi-



yatlari faqatgina yolg'iz biologik jihatidan yetilishi va taraqqiyot yetilishining natijasi bo'lmay, balki bolaning ijtimoiy hayot sharoitlari va faoliyatlarining o'zgarishi hamda bu jihatdan yangi ijtimoiy omillarning paydo bo'lishi natijasida o'smirning taraqqiyotiga va unga beriladigan maktabdagi ta'lim va tarbiya berishni aniq tashkil qilish o'smirlarning konkret hayot sharoitlari va faoliyatning mahsuli deb qarab bo'lmaydi.

Boshqacha qilib aytganda ijtimoiy sharoitlar rolini konkret hayot sharoitlari va faoliyatlarining roliga almashtirib bo'lmaydi. Mana shu yuqorida aytilganlardan shunday xulosa qilish mumkinki, o'smirning yoshi va uning xususiyatlari absolyut ahamiyat kasb etmaydi, shu munosabat bilan o'smirlik yoshi mutlaqo aniq ma'lum va absolyut chegara hamda xarakteristikaga ega emas, bu yerda ancha muhim bo'lgan ma'lum fikrlar bor. Bu farqlarni konkret ijtimoiy omillarning ta'siri bilan va o'smirlarga beriladigan turli ta'lim va tarbiya sharoitlarining ta'siri bilan tushuntirish mumkin. Taraqqiyotning asosiy yo'nalishi bolaning o'smirlik davridagi taraqqiyotining asosiy xarakteristikasini ajratish mumkin. O'smirlik davri organizmning jo'shqin o'sish davridir. Bu davrda tananing intensiv ravishda rivojlanishi yuzaga keladi. Skeletning suyaklanish jarayoni davom etadi. O'smirlarning yoshi ham jismoniy psixik xususiyatga egadir, organizm Pavlov ta'limotiga ko'ra, bir butun sitsemadan iborat bo'lib, bunda barcha to'qimalar va organlar fiziologik jarayonlar uzviy ravishda bir-biri bilan bog'langan bo'ladi.

O'qituvchilar va sinf rahbarlari dastavval shuni chuqur anglashlari lozimki, jinsiy yetilish organizmning jismoniy taraqqiyotiga ta'sir qilishda ularning psixik rivojlanishiga ham katta ta'sir ko'rsatadi. O'smirlarda jinsiy yetilish bilan birga shu paytgacha ularga noma'lum bo'lgan qandaydir hislar, kechinmalar qarama-qarshi jinsga spetsifik qiziqish, noma'lum mazmundagi kitoblarga qiziqishlarning paydo bo'lishi tabiiydir. O'smirlik davridan azariy tafakkur yuqori ahamiyatga ega bo'la boshlaydi. Chunki bu davrdagi o'quvchilar atrof-olamdagi bog'lanishlar mazmunini yuqori darajada bilishga harakat qiladilar. Bu davrda o'smirning bilishga bo'lgan qiziqishida progress sodir bo'ladi. Ilmiy nazariy bilimlarning egallab olinishi tafakkurning rivojlanishiga olib keladi. Buning ta'sirida isbot, dalillar bilan fikrlash qobiliyati rivojlanadi. Unda deduktiv xulosalar chiqarishga qobiliyat paydo bo'ladi. Maktabda o'qitiladigan fanlar o'smir uchun o'z

taxminlarini yuzaga keltirish yoki tekshirish uchun sharoit bo'lib xizmat qiladi J.Piajening ta'kidlashicha, "Ijtimoiy hayot uch narsaning ta'siri – til, mazmun, qoidalar asosida shakllantiriladi". Bu borada o'zlashtirilgan ijtimoiy munosabatlar o'z-o'zidan tafakkurini yangi imkoniyatlarini yaratadi. 11-12 yoshdan boshlab o'smir endi mantiqiy fikrlab harakat qila boshlaydi. O'smir bu yoshda xuddi kattalar singari keng qamrovli ta'lim olishni o'rgana boshlaydi. O'smir tafakkurning nazariy darajaga qanchalik tez ko'tarila olishi, o'quv materiallarini tez va chuqur egallashi uning intellektini ham rivojlanishini belgilab beradi. O'smirlik davri yuqori darajadagi intellektual faollik bilan farqlanadi. Bu faollik o'ta qiziquvchanlik hamda atrof-dagilarga ko'zlayotgatlarni namoyish etish, shuningdek, ularda yuqori baho olish ehtiyojining mavjudligi bilan belgilanadi o'smirning kattalarga beradigan savollri mazmunli, mulohazali va aynan o'sha masala doirasida bo'ladi. Bu yoshdagi bolalar turli farazlarni keltira oladilar, taxminiy fikr yuritib, tadqiqot o'tkaza oladilar hamda ma'lum bir masala bo'yicha muqobil variantlarni taqqoslay oladilar. O'smir tafakkuri ko'pincha umumlashtirishga moyil bo'ladi. Respublikamizning bozor iqtisodi sharoitiga o'tishda kishilardagi amaliy tafakkurning ahamiyati oshmoqda. Amaliy tafakkur tizimiga quyidagi aqliy sifatlar kiradi:

– tadbirkorlik, tejamkorlik, hisob-kitoblik, yuzaga kelgan muammolarni tez yecha olishlik va boshqalar.

Ko'rsatilgan barcha sifatlar mavjud bo'lgan taqdiridagina amaliy tafakkurini rivojlangan deb hisoblash mumkin. Bu sifatlarni 1-sinfdan o'qituvchilarga rivojlantira borishni hayotda muhim, o'smirlik davrida ishbilarmonlik sifatini o'quvchilarning o'z-o'zini boshqarishni yo'lga qo'yishi umumiy foydali tadbirkorlik ishlarida ishtirok etishi orqali rivojlantirish mumkin. Shu va shunga o'xshash yuksak insoniy xususiyatlar va aniq kelajak maqsadini ko'ra bilgan o'smir o'quvchilarni ko'paytirish orqaligina maktab psixologi, pedagogik jamodagi tarbiyachilarni biz haqiqiy tarbiyachi deb atay olamiz.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Davletshin M.G. *Hozirgi zamon maktabining o'qituvchisi psixologiyasi*. –T.: "O'zbekiston" 1999. – 123 b
2. Goziyev E.G. *Oliy maktab psixologiyasi*. T, ToshDU, 2006 -212b.
3. Ziyonet.uz



## RESUME

In the corner of our magazine "Society " You will get acquainted with M. Israilov's article "the object of educational reforms in the development of civil society".

In "Philosophy" Z.Isakova's article" philosophical-irfanial analysis of time " was published.

In the" history " corner Sh.Allabergenov, A.Gulimbetov, N.Hayatova, A.Yoldoshev, G.Achilova, D.Jamolova, a number of scientists and researchers with their own interesting articles from each other, bring to us the information that history is known and unknown to us.

M. Madaeva, M.Babadjanov, Z.Kojikbaeva, N.Mamedov-Tagisay, Sh.Gulyamova, Sh.Hamroeva, M.Masharipov, F.Kenjaevs are delighted with their interesting articles in the section" Philology".

Under the" linguistics " corner E.Iskenderova, X. khaitovs' articles are covered.

You will get acquainted in sequential passages from the work "Qutadug'i bilig", one of the spiritual heritage that has reached us from our ancestors.

In the "Philosophy" you will get acquainted with M. Ashirov's article "the importance of the concepts of nationality, nationality and national self-awareness".